- Крюков М.В., Переломов Л.С., Сафронов М.В., Чебоксаров Н.Н. Древние китайцы в эпоху централизованных империй. М., 1983.
12. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. T.,2009.

## 2 Mavzu Qadimgi Gretsiya va Rimda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

### Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli

| O`quv vaqti: 80 minut  | Talaba soni 60 nafar   |
|--|--|
| <p><b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b></p> <p><b>Ma'ruza rejasi</b></p>   | <p>1. Prokseniya va amfiktioniya.</p> <p>2. Grek-fors urushlari. Makedoniyaning yuksa-lishi.</p> <p>3 Rimdagi xalqaro aloqalarning shakllari.</p> <p>4. Imperiya davri diplomatiyasi..</p>   |
| <p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i> Prokseniya va amfiktioniya. Grek-fors urushlari. Makedoniyaning yuksa-lishi. Rimdagi xalqaro aloqalarning shakllari. <i>haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i></p> |  |
| <p>Pedagogik vazifalar:</p> <p>Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.</p>  | <p>O`quv faoliyatining natijalari:</p> <p>Talabalar Prokseniya va amfiktioniya, Grek-fors urushlari. Makedoniyaning yuksa-lishi. Rimdagi xalqaro aloqalarning shakllari. Imperiya davri diplomatiyasi tarixi ma'lumotlarini konspektlashtiradilar.</p> |



|   |                    |
|---|--------------------|
| Ta'lim usullari:                        | “Klaster”, ma’ruza |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | Ommaviy            |
| Ta'lim vositalari                       | Slaydlar, marker   |
| Qayta aloqa usullari va vositalari      | Savol javob        |

## 2–mavzu: Qadimgi Gretsiyadagi va Rimdagi xalqaro munosabatlar va diplomatiya

### Reja:

1. Prokseniya va amfiktioniya.
2. Grek-fors urushlari. Makedoniyaning yuksalishi.
3. Rimdagi xalqaro aloqalarning shakllari.
4. Imperiya davri (eramizdan avvalgi I-V asrlar) diplomatiyasi.

**Prokseniya.** Qadimgi Gretsiyadagi tinch xalqaro aloqa va huquqning qadimiy shakllaridan biri bu **prokseniya**, ya’ni mehmondo’stlik hisoblanardi. Prokseniya alohida shaxslar, urug’lar, qabilalar va butun bir davlat o’rtasida amal qilardi. Qaysidir shaharda yashovchi kishi (proksen) boshqa bir shahardan kelgan odamni yoki elchini qabul qilib, uning ma’naviy majburiyatlarini o’z zimmasiga olar va u bilan o’zining mamlakati o’rtasida vositachi vazifasini bajarardi. O’z navbatida, proksen qaysi polis bilan bog’langan bo’lsa, shu polisdagi savdo, sud, soliq munosabatlarida o’ziga xos afzalliklarga ega bo’lgan. Diplomatik muzokaralar **proksenlar** orqali amalga oshirilgan; shaharga kelgan elchilar oldin o’zlarining prokseniga murojaat qilganlar. Prokseniya tartiblari qadimgi grek dunyosining xalqaro aloqalari asosiga qurilgan.

**Amfiktioniya.** Qadimgi xalqaro tartiblarning yana biri **amfiktioniya** bo’lgan. Alohida ulug’langan qandaydir ilohiy ibodatxona qoshida vujudga kelgan diniy ittifoqlar **amfiktioniyalar** deb atalgan. Bu ittifoqqa ibodatxona atrofida yashaydigan (**amfiktionlar** – atrofida yashovchi degan ma’noni bildirgan) qabilalar kirgan. Amfiktioniyalarning dastlabki vazifasi ilohlar sharafiga qurbonliklar qilish va bayramlar uyushtirish, ibodatxona va uning boyliklarini muhofaza qilish, shu bilan birgalikda muqaddas udumlarni buzib, shakkoklik qilganlarni jazolashdan iborat bo’lgan.

Qabilalar yig’ilib, bayram qilinayotgan paytlarda urush olib borish man’ etilgan va “**ilohiy totuvlik**” (**ieromeniya**) e’lon qilingan. SHu tariqa amfiktioniyalar xalqaro xarakterdagi diniy-siyosiy tartibga aylangan.

Qadimgi Gretsiyada bir qancha amfiktioniyalar mavjud bo’lgan. Eng qadimiy va ancha e’tiborli amfiktioniyalardan biri – **Delfa Fermopil amfiktioniyasi** bo’lgan. U ikki – Delfadagi Appolon ibodatxonasi qoshidagi Delfa va Dimetr ibodatxonasi qoshidagi Fermopil amfiktioniyasidan tashkil topgan. Delfa Fermopil amfiktioniyasi tarkibiga 12 ta qabila kirgan. Ularning har biri ikki ovozga ega bo’lgan.

Amfiktioniyaning Oliy organi **umumiy yig’ilish** hisoblangan. U yilda ikki marta: bahor va kuzda chaqirilgan. Majlis dastlab Fermopilda, keyin Delfada

o'tkazilgan. Umumiy yig'ilish qaroriga barcha amfiktionlar amal qilishi majburiy bo'lgan. Yig'ilishning vakolatli shaxslari, ya'ni barcha ishlarni boshqaruvchilar **ieromnemonlar** deb atalgan. Ieromnemonlar amfiktioniyaning 24 ovozigaga ega bo'lganlar. Ieromnemonlarning asosiy vazifasi "ilohiy totuvlik"ni nazorat qilib borish va diniy bayramlarni o'tkazishdan iborat bo'lgan.

Delfa Fermopil amfiktioniyasining asosiy vazifasi – Delfadagi Appolon ibodatxonasi, uning boyliklari va er egaligini himoya qilishdan iborat bo'lgan. SHu bilan bir qatorda amfiktioniya uning barcha a'zolari amal qilishi lozim bo'lgan mashhur xalqaro qonunlarni o'rnatishga ham harakat qilgan. Agar qaysidir bir shahar o'z majburiyatlarini buzsa, ular "muqaddas urush"ni e'lon qilishi mumkin bo'lgan amfiktionlar sudiga havola etilgan. An'analarga ko'ra amfiktioniyaning ittifoqdosh davlatlarning ichki ishlariga aralashishi mumkin bo'lmagan. Grek qabilalari va polislari o'rtasida tuziladigan barcha turdagi siyosiy shartnomalar bevosita yoki bilvosita delfalik kohin tomonidan tasdiqlangan. Xalqaro huquq yuzasidan savollar tug'lsa, tomonlar Delfaga murojaat qilganlar. Delfa nafaqat diniy, balki ulkan moddiy qudratga ham ega bo'lgan. Delfa ixtiyorida shaharlardan yig'iladigan soliqlar evaziga, ziyoratchilardan, sudxo'rlik operatsiyalaridan keladigan foyda evaziga to'plangan katta miqdordagi kapital mavjud bo'lgan.

**Afina dengiz ittifoqi.** Er. avv. V asrda yunon dunyosining siyosiy va madaniy hayotining markazi Kichik Osiyo va Egey orollaridan Bolqon Yunonistoniga ko'chdi. Yunon viloyatlari ichida Attika viloyatining roli oshdi.

Arxaik davridan so'ng Yunonistonda siyosiy jihatdan kuchli o'zgarishlar yuz berdi. Er.avv. VI asr oxirida Sharqda qudratli Ahamoniylar davlati shakllandi va Yunon dunyosiga o'zining madaniy siyosiy ta'sirini otkaza boshladi. Er.avv. V asr oxirida forslar Kichik Osiyodagi barcha yunon chaharlari va Lidiya podsholigini bosib oldilar. Forslar Yunonistonni ham o'z ta'sir doirasiga olishga harakat qildilar. Fors qo'shinlari bir necha bor continental Yunonistonga bostirib kirdilar (er.avv. 495, 490 y) Yunon polislari forslarga nisbatan turli munosabatda bo'ldilar. Fessaliya va Beotiya forslarga do'stona munosabatda bo'ldilar. Sparta va Afina esa forslarga qarshi yunon shaharlari ittifoqini tashkil qildilar. Er. avv. 481 yil yunon shahar davlatlari Ellin ittifoqini tuzdilar. Dastlab ittifoqda Sparta etakchi rol o'ynaydi. Sparta vakili uning ishiga rahbarlik qildi. Lekin forslarga qarshi harbiy harakatlarda asosan flot hal qiluvchi o'rin egallar edi. Sparta o'zining flotiga ega bo'lmaganligi sababli, ittifoqda etakchi o'ringa da'vo qila olmas edi. Spartaliklardan rahbarlikni olish uchun Ioniya orollarining Afinaga yordam so'rab murojaat qilishi bahona bo'ldi. Afina atrofida bir necha yunon shaharlari birlashib, yangi siyosiy kuch birinchi Afina ittifoqini vujudga keltirdilar. Shu vaqtdan boshlab Sparta va Afina ittifoqchilari o'rtasidagi raqobat er. avv. V asrda Yunonistondagi voqealar rivojiga hal qiluvchi ta'sir o'tkazdi.

Afina ittifoqi tez orada mustahkam, uyushgan kuchli tashkilotga aylandi. Ittifoqning barcha qatnashchilari to'la huquqli bo'lib, uning xazina Delos orolidaagi Apollon ibodatxonasida joylashgan edi. Ittifoqchilar kengashiga har bir azo davlat bittadan vakil yubordilar. Afina Arxesy ittifoqi mablag'i 480 talant hajmida deb belgilanib, har bir ittifoqchi davlat umumiy xazinaga a'zolik to'lovi (foros)ni amalga oshirar edilar. Ittifoq ichida Afinaning harbiy-siyosiy va savdo mavqei

kuchayib ketdi. Barcha ittifoqchi yunon shaharlari o'zlarida Afina tosh- tarozisi va o'lchov birliklarini joriy qildilar, umumiy xazina Delosdan Afinaga ko'chirildi.

Afinaliklar ittifoqchilarning to'lov badali hisobiga Afinada mashxur Propiley va Parfenonni qurdilar. Afinaning bunday suistemolligi ittifoqchilarning norozilik chiqishlariga sabab bo'ldi. Ittifoqchilarning chiqishlari Afinaliklar tomonidan qattiq jazolandi. Masalan, jazolangan Tasos Afinaga o'zining barcha kemalarini berishga, devorlarini buzishga, tovon to'lash va eski a'zolik badalini to'lashni davom ettirishga majbur bo'ldi. Plutarxning yozishicha "Ittifoqchilar xiroj to'lovchilar va qullarga aylandilar". Afina o'z ta'sir doirasini yunon dunyosida muntazam ravishda kengaytirishda Spartani qarshiligiga uchradi. Forslar bilan umumiy g'alabadan keyin har ikki davlat o'rtasidagi raqobat keskinlashdi. Forslar Egey dengizidan siqib chiqarildi, u yana "Yunon Quli" bo'lib qoldi. "Kalliy" sulx shartnomasi (er.avv.447 y) dan so'ng forslarning dengiz floti Egey dengiziga kirishdan maxrum bo'ldi. Eron quruqlikdagi qo'shinlarini Kichik Osiyo qirg'og'idan uzoqda saqlab turish majburiyatini oldi.

Yunon-fors urushlaridan so'ng Afinadagi keskin siyosiy kurash natijasida radikal – demokratik kuchlar Perikl boshchiligida g'olib chiqdilar. Periklgacha Efial't isloxot o'tkazib, zodagonlar areopagining siyosiy mavqeini yo'qqa chiqardi. Areopag ixtiyorida faqat qasddan odam o'ldirish va diniy an'analarga qarshi jinoyatlarni ko'rib sud qilish vazifalarigina qoldi xolos. Areopagning siyosiy funksiyalari Klisfen joriy qilgan 500 lar kengashi va gelieyaga berildi.

Xalqaro savdodan manfaatdor bo'lgan Afina savdogar hunarmandlari va dengizchilari Afinani Yunon shaharlari ustidan etakchiligini mustahkamlashni talab qildilar. Ular ittifoqchilarga nisbatan qat'iy qattiq siyosatni, Afinaning yunon dunyosiga boshchilik qilishiga qarshi turadigan har qanday kuchlarga qarshi keskin kurash olib borishni talab qildilar. Afinada Kaeon tiraniyasi tugatilgandan so'ng demokratik harakat Afina siyosiy hayotida etakchi o'ringa chiqdi. 500 lar kengashining tasiri kuchaydi. Bu kengashda axolining kambag'al tabaqalarining ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratildi. Gelieda sudyalik vazifasini bajarish uchun yoki 500 lar kengashiga a'zolik uchun ish haqi to'lashni joriy qilinishi hatto kambag'allarga ham qura tashlash yo'li bilan saylanadigan 5 ming sudyadan biri bo'lishi imkoniyatini berdi. Shahar axolisining o'rta qatlami zevgitlarga arxont vazifasini bajarishga ruxsat berildi. Tashqi siyosatda Afina yunon dunyosiga hukmronlik qilish uchun faol harakat qildi Afinaning qo'shni viloyatlarga tazyiqi kuchayib Sparta bilan urush harakatlari olib borildi. Er. avv. 445 yil Sparta bilan 30 yil muddatga tinchlik shartnomasi imzolandi. Ammo tinchlik 14 yil davom etib keyin uzoqqa cho'zilgan urush barcha yunon shaharlarini zaiflashtirgan Peloponnes urushi boshlanib ketdi. Urush 27 yil davom etib ko'pgina shaharlar vayron bo'ldi. 10 minglab kishilar qurbon bo'ldilar. Urf odatlar, qonunlar paymol qilindi. Yunon dunyosi shundan so'ng tushkunlikka yuz tutdi.

**Grek-fors urushlari.** Qadimgi Gretsiya tarixining eng asosiy sahifalaridan biri grek-fors urushi hisoblanadi.

Eramizdan avvalgi VI asrning oxirlariga kelib, shiddatli ijtimoiy-siyosiy kuchga ega bo'lgan grek polislarining shakllanishi nihoyasiga etdi. Faqatgina eramizdan oldingi VI asrning oxirlarida grek polislariga kuchli qo'shni davlat –

ahamoniylar halokatli xavf sola boshladi. Kichik Osiyo va Egey dengizining sharqiy qismi orollarida joylashgan grek shaharlarini qo'lga kiritgan fors hukmdorlari Bolqon Gretsiyasi polislarini zabt etishni niyat qilgan edilar. Grek polisleri aholisi ko'p, yuksak madaniyatga ega savdo va hunarmandchilik shaharlari bo'lib, ular forslarning xazinasiga juda ko'p foyda keltirishi mumkin edi. Bolqon polislarining mavjudligiga forslarning xavfi eng halokatli xavf hisoblangan. Grek-fors urushi grek polislarining taqdirini hal qilishi mumkin edi. O'z mohiyatiga ko'ra bu urush turli xildagi ikki ijtimoiy-siyosiy tuzumning urushi hisoblanardi.

Ro'y berish sanasi eramizdan avvalgi 500-449 yillar deb ko'rsatiladigan grek-fors urushlari dunyo tarixida eng uzoq davom etgan harbiy to'qnashuvlardan biri bo'ldi.

Grek-fors urushida harbiy harakatlar to'xtovsiz olib borilmagan, balki bo'linib-bo'linib olib borilgan. Greklarning kuchli dushman ustidan qozongan g'alabasi ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy hayotining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan va eramizdan avvalgi V-IV asrlarda qadimgi grek tamaddunining yuksalishiga imkon yaratgan.

**Makedoniyaning yuksalishi.** Eramizdan avvalgi IV asr Makedoniyaning yuksalish asri bo'lishi bilan dong taratgan. Makedoniyaning grek dunyosida eng kuchli davlatga aylanishida atoqli siyosatchi, diplomat, Makedoniya podshohi **Filipp II** (eramizdan avv. 359-366 y.y.) asosiy rol o'ynagan.

Filipp II bir qator islohatlar o'tkazib, Makedoniyani grek dunyosining nafaqat kuchli davlatiga, balki uni fors hokimiyatining kuchli raqibiga ham aylantira olgan. Filipp II ning diplomatik va harbiy harakatlari natijasida eramizdan avvalgi 337-yilda Korinfdagi umumgrek konferentsiyasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan Makedoniya rahbarligi qaror topdi. 336 yilda Filipp II Kichik Osiyoga o'zining 10 ming askarli armiyasini jo'natgan, lekin ko'p o'tmay o'zi saroy amaldorlaridan biri tomonidan o'ldirilgan. SHundan so'ng Makedoniyaning hukmdori sifatida uning o'g'li Aleksandr e'lon qilingan. U bir vaqtning o'zida ham podshoh, ham Ellin ittifoqining rahbari hisoblanardi. Fors monarxiyasining tor-mor etilishi va ulkan hokimiyatning barpo etilishi Aleksandr Makedonskiy nomi bilan bog'liq. Grek tarixidagi ellinizm deb nomlangan davr Aleksandr Makedonskiy yurishlari davridan boshlanadi.

**Rimdagi xalqaro aloqalarning shakllari.** Qadim zamonlardan boshlab Rimda grek prokseniyasiga o'xshash **mehmondo'stlik huquqi** (jus hospitii) mavjud bo'lgan. Qabilalar va qabilalararo ittifoqlarda yuzaga keladigan bahs va tushunmovchiliklarni tartibga solib turadigan fetsiialarning kohinlik hay'ati faoliyat olib borgan. O'tkaziladigan tashqi-siyosiy ishlarning birontasi fetsiialarning ijozatisiz amalga oshmagan. Fetsiialarning vakolati doirasiga xalqaro kelishuvlarni muvozanatda saqlash, urushlarni rasman e'lon qilish va sulh tuzish rasm-rusumlari kirgan. Fetsiialar hay'ati 20 kishidan iborat bo'lgan. Fetsiialarning faoliyati bir umr chuqur sir ostida kechgan. Fetsiialarning jun kiyimlari va bosh bog'log' ichlari ularni boshqalardan ajratib turgan.

Rim jamiyati va uning fuqarolarini boshqa qabiladagilar bilan munosabatini ifoda etadigan mansabdor shaxslar – **rekuperatorlar** deb atalgan. Rekuperatorlar

sudi 3 kishidan tortib 5 kishigacha saylanadigan maxsus sudyalardan iborat bo'lib, rimliklar va boshqa qo'shni davlatlar, qabilalar o'rtasida kelib chiqadigan moddiy kelishmovchiliklarni hal qilgan. Eramizdan avvalgi II-I asrlarda rekuperatorlar sudi Rim viloyatlari aholisining noiblar harakati ustidan qilgan shikoyat va arizalarini ham ko'rib chiqqan. SHuni aytish mumkinki, Rim tarixining qadimgi davrida rekuperatorlar nafaqat rimliklardan, balki italiya qabilalari vakillaridan ham saylangan. Keyinchalik Rim qudratining o'sishi sababli rekuperatorlar faqat rimliklardan saylana boshlangan. Xalqaro aloqalarning rivojlanishi munosabati bilan Rimda xalqaro huquqning boshlang'ich shakllari ko'rina boshladi. Ular fetsial huquqlarining ichida bo'lgan. Iqtisodiy hayotning murakkablashuvi va qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarning rivojlanishi bois eski "fuqarolik huquqi" bilan birga rimliklar va muxojirlar o'rtasidagi aloqalarni tartibga solib turadigan "xalqlar huquqi" ham paydo bo'ldi. "Xalqlar huquqi" xalqlar o'rtasidagi savdo shartnomalari va kelishuvlarini tuzishni engillashtirgan.

### **Rim-karfagen diplomatiyasi**

Rimliklar Italiyani bosib olishni tugallash davrida Karfagen manfaatlari bilan to'qnashdi. Ikki davlatning raqobati uchun asosiy sabab boy Sitsiliya edi. Karfagenliklar orolning g'arbiy iqsmida qadimdan o'rtnashib, bu yerda Lilibey, Drepana va Panorm bazalarini qurdilar. Uzoq vaqt Rim va Karfagen er. avv, 348, 306 va 279-yillarda tuzilgan savdo shartnomalari bilan tinchlik munosabatlarini saqlab turdilar. Rim apinnen yarim orolini bo'ysundirish bilan band bo'lgan paytda Karfagen esa Shimoliy Afrikani bosib olish vaqtida ularning manfaatlari to'qnashmadi, ammo rimliklar janubiy Italiyaga suqilib kirishi bilan vaziyat o'zgardi. Rim respublikasi qudratli davlatga aylanib, o'rtayerdengizi orollari jumladan boy Sitsiliyaga hukmronlik qilishga da'vo qila boshladi. Karfagen Rimni kuchayishi va ekspansiyasidan bezovta bo'ldi, har ikki tomon urushga tayyorlana boshladi.

Rimliklar karfagenliklarni punilar deb atar edilar. Rim va Karfagen o'rtasida uch marta urush bo'ldi. I urush er. avv. 264-241-yillar, II urush er. avv. 218-201-yillar, III urush er. avv. 149-146-yillar. Har uchala urushda ham rimliklar g'olib chiqdilar. Karfagenliklar Rim bilan to'qnashuv arafasida Sardiniya va Korsika orollariga o'rtnashib olib, butun Sitsiliya ustidan hukmronlik qilar edilar. Sirakuza va Messana shaharlari bundan mustasno edi. Karfagenni Messanani egallashga urinishi Rim bilan urushni keltirib chiqardi. Rimliklar Karfagenliklarni puni deb atar edilar. Birinchi puni urushi 23 yil davom etdi. Dastlab harbiy harakatlar Sitsiliyaga boshlanib, rimliklar bu yerda bir necha yutuqlarga erishdilar. Lekin bu yutuqlar rimliklar uchun hech qanday ahamiyatga ega bo'lnadi, chunki rimliklar dengiz flotiga ega emas edilar va bu sohada Karfagen bilan raqobatlasha olmas edilar. Rim qisqa vaqt ichida barcha vositalarni ishga solib, er. avv. 260-yilda 120 jangovar kemadan iborat harbiy flotga ega bo'ldi. Shu yilda Lipar orollari yaqinida karfagenliklar Rim floti ustidan yengil g'alaba qozondilar. Dong'I ketgan dengizchi karfagenliklar tez yuradigan kemalarga ega bo'lib Rim flotiga mensimay qaradilar. Tez orada rimliklar dengizda birinchi g'alabani qo'lga kiritdilar, ular harbiy harakatlarni Afrika hududiha ko'chirishga erishdilar. Ammo Afrikaga birinchi yurish yaxshi tayyorlanmagani uchun rimliklar uchun muvaffaqiyatsiz

tugadi. Urush cho'zilib ketdi va urush harakatlari yana Sitsiliyaga ko'chdi. Har ikki urushayotgan tomonlarni kuchlari zaiflashdi. Hal qiluvchi jang er. avv. 241-yilda Sitsiliyani g'arbidagi Egat orollari yonida bo'lib o'tdi. Karfagen floti batamom tor-mor qilindi. Karfagen tinchlik shartnomasini tuzishga majbur bo'ldi va Sitsiliyani qo'ldan boy berdi, hamda katta miqdorda tovon to'ladilar. Bir qancha vaqt o'tgach rimliklar Korsika va Sardiniya orollarini bosib oldilar. Karfagen rimliklarni bu istilosiga chidashga majbur bo'ldi. Bu vaqtda Karfagenning o'zida yollanma askarlar qo'zg'oloni boshlanib, unga Liviya aholisi ham qo'shildi. Qo'zg'olonning birinchi kuni o'zini ko'rsatgan lashkarboshi Gamilkar Barka tomonidan bostirildi. Qo'zg'olon bostirilgach uning Karfagenda obro'si oshib ketdi. Gamilkar Barka Rimdan o'ch olishni orzu qilgan va rimliklar bilan yangi urush tarafdorlariga boshchilik qildi. Gamilkar urushga yaxshi tayyorgarlik ko'rish uchun Karfagen qo'shini bilan Ispaniyaga jo'nadi. Rimliklar bilan bo'lg'usi urushda platsdarm tayyorlash uchun bu mamlakatni bosib olmoqchi bo'ldi.

Ispaniya istilosi vaqtida Gamilkar halok bo'ldi, Karfagen qo'shinlariga qo'mondonlik qilish uning kuyovi Gannibal boshchilik qildi. Bo'lg'usi mashhur lashkarboshi Gannibal 11 yoshida rimliklarga qarshi kurashishga qasamyod qilgan. Qo'mondonlik Gannibal qo'liga o'tishi bilan Rim bilan urush qilish masalasi hal qilindi. Ikkinchi puni urushi er. avv. 218-yilda boshlanib, 17 yil davom etdi. G'ayratli sarkarda urush harakatlarini rimliklar hududida olib 22ntensi rejasini tuzdi. Bu rejani 22ntensi oshirish uchun Gannibal qo'shinlari Alp tog'laridan oshib o'tdilar. Gannibal qo'shinlari Rim qo'shinlari ustidan bir necha marta g'alaba qildi. Er. avv. 216-yilda Kann yonidagi jang bu janglarni ichida eng mashhuri bo'lib, bu jangda Gannibal rimliklarni qurshab olib to'la tor-mor qildi.

Karfagen o'z qo'mondoniga yetarli yordam ko'rsata olmadi. Gannibal biror marta yengilmagan bo'lsada o'z qo'shinlari bilan o'z yurtidan uzoqlashib, janubiy Italiyada qamalib qoldi. Karfagenliklar tomoniga o'tgan shaharlar yana Rimni qo'llab-quvvatlay boshladilar. Yosh rimlik sarkarda Publiy Korpeliy Stsipion Ispaniyaga karfagenliklarga qarshi g'olibona urush harakatlarini olib bordi. U Ispaniyani punilardan tozalab Afrikaga qo'shin tushirdi. Er. avv. 202-yilda Karfagen shahri yaqinidagi Zam qishlog'I yonidagi hal qiluvchi Gannibal o'z hayotida birinchi va oxirgi mag'lubiyatni boshidan kechirdi. Karfagen qo'shinlari to'la tor-mor qilindi. Bu safar Rim karfagenliklarga tinchlik shartnomasini og'ir shartlarini qo'ydi: Karfagen barcha koloniyalarini yo'qotdi, barcha kemalarini, jangovar fillarini Rimga topshirishga majbur bo'ldi va katta miqdorda tovon to'ladi. Bu tinchlik shartnomasining og'ir shartlari Karfagenning harbiy-siyosiy qudratini umrbod zaiflashtirdi. Rim Karfagen yana bir marta bilan to'qnashdi. Bu II puni urushi tugaganidan 50 yil o'taganidan keyin sodir bo'ldi. Er. avv. 149-yilda III puni urushi boshlandi. Karfagen o'tgan 50 yil ichida o'zining qulay geografik joylashuvi bilan o'z iqtisodiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi. U yana xalqaro vositachilik savdosini shimoliy Afrikadagi yirik markaziga aylandi. Rimliklar o'zlarini eski raqibini Rim hududiga bostirib kirganini hech qachon unuta olmas edi. II puni urushidan keyin rimliklar Karfagenning hatti-harakatini diqqat bilan kuzatib borar edilar. Karfageni yana o'z kuch-qudratini qayta tiklayotgani ularni bezovta qildi. Rimliklar Karfageni er. avv. 201-yildagi

shartnoma shartlaridan birini buzishda bahona qilib, er. avv. 149-yilda Karfagenga qarshi urush e'lon qildilar. Karfagen uch yil qamal qilindi. II puni urushida Karfagen qamaliga rahbarlik qilgan Sitsipionning o'g'li Emiliy Sitsipion shaharga bostirib kirdi. Karfagenga senat komissiyasi keldi va shaharni to'la yo'q qilishga qaror qildi. Shahar 16 kun o't ichida qoldi, aholisi qul qilib sotib yuborildi.

**Pompeyning sharq yurishlari. Birinchi triumvirat** Spartak boshchiligidagi qullar qo'zg'oloni bilan bir vaqtda Mitridat bilan (er. avv. 74-64-yillar) yangi urush boshlandi. Mitridat haqiqiy sharq despoti bo'lib, o'z onasi, ukasi, o'zi bilan nikohda bo'lgan singillarini, 3 o'g'li va 3 qizini o'limiga aybdor edi. U 300 ming kishilik qo'shinga, 400 kemadan iborat kuchli flotga ega edi. Dastlab Rim qo'shinlariga tajribali sarkarda Likulli boshchilik qilib bir qancha yutuqlarga erishdi, lekin Mitridatni yenga olmadi. Bundan tashqari u qattiqqo'lligi bilan legionerlarning noroziligini tug'dirdi. Shunda senatning irodasiga qarshi xalq yig'ini sharqda qo'mondonlikni Gney Pompeyga topshirdi.

Gney Pompey Sulla davrida tanilib, fuqarolar urushi davrida Sullani qo'llagan edi. Keyin esa uni Spartakka qarshi Krass qo'shiniga yordamga yubordilar. Er. avv. 70-yilda Pompey va Krass konsul etib saylandilar, Krass ovatsiya (piyoda triumf)da, Pompey triumfga sazovor bo'ldi, Pompey qo'shinlari rag'batlantirildi. Pompey o'rtayerdengizi qirg'oqlarini talagan dengiz qaroqchilarini tugatib, Rimda katta obro'ga ega bo'ldi. G'ayratli sarkarda Pont podshosini tor-mor qilib, Armanistonni vassal davlatga aylantirdi. Pompey Bosfor podsholigida Mitridatga qarshi qo'zg'olon uyushtirib uni o'zini o'ldirishiga majbur qildi hamda Suriya va Yahudiyani istilo qildi. Kichik Osiyoda Rim hokimiyatini qayta tikladi. Urushdan keyin Rimda uning sharafiga zafar (triumf) uyushtirildi va Pompey sharqda 22 podsho ustidan g'alaba qildi, 12 mln. kishini bo'ysundirdi, 1538 shahar va qal'alarni istilo qildi deb e'lon qilindi. Pompeyning sharq yurishi ellin sharqi mamlakatlarini Misrdan tashqari Rimga bo'ysundirishni tugalladi. Pompey Rimga qaytgan paytda qarzlarni bekor qilish va davlat to'ntarishi amalga oshirish maqsadi bo'lgan qarzga botgan patritsiy Lutsiy Sergiy Katilina boshchili qilgan harakatning fitnasi bostirildi. Etruriyada Katilina va uning uch ming kishilik tarafdorlari shafqatsiz jangda o'ldirildi. Katilina fitnasidan tez o'tmay Rimda siyosiy hokimiyat I triumviratni (er. avv. 60-yil "Uch erkak ittifoqi") tashkil etgan uch taniqli siyosiy arbob Pompey, Krass va Sezar qo'liga o'tdi. Gay Yuliy Sezar (er. avv. 100-yilda tug'ilgan) bu vaqtda Krass va Pompey kabi obro'ga ega emas edi. Lekin u shuhratparast, shijoatli bo'lgani uchun tez orada I triumviratning amaldagi rahbari bo'ldi, bundan tashqari u er. avv. 59-yilda kelishuviga binoan konsul qilib saylandi. Tsezar agrar qonun loyihasini amalga oshirdi, natijada Pompeyning sobiq jangchi-veteranlari yer ulushlariga ega bo'ldilar.

Tsezar hokimiyat uchun kurashda shahar va qishloq plebsi, uning mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qila olmasligini tushunar edi. Buning uchun yaxshi qurollangan sadoqatli qo'shin kerak edi. Bu qo'shinni tashkil qilish uchun katta miqdorda mablag' topish maqsadida Tsezar Galliya provinsiyasiga 5 yil noiblik lavozimini olishga erishdi. Lekin Galliya hali Rimga tobe emas edi. Senat Galliyani bo'ysundirish uchun Tsezarga qo'shin to'plashga ruxsat berdi. Galliyani istilo qilish yeti yil davom etdi. Boshda Tsezar gelvet (hozirgi Shvetsariya

hududida yashovchi) qabilasiga qarshi, keyin esa german qabilalaridan bo'lgan Ariovis boshchiligidagi svevlarga qarshi ularni harakatlarini olib bordi. Nihoyat belg qabilalri bilan keskin kurashdan keyin Galliya bo'ysundirildi va er. avv. 57-yilda Rim provinsiyasi deb e'lon qilindi. Er. avv. 56-yil bahor oyida Tsezarning Galliyadagi vakolati yana 5 yilga uzaytirildi. Tsezar er. avv. 55-yilda german qabilalariga qarshi Reyn ortiga, er. avv. 54-yilda esa Britaniyaga yurish qildi.

Lekin er. avv. 54-yilda buyuk gall qo'zg'oloni yuz berdi. Bu qo'zg'olon arvern qabilalari tashabbusi bilan boshlanib, qo'zg'olonga qobiliyatli yo'lboshchi Versingetorik boshchilik qildi. Rimliklar juda qiyin ahvolga tushib qoldilar. Sezarda 60 ming qo'shin, qo'zg'olonchilarda 300 ming kishi bor edi. Faqat Tsezarning harbiy, tashkilotchilik qobiliyati, uning diplomatic san'ati, qo'zg'olonchilar ichida o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqishiga olib keldi, natijada rimliklar bu qo'zg'olonni bostirdilar. Qo'zg'olonning so'ngi o'choqlari er. avv. 51-yilda tugatildi.

Galliya istilosi natijalari ulkan edi. Sezar 300 qabilani bo'ysundirdi, 800 shaharni qamal qilib oldi, 1 mln. kishini asir oldi. Rimliklar qo'liga ulkan miqdorda o'lja tushdi: Rimda oltin qadoqlab sotildi va uning bahosi juda pastga tushib ketdi. Bularni hammasi Rimda Sezarni obro'-e'tiborini oshirib yubordi.

Galliyada urush harakatlari tugamasdan I triumvirat amalda tugadi. Krass Parfiyaga yurish vaqtida yengilib halok bo'ldi. Tsezarning yutuqlari va obro'-e'tiborining oshib ketishi u bilan Pompey orasidagi munosabatlarda keskinlik va dushmanlikka sabab bo'ldi. Galliyada Sezarning vakolati tugadi, u o'z qo'shinini tarqatishi lozim edi. Lekin u qo'shinni tarqatmadi. Sezarning kuchli qo'shinidan qo'rqib qolgan senat uni vatan dushmani deb e'lon qildi. Uning raqibi Pompeyga Italiyada qo'shin to'plab, Sezarga qarshi chiqishga topshiriq berdi.

Nozik diplomat va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi bo'lgan Sezar Rimdagi vaziyatni kuzatib Galliya noibligi davridan boshlab katta miqdorda pora berish bilan o'z tarafdorlariga ega bo'lgan edi. Sezar Pompey qo'shinlarini kutib turmadi. U er. avv. 49-yil yanvarida shimoliy Italiyaning chegarasi bo'lgan kichik Rubikon daryosidan o'tdi. Qonunga ko'ra bu daryodan o'tgan har qanday qurollangan qo'shin Rim dushmani deb hisoblanar edi. Aytishlaricha daryodan o'tish oldidan Sezar uzoq o'ylanib turib, "qur'a tashlandi" deb xitob qiladi va qo'shinga daryodan o'tishga buyruq beradi. Shimoliy Italiyaning shaharlari Sezar qo'shinlariga deyarli qarshilik ko'rsatmadilar. Pompey qo'l ostida jangovar qo'shin bo'lmaganligi uchun er. avv. 49-yil 17-yanvarida janubga qo'shin yig'ishga jo'nab ketdi. Uning orqasidan vaximaga tushgan konsullar va senatning ko'pgina senatorlari qochib ketdilar.

**Rim diplomatiyasining rivojlangan davri.** Domitsian o'limidan keyin senat 66 yoshli senator Mark Koksey Nervani (96-98-yillar) imperator etib sayladi. Uning hukmronligi bilan II asrdan Rim imperiyasida Antoniylar sulolasi hukmronligi boshlandi. Bu sulolani eng taniqli vakillaridan biri Mark Ulpiy Trayan bo'ldi. Trayan Ispaniyada tug'ilgan bo'lib, yuqori Germaniya noibi edi. Imperator Nerva qo'shinda obro'-e'tiborli bo'lgan Trayanni asrandi o'g'il va voris qilib tayinlashga majbur bo'ldi. Trayan 98-117-yillar Rim imperiyasiga hukmronlik qilgan paytdan



imperiya o'zining iqtisodiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi (96-196-yillar).

Trayan davrida Rimning oxirgi istilochilik urushlari olib borildi. U faol tashqi siyosat olib borib, imperiya hududlarini kengaytirdi. Uning davrida legionlar soni 30 taga yetkazildi. Kuchli Rim qo'shinlari 101-103-yillar va 105-107-yillarda Dunay bo'ylaridagi kuchli Dakiya podsholigini bo'ysundirdi, Dakiyani podshosi Detsebal asir olindi. Dakiya Rim provinsiyasiga aylandi. Dakiyaning bosib olinishi natijasida uning boy oltin va tuz konlari katta o'lja bo'ldi. Dakiya g'alabasiga bag'ishlab Rimda 123 kun davom etgan tomoshalar ko'rsatildi, Plebsga mo'l-ko'l sadaqa ulashildi, ajoyib Trayan termalari (hammomlari), yangi suv quvuri hamda 30 m.li Trayan kolonnasi bunyod etildi.

Trayan Parfiyadan Mesopotamiya va Armanistonni tortib olish uchun 113-yil urush boshladi, keyingi yil Armanistonni bosib olib, uni provinsiyaga aylantirdi. G'ayratli imperator 115-116-yillarda Parfiya podshosi Vologes IV qo'shinlarini tor-mor qilib, uning poytaxti Ktesifonni egalladi, butun Mesopotamiyani fors qo'ltig'igacha bosib oldi. Mahalliy aholini Rim bosqinidan noroziligi va sharqiy provinsiyalarda vaziyatni notinchligi Trayanni legionlarni Frot qirg'og'idan olib ketishga majbur qildi. Sharqda yangi bosib olingan yerlarni rimliklar qo'ldan chiqardilar. Italiyaga qaytishda Kilikiyada Trayan kasal bo'lib 117-yil avgustida vafot qildi. Taxtga Trayanning jiyani, 41 yoshli asrandi o'g'li Publiy Eliy Adrian chiqdi (117-138-yillar).

U Trayanga loyiq juda yaxshi ma'lumot olgan, ajoyib boshqaruvchi, tajribali sarkarda, aqlli va uzoqni ko'ra oladigan siyosatchi sifatida o'z oldiga turgan muammolarni juda yaxshi tushunar edi. Adrian davlat resurslarini to'la tugaganini va Sharqda bosqinchilik siyosatini samarasizligini anglab yetib, Parfiya bilan Frot daryosi bo'yicha chegaralarini tiklash sharti bilan tinchlik shartnomasini tuzdi. Adrian imperiyaning sharqiy chegaralarida kuchli mudofaa inshootlarini bunyod qildi. Ana shunday tadbirlar natijasida Parfiya bilan tinchlik 44 yil saqlandi.

Sharqda ishlarni tugallab Adrian Yevropa va Afrikada imperiya chegaralarini mustahkamlash maqsadida chegara istehkomlarini qurish bo'yicha ulkan ishlar amalga oshirdi. Ana shunday istehkomlardan biri Adrian vali (istehkomi) Britaniyada hozirgacha saqlanib qolgan.

Adrian qo'shinni yuqori jangovar holatda saqlab turishga katta e'tibor berdi. U legionlarni Rim yoki latin fuqaroligi bo'lmagan provinsiya aholisidan to'ldirishga ruxsat berdi, chunki qo'shinga xizmat qilishga xohish bildirgan fuqarolar soni keskin qisqardi. Rim harbiy mashinasini varvarlashtirish uchun asos ana shunday yaratildi.

Adrian davlat boshqaruvi tizimini mustahkamlashga qaratilgan qator tadbirlarni amalga oshirdi. U printseps kengashini qayta tashkil qildi, kengash tarkibiga oliy amaldorlar, muassasa rahbarlari va yirik yuristlar jalb qilindi. Adrian boshqaruvga suvoriylar toifasini ko'plab vakillarini taklif qildi. U davlat pochtasini joriy qildi, provinsiyalar boshqaruvini qayta tuzib, noiblar faoliyati ustidan doimiy nazorat o'rnatdi. Adrian uzoq sayohat qildi va ko'plab inshootlarni bunyod qildi: Venera va Roma ibodatxonalarini, mashhur Rim panteonini qurdi.

Antoniylar sulolasini taniqli vakillaridan biri tarixga taxtdagi faylasuf sifatida kirgan Mark Avreliy edi. Mark Avreliy uchun davlat manfaatlari hamma narsadan yuqori bo'lib, imperiya taqdiri uchun o'z ma'suliyatini to'la anglab yetgan edi. U senator va suvoriy toifalari bilan inoqlikda ish olib bordi, senat tarkibiga ko'pgina provinsiya zodagonlarini, ayniqsa kelib chiqishi Sharqdan va Afrikadan bo'lgan nufuzli kishilarni kiritdi. Mark Avreliy (161-yildan 180-yilgacha) 19 yil hukmronlik qildi, unga qarshi shu yillar davomida birorta ham fitna uyushtirilmadi. U 180-yilda 59 yoshida Vindobona (Vena) shahrida vafot qildi. Rimda uning sharafiga kolonna bunyod etildi. Uning merosxo'ri 18 yoshli o'g'li Kommod (180-193-yillar) imperator bo'ldi. Antoniylar sulolasining so'ngi vakili Kommod qo'pol, shafqatsiz va maishatparast hukmdor edi. Otasining o'limidan keyin Kommod kvad va markomann qabilalari bilan urushni tugatib, 180- yilda Rimga qaytdi. Davlat boshqaruvini o'zining ochko'z yaqinlariga topshirib, kayf-safoga berildi. Xotinini qatl etib, buzuvchilik yo'liga kirdi. Katta jismoniy kuchga ega bo'lgan imperator o'zini rimlik Gerkules deb e'lon qildi, omma oldiga arslon terisiga yopinib yelkasida kaltak bilan paydo bo'lar edi. Amfiteatr sahnasida gladiator sifatida chiqdi. Oxir-oqibatda es-hushini yo'qotib kalendarning barcha oylarini o'z nomiga o'zgartirdi, hatto Rimning nomini o'zgartirib uni "Kommod" shahri deb atashga buyruq berdi.

**Imperiya davri (eramizdan avvalgi I – V asrlar) diplomatiyasi.** Imperiya davrida barcha davlat boshqaruvi imperator qo'liga o'tgan. Senat o'z ishini davom ettiravergan, lekin u respublika davridagi kabi davlatning boshqaruv organidan imperator huzuridagi kengashga aylantirilgan. SHunga muvofiq tashqi siyosat va diplomatiya boshqaruvi ham o'zgargan. Imperatorlik davrida barcha tashqi siyosiy masalalar imperator (printsepsa) ixtiyorida bo'lgan. Diplomatiya imperiya amaldorlarining vazifasiga aylangan. Imperiya davrida elchilar saylanmagan, balki boshqa amaldorlar kabi imperator tomonidan tayinlangan. Klavdiy (eramizdan avvalgi 1-asrning o'rtalari) davridan boshlab elchilik ishlarini imperator kotibi boshchiligidagi imperatorning shaxsiy devoni yuritgan. SHu bilan birga bu devon butun imperiyaning oliy ma'muriy organi hisoblangan. CHet davlat elchilari borasida qonunchilik respublika davrida qanday bo'lgan bo'lsa, imperiya davrida ham xuddi shunday bo'lgan. Hatto raqib davlat elchisining shaxsiyati ham muqaddas va daxlsiz hisoblangan. Elchilik huquqining buzilishi xalqaro huquqning buzilishi deb baholangan.

#### **Адабиётлар:**

1. Античная Греция. / Под ред. Е.С. Голубцовой. М., 1983. Т. I-II.
2. Античная цивилизация /Под ред. В.Д. Блаватского. М., 1973.
3. История Древней Греции. /Под ред. В.И. Кузищина. М., 1986.
4. История дипломатии. М., 1959. Т. I.
5. Бокщанин А.Г. История международных отношений и дипломатии в древнем мире. М., 1948.
6. Хрестоматия по истории Древней Греции. /Под ред. Д.П. Каллистова.
7. Гафуров Б.Г., Цибукидис Д.И. Александр Македонский и Восток. М., 1980.
8. Яйленко В.П. Греческая колонизация VII-III вв. до н.э. М., 1982.

9. История Древнего Рима. / Под. Ред. А.Г. Бокщанина и В.И. Кузищина М., 1971, изд. 2. М., 1981.
10. Ковалёв С.И. История Рима. Л., 1986.
11. Трухина Н.Н. Политика и политики «золотого века» Римской республики ( II в. до н.э.) М., 1986.
12. Всеобщая история государства и права. Часть 1 «Древний мир» вып. 1-2 М., 1944-45.
13. Бокщанин А.Г. Лекции по истории Древней Греции и Риму. М, 1952.
14. Всемирная история. ТТ. I-II. М., 1955-56 г.г.
15. Утченко С.Л. Древний Рим. События, люди, идеи. М., 1969.
16. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. T.,2009.

### **3 Mavzu O`rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

#### **Ma`ruza mashg`ulotining ta`lim texnologiyasining modeli**

| <b>O`quv vaqti: 80 minut</b>   | <b>Talaba soni 60 nafar</b>   |
|--|---|
| <b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b><br><br><b>Ma`ruza rejasi</b>  | 1. Vizantiya va “Varvar” davlatlari.<br>2. Rim papalari va Buyuk Qarl diplomatiyasi.<br>3. Arablar va qadimgi Rus diplomatiyasi.<br>4. Feodal tarqoqlik davri xalqaro munosabat lari va diplomatiyasi.          |
| <i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i> Vizantiya va “Varvar” davlatlari. Rim papalari va Buyuk Qarl diplo-matiyasi. Arablar va qadimgi Rus diplomatiyasi <i>haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i> |   |
| Pedagogik vazifalar:<br><br>Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.   | O`quv faoliyatining natijalari:<br><br>Talabalar Vizantiya va “Varvar” davlatlari. Rim papalari va Buyuk Qarl diplo-matiyasi. Arablar va qadimgi Rus diplomatiyasi tarixi ma`lumotlarini konspektlashtiradilar. |
| Ta`lim usullari:   | “Klaster”, ma`ruza  |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli  | Ommaviy   |
| Ta`lim vositalari  | Slaydlar, marker  |

### 3– mavzu: O’rta asrlarda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

#### Reja:

1. Vizantiya va “Varvar”davlatlari.
2. Rim papalari va Buyuk Karl diplomatiyasi.
3. Arablar diplomatiyasi va Qadimgi Rus diplomatiyasi.
4. Feodal tarqoqlik davri xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi.

**Vizantiya va “Varvar”davlatlari.** Eramizdan avvalgi IV asrning oxiridan boshlab allaqachon Rim imperiyasi chegaralarini yorib o’tgan germaniya qabilalarining bosqini bir mahalliy hududdan boshqasiga xavf sola boshladi. Bu davrga kelib imperiya ichki bo’linish va krizis holatida edi. Ichki krizis chuqurlashib ketgan G’arbiy imperiya viloyatlari zarar ko’ra boshladi. Lekin ancha mustahkam bo’lgan SHarqiy imperiya varvarlarning siquviga o’z kuchlariga keskin zo’r berish orqali bardosh berdi.

V asr boshida vestgotlar SHarqiy Rim imperiyasining Bolqon viloyatlarini xarob qildilar, Italiyani talab, Rimni yakson etdilar. Vestgotlar Ispaniya va janubiy-g’arbiy Galliyada o’zlarining podshohligiga asos soldilar. SHimoliy Xitoy chegaralaridan boshlab uzoq yo’lni bosib o’tgan ko’chmanchi gunnar IV-V asrlarda Volgadan Reyngacha bo’lgan ulkan hududlarni qo’lga kiritib, o’zlarining buyuk hokimiyatini barpo etdilar. Gunnlar imperiya chegaralariga juda yaqin kelib, uning erlarini xarob qildilar va xiroj talab qila boshladilar.

SHarqiy imperiya kabi G’arbiy imperiya ham nafaqat varvarlar bilan kurashgan, balki ular bilan murakkab siyosiy aloqalarga kirishishga majbur bo’lgan. Gunnlar, asosan, imperiya chegaralariga yaqin joylarga yoki uning hududiga dastlab istilochi sifatida emas, ittifoqdosh yoki qaram qabila sifatida joylashib olganlar. Varvarlar, ularning boshchilari, zodagonlari bilan o’rnatilgan kelishuv aloqalari tezda o’z xususiyatini o’zgartirar, kechagi qaram qabila bugun qo’zg’olonchilarga, ertangi istilochilarga aylanib bormoqda edi. Ular bilan murosa qilib, og’dirib olish va ulardan qutulish lozim edi. O’z navbatida, gunnar o’zlarining joylashib olishlari uchun yangidan-yangi da’volar bilan chiqib, oltin, kumush va erlarni talab qila boshladilar. SHu asosda varvarlar va Rim imperiyasi, to’g’rirog’i, ikkala Rim imperiyasi o’rtasida diplomatik aloqalar vujudga keldi. G’arbiy imperiya viloyatlariga o’rnashib olgan varvarlar tezda yangi jamoat tartiblarini o’rnata boshladilar. Ularda urug’chilik tizimiga ajralish, sinflarning paydo bo’lish hodisasi davom etib, podshohlik hokimiyati yuksala bordi va davlat paydo bo’ldi. Barpo etilgan varvar podshohligining chegaralari aniq emas va o’rnatilmagan edi. Janjallar faqat qurol yo’li bilan emas, o’zaro kelishuvlar orqali hal etilar edi. Varvar podshohligining paydo bo’lishi bilan ularda o’zlarining diplomatiyasi vujudga keldi.

#### **Xalqlarning buyuk ko’chishi davrida German qabilalari diplomatiyasi**

German qabilalari II—IV asr o’rtalarida o’zlarining ishlab chiqarish kuchlarini anchagina rivojlantirdilar. Ular yerlarini TSezar va Tatsit zamonidagidan yaxshiroq ishlay boshladilar. Ularda hayvonlarning nasli (jumladan, otlarning nasli)

yaxshilandi. Hunarmandchilikni rivojlantirishda ancha olg'a ketildi, Germaniyaning ko'p joylarida yer ustidagi yekn uncha katta bo'lmagan chuqurlikdagi rudalar ishlana boshlandi. CHegara oblastida yashovchi germanlar rimlik savdogarlar bilan oldi-sotdi qila boshladilar. Varvarlarning aholisi tobora ko'payib borganligi uchun yer masalasi juda keskin masala bo'lib qoldi. Varvarlar aholining oshib-toshib ketayotganligini sezmoqda edilar. Ular imperiyaning serhosil va qisman butunlay ishlov berilmagan yerlarini ishg'ol qilishga intildilar. Butun bir varvar qabilalarini Rim imperiyasiga qarshi keskin kurash olib borishga olib kelgan eng muhim va asosiy sabab yer tanqisligi edi.

Bu vaqtga kelib german qabilalarining ichida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. German jamiyatining tobora ko'proq tabaqalanib borishi - zodagonlarnint ajralib chiqishi, ularga qaram bo'lgan kishilar sonining ko'payishi va hokazolar bilan bir qatorda, qabilalarning katta-katta ittifoqlarga birlashuv protsessi ham yuz bermoqda edi. Quyi Reynda hamda YUtlendiya yarim orolida angl-saks qabilalari birlashmasi; O'rta Reynda frank qabilalari ittifoqi; YUqori Reynda allemanlar ittifoqi (bunga kvadlar, markomanlar, qisman svevlar kirardi); Elbada va Elbaning narigi tomonida langobardlar, vandallar, burgundlarning ittifoqlari tashkil topdi. Bundan oldingi bobda gotlarning ikkita ittifoqi - vestgotlar ittifoqi va ostgotlar ittifoqi vujudga kelib, bularning har biri Dunay va Qora dengiz bo'yi rayonida ko'p qabilali davlat tashkil qilganligi gapirib o'tilgan edi. IV asrniig oxirlaridan boshlab va ayniqsa V asrda varvarlar yoppasiga imperiya territoriyasiga qarab yo'l olib, uni asta-sekin istilo qila boshladilar. To'g'ri, bu istilo qilish qariyb butun bir asrga cho'zildi. Ancha vaqtgacha bu istilochilar rasman imperiyaning «ittifoqchilari» deb qaraldi. Biroq zamondoshlar bu nomga aldanmadi. o'arbiy Rim imperiyasining tobora qulab borayotganligi shubhasiz haqiqat edi. CHunki varvarlar imperiyani istilo etish bilan bir vaqtda imperiya territoriyasiga o'zlarining butun oilalari, uy anjomlari, sigir-buzoqlari va hokazolari bilan ko'chib kelib; o'mashayotgan edilar. SHuning uchun IV asrning oxirini va V asrning hammasini o'z ichiga olgan bu davrni tarixchilar odatda Xalqlarning buyuk ko'chish davri deb ataydilar.

**Gotlar va Qora dengiz bo'ylarida. Xunlarning kelishi.** Bu ko'chish imperiya territoriyasiga gotlarning bostirib kirishidan boshlandi, deb hisoblanadi. Ostgotlar va vestgotlarning imperiya bilan totuv yashashlari mumkindek tuyular edi. O'sha vaqtda Yevropaning janubi-sharqida bu varvarlarning juda keng yer maydonlari bor edi. Vestgotlarda ham, ostgotlarda ham hech qanday «er qahatchiligi» yo'q edi. To'g'ri, ostgot zodagonlari goh-goh Bolqon yarim oroliga hujum qilib turar edilar. Lekin ikkinchi tamondan, gotlar SHarqiy Rim imperiyasi bilan tinch savdo aloqalari ham olib borar edilar. Gotlar xristianlikni sharqiy rimliklardan qabul qilgan edilar. Gotlar o'rtasida xristianlikni targ'ib qilgan kishi yepiskop Ulfila bo'ldi, u injilni va diniy kitoblarni got tiliga tarjima qildi.

Ikki davlatning eng kuchlisi - Ostgotlar davlati bo'lib, u ko'p qabilali ittifoq edi, bu ittifaq o'zining ostgot qabilasidan tashqari, slavyan va sharqiy sarmat qabilalaridan bir qanchasini o'z ichiga olgan edi, bu davlatga qirol Germanarix 50 yil boshchilik qildi (u 375 yilda vafot etdi). Osttotlarning o'zlari mahalliy madaniyat ta'siriga anchagina berilib, mahalliy aholi bilan qisman aralashib keta boshlagan edi.

Qora dengiz bo'yidagi gotlarga Qora dengiz bo'yidagi grek koloniyalarining va ayniqsa Bospor podshohligining antik madaniyati anchagina o'z ta'sirini o'tkazdi.

375 yilda Qora dengiz bo'yiga Osiyodan juda ko'p sonli Xunlar qabilasi keldi. Xunlar (bularning bir qismi turk irqidan, bir qismi mo'g'ul irqidan bo'lsa kerak) ko'chmanchi xalq bo'lib, bir vaqtlar Xitoy chegaralarida yashar edilar, keyin ular butun O'rta Osiyoni bosib o'tib, nihoyat, Janubiy Ural bilan Kaspiy dengizi o'rtasidagi «Kaspiy darvozasi» orqali Don va Dnepr havzasiga kirib bordilar. Xunlar ostgotlar ittifoqiga qaqshatg'ich zarba berdilar. Xunlar ostgotlarni o'zlariga bo'ysundirib, ular bilan birgalikda vestgotlar ustiga yurish qildilar. Xunlar tomonidan tor-mor qilinish va bo'ysundirilishdan qo'rqib, vestgotlarning boshliqlari SHarqiy Rim imperatori bilan muzokara boshladilar aa Dunaydan o'tib, federatlar sifatida Bolqon yarim oroliga joylashish uchun undan ijozat so'radilar. Konstantinopol hukumati bunga rozi bo'ldi, shundan keyin 376 yilda bir million kishiga yaqin vestgotlar (bulardan 200 mingi qurollangan erkaklar edi) Dunaydan o'tdilar. Ularga joylashish, uchun hozirgi Bolgariyaning Meziya oblasti ajratib berildi.

**Vestgotlar imperiyada.** Vestgotlarning Dunaydan o'tishi yuzaki qaraganda aytarli bir narsa emasdek edi. Rimliklarning butun-butun qabilalarni federat qilib qabul qilish hollari ilgari ham bo'lgan edi. Lekin haqiqatda esa vestgotlarning Bolqon yarim orolida paydo bo'lishi katta oqibatlariga olib keldi. Varvarlarga nisbatan jabr-zulm va o'zboshimchalik qilgan imperiya amaldorlari bilan chiqisha olmay, vestgotlar tez orada Rim hukumatiga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, «federatlikdan» endi imperiya hukumatining xavfli dushmanlariga aylandilar. Bularga mahalliy konlarda-ishlayotgan yerli qullar ham (ularning ham ko'pchiligi aslida varvarlardan edi) qo'shildilar. Vestgotlar Bolqon yarim orolining janubiga qarab yo'l oldilar. 378 yili ular Adrionopolga yaqin joyda Rim qo'shinlarini tor-mor qildilar; bu qo'shinlarga qo'mondonlik qilgan imperator Valent o'ldirildi. Vestgotlar Konstantinopolga yaqinlashib kelmoqda edilar. Yangi imperator Feodosiy I (379-395) bir do'q-po'pisa qilib, bir bo'lsa diplomatik muzokaralar yurguzib vestgotlarni tinchlantirishga muvaffaq bo'ldi, ularga Bolqon yarim orolining turli joylaridan yangi, serhosil yerlarni ajratib berdi. Keyinchalik, 90-yillarda sobiq YUGoslaviya territoriyasidagi Illiriya viloyati vestgotlarga berildi.

Feodosiy o'lgandan keyin Rim imperiyasi uning o'g'illari o'rtasida taqsimlandi. SHarqda-Arkadiy (395-408), o'arbda-Gonoriy (395-423) idora qila boshladi. Aka-uka imperatorlarning ikkalasi ham bir-biriga dushman edi. Konstantinopol hukumati vestgotlarni o'arbiy Rim imperiyasiga qarshi qo'zg'atishga qasddan harakat qildi.

Gonoriyning lashkarboshisi Stilixon (aslida varvar edi) dastlabki vaqtda vestgotlarning Italiyaga qilgan hujumini to'xtatib turdi. U hatto Britaniyadagi rim legionlarini (407 yilda) chaqirib keltirdi, legionlarning bu vaqtda Italiyaning o'zida bo'lishi nihoyat darajada zarur edi. Biroq saroy ahli o'rtasidagi fitna natijasida Stilixon tez orada vazifasidan tushirildi va o'ldirildi. Vestgotlar qiroli Alarix endi qattiq qarshilikka uchramay, 409 yilda Italiya territoriyasiga kirib bordi. Keyingi yilda Alarix Rimni juda katta talonga soldi. SHu narsa xarakterliki,

Alarix Rimni qullar yordami bilan oldi. Rimda va uning atrofida yashagan 40 mingga yaqin qul Alarix tomoniga o'tdi. Bulardan tashqari, Alarixni ko'pchiligi varvar-germanlardan iborat g'arbiy imperator armiyasining ko'pchilik qismi qo'llab-quvvatladi. Vestgotlar Rimni 410 yilning 24 avgustida bosib oldilar. Rimliklarning poytaxti bir necha kungacha talon-taroj qilindi. Rimdagi quldor zodagonlarning ko'plari o'ldirildi, asir olindi va qul qilib sotildi, rimliklarning bir qismi qo'rquvga tushib, SHimoliy Afrikaga va Bolhon yarim oroliga qarab qochdilar. Alarix so'ngra Sitsiliyaga, u yerdan esa SHimoliy Afrikaga yurish qilmoqchi edi. Buning sababi Italiyada oziq-ovqat yo'qligi edi, Italiyada qishloq xo'jaligi butunlay tushkunlikka uchragan edi, mahalliy aholining o'z gallasi o'ziga yetmas edi. Lekin vestgotlarning Afrikaga yurish qilish mo'ljali amalga oshmadi. Bu yurish uchun flot tayyorlanayotgan o'sha 410 yili Alarix o'ldi.

**Vestgotlarning Tuluza qirolligi.** Italiyada bir oz vaqt turgandan keyin, vestgotlar Gonoriy hukumati bilan kelishib, Janubiy Galliyaga o'tdilar va u yerda 419 yili Rim imperiyasi territoriyasida dastlabki varvarlar qirolligini tuzdilar, uning poytaxti Tuluza shahri bo'ldi. Tuluza qirolligi Rim imperatoriga nomigagina qaram hisoblanar edi. Aslida u butunlay mustaqil edi. Galliyaga ko'chib o'tganlaridan keyin vestgotlar juda ko'p yerlarni boshqatdan taqsimladilar. Ular mahalliy galliyalik-rimlik quldorlar ixtiyoridagi yerlarning uchdan ikki qismini uydagi qullar, binolar, qishloq xo'jalik asbob-uskunalari va boshqa narsalari bilan birgalikda musodara qilib, o'zaro bo'lishib oldilar, katta-katta latifundiyalardagi eng yaxshi yerlarni, qullarni va asbob-uskunalarni qirol bilan zodagonlar oldi. Oddiy vestgot jangchi dehdonlar o'zlarining oilaviy chek yerlarini – sortes - ya'ni aynan olganda qur'aga (chekiga) chiqqan yerlarni oldilar. Bular: haydaladigan yerlardan, jamoaga qarashli yer-mulklar-o'rmonlar, yaylovlar va boshqalardan iborat edi. Keyincha V asrning oxiri - VI asrning boshlaridan boshlab Vestgotlar qirolligi Pireneya tog'larining narigi tomoniga Ispaniyaga ham yoyildi. Uning poytaxtl Toledo shahriga ko'chirildi.

**SHimoliy Afrikada vandallar kirolligi.** Taxminan, Galliyada vestgotlar o'z davlatini vujudga keltirgan vaqtda, boshqa bir grupp varvar qabilalari Pireneya yarim oroliga bostirib kirdi. Bular svevlar bilan vandallar edi. Svevlar yarim orolning shimoli-g'arbiy qismini bosib oldilar, vandallar janubga kirib borib, birmuncha vaqtgacha Gvadiana daryosi janubidagi territoriyada yashadilar. Hozirgi vaqtda ham shu oblast Andaluziya deb ataladi (dastlabki vaqtlarda Vandalusiya deb atalar edi. Vandallar bu yerdan qirol Geyzerix boshchiligida SHimoliy Afrikaga hujum qildilar. Vandallar SHimoliy Afrika aholisining quyi tabaqalari orasida Rim xukumatinin va katta quldorlarning e'tibori yo'qligidan foydalanib, bu keng territoriyani bosib oldilar va 439 yilda Rim imperiyasi territoriyasida ikkinchi varvar qirolligini vujudga keltirdilar, bu davlatning poytaxti qadimgi Karfagen bo'ldi. Vandallar Rim zodagonlarining juda ko'p yerlarini ham musodara qildilar. Lekin ularning o'zlarida ham zodagonlar tezlik bilan tarkib topmoqda edi, bu zodagonlar bosib olingan yerlar, olingan qullar va boshqa xil o'ljalar hisobiga boyib ketdi. Vandal zodagonlari Italiyaga qilingan bosqinchilik hujumlari natijasida ayniqsa boyigan edi. 455 yilda vandallar Rimni bosib olib, vestgotlarning 410 yildagi talon-torojidan battarroq misli ko'rilmagan darajada

taladilar va vayron qildilar. Vandallar Rimning eng nodir qadimgi yodgorliklarini ayovsiz buzib tashladilar. SHu sababli «vandalizm» degan soʻz madaniyat yodgorliklarini vahshiyona vayron qilish timsoli boʻlib qoldi.

**Burgundiya qirolligi.** V asr oʻrtalarida 443 yil bilan 457 yil oraligʻida Rona daryosi havzasida yana bir varvar qirolligi vujudga keldi, bu qirollikning poytaxti Lion shahri

boʻldi. Bu Burgundiya qirolligi boʻlib, hajmi jihatidan birmuncha kichikroq boʻlsa-da, hozirgi Frantsiyaning janubi-sharqini, geografik va strategik jihatdan juda muhim va serhosil joyni ishgʻol qildi. Bu qirollik vujudga kelishi natijasida imperiyaning shimoliy Galliya bilan aloqasi uzilib qoldi. SHunday qilib, oʻrbiy Rim imperiyasi oʻsha vahtdan boshlab haqiqatda birgina Italiyaning oʻz doirasi bilan cheklanib qoldi. Burgundlar ham mahalliy galliyalik-rimlik zodagonlarning yerlarini tortib oldilar, lekin bu tortib olish vestgotlar oʻtkazgan. musodaraga qaraganda birmuncha kichikroq hajmda boʻldi. Burgundlar son jihatidan xiyla oz boʻlib, IV asrda uzoq vaqtgacha yuqori Reynda rimliklar bilan yonma-yon yashadilar (ularning oʻsha vaqtdagi poytaxti Vorms shahri edi), ular tez vaqt ichida romanlashib, V asrdayoq latin tilini, rimliklarning urf-odatlarini va ularning mulkiy munosabatlarini oʻzlashtirib oldilar. Biroq, shunga qaramay, Burgundiyaning asosiy aholisini bu yerda oʻzlariga chek yerlar olgan varvar dehqonlar tashkil etar edi.

**Atilla zamonida xunnlarning tashqi siyosati.** Vestgot, Vandal va Burgundiya qirolliklarining vujudga kelishi bilan oʻrbiy Rim imperiyasining ahvoli nihoyat darajada mushkullashib qoldi. Bu vaqtda imperiyani idora qilib turgan imperator Valentinian III (425-455) sonda bor, salmoqda yoʻq bir odam edi. Lekin uning ministri (uni tarixchilar baʼzan «soʻnggi buyuk rimlik» deb atar edilar) Aetsiy xiyla romanlashgan varvarlarning birini ikkinchisiga qarshi ishga solib, imperiyani saqlab qolishga zoʻr berib harakat qildi.

V asr oʻrtalarida imperiya uchun eng xavfli dushman yuqorida aytib oʻtganimiz xunlar boʻldi. V asrning dastlabki uchdan bir qismi ichida xunn qabilalari gʻayratli va shijoatli qirol Attila (435-453) qoʻl ostida birlashdilar. Attilaning poytaxti Tiosa qirgʻogʻi-hozirgi Vengriya territoriyasida edi. SHu joydan Attila uzoq-uzoq joylarga Bolqon yarim oroliga, Kichik Osiyoga, Armanistonga va hatto Mesopotamiyaga yurishlar qildi. Attila olib borgan urushlar ochiqdan-ochiq bosqinchilik, talonchilik urushlar edi. Unga Vizantiya (SHarqiy Rim) imperatori katta xiroj toʻlar edi. Dunay yonida yashovchi koʻpgina slavyan qabilalari Xunnlarga qaram edilar. 50- yillarning boshida Attila gʻarbga yurish qildi va 451 yili Galliyaga bostirib kirib, bu yerda koʻp shaharlarni bosib oldi hamda Galliyaning eng muhim strategik punkti boʻlgan Orlean shahrigacha yetib bordi. Uzoq vaqt qamal qilingandan keyin Orlean Xunlar tomonidan olindi, lekin Aetsiy Attilaga qarshi varvarlar federatsiyasini tuzishga muvaffaq boʻldi va Attilani Orleandan chiqib ketishga majbur qildi. Attila koʻp sonli lashkarlari bilan birgalikda yanada sharqqa - orqaga burilib (Sans shahri orqali) Trua shahri tomonga qarab yoʻl oldi.

Harbiy xizmat butunlay ular zimmasida edi, rimliklar harbiy xizmat oʻtashdan ozod qilingan edilar; din jihatidan ham ular katolik emas, balki arian



edilar, mahalliy aholi esa katolik dinida edi. SHunday qilib, Teodorix siyosati zamirida katta ziddiyatlar bor edi. Bu siyosat SHarqiy Rim imperiyasi bilan qayta qo'shilishi orzusida bo'lgan rimlik quldor zodagonlarni qoniqtirmas edi. SHu bilan birga Teodorixning italiyaliklarga nisbatan jonkuyarlik bilai munosabatda bo'lishi, o'zini ilgari imperatordarntsnng vorisi deb hisoblashi, rimliklarning bilimdonligiga tan berishi, yerlarni yangidan musodara qilishni xohlamasligi-bularning hammasi got zodagonlari va oddiy jangchi-ostgotlar orasida unga qarshi norozilik tug'dirdi. Teodorix o'z mavqeining mustahkam emasligiga qirolligining oxirgi davrida o'zi ham amin bo'ldi, bu davrda o'zining yuqori mansablardagi ba'zi rimlik amaldorlarining fitnachilik bilan shug'ullanib, imperator saroyi bilan maxfiy muzokaralar olib borganligi fosh qilindi. O'sha vaqtdagi Rim papasi ham davlatga xiyonat qilishda ayblandi, u Konstantinopolga maxsus safar qilgan va u yerda uni imperator alohida izzat-ikrom bilan kutib olgan edi.

Teodorix vafotidan keyin Ravenna saroyida ikkita gruppaga bir-biri bilan qattiq kurash olib bordi: bular-dan biri - Konstantinopol bilan ittifoq tuzish tarafdori («Rim guruhi»), ikkinchisi - mustaqil siyosat yuritish va rimlik quldorlarni yanada cheklash tarafdori («Got guruhi» yoki «Eski got guruhi») edi. Bu janjallardan vizantiyaliklar foydalandilar. Imperator YUstinian I zamonida vizantiyaliklar ostgotlar Italiyasini istilo etdilar va butun Apennin yarim orolini Vizantiyaga qo'shib oldilar. Lekin Italiyani Vizantiya osonlik bilan bosib olmadi. Gotlar urushi 20 yildan ortiq davom etdi. Ostgotlar o'zlarini juda qattiq himoya qildilar. YAngi saylangai ostgot qiroli Totila (541-552) Vizantiyaga qarshi kurashga, ostgotlardan tashqari, ezilgan italiyaliklarning bir qismini ham tortdi. Ostgotlar qo'shiniga, ijtimoiy chiqishi kim bo'lishiga qaramay, qullar bilan kolonlar qabul qilindi qul va kolonlar shu bilan erkinlikka chiqdi. Avvaliga Totila muvaffaqiyat qozonib turdi. U vizantiyaliklardan Italiyaning kattagina qismini qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi. U flot qurdi, Sitsiliyani va O'rta dengizdagi yana boshqa orollarni bosib oldi. Biroq Vizantiyadan yetib kelgan yangi qo'shinlar ostgotlarni mag'lubiyatga uchratdi (552). Vizantiyaliklar Arianlik IV va V asrlarda xristian cherkovida juda kupchilikki tashkil qilgan bir mazhab bo'lib, asosan imperiyaning sharqiy viloyatlarida, shuningdek, varvarlar orasida - ostgotlar, vestgotlar, vandallar, burgundlar va boshqalar orasida keng tarqalgan edi. Bu mazhabga asos solgan kishi aleksandriyalik Ariy degan bir ruhoni bo'lib, u, Iso xudo - xudo-padar emas, balki xudo tomonidan yaratilgan, deb targ'ib qilgan.

Italiyani 555 yilda batamom bosib oldi. Ostgotlarning deyarli hammasi qirib tashlandi. Butun Italiya vayron va xarob bo'ldi. Teodorix zamopida qishloq xo'jaligi, hunarmandlik va savdo bir oz rivojlangan edi, bu ham vayronlik solgan urush natijasida yo'qqa chiqdi.

Imperator YUstinian farmonlar chiqarib, Italiyada ilgari quldorlik tuzumini tikladi. Totilaning qullar va kolonlar to'g'risidagi farmon va hukmlari bekor qilindi.

SHimoliy Italiyaning langobardlar tomonidan istilo qilinishi. Vizantiyaning Italiyada hukmronlik qilishi uzoqqa bormadi. 568 yilda SHimoliy Italiyaga yangi varvarlar-langobardlar bostirib kirdilar. Langobardlar oldin Elbaning chap qirg'og'ida yashagan bo'lib, svev qabilalariga qarindosh edi. Langobardlariing

boshlig'i qirol Alboin edi. Yangi davlatning poytaxti Paviya shahri bo'ldi. Italiyada langobardlarning nomi shu mahalgacha ham saqlanib qolgan-hozirgi shimoliy Italiya Lombardiya deb ataladi.

Langobardlar istilosining o'ziga xos bir qancha xususiyatlari bor edi. Birinchidan, langobardlar shimoliy va qisman o'rta Italiyani batamom ishg'ol qildilar, mahalliy quldor zodagonlar bilan hech qanday bitimga kelmadilar. Ular Apennid yarim oroliga rimliklarning federatlari sifatida emas, balki ularni istilo qiluvchilar sifatida keldilar. Ikkinchidan, langobardlar Rim quldorlarining juda ko'p mol-mulkini musodara qildilar. Masalan, biz yuqorida ko'rib o'tganimizdek, vestgotlar, ostgotlar yoki burgundlar yerning uchdan bir yoki uchdan ikki qismini musodara qilgan bo'lsalar, langobardlar esa bunga qoniqmay, badavlat rimliklarning pomestelarini butunlay tortib oldilar. Ko'pdan-ko'p rimlik quldorlar qulga aylantirildi, bir qismi oila a'zolari bilan boshqa mamlakatlarga sotib yuborildi. Langobardlar istilosining uchinchi xususiyati ulardagi ijtimoiy tuzumning o'ziga xos xislatidan kelib chiqdi. Langobardlar Italiyaga kelgan vaqtlarida ularda urug'chilik aloqalari birmuncha mustahkam edi. Ularda Rim madaniyatining ta'siri hali juda kuchsiz edi. Ularning Italiyada joylashuvining o'zi ham hali xiyla darajada urug'chilik tusida edi. Buni «fara» (yoki «fari») degan so'z ko'rsatib turadi, bu so'z langobardchasiga «urug'» degan ma'noni bildirib, hozirgi SHimoliy va Urta Italiyadagi jo'pchilik shahar va qishloqlar nomida saqlanib kelmoqda. Langobardlar istilosi natijasida xiyla katta va kuchli varvar qirolligi vujudga keldi; bu qirollikda juda ko'p dehqonlar va ancha erta tashkil topgan ko'p yerli, kuchli zodagonlar bor edi. VII asrda langobard zodagonlari o'zlarining eng nufuzli vakillari bo'lgan gertsoglar orqali o'z qirollari bilan qattiq kurash olib bordilar, qirollar esa yer magnatlariga qarshi shimoliy Italiya shaharlariga tayanishga harakat qildilar, u vaqtda bu shaharlar iqtisodiy jihatdan hali bir qadar ahamiyatga ega edi.

Langobard qirolligi bilan bir vaqtda Italiyada VI-VII asrlarda yana bir siyosiy tashkilot papalik vujudga keldi. Italiyaga langobardlar kelgandan keyin ham rimlik yepiskoplar-papalar rasman o'zlarini SHarqiy Rim imperatorlarining oliy hokimiyati qo'l ostida deb hisoblab keldilar. Haqiqatda esa Konstantinopolga bo'lgan bu qaramlik kundan-kun yo'qola bordi. Papalar asta-sekin O'rta Italiyaning mustaqil hukmdorlariga aylana boshladilar, Rimning va Rim oblastinng ham diniy, ham dunyoviy hokimi bo'lgan birinchi papa Grigoriy I (590-604) bo'ldi. Langobard qirollari keyincha papa oblastini o'z-hokimiyatlariga bo'ysundirishga harakat qildilar, lekin bu harakat natija bermadi. Papalar frank qirollaridan iborat ittifoqchilarga ega edilar. VIII asrning yarmida ular shu frank qirollarinipg yordami bilai o'zlarining papa cherkovi davlatini uzil-kesil tashkil etdilar, bu davlat ham, shunday qilib, ilgarigi Rim imperiyasining o'ziga xos bir qoldig'i edi.

**Varvarlar istilolarining natijalari.** SHunday qilib, o'arbiy Yevropa kartasi eramizning V va VI asrlari ichida butunlay o'zgarib ketdi. o'oyat katta o'arbiy Rim imperiyasi tamomila yo'qoldi. SHarqiy Rim imperiyasi esa Vizantiya degan nom bilan yashab keldi, biroq uning sharoitlari va aloqalari boshqacha edi (u asosan slavyanlar va SHarq Osiyosi bilan aloqa qildi). Yevropada davlat tuzumi ibtidoiy

bo'lgan o'nlab mayda-mayda varvar qirolliklari vujudga keldi. Lekin bu o'zgarish faqat siyosiy o'zgarishlardangina iborat emas edi.

Xalqlarning Buyuk ko'chishi deb atalgan ko'chishning tarixiy ahamiyati uning ijtimoiy natijalaridadir. Bu ko'chish xalqlarning shunchaki bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi emas edi. Bu ko'chish dunyodagi eng katta imperiyalardan birini istilo qilishdangina, yemirishdangina iborat emas edi, Bu ko'chish - antik quldorlik tuzumining halok bo'lishi edi. YUqorida ko'rib o'tganimizdek, varvarlar imperiyani istilo qilish protsessida Rim jamiyatidagi ezilgan sinflar bilan-qullar va kolonlar bilan birgalashib ish ko'rdilar. SHunday qilib, kullar bilan kolonlar quldorlik tuzumini yiqitishda bevosita, aktiv ishtirok etdilar. Ularning ko'pi varvarlar qo'shini safiga kirdi. Qolganlari esa xo'jayinlarining qo'lidan ko'plab qochib ketdi, bu vaqtda xo'jayinlar qochoqlarni qaytarnb olib kelishdan ojiz edilar. Oqibat-natijada Rim qullari va kolonlari dehqonlar ommasiga aylandilar, kelgindi varvar dehqonlarning bu dehqonlardan farqi shu ediki, kelgindilar bularga qaraganda erkinroq va mustaqilroq edilar.

Darhaqiqat, varvar zodagonlari orasidan chihqan yangi yer egalari yer olish bilan birga bir nechta qul ham olgan edilar. Lekin, birinchidan, ular oladigan qullar juda ham oz bo'lar edi, chunki o'sha vaktida quldorlik latifundiyalarida qullarning soni umuman juda kamayib ketgan edi; ikkinchidan, eski xo'jayinlariing, ya'ni Rim quldorlarining o'rnini olgan yangi xo'jayinlar qullarni odatda darhol obrok to'laydigan dehqonlarga aylantirar edilar. Qullikning plantatorlar tomonidan ko'llanilgan formasini (yoki kazarma formasini) german zodagonlari ilgari ham haddan tashqari murakkab va beso'naqay forma deb hisoblar edilar. Plantatorlardagi qullik yangi sharoitga (ko'p qullar yaqinda ozod bo'lib kstgan edi, markazlashgan politsiya apparati yo'q edi, varvar qirolliklarining davlad hokimiyati kuchsiz edi va hokazo) ayniqsa to'g'ri kelmas edi. Quldorlik hukmronligini yo'q qilib tashlagan buyuk o'zgarish natijasida eskicha, rimcha qullik ma'nosidagi qulchilik uzil-kesil yo'qoldi. Eski quldor zodagonlarning yer-mulkleri juda ko'p yangi yer egalari o'rtasida bo'lipib ketdi. Bu yangi yer egalarning bir qismi yangi, varvar aristokratlar bo'lib, bular keyingi o'rta asr feodallarinig eng yaqin o'tmishdoshlari edilar. Yerlarning bir qismi esa varvar dehqonlar qo'liga o'tdi, bu dehqonlar shaxsiy erkinliklarini hali saqlab qolgan va o'zlarining jamoa tartiblarini yangi joyga ko'chirib olib kelgan edilar, bu jamoa tartiblari sinflar paydo bo'lmasdan ilgarigi urug'chilik tuzumi bilan bog'langan edi.

**Xlodvig davri diplomatiyasi.** Xlodvigning podsholik tarixi (481-511) yepiskop Grigoriy Turskiyning «Franklar tarixi» degan kitobida mufassal bayon qilingan bo'lib, Turskiy bu-kitobni apcha keyinroq, VI asrning ikkinchi yarmida yozgan. Franklar hayotida ro'y bergan katta-katta voqealar Xlodvig nomi bilan bog'langandir. Xlodvig 486 yilda butun shimoliy Galliyani istilo qildi. Rimning bu oblasti hali varvarlar tomonidan zabt etilmagan bo'lib, Rim imperiyasi qulagandan keyin SHimoliy Galliyaning amalda qiroli bo'lib qolgan Siagriy degan rimlik bir mahalliy magnat tomonidan idora qilinar edi, bu oblastning markazi Parij edi. Siagriy franklarga sal bo'lsa-da, jiddiy bir qarshilik ko'rsata olmadi. Suasson shahriga yaqin bir joyda qat'iy jang bo'ldi. Rim qo'shini franklar tomonidan tor-

mor etildi. Siagriy vestgotlar qiroli huzuriga qochdi, lekin vestgotlar qiroli uni Xlodvigga tutib berdi. Xlodvig asirni o'ldirishga buyruq berdi. U Katta va muhim bir territoriyani - Sena va Luara daryolari havzasini zabt etib olib, Xlodvig franklarga juda mo'l-ko'l yer bo'lib berish imkoniga ega bo'ldi. Daryolari juda ko'p, yeri serhosil, dehqonchilik uchun qulay buxzor va qayinzor o'rmonlarga boy bo'lgan keng, lekin rimliklar vaqtida huvullab qolgan bu rayonga boshdan-oyoq franklar ko'chib keldi. Bu rayonga ko'chib kelib joylashgan franklar soni hali Reynning narigi tomonida yashab kelayotgan franklar ichidan yana ahen-ahyonda ko'chib kelib turgan kishilar hisobiga ko'payib bordi. Xlodvig o'z podshohligining oxirgi davrida Luaraning janubiga ancha jilib borib, Goronna daryosigacha yetdi. Vestgotlar Gallianing janubidagi yerlardan bir oz qisminigina saqlab qoldi, xolos. Xlodvig, Burgundiyani ham bosib olishga harakat qildi, lekin bu maqsadini amalga oshirmadi, burgund qiroli saroyiga o'z ta'sirini o'tkazish bilangina cheklanib qo'ya qoldi.

90-yillar o'rtasida Xlodvig xristianlikni qabul qildi. Dastlab xristianlikni Xlodvigning o'zi va drujinasi qabul qildi. Keyin oddiy franklar va ularning oila a'zolari ham qabul qildilar. Varvarlarning xristian dinini qabul qilishining o'zi muhim bir fakt edi, chunki bu narsa ularning romanlashuvidan dalolat berar edi. Lekin franklarning xristianlashuvi ikkinchi bir yanada muhimroq ahamiyatga ega edi. Varvarlarning ko'pchiligi (vestgotlar, ostgotlar, vandallar, burgundlar, langobardlar) xristianlikni arianlik deb atalgan formada qabul qilgan bir vaqtda (arianlik-katolik cherkoviga nisbatan bir mazhab edi) franklar arianlikni qoldirib, xristianlikni to'g'ridan-to'g'ri galliya-rim katolik ruhoniylaridan qabul qildi. Bu narsa Frank korolligining yanada rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Galliya va Rimdagi e'tiborli mahalliy ruhoniylar Xlodvigni va boshqa Frank qirollarini zo'r berib qo'llab-quvvatladilar. Bu narsa franklarning Galliya janubidagi qolgan yerlarni Bestgotiya va Burgundiyani bo'ysundirishlarini ancha osonlashtirdi hamda franklarning o'z orasida ham qiroli hokimiyati ta'sirining ortishiga ancha yordam berdi. Xlodvig qolgan barcha sali va ripuar qirollarini sekin-asta qira borib, yangi juda katta qirollikning yakkayu yagona qiroli bo'lib oldi, bu qirollik (reynning narigi tomonidagi yerlardai tashqari) Gallianing to'rtidan uch qismini o'z ichiga olar edi.

Xlodvigning o'g'il va nevaralari qirollikni tez-tez bo'lib va qayta bo'lib turishlariga o'zaro urushlar olib borib turishlariga qaramay, qirollikning chegaralarini kengaytirishga davom ettirdilar. 534 yilda ular Burgundiyani zabt etdilar, 542 yilda Vestgotlarning Galliyadagi oxirgi yerlari ham bosib olindi. Reynning narigi tomonida esa Alemaniya, Tyuringiya, Bavariya hamda saks qabilalarining ba'zilar franklar-ga bo'ysundi. VI asrning ikkinchi yarmida Frank korolligi barcha varvar qirolliklari ichida eng katta qirollik edi. Ilgari Teodorix davrida ostgotlar qo'lida bo'lgan gegemonlik eidi franklar qo'lga o'tdi.

**Karl Buyuk diplomatiyasi.** Karl Buyukning shaxsan o'zi 50 dan ortiq yurishda qatnashdi. U Yevropaning turli joylarida urush qildi. U avvalo langobardlar masalasiga juda katta e'tibor berdi. Langobardlar Pipin tomonidan tormor qilingan bo'lishiga qaramay, langobardlar saroyida franklar bilan ittifoqda bo'lishga qarshi turgan guruh bor edi. 773-774 yillarda Karl langobardlarga qarshi

yana urush ochdi. U langobardlar poytaxti Paviyani bosib oldi va langobardlar qiroli Dezideriyni taxtdan tushirdi. Langobardiya shundan keyin o'z mustaqilligini yo'qotdi, frank qirolligiga qo'shib olinib, graflar tomonidan idora qilina boshladi. Keyincha Karl Langobardiyaga o'zining o'g'li Pipinni vitse-qirol qilib tayinladi.

VIII asrning 70-yillarida Karl arablar bilan ham urush kildi. U 778 yilda Pireneya tog'lari orqasiga yurish qilib, Saragosa shahrini bosib olishga harakat qildi. Yurish muvaffaqiyatsiz chiqdi, Saragosani ololmadi. Qaytishda Ronseval darasida franklar arergardiga mahalliy aholi basklar hujum qildi. Bu jangda franklar otryadi deyarli butunlay qirib tashlandi. Halok bo'lganlar qatorida Bretan markasining grafi Roland ham bor edi. Keyincha bu epizod «Roland haqida qo'shiq» nomli mashhur dostonga tema bo'ldi, bu doston ancha keyin yozildi (XI asrning ikkinchi yarmida batamom yozilib bo'ldi). 773 yilda Ispapiyada qilingan yurish muvaffaqiyatsizlikka uchragai bo'lsada, franklarning Pireney tog'laridanoshib o'tishlarining o'zi diqqatga sazovordir. Keyinchalik, VIII asrning oxiri va IX asrning xuddi boshida franklar Pireneya tog'lari orqasiga yana birnechamarta harbiy yurish qildilar; bu yurishlar natijasida Pireneya tog'lari bilan Ebro daryosi o'rtasidagi oblast bospb olindi. Bu yerda Ispan markasi deb atalgan alohida bir chegara okrug tuzildi, bu okrugga keyincha Barselona grafligi deb nom berildi. Notinch Akvitanিয়া ustidan nazoratni kuchaytirish uchun Qarl u yerga boshqa bir o'g'li Lyudovikni noib qilib tayinlab, unga Akvitanিয়া qiroli unvonini berdi. Lekin Karl Buyuk urushlarning ko'pini sharqda - Markaziy Yevropada olib bordi. U sakslar bilan bo'lgan urushlarga ayniqsa ko'p kuch sarf qildi. Bu urush qattiq bo'lib, 30 yildan ortiq (772 yildan 804 yilgacha) davom etdi. Franklarni hisobga olmaganda, sakslar o'arbiy Germaniyada yashagan qabilalar ichida eng katta qabila edi. Ular Reyndan Elbagacha cho'zilgap juda katta territoriyada o'mashg'an edi. Sakslarning Karl zamonidagi ijtimoiy tuzumida urug'chilik tuzumi alovdatlari, uning barcha yaxshi va yomon tomonlari hali anchagina saqlanib qolgan edi. Sakslarning asosiy ommasi urug'chilik aloqalari va qabila ichidagn aloqalar bilan o'zaro mahkam bog'langan erkin dehqonlar, shu bilan bir vaqtda jangchilardan iborat edi. Biroq, ular tarqoq holda bo'lib, juda ko'p qabilalarga va qabilaviy guruhlariga bo'lingan edi, bu qabilalar va qabilaviy guruhlar uzluksiz ravishda bir-biri bilan urushib turardi. Ularning shllab chiqaruvchi kuchlari darajasi (dehqonchilikda asosan partov sistemasi ho'llanardi, mollar yaylovda boqilar edi), shaharlar va savdo mutlaqo yo'q edi, shuningdek, ularning qurol-aslahalari va urushish usullari (yaxshi qurollanmagap dehqon piyoda lashkarlari asosiy o'rin tutar edi) franklarning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot darajasidan past edi, franklar bu vaqtda feodallashuv va romanlashuv sohasida juda olg'a qarab ketgan edilar. Feodallashib borayotgan frank zodagonlarining sakslarga qarshi olib borgan urushi feodallarga xos urush edi. Franklar o'z oldilariga sakslar yerini bosib olish va ularning o'zini krepostnoylarga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan edilar. Saksoniyaga qarshi urushning sababi bor edi. Karl Boltiq dengiziga chiqishga harakat qildi, Boltiq dengizi VIII asrning oxiri va IX asrning boshlarida katta savdo ahamiyatiga ega edi (skandinavlar, slavyanlar va arablar savdosi shu Boltiq dengizi orqali olib borilar edi). Frank qiroli Boltiq savdosidan katta-katta xirojlar olishni mo'ljallar edi.

Karl sakslarni dastlab VIII asrning 70- yillarida bo'ysundirdi. Avval g'arbiy sakslar - vestfallar (ular Reyn va Vezer daryolari o'rtasida yashar edilar) bo'ysundirildi. Ularning ketidan ostfallar ham bo'ysundirildi (ular Vezer daryosining sharkida yashar edilar). 777 yilda Paderbornda bo'lgan s'ezdda saks qabilalari ko'pchiligining boshliqlari Karlga qasamyod qildi. Karlning buyrug'iga binoan, sakslarining hammasi majusiylilik dinidan xristian diniga o'tishlari kerak edi. Saksoniyaga ko'pdan-ko'p frank ruhoniylari keldi, hamma yoqda cherkovlar qurila boshladi, sakslar cherkovga ushur (hosilning o'ndan birini) to'lashga majbur etilgan edilar. Lekin, shundan keyin tez orada 778 yildan boshlab sakslar bir necha marta katta qo'zg'olon ko'tardilar. Bu qo'zg'olonlardan kuzatilgan maqsad franklar zulmidan xalyus bo'lish edi. Karl bu qo'zg'olonlarni juda ham rahmsizlik bilan bostirdi. Minglab sakslar qatl etildi. Qo'zg'olonchilarning ko'pi qulga aylantirildi. Dastlab sakslarning qo'zg'olonlarida ularning zodagonlari ham qatnashdi. Lekin Karl zodagonlarni sekin-asta o'z tomoniga og'dirib olishga muvaffaq bo'ldi. Qo'zg'olon ko'targan sakslarning asosiy boshliqlaridan biri - vestfallar gertsogi Vigukind qimmatbaho in'omlarga sotilib, 785 yilda sakslarga xiyonat qildi va Qarl tomoniga o'tdi.) Sakslarning IX asr boshlaridagi so'nggi hafakati deyarli nuqul «oddiy sakslar» harakati tusida bo'lib, asosan Saksonyaning shimolida (Nordalbingiyada) o'tdi. Nihoyat, sakslar bo'ysundi va Frank qirolining fuqarosi sifatida frank graflari tomonidan idora qilinadigan bo'ldi. Sakslarning itoatsizroq qismi Reyn daryosining chap qirg'og'iga - franklar orasiga chekindi, frank kolonistlari esa qaytadan Reyn daryosining kirg'og'iga, ya'ni bir vaqtlarda frank qabilalarining ittifoqi vujudga kelgan yerga o'tib joylashdi. Sakslar bilan urishish vaqtida Karl SHarqiy Yevropadagi boshka xalklar bilan ham urush olib borishga majbur buldi. Polab slavyanlari bilan urushdi va bu qabilalardan ba'zilariga - lyutichlarga va lujichanlarga - xiroj soldi. Dunayning o'rta oqimidagi kuchli Avariya podsholigi franklarga qaram bo'ldi. Dunayning yuqori oqimidagi Bavariya kopolligi tamomila bosib olindi, ilg'ari bu qirollik franklarga onda-sonda xiroj to'lay turar edi. Xarutan-slovenlardan i,borat janubiy slavyan qabilalari yashaydigan Xorutaniya (Karintiya) shuningdek, Bolqon yarim orolining shimoli-g'arbidagi xorvat yerlari Bovariya bilan birga Frank davlatiga qushib olingan edi. Xorutaniya Frank davlati sostavida uzoq turmadi. Istilolar natijasida Karl Buyuk zamonida Frank davlati juda kengayib ketdi. Uning chegaralari g'arbda Ebro daryosi, Pireneya tog'laridan Atlantika okeanigacha, sharqda Elba va Dunay daryolari va Adriatik dengizi qirg'oqlarigacha, shimolda Friz (yoki Nemis) va Baltika dengizlarigacha, janubda deyarli janubiy Italiyagacha bordi. Sal ilgariroq vujudga kelgai Papa davlati ham Karl Buyuk davrida haqiqatda unga buisunuvchi vassal davlat bo'lib qoldi.

**Imperiyaning e'lon qilinishi.** Frank qirol qul ostidagi yerlarning juda kengayib ketishi, tabiiy, Karl Buyukni va uning maslahatchilarini unvonini (titulni) o'zgartirish to'g'risida o'ylashga majbur qildi. 809 yilda Karl Rimda bo'lgan vaqtida papa unga «rimliklar imperatori» tojini kiydirdi, «Rimliklar imperatori» degan ta'rifning qiziq joyi shundaki bu ta'rif Rim traditsiyasining IX asrda ham odamlarga juda katta ta'sir o'tkazganligini ko'rsatadi. Karl franklar imperatori deb emas, balki rimliklar imperatori deb e'lon qilindi, vaholanki, bu vaqtda endi

rimliklar degan xalq yo'q edi. Bir oz vaqtdan keyin SHarqiy Rim - Vizantiya imperatori ham Karlning «bazilevsa» (gerkcha imperator demakdir) unvonini tan olishga majbur bo'ldi, u dastlabki vaqtlarda bunga qattiq qarshilik qilib kelgaidi. Karlning zamondoshi Bog'dod xalifasi Xorunal ar-Rashid ham Karlni imperator deb tanidi va bular bir-birlariga elchilar yuborishdi.

**Rim papalari diplomatiyasi.** Rim diplomatiyasi an'analari varvar podshohlilari o'rtasida nafaqat Vizantiya orqali, balki qadimgi imperator devonining juda ko'p an'ana va yo'l-yo'riqlarini o'zida jamlagan papa kuriyalari orqali ham keng yoyilgan edi.

Papa diplomatiyasining ta'siri o'rta asr siyosiy tarixining barcha jabhalarida o'zining kuchli ko'rinishini bergan. **Papa Lev I** ("Buyuk" – 440-461 y.y.) o'zining muvaffaqiyatli diplomatiyasi bilan Evropada kuchli obro' qozongan edi. 452 yilda Italiyaga bostirib kirgan Attila bilan muzokarada erishgan muvaffaqiyati uni mashhur qildi.

G'arbiy Rim imperiyasining qulashi va Italiyada varvarlar hokimiyatining o'rnatilishi natijasida papalikning xalqaro ahvoli ancha og'irlashgan edi. Papalar Vizantiya imperatoridan najot so'rab, uni Italiya ishlariga aralashishga da'vat etishardi. 5 asrning o'rtalaridan boshlab G'arbda imperator hokimiyatining qulashi natijasida papalar Konstantinopol bilan yaqindan aloqa bog'laganlar. Papalar Konstantinopol saroyida **apokrisiarlar** deb atalgan doimiy diplomatik vakillarni saqlab turganlar. Apokrisiarlarga cherkov ishlaridan tashqari Vizantiya saroyidagi siyosiy holatni kuzatib turish ham topshirilgan edi. Apokrisiarlar ayrim shaxsiy imtiyozlardan foydalanib, bevosita imperator bilan muzokara olib borish huquqiga ega bo'lganlar va imperator saroyidagi maxsus binolarda yashaganlar. Papaning doimiy vakillari bo'lgan apokrisiarlardan alohida cherkov vazifasi va siyosiy topshiriq yuklatilgan papa elchilari - legatlarni farqlash lozim.

YUstinianning Italiyani bosib olishi va tez orada uning ketidan langobardlarning Appenin yarimorolining katta qismini zabt etishlaridan keyin papalar Vizantiya imperatoriga nomigagina tobe bo'lib, aslida mustaqil Rim hukmdorlariga aylangan edilar. Ularning Vizantiya va langobardlar bilan murakkab diplomatik o'yin olib borishiga to'g'ri keldi. Vizantiyaning ta'siri asta-sekin kuchsizlanib borardi. G'arbda esa franklar davlati katta rol o'ynay boshladi. Papalar franklar davlatini langobardlar kabi Vizantiya imperiyasiga ham qarshi kurashida o'zlarining tayanchi hisoblardilar.

O'zlarining moddiy ahvolini yaxshilash, xristian dunyosining turli shaharlaridagi erlarni o'zlashtirish, xristian cherkovlari orasida birinchilikni saqlab turish va o'z ta'sirini o'tkazish maqsadida papalar qadimgi Rim imperiyasining poytaxti episkoplarining obro'sidan mahorat bilan foydalanganlar. Bu davr papalari ichida xalqaro aloqalarda **Grigoriy I** katta rol o'ynagan. U o'z faoliyatini Konstantinopol saroyidagi apokrisiar vazifasidan boshlagan va u erda yaxshi diplomatik ta'lim olgan. U arian-vestgotlarning va langobardlarning katoliklashtirishda shaxsan o'zi ishtirok etgan. Grigoriy papa hokimiyati obro'sini yuqori ko'targan.

Grigoriy I ning vorislari Vizantiya imperatorlaridan asta-sekin mustaqil bo'lib, mustaqil davlatga aylandilar. 7-asrdagi arablarning kurashlaridan

kuchsizlangan Vizantiya rim papalariga qarshilik ko'rsatolmay qoldi. Papalarning birgina Italiyadagi xavfli dushmani – langobardlar qolgan edi. Langobardlar podshohlik hokimiyatining kuchayib borishi Rimga doimiy xavf solardi. Papalar langobardlardan himoyalaniish uchun boshqa varvarlardan – franklardan yordam so'radilar.

754 yilgi kelishuvda langobard podshohi Rimni o'z holiga qo'yishga va papaga Ravenna, Rimina, Urbina va boshqa shaharlarni qaytarib berishga va'da qildi. Biroq langobard podshohining o'z majburiyatini bajarishi uchun yana bitta harbiy yurish lozim bo'ldi. SHu munosabat bilan Papalar oblasti tuzildi.

### **Salib yurishlariniig sabablari va ularning qatnashchilari.**

Salib yurishlarining sabablari qisman XI asrning ikkinchi yarmida YAqin SHarqda yuz bergan o'zgarishlardan, qisman feodal o'arbiy Yevropaning o'zidagi umumiy iqtisodiy taraqqiyot va keskin ijtimoiy ziddiyatlardan qidirmoq kerak.

XI asrda SHarkda Yevropa feodallarinnng hujum qilish-uchun juda qulay bnr vaziyat maydonga kelgan edi. Bir vaqtlar qudratli deb hisoblangan Bag'dod xalifaligi 1055 yilga kelib-batamom tarqaldi. Boshqa yirik davlat-Komninlar zamoni-dagi Vizantiya ham og'ir kunlarni boshidan kechirmoqda edi. Bolqon yarim oroliga bostirib kirgan pecheneglar Vizantiya imperiyaga shimol tomondan hujum boshlagan edilar. Sitsiliya normanlari g'arbdan Vizantiyaga xavf solmoqda edilar. Ammo saljuq turklari Vizantiya uchun ayniqsa xavfli edilar, ular Kichik Osiyoning katta bir qismini bosib olgan va ayni zamonda, Konstantinopolga qo'shni bo'lgan Nika shahrini o'zlariga poytaxt qilib olgan edilar. 1071 yilda turklar Mantsinkert shahari yonida vizantiyaliklarni qattiq mag'lubiyatga uchratdilar. YAngi imperator Aleksey Komnin (1081yildan idora qila boshlagan edi) garchi turklarning bir necha hamlasini to'xtatgan bo'lsa-da, lekin har holda, imperiyaning ahvolini mustahkam deya olmasdi. XI asrning 80 va 90-yillarida u turklarga qarshi yordam berishni so'rab papaga va Germaniya imeratoriga bir necha bor murojaat etdi. Ilgari yakkayu-yagona bo'lgan xristian cherkovi 1054 yildan e'tiboran ikkita raqib qismga -sharqiy (pravoslav) va g'arbiy (katolik) cherkovlarga qat'iy ajralib ketgan bo'lsa ham, Aleksey Komnin siyosiy maqsadlarni ko'zda tutib, papa boshchiligida bu cherkovlarni hatto qaytadan birlashtirishga ham tayyor edi. SHunday qilib, SHarqning ikkk eng yirik davlati — Arab xalifaligi bilan Vizantiya imperiyasi — salibchilarga biror-bir jiddiy to'sqinlik ko'rsatishdan o'jiz edilar. Buning ustiga, ulardan biri (Vizantiya hatto Yevropa feodallarini SHarq mojarolariga aralashishga da'vat etdi. Turklarga kelsak, XI asrning 80 va 90- yillariga keliboq ularning nomustahkam harbiy-qabila ittifoqi tarqalib keta boshlagan edi. Feodallashib borayotgan ayrim turk beklklari g'arb feodallarining hujumini to'xtata olmadilar.

Ammo salib yurishlarining, jumladan, birinchi salib yuri-shining asosiy sababi, axir-pirovardi, o'arbiy Yevropaning o'zi-dagi ijtimoiy ziddiyatlarning o'tkirlashib ketganligi edi. XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga yer yetishmas edi. Savdo-sotiq va shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlarning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning mahalliy dehqonlarni ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar yerdan butkul mahrum qilingan edilar, chunki feodallarga qarashli



yer-mulk va daromadlar (feod) odatda katta o'g'ilga berilar edi va kichik aka-ukalar esa otadan qolgan merosdan biror narsa olishga haqlari yo'q edi. SHarqdagi yerlarni bosib olish maqsadida u yerlarga yurishlar qilish bunday ritsarlarniig mushkul ahvoldan chiqishlarining birdan-bir yo'li edi. Yirik feodallar (knyazlar va baronlar) o'z sinflari ichidagi mojaro va ixtiloflarning oldini olish uchun ritsarlarning diqqat-e'tiborini boshqa narsalarga jalb etish muhimroq edi.

XI asr oxiri - XII asr boshpda salib yurishidagi g'oyat muhim masala-dehkonlar masalasi edi. o'arbiy Yevropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dehqonlari dastlabki paytlarda SHarqqa bajonu dil yo'l oldilar. Krepostnoy qaramlikdan xalos bo'lish, qarzlarni tugatish, SHarqdan yer olish umidi (shuni aytish kerakki, dehqonlarning geografik tasavvuri tamomila xayoliy, amalga oshmaydigan bir tasavvur zdi) o'n minglab kishilarning tug'ilib o'sgan shahar va qishloklarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi va ularning ko'plari bu joylarda och-yalang'och qolib, xor-zorlikda o'lib ketdi. Dunyoviy va ruhoniylar dehqonlarning SHarqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan ogir ahvoldan qutulishning o'ziga xos bir yo'li deb bilardilar. Bu narsa tovar-pul munosabatlari rivojlanishi bilan feodal-krepostniklik tuzumi keng tarqalayotgan va feodal ekspluatatsiyasi kuchayib borayotgan bir sharoitda Yevropada dehqonlar urushining to'g'ridan-to'g'ri boshlanib ketish xavfidan hukmron sinflarni qutqargan bo'lardi. Ko'pdan-ko'p monaxlar va boshqa daydi voizxonlar dehqonlar orasida targ'ibot yurgizib, ularni SHarqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da'vat etardilar. Biroq dehqonlar masalaning mohiyatiga darhol tushunib yetmagan bo'lsalar-da, lekin ohibat-natijada, ular gapning nimada ekanligini ochiq-oydin payqab oldilar. SHarqqa qilingan dastlabki ikki yurishda dexqonlar ko'pchilikni tashkil qilgan bo'lsalar, uchinchi yurishdan boshlab ular qatnashmay qo'ydilar. Bundan keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodallarning o'zlari qatnashdilar. Yevropa qirollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko'pdan-ko'p ritsarlar YAqin SHarqda, faqatArab SHarqidagina emas, balki Vizantiyada xam yangi feodal davlatlar barpo etish masalasi ochiq-dan-ochiq ko'zlay boshladilar. Quddus va Falastin masalasi, keyinchalik ularning rejalarida ikkinchi darajali masala bo'lib qolgan edi.

Italiya shaharlari, ayniqsa ulardan ikkitasi - Genuya bilan Venetsiya - salib yurishlarida juda faol katnashdilar. Bu shaharlarning floti salibchilarni SHarqqa tashib olib .bordi, salib lashkarlarini oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlab turdi. Bosib olingan xududlarni taqsimlashda bu har ikki shahar qatnashib, birinchi galda SHarqning portlari va bozorlarini o'zlariga monopoliya qilib olishga harakat qildilar. Lekin, shunga qaramay, shaxarlar salib yurishlarida harakatga keltiruvchi asosiy kuch e.mas edi.SHarqqa qilingan salib yurishlarini «muqaddas urushlar» deb e'lon etgan katolik cherkovi, tabiiy, bu yurishlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga intildi.

Bu vaqtga kelib papalik zo'r qudratga ega bo'ldi. Dunyoviy hokimiyat bilan olib borilgan to'qnashuvlarda papa impera-torning o'zini bir necha marta. mag'lubiyatga uchratdi. Salib yurishlari papalikka ko'pgina real foydalar keltirishni, par-chalanib ketgan feodal Yevropasiga siyosiy jihatdan rahbarlik qilishi, sharqiy «sxizmatiklar»ni, ya'ni sharqiy pravoslav cherkovining ajralib

ketgan xristianlarini Rimga bo'ysundirish uchun, katolik ruhoniylari katolitsizm mazhabiga o'tkazishni orzu qilgan SHarq musulmonlari orasidagi missionerlik faoliyati uchun juda katta ionalar to'plashi mumkin edi. Ana shu vajdan, papa Urban II 1095 yilning kuzida Janubiy Frantsiyaning Klermon shahrida ko'p kishilik cherkov yig'inini to'plab, unda so'zga chiqib «kofirlar»ga qarshi kurashmoq uchun SHarqqa jo'nab ketishga da'vat etdi. Urbanning asosiy da'vati «Iso payg'ambar qabrini» xristianlarga qaytarib olib berish va «muqaddao Falastinni xalos qilishdan iborat edi. Papa salib qatnashchilarining gunohidan kechishni va'da . qildi, shuningdek, u SHarqda salibchilarni kutayotgan boy o'lja haqida ham ochiqdan-ochiq aytdi. Yig'inda qisman frantsuz, qisman boshqa mamlakatlardan kelgan minglab ritsarlar hozir bo'ldilar. Feodallarning ko'pdan-ko'p yig'inlarini o'tkazish faktining o'zi shu narsani yaqqol ko'rsatadiki, papa bosh ko'tarib chiqmasdan ancha burun ritsarlar orasida keng propaganda olib borilgan va ularning bir qismi Falastinga salib yurishi o'tkazish rejasidan manfaatdor qilishga ulgurilgan. Papaning bu chiqishi ancha ilgari tayyorgarlik ko'rila boshlagan ishni tashkiliy va ideologiya jihatdan rasmiylashtirishdan iborat bo'ldi, xolos.

**Qadimgi Rus diplomatiyasi.** IX asrda Dneprbo'yi va unga tutash erlarda Rus nomini olgan va butun sharqiy slavyanlarni birlashtirgan qudratli **Qadimgi Rus davlati** shakllandi. Kiev knyazlari o'zlarining hokimiyatlarini barcha yo'nalishlarda yanada kengaytirishga harakat qildilar. SHarqiy Evropaning slavyan qabilalari va boshqa qabilalar alohida hurmatga ega edilar. Boltiq dengizining Volxova bilan, Dneprning Qora dengiz bilan va Volganing Kaspiy dengizi bilan tutash qulay suv yo'lidagi geografik joylashuvi Qadimgi Rusning janubda Vizantiya va bolgar davlatlari bilan, SHarqda Hazar hoqonligi bilan, shimolda Skandinaviya bilan aloqalarini ta'minlar edi. Rusning so'nggi Kiev knyazlari bilan ilgaridan sulolaviy aloqalari mavjud edi. U erdan knyazlar yollanma harbiy kuchlarni to'plaganlar, u erdan varyaglarning sayohatchilari uzluksiz oqib kelishgan. Hazar orqali O'rta Osiyoga savdo yo'li o'tgan bo'lib, ruslar u erga qullarni va mo'ynalarni tashiganlar. Ayni vaqtda esa Hazar hoqonlari Qadimgi Rus knyazlari bilan Dneprbo'yi xalqlaridan soliq olishda talashishgan. Vizantiya bilan qo'shnichilik SHarqiy slavyan tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Vizantiya Qadimgi Rus uchun knyazlarning teri, qul o'tkazib sotadigan va oltin ip bilan to'qilgan gazlama, zeb-ziyatlar olib qaytadigan bozor vazifasini o'tagan. TSargrada "butparast Rus" Vizantiyaning ajoyib madaniyatidan bahramand bo'lgan. TSargradning boyliklari va ziynatlari istilochilar uchun doimiy xo'rak bo'lib xizmat qilgan. Rusning Vizantiyaning Qoradengizdagi erlariga va Konstantinopolga qilgan bir necha vayronakor yurishlari IX asrdan to XI asrgacha davom etgan.

Vizantiya, birinchidan, imperiya atrofidagi xavfni bartaraf etish uchun; ikkinchidan, o'z manfaatlari yo'lida Qadimgi Rusdan foydalanish maqsadini ko'zlagan, uni o'zining siyosiy ta'siriga tortishga harakat qilgan.

Cho'qintirish Vizantiya imperatorlari va siyosatchilari nazarida Rusning imperiyaga qaramligi belgisi sifatida e'tirof etilardi. Lekin Vizantiyaning Rus borasidagi bu siyosati muvaffaqiyat bilan yakunlanmadi. Kiev knyazlari o'z harakatlarida hamisha mustaqil bo'lib qolaverdilar.

Cho'qintirish marosimidan keyin Rusning xalqaro aloqalari sezilarli darajada kengaydi va mustahkamlandi. Qadimgi Rus davlati nafaqat Vizantiya, balki Evropaning katolik mazhabidagi davlatlari bilan o'zlarining teng huquqli sherigi sifatidagi aloqalarini o'rnatdi. Rusning tashqi siyosiy munosabatlari qo'shni mamlakatlar – Vengriya, Chexiya, Bolgariya, Skandinaviya bilan chegaralanib qolmay, Germaniya, Frantsiya va boshqa mamlakatlarni ham qamrab olgan edi.

### **Feodal tarqoqlik davri xalqaro munosabatlari va diplomatiyasi.**

Bosqinlar asosida shakllangan varvar hokimiyatlari omonat hodisa bo'lib chiqdi. Natural xo'jalikning ustunligi, alohida xo'jaliklar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarning sustligi, katta siyosiy uyushmalardagi iqtisodiy asosning yo'qligi–bularning barchasi G'arb va SHarqdagi yirik davlat birlashmalarining bo'linib ketishiga sabab bo'ldi. Bu qismatdan Qadimgi Rus imperiyasi va Buyuk Karl imperiyasi ham qochib qutulolmadi.

Buyuk Karl imperiyasi qisqa muddat faoliyat ko'rsatdi. Inqirozning yaqinlashuvi Karl hayotining so'nggi yillaridayoq sezilgan edi. Imperiyaning bo'linishi uning **o'g'li Lyudovik** (814-840 y.y.) podshohligi davrida tez- lashib ketdi. Lyudovik qo'lida oliy hokimiyatni saqlab turgan holda imperiyani o'z o'g'illari o'rtasida taqsimlab berdi. O'g'illari otasiga qarshi chiqa boshladilar. Lyudovik vafotidan keyin (840 y.) o'g'illari o'rtasida o'zaro kurash boshlandi. **YAltiroqbosh Karl** va **Lyudovik Nemetskiy** Strasburgda imperatorlik toji nasib etgan va o'zining imperatorlik huquqini amalda bajarishga kirishgan katta akalari Lotarga qarshi shartnoma tuzdilar. Strasburg qasamyodi – bu lotin va grek tilida emas, nemis va frantsuz tillarida tuzilgan birinchi diplomatik hujjat edi. Mag'lubiyatga uchragan Lotar ukalariga yon berishga majbur bo'ldi va 843 yilda Verdenada uch aka-uka o'rtasida imperiyani bo'lishish to'g'risida mashhur shartnoma tuzildi. Imperiya mavjudligi rasman tan olindi yoki aniqrog'i, Lotarga berilgan imperatorlik unvonini saqlab qolindi. Lekin imperiyaning erlari uch qismga bo'lindi. Imperiyaning keyinchalik Frantsiya deb atala boshlangan g'arbiy qismi – “g'arbiy franklar podshohligi”ni Karl; imperiyaning keyinchalik Germaniya deb atala boshlangan sharqiy qismi – “sharqiy franklar podshohligini” Lyudovik qo'lga kiritdi. Lotarga esa Karl va Lyudovik mulki o'rtasida joylashgan erlar–Reyn daryosining quyilish joyidan, Rona daryosining quyilish joyigacha bo'lgan ulkan hudud va Italiya tegdi. Imperiyani taqsimlash juda assosiz ravishda olib borildi. Bu, ayniqsa, o'ziga boy, hosildor, aholisi ko'p, turli iqtisodiy va siyosiy aloqalarga ega mamlakatlarni olgan Lotarga aloqador edi.

Buyuk Karl imperiyasi butunlay bir necha mustaqil davlatlar – Frantsiya, Germaniya, Italiya va Burgundiyaga bo'linib ketdi. Ular faqat nomigagina davlat hisoblanardi.

IX-XI asrlarda G'arbiy Evropaning barcha hududlarida siyosiy tarqoqlik hukm surdi. Bu davrda o'rnatilgan feodal ierarxiyasi mavjud holatni mustahkamladi va rasmiylashtirdi. Oxir-oqibatda alohida feodal mulklar o'rtasida aloqa o'rnatishda kuch hal qiluvchi jihat bo'lib qoldi va ko'pincha katta er egalari kuchli mustamlakachilar qarshisida titrab turadigan bo'ldi. Aslida bunday sharoitda davlat va xususiy mulk o'rtasida, omma huquqi va shaxsiy huquq o'rtasida, ichki munosabatlar va xalqaro munosabatlar o'rtasida chegara yo'qolib bormoqda edi.

O'rta asr diplomatiyasining xususiyati feodal jamiyatining iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlari tabiati bilan belgilanadi.

Sud va boshqaruv, soliq solish va tanga zarb etish huquqiga, harbiy kuchga ega bo'lgan har bir kuchli senor o'zini xohlasa kim bilandir jang qila oladigan, xohlasa sulh va ittifoq shartnomasi tuza oladigan mustaqil hukmdor sanar edi. Xalqaro munosabatlar haqidagi tushuncha yana shu bilan chigallashardiki, feodal tarqoqlik va Evropaning bo'linib ketgan mayda bo'laklari tufayli yirik davlatlar o'rtasidagi chegaralar yo'q bo'ldi. Senoriya tushunchasi davlat tushunchasi o'rni egalladi. Yirik er egasi hukmdor, hokimiyat otameros mulk hisoblanardi.

#### **Адабиётлар:**

1. Медведев И.П. Очерки византийской дипломатики. Л., 1988.
2. Курбатов Г.Л. История Византии (историография). М., 1975.
3. Буданова В.П. Готы в эпоху великого переселения народов. М., 1990.
4. Корсунский А.Р., Гюнтер Р. Упадок и гибель Западной Римской империи и возникновение Германских королевств (до сер. VI в.) М., 1984.
5. Курбатов Г.Л. История Византии. (От античности к феодализму) М., 1984.
6. Литаврин Г.Г. Византийское общество и государство в X-XI вв. М., 1977.
7. Левченко М.В. История Византии. М., 1940.
8. Сказкин С.Д. История международных отношений и дипломатии в средние века. М., 1948.
9. История дипломатии М., 1959 Т. I.
10. История средних веков. М., 1990 Т. I.
11. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. T., 2009.

### **4 Mavzu O'rta asrlarning so'nggi davri yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

#### **Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli**

| <b>O`quv vaqti: 80 minut</b>   | <b>Talaba soni 60 nafar</b>  |
|--|--|
| <b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b><br><b>Ma`ruza rejasi</b>  | 1. XVI-XVII asrning 1-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.<br>2.XVII-XVIII asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.<br>3. XIX asrning 20-60-yillaridagi xalqaro munosabatlar va diplomatiya. |
| <i>O`quv mashg`ulotining maqsadi</i> XVI-XVII asrning 1-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya, XVII-XVIII asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. XIX asrning 20-60-yillaridagi xalqaro munosabatlar va |  |

|  |   |
|--|---|
| <i>diplomatiya.haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i>  |   |
| Pedagogik vazifalar:<br>Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo'yicha tushunchalarni shakllantirish. | O'quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalar XVI-XVII asrning 1-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. XVII-XVIII asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. XIX asrning 20-60-yillaridagi xalqaro munosabatlar va diplomatiya.tarixi ma'lumotlarini konspektlashtiradilar. |
| Ta'lim usullari:   | “Klaster”, ma'ruza  |
| O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli  | Ommaviy   |
| Ta'lim vositalari  | Slaydlar, marker  |
| Qayta aloqa usullari va vositalari   | Savol javob   |

#### **4–mavzu: O'rta asrlarning so'nggi davri yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

##### **Reja:**

1. XVI-XVII asrning 1- yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
2. XVII-XVIII asrning 2- yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
- 3.XIX asrning 20-60-yillaridagi xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

**XVI-XVII asrning 1-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.** XV asr oxiridan boshlab Evropa xalqaro munosabatlarning yangi bosqichiga o'tdi. Bu davrga kelib bir qator mamlakatlarda hududiy birlashish yakunlandi va davlatlarning butunlay shakllanishi uchun shart-sharoitlar vujudga keldi. Tashqi geografik kashfiyotlar Yangi dunyo va Sharqni Evropaga yaqinlashtirdi. Janubi-sharqiy Osiyoning dengiz yo'lida joylashgan Ispaniya va Portugaliya okean orti davlatlari birinchi mustamlaka davlatlari sifatida nom qozondi.

XVI asrning ikkinchi yarmida Evropa siyosiy maydoniga Buyuk Rus davlati chiqdi. SHu davrdan boshlab o'zining siyosiy birlashishini tugatib, Rus ozmi-ko'pmi markazlashgan, keyinchalik absolyut davlatga aylandi. SHunday qilib, bu davrda Rossiya kabi Angliya, Frantsiya, Ispaniya, Skandinaviya mamlakatlari markazlashgan davlatga aylangan, Germaniya va Italiya siyosiy tarqoq holda qolgan edi. Evropa o'zining bunday siyosiy holatini XIX asrning ikkinchi yarmigacha saqlab qoldi. YAgona davlatlarning shakllanishi bilan siyosat shakllari ham o'zgarib bordi. Siyosatda tashqi me'yor sifatida “umummanfaati” darajasiga ko'tarilgan “davlat manfaati” faoliyat ko'rsata boshladi. Absolyut monarxiyalarning vujudga kelishi bilan katta davlatlar (Angliya, Frantsiya,

Ispaniya, Portugaliya, Daniya, SHvetsiya) o'rtasidagi ziddiyatlar birinchi o'ringa chiqdi. Unga o'rta va kichik mamlakatlar ham kelib qo'shildi.

XVI asr yangi davlatlarning tashqi siyosatiga xizmat qiladigan mahalliy va markaziy uyushmalarning, diplomatik xizmatlarning ma'lum bir shaklga kirgan davri bo'ldi. Qirollik saroyi siyosatning vujudga kelish markazi edi. Absolyut monarxiya davrida nafaqat qirol va uning sulolasi manfaati ahamiyati, balki qirolga ta'sir o'tkaza oladigan kishilar, ma'shuqalar va uddaburon makkorlarning ham ahamiyati bor edi. Bunday holatlar davlat hokimiyati shaklidagi absolyutizmning o'ziga xos ko'rinishi edi.

XVII asrda Germaniyaning ancha kattaroq knyazliklari chet mamlakatlarga o'zlarining doimiy vakillarini jo'nata boshladilar.

Gumanistlar ta'siri ostida har bir diplomat uchun ozmi ko'pmi majburiy bo'lgan diplomatik maktub va diplomatik xabarlarining uslubi paydo bo'ldi. XV va XVI asrlarda Italyan hukmdorlari gumanistlardan tashqi ishlarda o'zlarining kotiblari sifatida foydalanganlar va bu diplomatiyaga nutqning nafis usuli bilan xatning kirib kelishida yordam bergan. Yangi diplomatik gapga chechanlikning birinchi namoyandasi Florentiy kantsleri, mashhur gumanist **Kolyuchcho Salutati** edi. Uning xatlari XVI asr diplomatlari uchun o'ziga xos namuna maktabi bo'lib xizmat qildi. Venetsiya elchilarining xabarlari ham o'z davrida katta ahamiyat kasb etgan. Ularning tor doira kishilari uchun mo'ljallangan chet eldagi hisobotlari keng ommaga yoyilib, bu hisobotlar to'plami XVI asrdanoq ma'lum va mashhur bo'lgan.

Elchilikning odat tusiga kirgan tartiblarida asta-sekin ma'lum bir an'analar shakllana borgan. XVI asrga kelib elchilar bilan oddiy vakil va josuslar o'rtasida jiddiy farqlar ko'rina boshlagan. Elchilarni tayinlash huquqiga barcha hukmdorlar ham ega bo'lavermagan. Muqaddas Rim imperatori Karl V saroyida faqat papa elchisi, frantsuz elchisi, o'z akasi Ferdinand elchisi va Venetsiya elchisi bo'lgan. Imperatorga qaram bo'lgan hukmdorlar faqat oddiy vakillarni saqlash huquqiga ega bo'lganlar.

Davlatlar o'rtasidagi diplomatik aloqalar hamma vaqt ham etarli darajada bo'lmagan. SHu sababli ham doimiy diplomatik vakolatxonalar bilan bir qatorda maxsus elchixonalar ham faoliyat ko'rsatgan. Bunday favqulodda elchixonalar maxsus voqealarda: davlatlar o'rtasida bevosita muzokaralar olib borishda, yangi hukmdorning taxtga o'tirish marosimlarini o'tkazishda shay bo'lib turganlar. Maxsus elchilar bir qator qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarganlar. Favqulodda elchilar o'z imperatorlaridan boshqa elchilardan farqli ravishda alohida imtiyozlarni va birinchi o'rinni talab qilganlar. SHuning uchun ham ayrim katta davlat hukmdorlari o'zlarining shaxsiyatiga zarar qilmaslik uchun oddiy elchilarni favqulodda elchilar deb e'lon qilganlar. Bu an'ana XVII asrga kelib keng yoyilgan.

Imperator Karl V davrida kirish va qabul paytida elchilarga ko'rsatiladigan hurmat-ehtiroمنىng qat'iy xarakterdagi shakli o'rnatilgan. Rasmiy tantana tartibida elchilari Ispaniyaga etib kelgan harbir davlatning ahamiyati inobatga **olingan**. XVI asrda Frantsiyada sekin-sekin elchilarni qabul qilish ishlari bilan shug'ullanadigan maxsus mansab shakllandi.

XVI-XVII asrlarda papa saroyida elchilarni qabul qilish borasida quyidagi tartib shakllangan edi: tantanali qabul marosimi papa tomonidan uyushtirilgan. Elchi papani bosh yalang, tik turgan holda tinglashi lozim bo'lgan. Yirik davlatlar va Venetsiya respublikasining elchilari Katta qirol zalida, kichik davlat elchilari gertsoglar zalida qabul qilingan. Ayrim elchilarni papa o'z xonasida qabul qilgan. Kipr qiroli unvonini olgan gertsog Savoyskiy papadan o'z elchilarini Katta zalda qabul etishini so'ragan. Bu iltimos rad etilgach, u ancha vaqtgacha papa huzuriga o'z vakillarini jo'natmay qo'ygan.

### **Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Evropa davlatlari diplomatiyasi.**

XV asr davomida portugaliyaliklar mavrlar bi-lan bo'lgan urush jarayopida va ular bilan olib borgan savdo-sotiq natijasida Afrikaning shimoli-g'arbiy qirg'oqlariga ki-rib bordilar. 1415 yilda Seutaning istilo qilinishi portugaliyaliklarga Afrikaning g'arbiy qirg'oq sohili bo'ylab janubga tomon siljib borish uchun muhim baza yaratib berdi. XV 2-soragidan boShab G'arbiy Afrikada qirg'oq bo'yi hududlariga portugallar va ispanlarning kirib keliShi boShlandi. 1434-1482 yillar oralig'ida portugallar va isponlar **Baxodor** orolidagi Kongo daryosigacha bo'lgan barcha hududlarga o`rnaShib oliShdi.

**Zangori Missa** orollari portugallar tomonidan 1450-62 yillarda qul savdosining 1-markaziga aylantirildi. Ayniqsa 1475 yil G'arbiy Afrika qirg'oqlariga suqulib kirib keliSh kuchaydi. Bunga sabab Lissabonlik savdogar **Fernando Gomesning Ankobra** va **Vol'ta** daryolari oralig'idan oltinga boy bo'lgan hududni topib olganligi bo'ldi. Bu hududda yaShovchi **fanti** qabilasi Afrika xalqlari ichida portugallarning 1-qurboni bo'ldi.

Portugallar Oltin Qirg'oqda 1482 yilda San Xorxada **Mina (Ellina)** toSh fortini bunyod qiliShdi. Dastlabki vaqtlarda qul savdosi uncha muxum bo'lmagan, sababi Evropada bunga extiyoSh yo`q edi.

16-asrning oxirlariga qadar Portugaliya G'arbiy Afrikadamavjud bo'lgan yagona davlat edi. Portugallar Senegal va g'ambiya daryolari orqali qit'aning ichiga kirib boriShdi, ular 1534 yilda Mali, 1565 yilda esa Tombukgu hududlariga etib keliShdi. Portugallarning asosiy e'tibori quyi Gvineyaga qaratilgan edi. Ular bu xududni 4 qismga bo'liShdi va ularniana Shu yerda mavjud bo'lgan maxsulotlarning nomi bilan aytiShdi: **Ziravorlar qirg'og'i, Fil suyagi qirg'og'i, Oltin qirg'oq, Tutqunlar qirg'og'i**. Portugaliyalik savdogarlar asosan Oltin qirg'oq va Fil suyagi qirg'og'ida faolroq xarakat qiliShar edi. Ular Elminadan taShqari **Aksim, SHame** kabi fortlarni barpo qiliShdi.

Janubiy Nigeriya qirg'oqlari portugaliyaliklarni nixoyatda qiziqtirib qo'ydi. Kuchli yoruba davlatlari portugaliyaliklarini ichkariga kirib boriShga to'sqinlik qiliShgan. Benin davlati portugal maxsulotlari evaziga oz miqdorda ziravor beriShgan. Bu portugallarni 1486 yilda Gvato portida savdo punkti quriShga undadi, lekin bu port 1506 ylda taShlab ketildi, chunki u ko`p foyda bermas edi. Bundan taShqari portugal maxsulotlari beninliklarin qiziqtirmas edi. **Fernando Po va San Tome** orollariga o`rnaShgan portugallar orollarda plantatsiya xo`jaligini yo`lga qo`yiShdi. Benin Niger va J.Nigeriya bilan bo'lgan urushlarda asir tuShganlarin portugallarga sotgan. Ular esa qullarni ShakarqamiSh

plantatsiyalarida iShlatiShgan va Oltin qirg`oqda sotiShgan. Portugallarning asosiy foyda oliSh Braziliyani kolonizatsiya qiliniShidan boShlandi.

Bu davrda Ispaniya, Angliya, Frantsiya tomonidan egallangan Amerika yerlarida plantatsiya xo`jaligi rivojlangan edi. Qullarga talab kuchli edi. Bu Yevrorpa istilochilari o`rtasida qul savdosini kuchaytirdi. Faqatgina portugallarning o`zi 1530-1600 yillarda 900 ming Afrikalikni Amerikaga olib keldi.

1610 yilda portugaliya monopoliyasi tugatildi. Bunga gollandlarning Vest-Indiya kompaniyasining g`arbiy Afrikadagi fortlarni istilo qiliSh sabab bo`ldi. 17-asr 1-yarmida gollandlar Afrikalilarni ispan koloniyalariga jo`natiSh bo`yicha birinchilikni oliShdi. G`arbiy va Markaziy Afrikadagi Gollandiya, Angliya, Fransiya, Ispaniya, Daniya, Brendenburg o`rtasida qul savdosidagi monopoliyani qo`lga kiritiSh uchun kuraSh qizib ketdi.

Angliya va Frantsiya yirik savdo kompaniyalarini tuziShda va ularga ko`p huquqlar berib qul savdosidagi monopoliyaga aylantirdilar. 1664 yil taShkil etilgan fransuzlarning va Angliyaning 1672 yil «Qirollikning Afrika kompaniyasi» Shunday edi. Fransuzlarning tanch nuqtasi Senegal xavzasi edi. Fransuzlarning 1-postlari 1630 yil *Senegalda* qurildi. So`ngra **Sen-Luida**, gollandlardan tartib olingan **Argun va Gorida** ham postlar qurildi. Gori tezda fransuzlarning G`abiy Afrikadagi asosiy bazasiga aylandi. IShchi kuchiga bo`lgan extiyoj qul savdosini o`siShShiga olib keldi. 17-asrda Amerikaga **2 mln.7500 ming** qul kelirilgan. Bu Afrika xalqlari uchun fojyaga aylandi. Zamindoshlarning guvoxlik beriShicha har 6-ta Afrikalik yo`lda xalok bo`lgan. Qul savdosi natijasida G`arbiy Afrikada iShlab chiqariSh va mudofaa soxasi iqirozga uchradi va urf-odatlarini salbiy tomonga o`zgariShiga ma`naviy ta`sir ko`rsatdi. Portugaliyada dengiz sayohatlariga hukumatning o`zi homiylik qilardi. Infant (SHahzoda) Genrix-Dengiz sayyohati (1460 yilda vafot etgan) G`arbiy Afrika qirg`oq bo`ylarini tekshirish uchun katta flot qurdi. 1445 yilda shahzoda Genrix hali hayot ekanligida portugaliyaliklar YAshil Burunni ochdilar. 1471 yilda ular Gvineyaga borib yetdilar va u yerda Oltin qirg`oq deb atalgan joyda kuchli harbiy faktoriya urdilar. Portugaliyaliklar janub tomonga siljishni davom ettirib, 1486 yilda Afrikaning janubidagi Bartolomeo Dias (1459-1500) tomonidan kashf etilgan YAxshi Umid buruniga borib yetdilar. SHundan keyin qidirilayotgan Hindistonni topish ham qiyin bo`lmay qoldi. Vasko da Gama (1469-1524) boshchiligida to`rtta kemadan iborat kichik bir flotiliya 1497 yil yozida Lissabondan chiqib, 1498 yil bahorida Hindistonning g`arbiy qirg`oqlariga borib yetdi va Kalikuta shahriga tushdi. 1499 yilning avgustida sayyohlar kemalarga oltin va hind ziravorlarini ortib qaytib keldilar. Ikki yil davom etgan mashaqqatli dengiz sayohati vaqtida komapdaning 168 a`zosidan faqat 55 kishi tirik qoldi.

Vasko da Gamaning kashfiyoti Portugaliyada g`oyat katta ta`sir qoldirdi. Bu kashfiyot munosabati bilan Portugaliya qiroli Monoelga (1495-1521) «Baxtiyor» laqabi berildi va «Hindiston hokimi» degan unvon oldi.

Keyinchalik Portugaliyaning eng atoqli shoirlaridan Luis Kamoens Vasko da Gamaning sayohatiga atab «Luziana» degan katta bir doston yozadi (1572). Klassik dostonlar «Iliada», «Odiseya» va «Eneida»ga taqlid qilib, Kamoens o`z



dostonini bunday deb boshlaydi: «Men Portugaliya qirg'oqlaridan chiqib, noma'lum dengizlar orqali yerning narigi tomoniga ketgan mashhur qahramonlar haqida ...milsiz botirlik ko'rsatgan, dong'i ko'klarga yetuvchi yangi imperiyaga negiz solgan yengilmas jangchilar haqida kuylamoqchiman».

Hindistonning g'arbiy va qisman sharqiy qirg'oq bo'ylarini, shuningdek, Malakkani portugaliyalik boshqa admirallar -Almeyda (Portugaliya qirolining Hindistondagi birinchi noi-bi (1505-1508) va Albukerk (1509-1515) batamom bosib ola-dilar. Goa shahri (Kalikutaning shimolida) Portugaliya qirol noiblarining poytaxti bo'lib qoladi. Qizil dengizning Hind okeaniga tutashadigan joyida qurilgan Adan shahri va Fors qo'ltig'idagi Ormuza shahrining bosib olinishi Portugaliyaning Hindistondagi hukmronligi uchun g'oyat katta ahamiyatga ega bo'ldi, bu shaharlar savdo va strategiya jihatidan muhim punktlardir. Bu bilan portugaliyaliklar Hindistondan Qizil dengiz orqali Aleksandriyaga o'tadigan va Hindistondan Mesopotamiya orqali Suriyaga o'tadigan eski savdo yo'llarini tamomila bekitib qo'ygan edilar. XVI asrning 20-yillaridayoq portugaliyaliklar Zond arxipelagining anchagina qismini bosib olgan edilar. Ana shu tariqa qisqa bir muddat ichida Portugaliyaning katta bir mustamlaka imperiyasi vujudga keldi. Portugaliyaliklar ziravorlar savdosini o'z qo'llariga olib, italyanlarning savdo monopoliyasiga zarba berdilar. Aleksandriya va qisman Venetsiya o'rnini Portugaliyaning poytaxti Lissabon shahri egalladi.

Hindistonda, qisman Hindi-Xitoydagi (Malzchka) va Iidone-ziya orollaridagi asosiy mustamlakalaridan tashqari, portugaliyaliklar XVI asr boshlarida yana Amerikaning Braziliyasini ham bosib olgan edilar. Braziliya uzoq vaqt davomida Hindistonga boradigap ikki yo'l o'rtasidagi bekat bo'lib xizmat qilib kelgan edi.

**Kolumbning Amerikani kashf qilishi.** Portugaliyaliklar Hindistonga Afrikaning g'arbiy qirg'oqlari bo'ylab siljib borayotgan bir paytda, qo'shni Ispaniyada xuddi o'sha Hindistonga borish yo'lining boshqa bir varianti chiqib qoldi. Genuyalik Kristofor Kolumb (1451—1506) 1492 yilda Ispaniyaning Ferdinand va Izabella hukumatiga Hindistonga g'arb tomondan boradigan sayohat loyihasini taklif qildi. Kolumb Yerning sharsimonligi haqidagi ta'limotga asoslanib ish ko'rdi. XV asr oxirlarida Yevropa fan ahllari bu ta'limotning to'g'riligiga yana bir iqror bo'ldilar. Kolumb bundan ilgari ham o'zining shunday loyihasi bilan Portugaliya hukumatiga murojaat qilgan edi, ammo rad javobi olgan edi. Portugaliyaliklarnng dengizdan Afrika bo'ylab Hiidistonga boradigan o'z rejalari bor edi; Diasning kashfiyotidan keyin bu rejaning uzil kesil amalga oshirilishi yaqinlashib qolgan edi. Xuddi shu vaqtga kelib, Granada qirolligini istilo qilish ishini tamomlagan ispan hukumati Kolumb loyihasiga, aksincha, xayrixohlik bilan qaraydi. Sayohatni uyushtirish uchun zarur bo'lgan mablag'ning bir qismini Kolumbning o'zi, ko'p qismini hukumat berdi. Kolumb yangi ochilgan mamlakatlarda o'ziga va vorislariga qirol noibi va admiral lavozimlarini egallash huquqi berilishini shart qilib qo'ydi. Uch kemadan iborat kichkina bir eskadra 1492 yilning 3 avgustida Palos gavanidan Atlantika okeaniga jo'nab ketadi.

1492 yil 12 oktabrda Kolumb Karib dengizida Markaziy Amerikaga yaqin joydagi Bagama orollaridan birini topdi. Tezda u katta qo'shni orollar-Gaiti va Kuba orollarini kashf etdi. SHundan keyingi sayohatlaridan birida Kolumb Janubiy

Amerika (Orinoko daryosining quyur joyi yaqinidagi) qirg'oqlarini topdi. Kolumb hayot ekanligidayoq ispanlar Amerikani kolonizatsiya qila boshlaydilar. Espanola deb boshqacha nom berilgan Gaiti orolida birinchi koloniya tuziladi. Yangi dunyoni Kolumb kashf etgan bo'lsa-da, bu dunyoga uning nomi berilmaydi. Kolumb Hindiston, Xitoy va Yaponiyani kashf qildim deb qattiq turib oladi. Amerikadagi Kolumb kashf qilgan yerlar ko'p o'tmay Ispaniyaning hafsalasini pir qiladi. Chunki Kolumbning yangi «G'arbiy Hindistoni» haqiqiy «SHarqiy Hindiston»dan ko'ra kambag'alroq bo'lib chiqadi, shaharlari va tsivilizatsiyasi bo'lmaydi. Mahalliy xalqda oltin va kumush uchrasa-da, lekin kutilgan darajadagidan ancha kam bo'ladi. Tez orada Kolumb saroyning g'azabiga yo'liqdi. U 1506 yilda Kolumb qashshoqlikda va hammaning nazaridan qolib chetda o'lib ketdi. Viloyat shaharlaridan biri Validolidda vafot etgan Kolumbning o'limidan zamondoshlari mutlaqo bexabar qoldilar.

Kolumb ochgan qitaga Amerika degan nom boshqa bir ital-yan, florentsiyalik Amerigo Vesputchi (1452—1512) nomidan olib berildi. Amerigo «Yangi yerga» bir necha marta sayohat qilib, Janubiy Amerikaning shimoli-sharqiy qirg'oqlarini batafsil tekshirib chiqdi. Amerigoning dengiz sayohatlari to'g'risidagi 1507 yilda nashr etilgan hikoyalar to'plami juda mashhur bo'lib ketdi. Kartograflar Kolumb kashf qilgan yerlarni 1507 yildayoq o'z kartalarida «Amerigo yerlari» degan umumiy nom bilan ko'rsata boshladilar. Keyinchalik «Amerigo» degan nomni eski qit'alar-Osiyo, Yevropa, Afrika nomlariga monandlashtirib «Amerika» deb o'zgartirdilar.

Kolumb kashfiyoti Portugaliya bilan Ispaniya o'rtasida yangi yerlar uchun raqobat chiqishiga sabab bo'ldi. Nizoning oldini olish uchun har ikki davlat 1494 yilda Tordessilyas shahrida o'zaro shartnoma tuzdi. Bu shartnomaga muvofiq YAshil Burun orollaridan g'arbga tomon 2053 kilometr narida Qutbdan-Qutbga qarab chegara chizig'i tortildi. Bu chiziqning g'arb tomonida yangi ochilgan hamma yerlar ispanlarga, sharq tomonidagi yerlar portugaliyaliklarga qaraydigan bo'ldi, ammo bu chegara chizig'i butun yer sharini kesib o'tmaganligi, balki faqat G'arbiy yarim-shardangina o'tganligi tufayli ispanlar bilan portugaliyaliklar Molukka orollarida duch kelib qoldilar va o'rtada nizo chiqdi. SHundan keyin 1529 yilda Saragosda yangi shartnoma tuzilib, bu shartnomaga muvofiq SHarqiy yarim sharda Molukka orollaridan sharq tomonda 17° da yangi chegara chizig'i tortildi. Mustamlaka duiyosini birinchi marta taqsimlash ana shu tarzda ro'y bergan edi.

**Magellanning dunyo sayohati.** Fernando Magellanning (1470-1521) sayohati geografik kashfiyotlar tarixida katta ahamiyatga ega bo'ldi. 1519 yil 20 sentabrda Magellanning beshta kemasi Sai-Lukardan chiqib, o'sha paytda «Ziravor orollari» deb atalgan Molukka orollarini qidirib topish maqsadida janubi-g'arbga tomon yo'l oldi. Magellan sayohati 1519-1522 yillarda bo'lib o'tdi va u tarixda birinchi marta dunyo sayohati bo'ldi. Magellan sayohati natijasida juda ko'p yerlar: Janubiy Amerikada Magellan bo'g'ozini va Olovli Yer, Ulug' okeanda juda ko'p orollar, xususan Filippin orollari, Zond arxipelagi va hokozalar ochildi. SHu bilan birga Magellanning bu sayohati ispanlar bilan portugallar sayohatlarining o'ziga xos sintezi tariqasida muhimdir. Magellan asli portugaliyalik bo'lib, ispan

kemalarida sayohat qildi. Sayohat marshruti ham ispanlarniki (g`arb, to`g`rirog`i, janubi-g`arb tomonda sayohat) bo`ldi. Ammo Magellan ham (boshqa portugaliyalik sayyohlar kabi) Hind okeaniga va uning o`z ziravorlari bilan dong chiqargan orollariga yetib borish maqsadini ko`zda tutgandi. Magellanning o`zi sahat vaqtida Filippin orollaridagi mahalliy aholi bilan bo`lgan to`qnashish vaqtida halok bo`ldi. Ekipajning omon qolgan qismi bir kemada Ispaniyaga qaytib keldi. Safarga chiqqan 265 kishidan atigi 18 kishi eson-omon qaytdi.

Magellan sayohati Yerning sharsimon ekanligini tajribada isbot qilib berdi. Buning natijasida Yevropaliklar Ulug` yoki Tinch okean to`g`risida ham aniq ma`lumotga ega bo`ldilar, ammo bungacha ularda allaqanday sirli bir «janubiy dengiz» haqi-dagina noaniq tasavvur bor edi, xolos.

**Amerikada ispanlar kolonizatsiyasi.** Magellan o`zining bi-rinchi dunyo sayohatini qilganidan keyin, ispanlar Amerikani istilo qilishga kirishdilar. Ispan istilochilari (konkistador-lari) benihoya shafqatsizlik bilan, zo`rluk, ayyorlik va aldama-chilikning hamma vositalarini ishga solib, YAngi Dunyoning eng boy va aholisi eng ko`p bo`lgan yerlarini bosib oldilar.

Fernando Kortes 1519-1521 yillarda juda katta Meksika mamlakatini istilo qiladi bu mamlakatda boshqa hind qabilalaridan ko`ra madaniy saviyasi ancha yuksak bo`lgan juda ko`p atsteklar qabilasi yashaydi. Bu qabilaning qiroli «imperator» Montesuma asir olinib, o`z xazinasidagi oltinni ispanlarga berishga majbur bo`ladi.

Yana boshqa bir ispan konkistadori Fransisko Pissaro 1532-1535 yillarda Janubiy Amerikaning g`arbidagi inkalar qabilasi hukmron bo`lgan Biru yoki Peru mamlakatini istilo qildi. Bunda ham inklarning qiroli «imperator» Ataxualpa oltin va kumushdan iborat xazinasini istilochilarga berishga majbur bo`ladi.

Ispanlar 1536 yilda CHilini, 1538 yilda yangi Grenadani (keyin Kolumbiya deb atalgan) istilo qiladilar. 1549 yilda ispanlar Argentinani bosib olib boshladilar.

1545 yilda Potozi (Boliviya)da juda boy kumush koni topildi. O`sha vaqtdan e`tiboran Amerikada ko`plab kumush hamda oltin qazib chiqarish boshlandi. Avval Kolumb kashfiyotidan paydo bo`lgan umidsizlik kayfiyati yo`qolib, topilgan xazinalarni mumkin qadar tezroq qo`lga kiritib olishga urinish kuchaydi.

Mahalliy aholining bir qismi krepostnoylarga va bir qismi qullarga aylantirildi. Ularni konlarda ishlashga majbur etdilar. Kolumbning xatosi tezda ma`lum bo`lib qolsada, Amerikaning tub xalqini indeetslar deb atay berdilar. Ana shu indeetslar o`rganmagan og`ir mehnatga bardosh berolmay, ko`plab qirilib ketdilar. SHundan keyin ispan mustamlakachilari Ame-rikaga Afrikadan negr-qullar keltirib, ularni konlarda va plantatsiyalarda ishlashga majbur etdilar.

XVI asrning birinchi yarmidayoq Amerikada negrlar ko`p edi. O`sha asrning ikkinchi yarmida ularning soni ayniqsa tez oshib bordi.

Indeetslar esa, aksincha, Yevropalik mustamlakachilarning haddan tashqari zulmiga chidolmay, yoppasiga qirila boshladi. Karib dengizidagi eng katta orollardan YAmayka, Espanola va Kuba orollaridagi mahalliy xalq XVI asrning ikkinchi yarmiga kelib batamom deyarli qirilib ketdi.

**Portugaliyaning mustamlakachilik siyosati.** Portugaliyaning

mustamlakachilik siyosati ham shafqatsizlik va qirg`inchilik jihatidan ispanlar siyosatidan qolishmasdi. Portugallarning kemalari Hind okeanida qaroqchilik bilan shug`ullanardi, ular «o`z zonalariga» kirgan arablar va mahalliy indeetslarning yoki Yevropaliklarning biron bir kemasiga sira omon bermay, talardilar. Portugaliya mustamlakachilari odatda katta-katta territorialarni bosib olmasdi. Lekin ular Hindiston qirg`oq bo`ylarida va Molukka orollarida juda ko`p mustahkam faktoriyalar qurar va o`sha yerdan chiqib kelib mahalliy qabi-lalarga hujum qilar, hamda ularni xiroj to`lashga majbur etardilar. Portugaliyaliklar xirojni ziravorlar va boshqa qimmatbaho tropik mahsulotlari bilan to`latardilar. Portugaliyaliklar mahalliy aholi bilan. «savdo-sotiq» ham qilardi-lar. Lekin bu savdo g`irt aldoqchilikdan iborat bo`lardi. Portugaliyalik savdogarlar mahalliy aholiga mayda-chuyda bezak buyumlari va boshqa arzimagan narsalar berib, evaziga ulardan haqiqiy qimmatbaho narsalarni olar va bu operatsiyalardan necha yuz protsentlab foyda ko`rardilar.

**XVI asrning ikkinchi yarmi va XVII asrning birinchi yarmidagi geografik kashfiyotlar.** XVI va XVII asrlarda geografik kashfiyotlar davom ettirildi. XVI asrning ikkinchi yarmida ispanlar noma`lum janubiy qit`ani qidirib topish maqsadida Tinch okeanga bir necha marta ekspeditsiya yubordilar. Bu ekspeditsiyalar natijasida Janubiy Polineziyaning bir qismi bo`lgan Solomon orollari (1567 yil), Markiz orollari (1595 yil) hamda. Avstraliyani Yangi Gvineyadan ajratib turuvchi Torres qo`ltig`i (1605 yil) kashf qilindi. Shundan keyin Tinch okeanning janubiy qismiga gollandiyalar katta-katta sayohatchilar guruhini yuborib turdi.

1616 yilda golland Giouten de Gorn Amerikaning eng janubiy kismini - uning nomi bilan atalgan Gorn burnini kashf qildi. XVII asrning birinchi yarmida golland dengiz sayyohlarining o`zlari dastlab Yangi Gollandiya deb atalgan Avstraliya qirg`oqlarini kashf qildilar. Avstraliya qirg`oqlarini tekshirishda va Avstraliyani alohida qit`a sifatida bel-gilashda golland Abel Tasman (1642-1644) sayohatlari katta ahamiyatga ega bo`ldi. Bu kishining nomi bilan Tasmaniya oroli deb ataladigan bo`ldi. Ingliz sayyohlari Avstraliyaga ancha keyin - faqat XVIII asrning ikkinchi yarmida yetib bordilar (kapitan Kukning 1769-1777 yillardagi sayohatlari).

XVI-XVII asrlarda shimoliy yarim sharda xam yirik geografik kashfiyotlar qilindi. Ingliz dengiz sayyohi Martin Frobisher va Jon Devis Xitoyga boradigan shimoli-garbiy yo`lni qidirib, XVI asrning 70- va 80- yillarida Shimoliy Amerika qirg`oqlariga bir necha marta ekspeditsiyaga bordilar. Bu ekspeditsiyalar Grenlandiya bilan Amerika qit`asi oralig`idagi qo`ltiqni hamda Muz okeanida Amerikaning shimol tomonidagi orollarning katta arxipelagini topdi.

XVII asrning boshlarida uchinchi bir ingliz dengiz sayyohi Genri Gudson (1550-1610) Shimoliy Amerikada tadqiqot ishlarini davom ettirdi. Gudson daryosi va Gudson qo`ltig`i shu kishining nomi bilan atalgan.

Shimoli-sharqiy tomonda golland dengizchilari XVI asrning oxirlarida yirik kashfiyotlar qildilar. Golland dengiz sayyohi Vilgelm Barents (1550-1597) uning nomiga qo`yilgan Barents dengizini tekshirdi. 1594-1597 yillar davomida Barents, Yangi Yerning g`arbiy sohillarida uch marta qishlab qoldi. Bu yerlarga u

Xitoy va Hindistonga (shimoli-sharqiy tomondan) olib boradigan SHimoliy dengiz yo'lini qidirib kelib qolgan edi. Oxirgi qishlov vaqtida u o'z hamrohlari bilan sovuqqa qotib halok bo'ldi.

SHimoliy Muz okeanini hamda Tinch okeanning shimoliy qismini tadqiq qilishga oid ruslarning geografik kashfiyot-lari juda katta ahamiyatga ega o'ldi. Ruslar birinchi bo'lib (gollandlardan ancha ilgariyoq) YAngi Yerga hamda SHpitsbergan oroliga (Skandinaviya yarim orolining shimoliga) borib yetgan edilar. Ular Ob va Yenisey daryolarining quyiladigan joyla-rini tekshirdilar, Taymir yarim orolini aylanib o'tdilar. XVI asrning oxirlaridayoq yangi yerlarni qidiruvchi rus sayyohlari Tinch okeanning sohillariga yetib borishgan, deb taxmin qilish mumkin. XVII asrning 30-yillarida Ivan Moskvitin boshchiligidagi krasnoyarsklik kazaklarning bir guruhi Lena daryosining so'l irmog'i -Aldan daryosi bo'ylab yurib bordilar, tog'lardan oshib o'tib Oxota dengiziga chiqdilar. 40- yillarda YAngi yerlar qidiruvchi sayyohlardan Poyarkov bilzn Xabarov Quyi Amurni tekshirib, birinchi marta ana shu daryoning kartasini tuzdilar.

1648 yilda sibirlik kazak Semyon Dejnev tomonidan (1605-1672) Uzoq SHarqning eng chekkasidagi (uning nomiga qo'yilgan) burunning hamda Osiyo qit'asini Amerikadan ajratib turuvchi Bering qo'ltig'ining kashf qilinishi Uzoq SHarqdagi eng yirik geografik kashfiyot bo'ldi. Rossiya harbiy xizmatining kapitani Bering bu qo'ltiqni yangitdan tekshirib chiqishidan 80 yil ilgari Dejnev kashf qilgan edi.

### **Filipp II davrida Ispaniya va uning tashqi siyosati.**

1556 yilda Karl V dan keyin uning o'g'li Filipp Ispaniya taxtiga o'tirdi. Filipp II o'z otasiga o'xshab "Joyidan qimirlamaydigan qirol" emas edi. U ham juda ko'p urushlar olib borgan bo'lsada, ammo bu urushlarda odatda uning generallari qo'mondonlik qilardi. Qirolning o'zi bo'lsa o'z mamlakatining hech qachon deyarli tashlab chiqmasdi.

Germaniyaga Karl V ning ukasi Ferdinand imperator bo'lib olganligidan, filipp II qo'l ostidagi yerlar endi avvalgidek juda hilma-hil emasdi. Filipp mamalkarni markazlashtirish yo'lida ba'zi tadbirlarni amalga oshirdi. U Ispaniyaning yangi doimiy poytaxtini barpo qildi. Poytaxt uchun Madrid shahrini tanladi. Filipp II Aragonni avtonomiyadan mahrum etdi.saragossani va Kastiliya garnizonlariga ega bo'lgan Aragon qal'alarini egallab oldi hamda Aragon dvoryanlarining sud sohasidagi eski imtiyozlarini bitirdi, ya'ni ularning sud ishlarini o'zlarining maxsus oliy sudyasi bo'lgan xustisiyada ko'riladigan bo'ldi. 1580 yilda Filipp II Portugaliyani ham o'z yerlariga qo'shib olishga muvaffaq bo'ldi. Endilikda butun Pireneya yarim oroli yagona davlatga birlashtirilgan edi. Inkvizitsiya FilippII qo'lida eng dahshatli qurol edi, bu inkvizitsiya filipp II davrida Ispaniyadagi oliy siyosiy sudga aylandi, bu suddan qirolning hech bir dushmani qochib qutila olmas edi. Filipp II davrida idora qilish ishlari bilan shaxsan o'zi juda ko'p shugu'llanar edi. U juda keng ko'lamda byurakratik yozishmalar olib borardi, markazdagi oliy amaldorlarni va joylardagi gubernatorlarni shaxsan o'zi tanlab qo'yardi. Filipp II davtida davlat soliqlarining miqdori juda ko'payib ketdi. Moliya mahkamasi butun mamlakatni son sanoqsiz soliq to'lovchilar bilan o'rgimchak uyasiday chulg'ab oldi. Karl davridagidek, Ffilipp II davrida ham ispan absolyutizmi faol emas edi.

Filipp II mamlakarni burjuaziya negizida rivojlantirish bilan qiziqmadi va ispan savdosi hamda sanoatini taraqqiy ettirish uchun hech qanday amaliy tadbirlar ko'rmadi. Ispaniyadagi yitik dunyoviy va cherkov yer egaligi XVI asrda ham o'zining g'oyat katta imtiyozlari va biqiq-kasta xarakterini saqlab qolgan eid. Mayorat haqida, daxlsiz yerlar haqida, cherkov yerlariga imtiyozlar berish haqida qonunlar Ispaniyadagi yer egaligini qat'iy tasdiqlar, uni abadiy daxlsiz qilib qo'yar, demak shu bilan burjuaziya orasidagi faolroq elementlarning, mayda dvoryanlar va dehqonlarning yerga ega bo'lish imkoniyatini bo'g'ib qo'yardi.

Filipp II olib borgan urushlar ochiqdan-ochiq sulolaviy, tor dvoryanlik tusidagi, o'zining go'yasi jihatidan reksion-katolik xarakterdagi urushlar eid. Bu urushlar ispan qirolining yerlarini ko'paytirish va qirolni Yevropaning xalqaro siyosatida gegimon qilish maqsadi bilan olib borilar edi. Shu bilan bir paytda bu urushlardan ispan dvoryonlarini boyitish maqsadi ham ko'zda tutilardi, chunki bu dvoryanlarning zebi-ziynat va aysh—ishrat ichida kechirayogan dabdabali hayotlari uchun ispan dehqonlardan olinadigan renta haqlarigina kifoya qilmas edi. Ba'zi urushlarda ispan savdosi va mustamlakalarning manfaatlari ham ko'zda tutilgan edi. Xuddi ana shu urushlarda Filipp II ning hukumati sharmandalarcha yutqizdi va shunday qilib, bu urushlar ham ispan burjuaziyasigga hech narsa keltirmadi.

Filipp II ning olib borgan ba'zi urushlarigina muvaffaqiyatli tugadi. 60-70 yillarda Turkiyaga qarshi olib borilgan urushni va 1580 yilda Portuhgaliyaning bosib olinishi shun day urushlar jumlasiga kiritish mumkin. 1571 yilda Lepanto yonida bo'lgan jangda turklar dengizda ayniqsa katta mag'lubiyatga uchratildi. Jangda Filipp II ning ukasi Don-Xuan Avstriyskiy ispan-venetsian birlashgan eskadrasiga qo'mondonlik qilib, turklarning 264 kemadan iborat flotini tor mor qildi, bu flotda 80 ming kishilik qo'shin bor edi. Bu mag'lubiyatning turklarning boshidan kechirgan birinchi katta mag'lubiyati edi. Va bu Turkiya imperiyasining ancha jiddiy ichki tushkunlikkauchray boshlashidan darak berardi.

1580 yilda Portugaliya ustidan qozonilgan g'alaba ham Portuhgaliyaning bundan oldin 1578 yilda portugal feodallarining marokashda mag'lubiyatga uchrangani tufayli bo'lgan edi va bu vaqtda qirol Sebastyan butun qo'shini bilan birga halok bo'lgan edi.

Ammo Filipp II nming o'zi ham shunday mag'lubiyatga uchraydiki bu mag'lubiyatlar Ispaniyaning buyuk davlat sifatidagi ahamiyatini yo'qotib qo'ydi. Bu yerda XVI asrning ikkinchi yarmidagi Niderlandiya inqilobini birinchi o'ringa qo'yish kerak, bu inqilobning keyinchalik golland-ispanning savdo va mustamakachilik uchun bo'lgan qator urushlariga aylanib, Hindiston va Indoneziyada ispan portugal mustamlakalarining Gollandiya qo'liga o'tishi, so'ngra esa Portugaliyaning o'zi ham Ispaniyadan ajralib keirshi bilan tugallandi.

Filipp II ning Angliyaga qarshi olib borgan muvaffaqiyarsiz uruhbshibda Ispaniya yana katta mag'lubiyatga uchradi. Ingliz dengiz bosqinchilari Dreyk Reli va boshqalar vest-Indiya qirgo'qlariga hamda yangi yerdan kumush ortib Ispaniyaga qaytib borayotgan flotiga hujum qiladilar. Filipp II bunga javoban 1588 yil iyulida Angliyaga qarshi yurish boshladi, bu yurijsh " Yengilmas armada " nomi bilan mashhurdir. Ispan floti rasmiy ravishda shunday nom bilan atalgan bo'lib, flot

tarfki bida 130 dan ortiq kema bor edi, dengiz ekipaji 7500 kishidan va askarlari 17000 kishidan i borat edi.

Harbiy dengiz ishidan xabardor bo'lmagan grand Medina Sidoniya bosh qilib qo'yilgan bu yurish nihoyatda yomn uyushtirilgan edi. Eskirib qolgan bu beso'naqay ispan kemalari inglizlarning ancha mayda bo'lsada, puxtaroq yasalgan va ancha yaxshi to'olar bilan ta'minlangan kemalariga bas kela olmadi. "Armada"ning Niderlandiya janu bidagi ispan harbiy kuchlari bilan qo'shilish rejasi bajarilmadi. Ingliz admirallari katta jang qilishni istamadilar va "Armada"ga kichik-kichik eskadralar bilan hujum qilish taktikasini ishlatib ispan flotining ayrim kemalarni yoki ayrim turkumlarini alohida-alohida yo'q qilib bordilar. Avgust boshida La-Manshda bo'lib o'tgan boron ispanlarga katta ziyon yetkazdi. Flotning qolgan qismi ob-havo yomon kelganligi tufayli Ispaniyaga ilgarigi yo'ldan qaytib borolmay, Britaniya orollarini aylanib o'tishga majbur bo'ldi va mamlakariga sog' qolgan ozgina kemalari bilan juda xarob holda qaytib keldi

"Armada"ning mag'lubiyatga uchraganligi natijasida ispaniya Atlantika okeanidagi savdo yo'llarini nazorat qilib turishdan mahrum bo'ldi. 1596 yilda inglizlarning o'zlari Ispaniya qirg'oqlariga hujum qilib Ispaniyaning Kadis pportini talab ketdilar. Shu paytdan boshlab Ispaniya dengizdagi gegemonligini butunlat yo'qotib qo'ydi.

Filipp II ning 90 yillar boshida Fransiyaga qarshi boshlagan intervensiyasi ham muvaffaqiyatsizlik bilan tuhgadi Filipp II fransuz qirollarining protestant - gugenotlatga qarshi olib borgan urushlariga aralashdi. Ispan qo'shinlari Parijga bostirib kirdi va u yerda Parijni qamal qilib turgan gugenotlar yo'lboshchisi qurol Gentix IV burbonga qarshi kurashda katoliklarga yordam berdi. Ispanlarning yordami katoliklarni saqlab qola olmadi. Parij taslim bo'lishga majbur bo'ldi. Parij olinganida taslim bo'lgan qo'shinlar prasida Filipp II ning ham otryadlari bor edi filipp II intervensiyaga juda ko'p mablag' sarf qilgan bo'lishiga qaramay, Fransiyaga o'z ta'sirini kuchaytirish uyoqda tursin, balki aksincha Ispaniyaga eng ashaddiy dushman orttirdi. Keyinchalik XVII asrning birinchi yarmida Ispaniya bilan Fransiya o'rtasida urushlar to'xtovsiz davom etib turdi. Bu urushlar Pireneya monarfxiyasi uchun muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

Muvaffaqiyatsizliklar bilan olib borilgan katta urushlar Filipp II ning moliyaviy ahvolini tamomila qaqshatib qo'ydi. U o'zini ikki marta - 1575 va 1596 yillarda singan deb e'lon qilib, davlat qarzlarini to'lashdan bosh tortdi. Gabsburglarga qarz berib turgan Fuggerlarning bir o'zi 3 million gulden pulidan mahrum bo'ldi. Savdo, sanoat, dehqonchilikdan olinadigan soliqlar muttasil oshib borib aholini g'oyat qiybnab qo'ydi.

1594 yilda korteslardagi shaharlarning deputatlari " 1000 dukat kapitaldan 300 dukat soliq olinadigan bo'lgan dan keyin savdo bilan shug'ullanib bo'larmijdi?" deb noligan edilar.

Filipp II 1598 yilda vafot etadi, un dan o'z vorisiga davlatning umuman 100 million gulden qarzi meros qoldi. XVI asrning oxirada Ispaniyaning butun xalq xo'jaligini chulg'ab olganiqtisodiy harakat moliya ishlarining vayron bo'lishiga asosiy sabab bo'ldi.

## **XVII-XVIII asrning 2-yarmida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

Monarxlarning yangi hududlarni bosib olish va ularni o'z davlatlari tarkibiga qo'shib olish borasidagi diplomatik qiziqishlari xuddi avvalgilar kabi XVII – XVIII asrning ikkinchi yarmi xalqaro munosabatlariga katta ta'sir ko'rsatdi. SHu bilan birga, dengiz orti mustamlakalari uchun kurash, dengiz yo'llariga egalik qilish, Evropa va uning chekkalaridagi xom-ashyo bozorlari ketidan quvish raqobati kabi yangi omillar kuchayib ketdi. Bu ikki omilning ta'siri davlatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatini o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning birinchi yarmida markazlashgan monarxiyalar avval paydo bo'lgan va umumdavlat manfaati u yoki bu doiraning sulolaviy manfaatlaridan ustun bo'lgan davlatlar birinchi o'ringa chiqdilar. Bularning barchasi XVIII asrning birinchi yarmida ro'y bergan yirik urushlar paytida kuchlar nisbatining o'zgarishiga olib keldi (“Ispan mulklari” uchun 1701-1714 yillardagi urush; 1700-1721 yillardagi SHimoliy urush va 1740-1748 yillardagi “Avstriya mulklari” uchun urush). Bu urushlar oqibatida Angliya, Frantsiya, Rossiya, Avstriya, Prussiya kabi davlatlar ulkan davlatlar qatoriga chiqib oldilar. Ispaniya, Portugaliya, Daniya, Gollandiya, SHvetsiya, Rech Pospolitaya kabi davlatlar esa ikkinchi o'ringa tushib qoldilar. Aynan besh davlat – Angliya, Frantsiya, Rossiya, Avstriya va Prussiya XVIII asrning o'rtalaridan Buyuk frantsuz inqilobigacha dunyoning xalqaro munosabatlar tizimini belgilab berdilar. Xalqaro doiradagi o'zaro kuchlar nisbatining o'zgarishi bevosita xalqaro munosabatlarning yirik masalasi bo'lgan – Usmoniylar (“SHarqiy masala”) masalasida o'z aksini topdi. Bu masala ushbu davrda eng muhim rol o'ynadi. U Evropa davlatlari bilan Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar tabiati bilan bog'liq edi.

XVII–XVIII asrlarda Evropa mamlakatlari xalqaro munosabatlari-ning ko'lami sezilarli darajada kengaydi. O'zining evrotsentristik asosini saqlagan holda xalqaro munosabatlar alohida kontinent va hududlar – YAngi Dunyo (Amerika), Uzoq SHarq (Xitoy, YAponiya), Afrikaning g'arbiy va sharqiy sohillarini qamrab ola boshladi. Mustamlakachilik siyosati (xom-ashyo manbalari va mol sotish bozorlarini qo'lga kiritish) sekin-asta yangi davr xalqaro munosabatlarining eng asosiy masalalaridan biriga aylandi. XVII–XVIII asrlarda mustamlakachilik siyosati xalqaro munosabatlarining muhim aspektiga aylandi. “Eski” mustamlaka davlatlari hisoblangan Ispaniya va Portugaliyaga “yangi” mustamlaka davlatlari Gollandiya va Angliya qarshi chiqa boshladilar. Savdo mustamlakachiligi raqobatida Frantsiya faol ishtirok etdi. Mustamlakachilik borasidagi qattiq kurash Amerikada, Janubiy-sharqiy Osiyoda, Hindistonda, G'arbiy Afrikada alanga oldi. Mustamlakalarni bosib olish va talash metropoliya mamlakatlarida ulkan boyliklarning to'planishiga, manufakturaviy ishlab chiqarishning o'sishiga yordam berdi. Bu davrda mustamlaka mamlakatlarning xalqi dahshatli ekspluatatsiyaga, ochlik va qoloqlikka giriftor bo'ldi. Bu davrdagi eng muhim hodisa savdo kapitalini ko'proq rivojlantirishga qaratilgan davlat homiyligidagi monopol huquqqa ega bo'lgan savdo kompaniyalarining faoliyati bo'ldi.

XVII–XVIII asrlardagi mustamlakachilik siyosati ko'pgina harbiy nizolar – Evropa davlatlari o'rtasidagi mustamlaka va savdo ustunligi uchun bo'lgan “savdo urushlari” (ingliz-golland, frank-golland, ingliz-frantsuz va boshqalar) negizida



shakllangan shiddatli raqobatda kuzatiladi. Savdo-mustamlakachilik raqobati bu davrning barcha yirik urushlarida (jumladan, “Ispan mulklari” va Etti yillik urushlarda) muhim rol o’ynadi. Savdo urushlari dunyoning barcha erlarida olib borildi va mustamlaka davlatlarning har biri savdo mustamlaklarini monopoliyaga aylantirishga harakat qildilar. Ayrim mamlakatlar mustamlaka imperiyalarining shakllanishiga metropoliya mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasi, bosib olingan er aholisining zichlik va rivojlanganlik darajasi, kapitalning dunyo bozoriga kirib borishi kabi bir qator omillar ta’sir ko’rsatdi.

XVIII asrning oxirgi yigirma yili asosiy Evropa davlatlari siyosiy kuchlarining joylashuvida muhim o’zgarishlar yasadi. Bu ikki asosiy yangi omil bilan bog’liq edi: 1) Evropa kontinenti ishlariga Angliya e’tiborining vaqtincha susayishi va uning 1775-1783 yillarda SHimoliy Afrikadagi urushlar bilan bandligi;

2) 1789-1794 yillardagi inqilob tufayli Frantsiyaning Evropaning SHarq davlatlari kurashlaridan chiqib ketishi.

Amerika inqilobi “SHarq masalasi”ni jiddiy sinovlarga duchor qildi va XVIII asrning 80-yillari boshiga kelib uni butunlay barbod qildi. Rossiyaning xalqaro doiradagi muqarrar muvaffaqiyatlari SHimoliy Afrikadagi uzil-kesil urushlardan so’ng Angliyani yana “SHarqiy masala” ga qaytishga undadi. Rossiya uchun muvaffaqiyatli bo’lgan rus-turk, rus-shved urushlari oqibatida Evropadagi xalqaro sharoitlarida umumiy o’zgarishlar paydo bo’ldi. Bu esa Baltika uchun olib borilayotgan urushlarni va “SHarq masalasi”ni ma’lum muddatga ikkinchi o’ringa surib qo’ydi, lekin Frantsiyaning Markaziy Evropa borasidagi Avstriya va Prussiya bilan eski nizolarini va Angliya bilan mustamlakachilik bahslarini kuchaytirib yubordi. Frantsiya bilan kurashish Evropa davlatlarining yangidan qayta guruhlanishini keltirib chiqardi.

1792 – yildan boshlab xalqaro munosabatlar o’zining yangi – inqilobiy va Napoleon urushlari davri, dunyo va Evropa siyosiy xaritasini butunlay yangilanish davriga qadam qo’ydi.

**XIX asrning 20-60-yillaridagi xalqaro munosabatlar.** “Vena tuzumi”ning beqarorligi u tashkil etilgandan so’ng darrov ayon bo’ldi. Muqaddas ittifoq qatnashchilari uni inqilobiy jarayonlarga qarshi harakat qiluvchi qurolga va janjalli xalqaro masalalarni hal etuvchi forumga aylantirilmadi.

1820-1821 yillarda Tropadda (Opava), Leybaxda (Lyublyanada) va 1822 yilda Veronada (SHimoliy Italiyada) bo’lib o’tgan kongresslarda “Muqaddas ittifoq” qatnashchilari bo’lgan mamlakatlarning siyosatida jiddiy ziddiyatlar ko’rina boshladi. Mazkur sharoit kelgusida Angliyaning bora-bora ittifoq harakatlaridan chetga chiqishiga va uning an’anaviy siyosatiga qaytishiga yordam berdi. Angliyaning kelishilgan harakatlardan chetlashishi Evropaning bir yoqlama ittifoqlarga va koalitsiyalarga ajralishiga sabab bo’ldi.

1830 yil Frantsiya va Belgiyada birin-ketin sodir bo’lgan inqiloblar, shu bilan birga, 1830-1831 yillardagi Polsha qo’zg’oloni 1815-1850 yillar xalqaro munosabatlaridagi asosiy nizo hisoblangan Angliya va Rossiya raqobatini yanada keskinlashtirib yubordi. 1830-1831 yillardagi buyuk davlat elchilarining London konferentsiyasi va Belgiya davlati mustaqilligi, uning doimiy betarafligini tan olish

to'g'risidagi bayonnomaning imzolanishi 1815 yil Vena chegaralari tizimidagi birinchi darz bo'ldi. 1848-1849 yillarning inqilobiy to'lqini xavfsizlikka oid besh buyuk davlatning kelishilgan holdagi 1815 yil traktatlariga va "inqilobiy ruh" bilan kurashishni ko'zda tutgan "Vena tuzumi" aqidalariga qayta zarba berdi. Angliya boshqa davlatlarning siyosatiga qo'shilmadi. 30-yillarda shunga o'xshash siyosatni Frantsiyadagi Iyul monarxiyasi o'tkaza boshladi. Prussiya va Avstriyaga kelsak, ularning hukmron doiralari 1848 yil u erlarda yoyilgan inqilobiy hodisalar tufayli ruhiy tushkunlikka tushib qolgan edilar. SHunday qilib, XIX asrning o'rtalariga kelib, 20-30-40-yillarda yuz bergan inqiloblar "Vena tuzumi" asoslariga zarar etkazdi. 50-yillarda "Muqaddas ittifoq" va "To'rtlar ittifoqi" ishtirokchilari o'rtasida urushlarni keltirib chiqargan SHarq masalasi bilan bog'liq nizolarning birdan keskinlashishi oqibatida "Vena tuzumi" uzul-kesil halokatga uchradi.

SHarq masalasining keskinlashuvi va Rossiyaning 1853-1856 yillardagi Qrim urushidagi mag'lubiyati "Vena tuzumi"ning butunlay halokatga uchraganidan va Evropa ishlarida Rossiyaning burungi ta'siri yo'qolganidan darak beradi.

Keyingi yillar xalqaro munosabatlari rus diplomatiyasining 1856 yil 30 martda tuzilgan Parij shartnomasining Rossiya obro'siga putur etkazadigan shartlarini bekor qilishga qattiq kirishgani bilan belgilanadi. "Vena tuzumi" ning halokati sababli yangi xalqaro sharoit shakllandi. Qrim urushi Evropadagi kuchlar nisbatini butunlay o'zgartirib yubordi. Rossiyaning tashqi siyosiy kuchiga zarar etdi. Avstriya-Rossiya-Prussiya ittifoqi tarqalib ketdi. Frantsiya "1815 yil traktatlari" ni butunlay unutishga harakat qildi.

Frantsiya mustamlakachilik siyosatining kuchayishi natijasida an'anaviy frank-angliya qarama-qarshiligi keskinlashdi. Germaniya va Italiyaning birlashishi davrida Prussiya va Sardiniya qirolligining xalqaro faolligi sezilarli darajada oshdi. Avstriyaning mavqei esa pasaydi. Xalqaro munosabatlar rivojidadagi muhim omil 60-yillarda AQSH da ro'y bergan fuqarolar urushi sababli Amerikada Frantsiya va Buyuk Britaniya siyosatining kuchaytirilishi bo'ldi. Bir paytning o'zida Polsha masalasi keskin tus oldi. 1863 yildagi qo'zg'olon sababli Buyuk Britaniyaning, ayniqsa, Frantsiyaning Polsha ishlariga aralashuvi Rossiyaning AQSH bilan yaqinlashishga majbur etdi. Rossiyaning AQSH ga taalluqli aloqalarda muruvvatli betarafligi shimolliklarni diplomatik yakkalanishdan chiqib olishlariga yordam berdi.

"Vena tuzumi" Germaniya va Italiyada butunlay unutib yuborildi. Biroq Germaniya (Janubiy Germaniya knyazligi) va Italiya (Rim masalasi) ning birlashish jarayonlari 60-yillar oxiriga kelib ham tugamagan edi. Rim masalasida ham, Janubiy Germaniya masalasi borasida ham Italiya va Prussiyaning asosiy raqibi Frantsiya edi. Frank-pruss qarama-qarshiligi va keskin italyan-frantsuz munosabatlari XIX asrning 60-yillari ikkinchi yarmi xalqaro munosabatlarning asosiy omili edi.

Evropa davlatlarining 20-60-yillar ikkinchi yarmidagi mustamlakachilik siyosati usullari XVII-XVIII asrlar ikkinchi yarmidagi mustamlakachilik siyosati usullaridan tubdan farq qiladi. Evropaliklar Osiyodagi mustamlakalarning yangi hududlarida iqtisodiy va harbiy munosabatlarning kuchsiz shakllari bilan bir

qatorida qadimgi davrlardan boshlab davlatchilik mavjud bo'lgan qadimiy madaniyat (Xitoy, Yaponiya, Eron) bilan to'qnash keldilar. SHuning uchun ham bu mamlakatlarni zabt etish mustamlaka bosqinchiligi va kontinent bo'linish amalga oshirilgan YAngi Dunyo mustamlakasini zabt etishdan farq qilgan. XIX asrning 20-60-yillarida boshqacha usullar: "ta'sir muhiti"(Xitoy, Iroq, Eron) ni bo'lish, protektorat (Kambodja) o'rnatish, ayniqsa, mahalliy knyaz va monarxlarning hokimiyatini nomigagina saqlagan holda iqtisodiy zabt etish ustunlik qila boshladi. Mustamlakalarni boshqarish qoidalari ham o'zgardi. Koloniyalarni ekspluatatsiya qilish tizimi va ularni monopol savdo kompaniyalari orqali boshqarilishi tugatildi. Mustamlakalarni boshqarish vazifasi davlatga o'tdi. Mustamlakalarni iqtisodiy jihatdan ekspluatatsiya qilishda ham o'zgarishlar vujudga keldi. Agar ilgari mustamlakachilar oltin, kumush, ekzotik o'simlik va ildizli ko'katlar qidirib, qul savdosidan foyda ko'rgan bo'lsalar, endilikda asosiy e'tibor sanoat xom-ashyosi bo'lgan paxta, jut, qazilma boylik va boshqalarga qaratildi. Mustamlakachilar o'z mustamlakalaridan metropoliya sanoati mahsulotlarini sotish bozori sifatida keng foydalandilar va ko'proq maishiy hayotga o'zgartirishlar kiritdilar ( mustamlakalar hududida temir yo'llar, shaxtalar va tosh yo'llar qurdilar).

#### **Адабиётлар:**

1. Алексеев В.М. Тридцатилетняя война. Л., 1961.
2. Ивонин Ю.Е. У истоков европейской дипломатии нового времени. Минск, 1984.
3. История дипломатии. М., 1959 Т.1.
4. Сказкин С.Д. Из истории социально-политической и духовной жизни Западной Европы в средние века. М., 1981.
5. История средних веков М., 1991 Т. 2.
6. Новая история стран Европы и Америки. /Под ред. А.В. Адо. / М., 1986.
7. Коробков Н.М. Семилетняя война М., 1940.
8. Война за независимость и образование США /Под ред. Г.Н. Севастьянова, М., 1976.
9. R.Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi. T.,2009.

## **5 Mavzu Eng yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya**

### **Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli**

|                              |                             |
|------------------------------|-----------------------------|
| <b>O`quv vaqti: 80 minut</b> | <b>Talaba soni 60 nafar</b> |
|------------------------------|-----------------------------|

|  |   |
|--|---|
| <p><b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b><br/><b>Ma`ruza rejasi</b></p>  | <p>1.1871-1914 yillardagi xalqaro munosabatlar.</p> <p>2. Birinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.</p> <p>3. Birinchi jahon urushidan so`ng xalqaro munosabatlar va diplomatiya.</p>  |
| <p><i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda 1871-1914 yillardagi xalqaro munosabatlar. Birinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat. Birinchi jahon urushidan so`ng xalqaro munosabatlar va diplomatiyasi haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i></p> |   |
| <p>Pedagogik vazifalar:<br/>Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.</p>   | <p>O`quv faoliyatining natijalari:<br/>Talabalar 1871-1914 yillardagi xalqaro munosabatlar. Birinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat. Birinchi jahon urushidan so`ng xalqaro munosabatlar va diplomatiyasi haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma`lumotlarni konspektlashtiradilar.</p> |
| <p>Ta`lim usullari:</p>  | <p>“Klaster”, ma`ruza</p>   |
| <p>O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli</p>   | <p>Ommaviy</p>  |
| <p>Ta`lim vositalari</p>   | <p>Slaydlar, marker, jadval</p>   |
| <p>Qayta aloqa usullari va vositalari</p>  | <p>Savol javob</p>  |

**5– mavzu: Eng yangi davrda xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

**Reja:**

1. 1871 – 1914-yillardagi xalqaro munosabatlar.
2. Birinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.
3. Birinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar va diplomatiya.

**XVII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshida xalqaro munosabatlar.**

XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrda xalqaro munosabatlarning asosiy masalalari. Kuchlar nisbatidagi o'zgarishlar. "Ispan merosi" uchun urush. SHimoliy urush. "Avstriya merosi" uchun urush. Etti yillik urush. Yevropa va Usmoniylar imperiyasi o'rtasidagi munosabatlar. Mustamlakachilik siyosati. Savdo urushlari. AQSH-ning tashkil topishi va Yevropa davlatlari. Frantsiyada inqilob va xalqaro munosabatlar. Yevropa Napoleon urushlari yillarida. Vena kongressi va uning qarorlari. XIX asrning 20-,30- va 40-yillardagi inqilobiy va milliy ozodlik harakatlarining xalqaro munosabatlarga ta'siri. "Vena tizimining" emirilishi. Qrim urushi. XIX asrning 50-60-yillarida xalqaro munosabatlar. Mustamlakachilik siyosatining usullari va xarakteridagi o'zgarishlar. Germaniyaning birlashishi va Italiyaning birlashishi. Frantsiya-Prussiya urushi. XIX asrning oxirgi choragida xalqaro munosabatlar. Harbiy-siyosiy guruhlarining (bloklarning) shakllanishi va ular o'rtasidagi kurash. AQSH, Germaniya va YAponiyaning mustamlakalar uchun kurashga qo'shilishi. XX asr boshida xalqaro munosabatlar. Rus-yapon urushi. Bolqon urushlari. Davlatlararo raqobatning keskinlashuvi. Birinchi jahon urushi.

### **German davlatlari xalqaro munosabatlarda.**

30 yillik urushdan keyin nemis davlatlari hududlari xalqaro ziddiyatlarni hal qilish maydoniga aylanib, bu erda bir-biriga dushman mamlakatlar qo'shinlari to'qnashadigan joyga aylandi va ko'pincha nemis davlatlari ham Shu urushlarda ishtirokchi bo'lar edilar.

Rossiyaning Yevropada faol harakat qilishiga o'tishi nemis davlatlarining xalqaro ahvoliga bevosita ta'sir ko'rsatdi. XVII asr ikkinchi yarmidan boshlab, ayniqsa Pyotr I davridan boshlab Rossiyaning bir qator nemis davlatlari bilan aloqalari kuchaydi. 1699 yilda Rossiya Saksoniya kurfyursti va Polsha qiroli bilan SHvetsiyaga qarshi ittifoq tuzdi. 1715 yilda bu ittifoqqa Gannover ham qo'shildi. SHvetsiya Shimoliy urushda mag'lubiyatga uchrab, nemis davlatlariga tegishli yerlarning bir qismidan maxrum bo'ldi. Rossiya esa buyuk davlatga aylanib, uning nemis davlatlariga ta'siri kuchaydi.

Pyotr I Germaniyadagi nemis knyazlari uylari bilan o'z qarindoshlari o'rtasida sulolaviy nikoh tizimini ham yo'lga qo'ydi. Jumladan uning qizi Anna Golshteyn gertsogi Gottorpskiyga turmushga chiqdi, Pyotr I ning qarindoshi YEkaterina esa Maklenburg gertsogiga turmushga chiqdi. Shu vaqtdan boshlab rus podsholari sulolasi bilan nemis sulolasi vakillari o'rtasida nikoh tuzish munosabatlari kuchaydi (podsho Aleksandr III dan boshqa hamma rus podsholari nemis monarxlari sulolasi vakillariga uylanganlar), bu esa siyosiy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan.

Rossiya qudratining ancha oshishi, uning Germaniyadagi ta'sirining kuchayishi Angliya va Avstriyaning xavfsirashi va noroziligini kuchaytirdi. 1714 yilda Gannover kurfyursti Georg 1 Angliya qiroli bo'ldi. 1719 yilda Angliya, Gannover, Avstriya, Saksoniya va Polsha o'rtasida Rossiya va Prussiyaga qarshi qaratilgan ittifoq bitimi tuzildi. Ittifoq a'zolarining tazyiqi ostida Pyotr I yon berishga majbur bo'ldi, lekin Angliyaning Rossiya va Prussiyaga qarshi qaratilgan siyosati rus-pruss munosabatlarining mustahkamlanishiga yordam berdi.

XVIII asr davomida Pyotr I vorislari davrida rus diplomatiyasi Germaniyada faol siyosat olib bordi, ko'pincha nemis davlatlari o'rtasidagi

kurashga, kuchayib borayotgan Avstriya-Prussiya raqobatiga aralashib turdi. Rus qo'shinlari Germaniya hududida ro'y bergan harbiy harakatlarda biror bir nemis davlatining ittifoqchisi sifatida ishtirok etardi. Jumladan 7 yillik urushda (1756-1763) Rossiya Avstriya, Saksoniya, Frantsiya va SHvetsiya bilan ittifoq bo'lib, Angliya va Prussiyaga qarshi kurash olib bordi. Urush davomida rus qo'shinlari 1760 yilda Berlinga kirib bordilar. Rus imperatori Yelizavetaning o'limi Prussiya qiroli Fridrix II ni batamom tor-mor bo'lishdan saqlab qoldi.

### **Frantsiya – Prussiya urushi (1870-1871 yy).**

Yevropa tarixida Frantsiya bilan Germaniya o'rtasidagi urush muhim voqea hisoblanadi. Odatda bu urush Yangi tarixning ikkinchi davrining boshlanishi hisoblanadi.

Bu urush Germaniya bilan Frantsiya o'rtasidagi chuqur ziddiyatlardan kelib chiqqan edi. Shimoliy Germaniya ittifoqiga birlashgan ko'pgina nemis davlatlari birlashishga intildilar. Faqat 4 ta nemis davlati – Baden, Bavariya, Vyurtemberg va Gessen-Darmshtadt Frantsiya bilan iqtisodiy va diniy (katolik) jihatdan bog'langan bo'lib, ular Frantsiya tomonga intilar edilar.

Prussiya Frantsiyaning Yevropadagi ta'sirini susaytirishga harakat qilardi. Frantsiya esa o'zining Yevropadagi ustunligini saqlab qolishga intilar, Germaniyaning birlashishiga halaqit berib, Prussiyaning kuchayib ketishini istamas edi. Shimoliy Germaniya ittifoqining tuzilishiga halaqit qila olmagan Frantsiyaning hukmron doiralari uning kengayishi va mustahkamlanishiga qarshi edilar.

Shimoliy Germaniya ittifoqi hukmron doiralari Frantsiya ustidan g'alaba qozonmaguncha nemis davlatlarini uzil-kesil birlashtirib bo'lmasligiga ishonch hosil qildilar va Frantsiyaga qarshi urush boshlashga qaror qildilar.

Germaniyani uzil-kesil birlashtirish va Frantsiyaga qarshi urush boshlashga aholining barcha qatlamlari rozi edi. Reyxstagda askarlar sonini ko'paytirish va harbiy xarajatlarni oshirish to'g'risida qonun qabul qilindi. Urushni boshlash uchun bahona yetishmas edi. Tez orada ana shunday bahona topildi.

Ispaniya qiroli vafot etgach, uning vorisi yo'q edi. Natijada prusslarning Gogentsollernlar sulolasidan bo'lgan shahzoda Leopoldning nomzodi ko'rsatildi. Lekin tez orada Leopold o'z nomzodini qaytarib olgan bo'lishiga qaramay, Napoleon III pruss qiroliga xat bilan murojaat qilib, undan Gogentsollernlardan hech kim ispan taxtini egallamasligi xaqida va'da berishini talab qildi. Lekin Prussiya qiroli bunday va'da berishdan bosh tortdi.

Mamlakat ichida o'z ta'sir kuchini va obro'sini yo'qotib borayotgan Frantsiya qiroli Napoleon III Prussiyaga qarshi urush olib borish va g'alabaga erishish orqali o'z mavqeini yaxshilab olishga harakat qilmoqda edi. U bu voqeadan urush boshlash uchun foydalanishga qaror qildi. Natijada urush muqarrar bo'lib qoldi.

1870 yil 19 iyulda Frantsiya Prussiyaga urush e'lon qildi. Frantsiya urushga oldindan tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa ham amalda u urushga tayyor emas edi. Urush olib borish rejasi ishlab chiqilmagan, ko'pgina harbiy istehkomlar xali qurib bitkazilmagan, yo'llar remont qilinmagan, safarbarlik yaxshi tashkil qilinmagan,

o'q-dori va oziq-ovqat o'z vaqtida etkazib berilmasdi. Gospitallar, vrachlar, dori-darmon etishmasdi. Hatto sharqiy chegaralarning xaritasi ham yo'q edi.

Prussiya armiyasi esa yaxshi tayyorlangan bo'lib, frantsuzlar armiyasidan 2 marta ko'p edi. Ular tashkiliy va harbiy jihatdan yaxshi tayyorgarlik ko'rgan, mamlakatni birlashtirish g'oyasidan ruhlangan edilar. Germaniya temir yo'llari to'xtovsiz ishlab turar va harbiy omborlar zahiralarga to'la edi.

4 avgustda birinchi yirik jang bo'ldi. Frantsuzlar katta talofat berib, chekinishga majbur bo'ldilar. 1 sentabr kuni frantsuzlarning marshal Mak-Magon boshchiligidagi 90 ming kishilik armiyasi Sedan yaqinida nemislar tomonidan o'rab olindi va artilleriyadan o'qqa tutildi. Frantsuz askarlarining o'q-dorisi tugab, vaziyat yanada og'irlashdi. 12 soatlik jangdan keyin imperator Napoleon III ning buyrug'i bilan frantsuz armiyasi taslim bo'ldi.

Sedandagi mag'lubiyat Parijga etib kelgach, bu erda g'alayonlar boshlanib ketdi. Qonunchilik korpusi binosida respublikachilar va monarxiyachi-orleanchilar to'plandilar. ( Monarxiyachilarning 3 guruhi bor edi – 1.Legitimchilar- Burbonlar tarafdorlari. 2. Orleanchilar – Orlean sulolasi tarafdorlari. 3. Bonapartchilar.).

Qonunchilik korpusi binosiga Parij aholisi bostirib kirdi va 1870 yil 4 sentabrda Frantsiya respublika deb e'lon qilindi, bu Frantsiya tarixidagi Uchinchi respublika edi. Ikkinchi monarxiya ag'darildi. General Troshyu boshchiligida hukumat tuzildi. Mamlakatni himoya qilish uchun harakat kuchaydi. 220 ming kishidan iborat Yangi qo'shin tuzildi. Lekin Frantsiyaning strategik ahvoli juda og'ir edi. Frantsuz armiyasining qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay, nemis qo'shinlari birin-ketin Frantsiya shaharlarini bosib ola boshladilar. Sentabrda Parij o'rab olindi.

1871 yil 18 yanvarda Versalda urush g'oliblari – nemis davlatlarining qirollari, gertsoglari, barcha nemis davlatlarining hukumat a'zolari to'plandilar. Vilgelm I Gogentsollern tantanali suratda Germaniya imperatori deb e'lon qilindi. Germaniya imperiyasi tashkil topdi, Germaniyani birlashtirish yakunlandi.

1871 yil 28 yanvarda Germaniya bilan Frantsiya o'rtasida dastlabki sulh tuzildi. Sulhni ratifikatsiya qilish uchun Frantsiyada Milliy majlisga saylovlar bo'lib o'tdi. Milliy majlis dastlabki sulh shartlarini tasdiqladi. Frantsiya o'zining eng muhim 2 provintsiyasidan – Elzas va Lotaringiyadan mahrum bo'ldi, 3 yil davomida 5 milliard frank kontributsiya to'lash majburiyatini oldi.

Hukumat Germaniya bilan sulh tuzgach mamlakat ichidagi inqilobiy harakatni bostirish yo'liga o'tdi. Parij aholisining qurolli kuchi hisoblangan Milliy gvardiyani qurolsizlantirish haqida buyruq berildi. 18 mart tunida hukumat qo'shinlari Milliy gvardiyaning to'plarini tortib olishga harakat qildilar. Bunga javoban milliy gvardiyachilar, Parij aholisi g'alayon ko'tardilar. Askarlar ularga qarshi o'q otishdan bosh tortdilar. Bu voqea hukumatga qarshi umumxalq chiqishi uchun signal bo'ldi. Parijda inqilob boshlandi.

Parijdagi 1871 yil 18 martdagi inqilob o'z xarakteriga ko'ra proletar inqilobi edi. Bu inqilobning harakatlantiruvchi kuchi parijlik ishchilar sinfi edi, ularga mayda burjuaziya ham qo'shildi. Inqilob Parijda burjuaziya hukmronligini ag'darib tashlab, hokimiyatga ishchilar sinfi vakillarini olib keldi.

Inqilobga Milliy gvardiya Markaziy Qo'mitasi rahbarlik qildi. MQ o'zini hukumat deb hisoblamas edi. U saylovlar orqali saylanadigan Kommuna Yangi inqilobiy hukumat bo'lishi kerak deb hisoblardi.

26 martda umumxalq saylovlari asosida Kommuna Kengashi saylandi va u proletariat hokimiyatiga aylandi.

Kommuna cherkovni davlatdan ajratilganini e'lon qildi, maktablarga dunyoviy xarakter berildi, madaniyat sohasida bir qator demokratik tadbirlar amalga oshirildi.

Kommuna dekretlari bilan bir qator korxonalar milliyashtirildi, ba'zi korxonalar ustidan ishchi nazorati o'rnatildi. O'zboshimchalik bilan ishchilarsha jarima solish, ish haqidan ushlab qolish taqiqlandi, 10 soatlik ish kuni joriy qilindi, ishsizlarni ishga joylashtirish byurosi tashkil etildi.

Lekin Parij Kommunasi o'z faoliyatida bir qator xatolarga yo'l qo'ydi. Eng avvalo u burjuaziya armiyasini qurolsizlantirmadi. Burjuaziyaga tegishli bo'lgan mol-mulklarni, banklarni milliyashtirmadi.

1871 yil 2 apreldan boshlab Versal armiyasi hujumga o'tdi. 21 mayda ular Parijga kirib keldilar. Kommunarlar bir hafta davomida har bir uy, har bir ko'chani jon-jahdlari bilan himoya qildilar, bu hafta tarixga «qonli may haftasi» nomi bilan kirdi. 28 mayda Kommunarlar so'nggi barrikadasi quladi, 29 mayda Vensen forti versalchilar qo'lga o'tdi.

Versalchilar kommunarlardan shafqatsizlarcha o'ch oldilar, 30 mingdan ortiq odam o'ldirildi, 50 ming odam qamoqqa olindi, ulardan 14 mingi katorgalarga yuborildi, turmalarga tashlandi.

1871 yil 10 mayda Frankfurt-Maynda Germaniya bilan Frantsiya o'rtasida yakuniy sulh bitimi imzolandi. Frantsiya 5 mlrd. frank tovon to'lashi, Elzasni va Lotaringiyaning shimoli-sharqiy qismini Germaniyaga berishi kerak edi.

Ko'mir va temir rudalariga boy Elzas va Lotaringiyaning qo'ldan ketishi Frantsiyaning 1-jahon urushigacha bo'lgan taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Frantsiyaning sharqiy chegarasi himoyasiz qoldi, chunki uning 28 qal'asi Germaniyaga o'tgan edi.

Frantsiya-Germaniya urushi natijasida Germaniyaning birlashishi yakunlandi, Germaniya imperiyasi tashkil topdi. Frantsiyada 2-imperiya quladi va Uchinchi respublika tashkil topdi. Urush Italiyaning birlashishiga ham ta'sir ko'rsatdi, Rim papasini himoya qilib turgan frantsuz korpusi chaqirib olindi va Italiyani birlashtirish oxiriga etkazildi. Frantsiyaning xalqaro mavqei pasaydi. Frankfurt sulhi Yevropadagi kuchlarning Yangi nisbatini yuzaga keltirdi va ziddiyatlarning kuchayishiga omil bo'ldi.

**ETTI YILLIK URUSH.** Avstriya merosi uchun bo'lgan urushdan keyin Prussiya Yevropadagi buyuk davlatga aylandi. Shundan keyin Fridrix II juda katta agressiv rejalarni ishlab chiqdi. U Saksoniya va CHexiyani bosib olishni, sharqda Polshaning bir qismini o'z hududiga qo'shib olishni, Polshaga qaram bo'lgan Kurlandiya gertsogligiga o'z qarindoshi shahzoda Genrix Gogentsollernni o'tqazishni maqsad qilib qo'ygan edi. Bular o'z navbatida Avstriya manfaatlariga



va uning ittifoqchisi bo'lgan Rossiyaning manfaatlariga xavf solar edi. Rossiya davlati Polsha va Kurlandiyaning o'z ta'siri ostida saqlashga intilardi.

Mariya Tereziya Sileziyani boy berilishiga rozi emas edi. U Avstriyaga qarshi ittifoq tuzishga harakat qildi. 1756 yilda Avstriya bilan Frantsiya o'rtasida Versal ittifoqchilik bitimi tuzildi va bu bilan ikki davlat o'rtasidagi ikki asrlik dushmanlikga barham berildi. Angliya bunga javoban Prussiya bilan Vestminster ittifoqchilik bitimini tuzib, urushga diplomatik jihatdan tayyorgarlik ko'rishni oxiriga etkazdi. Mustamlakalar uchun ingliz-frantsuz kurashining keskinlashishi va pruss agressiyasining Avstriya, Frantsiya va Rossiya manfaatlarini bilan to'qnashishi 1756-1763 yillardagi Etti yillik urushga olib keldi.

Etti yillik urush (1756-1763) Sileziya uchun urush kabi boshlandi. Buyuk Fridrix dushmanlaridan o'zib ketishga harakat qilib, Avstriyaga hujum boshladi va bu bilan xalqaro munosabatlarda me'yor sifatida "preventiv (cheklangan, ajratilgan) urush"ni qaror toptirdi. Lekin u yanglishgan edi. Prussiyaning o'zi urush maydoniga aylandi. Uning poytaxti ikki marta – dastlab ruslar va avstriyaliklar tomonidan, keyin vengrlar tomonidan bosib olindi. Prussiyani batamom tor-mor qilinishidan Rossiyaning to'satdan urushdan chiqishi qutqarib qoldi. Malika Yelizaveta vafotidan keyin Rossiya taxtiga gertsog Golshteynskiy Pyotr III nomi bilan o'tirgach, u Fridrix II ga qarshi urushni to'xtatdi va Rossiya imperiyasi manfaatlariga to'g'ri kelmasa ham Daniyaga qarshi Prussiya bilan ittifoq tuzdi. 1762 yilda Prussiya Avstriya va Frantsiya bilan sulh tuzdi. Davlatlarning Yevropadagi chegaralari o'zgarishsiz qoldi. Lekin Angliya okean ortida Frantsiyaning eng boy mustamlakalarini bosib oldi va eng yirik mustamlakachi davlatga aylandi.

Etti yillik urushda Mariya Tereziya Sileziyani qaytarib o'lmadi. Lekin Fridrix II ham o'z bosqinchilik maqsadlarini amalga oshira olmadi, bunga Rossiyaning g'alabalari halaqit berdi. Rossiyaning Avstriya va Frantsiya bilan bo'lgan ittifoqi tarqalib ketdi. Pyotr III vafotidan keyin taxtga o'tirgan YEKaterina II Daniyaga qarshi Prussiya bilan tuzilgan bitimni bekor qildi, lekin Prussiya bilan yaqinlashish siyosatini davom ettirdi. Urush yakuni Germaniyada Prussiya bilan Avstriyani deyarli bir-biriga teng davlatga aylantirdi.

**1871 – 1914-yillardagi xalqaro munosabatlar.** Frantsiya-Prussiya urushi XIX asrning oxirgi choragi xalqaro munosabatlari tarixida yangi sahifa ochdi. Evropa siyosiy xaritasida kuchli harbiy va sanoat imkoniyatiga ega bo'lgan qudratli Germaniya imperiyasi paydo bo'ldi.

Frantsiya-Prussiya urushining asosiy xalqaro natijasi Italiya birlashuvining yakunlanishi bo'ldi. Bu yangi buyuk davlat Frantsiyaning O'rta Er dengizi havzasidagi raqibiga aylandi. Avstriya-Prussiya urushidagi vayronagarchiliklar uchun intiqom olish maqsadidan voz kechgan Avstriya-Vengriya, o'z navbatida, Germaniya bilan yaqinlashishga qaror qildi. Germaniya iqtisodiy qudratining tezda oshib ketishi va uning mustamlakachilik ekspansiyasi sahnasiga chiqishi Angliya-Germaniya kelishmovchiligini yanada keskinlashtirib yubordi. SHu tariqa, Frantsiya-Prussiya urushi va Germaniya imperiyasining vujudga kelishi

Evropadagi kuchlarning qayta guruhlanishiga va xalqaro ahvolning keskinlashishiga olib keldi.

Germaniya imperiyasining asoschisi va uning birinchi kantsleri Otto fon Bismark Frantsiyani yakkalab qo'yish va kelgusida unga qarshi yangi urush ochish uchun qulay diplomatik vaziyatni ta'minlash maqsadida Germaniya rahbarligidagi harbiy-siyosiy ittifoq tuzishga harakat qildi. Kantslarning Frantsiyaga qarshi tashqi siyosati 1873 yilda vujudga kelgan "Uch imperator ittifoqi"da ko'rinish berdi. Frantsiyani Rossiya va Avstriya-Vengriya bilan ittifoqdosh bo'lish imkoniyatidan mahrum qilish uchun Bismark Evropadagi "tartib"ni mustahkamlash maqsadida monarxiya birdamligi g'oyasini qo'lladi. "Uch imperator ittifoqi" 1887 yilgacha, Avstriya-Rossiya va Germaniya-Rossiya kelishmovchiliklari alanga olgunga qadar mavjud bo'ldi. Rossiya "Uch imperator ittifoqi"ga qo'shildi. Lekin bu degani uni Frantsiyani Germaniyaning yangi bosqinchiligidan himoyalashdan voz kechdi degani emasdi. Rossiyani Frantsiyaning kuchsizlanib qolgani endi qiziqitirmay qo'ydi.

"Evropada kuchlar tengligi" siyosatini qo'llab-quvvatlayotgan Angliya ham G'arbiy Evropada bitta davlat (Germaniya) hukmronligining o'rnatilishiga qarshi edi. Aynan Rossiya bilan Angliyaning ushbu holati Bismarkning Frantsiyaga qarshi 1875 yilda yangi urush boshlashiga yo'l bermadi. 1875 yilda Frantsiya-Prussiya harbiy xavfi bilan bir paytda YAqin SHarq tangligi avj oldi.

Rossiyaning rus-turk urushidagi (1877-1878 y.y.) muvaffaqiyatlari bolqon xalqlari uchun katta ahamiyat kasb etdi. Ular jismoniy kamsitilishlardan qutulib, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish imkoniyatiga ega bo'ldilar. CHernogoriya, Serbiya, Ruminiya mustaqil deb tan olindi.

Bismarkning Frantsiyani yakkalab qo'yish borasidagi kelgusi faoliyati tarkibi Germaniya, Italiya, Avstriya-Vengriyadan iborat "Uchlar ittifoqi"ning shakllanishiga olib keldi. "Uchlar ittifoqi to'g'risidagi" 1882 yilgi shartnoma 5 yil muddatga imzolangan edi, keyinchalik u bir necha marotaba qayta tuzilib, 1915 yilgacha mavjud bo'ldi. YAngi harbiy ittifoq, bir tomondan, Frantsiyaga, ikkinchi tomondan, Rossiyaga qarshi qaratilgan edi. SHu bilan birga, Rossiya bilan do'stona aloqalarni saqlab qolish orqali uning Frantsiya bilan yaqinlashishiga yo'l qo'ymaslik Bismarkning asosiy vazifasi bo'lib qoldi. 1887 yilda Rossiya va Germaniya o'rtasida qayta sug'urta shartnomasi imzolandi. Rossiya o'ziga Frantsiya Germaniyaga hujum qilgan taqdirda do'stona betaraflikni saqlab qolish majburiyatini oldi. Buning evaziga esa Angliyaning YAqin SHarqda dushmanlik harakatlari yuz beradigan taqdirda Germaniyaning yordami to'g'risidagi va'dasini oldi.

Avstriya-Vengriya va Angliyaning Bolgar knyazligiga ta'siri kuchayishi natijasida Rossiyaning og'ir xalqaro vaziyatga tushishi podshohlik hukumatini bu shartnomani tuzishga majbur etdi. Qayta sug'urta shartnomasi 1890 yilgacha o'z kuchini saqlab qoldi.

Frantsiya va Rossiyaga qarshi qaratilgan 1879 yilgi Avstriya-Germaniya ittifoqi, shu bilan birga, 1882 yilgi "Uchlar ittifoqi" qayta sug'urta shartnomasiga va "Uch imperator ittifoqi"ga qarshi chiqdilar. Umumiy dushman hisoblangan Germaniyaning kuchayishi natijasida Rossiya va Frantsiyaning yaqinlashuvi ro'y

berdi. Angliya va Italiya bilan chuqur kelishmovchiliklarga ega bo'lgan Frantsiya Germaniya bilan urush bo'lgan taqdirda faqat Rossiyadagina yordam olishi mumkin edi. Bundan tashqari, Rossiya bilan yaqinlashuv Frantsiyaning tashqi siyosiy yakkalikdan qutulishiga yordam berdi. Bu ikki mamlakat o'rtasidagi mustamlakachilik siyosati bo'yicha ham, Evropa siyosatiga oid masalalar bo'yicha ham jiddiy kelishmovchiliklar yuz bermadi. Bundan tashqari, Bismark hukmronligining so'nggi yillarida Rossiya va Germaniya o'rtasidagi bojxona urushlari tufayli Frantsiya asta-sekin Rossiyaning asosiy kreditoriga aylandi.

Bismarkning Frantsiyaga 1887 yilgi qayta hujum qilish xavfi Frantsiyaning Rossiya bilan yaqinlashuviga asosiy omil bo'lib xizmat qildi. 1891 yilda "Uchlar ittifoqi" yangidan tuzilgandan so'ng Germaniya va Angliyaning yaqinlashish alomatlarini paydo bo'ldi.

1891 yilda esa Rossiya va Frantsiya o'rtasida maslahat bitimi o'rnatildi, 1892 yilda esa maxfiy harbiy bitim imzolandi. Bu bitim 1893 yilda tasdiqlandi. Ushbu bitim Frantsiyaning Germaniya va Italiya bilan to'qnashishi hodisasi yuz bersa, Rossiyadan harbiy yordam olishini ta'minlardi va kontinental ekspansiya uchun yo'l ochib berardi.

XIX asr ikkinchi yarmi Angliya tashqi siyosatida "Porloq yakkalik" deb atalgan siyosat ustun edi. Bu siyosatni muntazam olib borgan lord Solsberi "Angliyaning doimiy ittifoqdoshlari va doimiy dushmanlari yo'q, lekin uning doimiy va barqaror qiziqishlari bor" degan gapni takrorlashni yaxshi ko'rardi. "Porloq yakkalik" siyosati Angliyaning uzoq muddatli ittifoqlarga qo'shilishiga yo'l qo'ymaydigan sanoat hukmronligi va dengiz qudratiga tayanardi. O'z maqsadlariga erishish uchun Angliya diplomatiyasi kontinental davlatlarning kelishmovchiliklaridan foydalandi.

XIX asr ikkinchi choragi Angliya mustamlakalarining mahobatli kengayish davri bo'ldi. Germaniyaning "jahon siyosati"ni o'tkazish g'oyasi Bismark kantslerligining oxirgi yillarida ko'rina boshladi.

XIX asrning 90-yillarida Germaniyaning hukmron doiralari "Quyosh ostidagi erlar" bosqinchilik g'oyasini faol tashviq qildilar. SHu vaqtning o'zida boshqa ikki mamlakat – AQSH va Yaponiya ham faol mustamlakachilik siyosati maydoniga chiqqan edilar. SHunday qilib, qaqshatqich urushlarda uncha katta bo'lmagan davlat guruhlarini keyinchalik yangidan taqsimlash maqsadida dunyoni bo'lib olishni tugalladilar. Buning negizida dunyoning barcha qismlarida xalqaro kelishmovchiliklarning o'chog'i shakllandi.

XIX asrda ingliz-frantsuz mustamlakachilik ziddiyatlari ancha chuqurlashdi. Boshqa tomondan esa, Angliya va Germaniyaning harbiy – dengiz raqobati shaklidagi ziddiyatlari avj oldi. Bunday raqobat natijasida angliyaliklar dengizdagi avvalgi imtiyozlarini yo'qotgan edilar. XIX asrning oxirida ingliz-german kelishmovchiliklarining keskinlashuvi Angliya tashqi siyosatining keskin o'zgarishiga olib keldi. Sanoat hukmronligini yo'qotgan va kontinental davlatlarning kelishmovchiliklaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lgan Angliya endi siyosiy yakkalikni saqlab qololmadi. Angliyaning hukmron doiralari o'rtasida bunday vaziyatda mamlakat ittifoqchilarga muhtoj degan fikr paydo

bo'ldi. 1902 yil 30 yanvarda "Porloq yakkalik" siyosatiga nuqta qo'ygan ingliz-yapon ittifoqi shartnomasi imzolandi.

Angliya diplomatiyasi 1902 yildan boshlab Germaniyaga qarshi urushda unga ittifoqdosh bo'lishi mumkin bo'lgan Frantsiya bilan, keyinchalik Rossiya bilan munosabatlarini tartibga solish yo'liga o'tdi.

Rossiya-YAponiya urushi va Rossiyadagi 1905-1907 yillardagi inqilob kuchlarning qayta guruhlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Rossiya Angliya uchun xavfli dushman bo'lmay qoldi. Angliya-Germaniya munosabatlari va Germaniya-Frantsiya o'rtasida avj olayotgan ziddiyatlar Angliya-Frantsiya yaqinligini keltirib chiqardi. Bu yaqinlik ikkala davlat o'rtasida 1904 yil 8 aprelda Londonda imzolangan maxfiy kelishuv sifatida namoyon bo'ldi. Angliya va Rossiya o'rtasida mustamlakachilik masalalariga oid o'zaro kelishuvga erishilgandan so'ng, 1907 yil Peterburgda Angliya va Rossiya o'rtasida bitim imzolandi. Angliya-Rossiya bitimining imzolanishi Antantani vujudga keltirdi. Antantaning shakllanishi Germaniyaga nisbatan kuchli zarba bo'ldi. Bundan tashqari, 1902 yilda Italiya va Frantsiya Italiyaning "Uchlar ittifoqi"dan chetga chiqishidan darak beradigan betaraflik to'g'risidagi yangi maxfiy bitimni imzoladilar. Bu nafaqat Italiya-Avstriyaning Adriatika dengizining sharqiy sohili borasidagi azaliy dushmanligi bilan, balki Italiyaning frantsuz mablag'lari va savdosiga katta qiziqishi bilan izohlanardi. Ikki asosiy harbiy-siyosiy ittifoq o'rtasidagi raqobat Bolqon urushlarida o'z aksini topdi. Bu urushlar natijasida Serbiya, Gretsiya va CHernogoriyaning hududlari sezilarli darajada kengaydi. Bolqon ittifoqining barbod bo'lishi Avstriya-Germaniya ittifoqining yutug'i bo'ldi. Antanta esa o'zining Serbiyadagi o'rnini mustahkamladi.

Urushdan oldingi so'nggi o'n yillikdagi xalqaro tanglik, Bolqondagi urushlar Angliya-Germaniya, Frantsiya-Germaniya, Rossiya-Germaniya, Rossiya-Avstriya asosiy ziddiyatlarining keskinlashishiga sabab bo'ldi. Qatnashchilarning ziddiyatlariga qaramasdan Antantada kuchlarni birlashtirish ro'y berdi.

XX asr boshidan "Uchlar ittifoqi" Italiyaning chiqib ketishi munosabati bilan ikkilikka aylandi. Lekin o'sha paytda Germaniyaning urushdan oldingi yillardagi jiddiy diplomatik muvaffaqiyatlaridan biri Turkiyani o'z tarafiga og'dirishi bo'ldi. Turkiyaning asosiy strategik holati Germaniyaning Antanta bilan kelgusidagi to'qnashuvlarida yaxshi istiqbol edi. 1914 yil boshlariga kelib, ikki lagerda zo'r berib qurollanish ulkan darajaga etdi. Evropaning yirik mamlakatlari o'rtasida yuksak iqtisodiy rivojlanish sur'atiga ega bo'lgan Germaniya urushga hammadan oldin, tez va puxta tayyorgarlik ko'ra boshladi.

### **AQSH birinchi jahon urushi arafasida va urush yillarida.**

Birinchi jahon urushi arafasiga kelib iqtisodiy jihatdan jahonning qudratli davlatiga aylangan edi. 1900-1912 yillarda mamlakat aholisi 76 mln. kishidan 95 mln. kishiga etdi. Milliy boylik shu davr ichida 88,5 mlrd. dollardan 165 mlrd. dollarga etdi. AQSH sanoat va qishloq xo'jaligi taraqqiyoti bo'yicha boshqa mamlakatlardan ancha ilgarilab ketgan edi. XX asrning dastlabki o'n yili davomida qishloq xo'jaligining yillik mahsuloti qiymati 4,7 mlod. Dollardan 8,5 % mlrd. dollarga, sanoat ishlab chiqarishida esa 11,4 mlrd. dollardan 20, 7 mlrd. dollarga ko'paydi. AQSH sanoati 1909 yilda Angliyaga

nisbatan 2 baravar, Germaniyaga nisbatan 2, 5 baravar mahsulot ishlab chiqardi. AQSH 1913 yilda 31 mln. tonna cho'yan va po'lat, 560 mln. tonna ko'mir, 248 mln. tonna neft ishlab chiqardi. 1898-1908 yillar davomida 3,3 mlrd. dollarlik oltin qazib olindi. Xo'jalikning barcha iarmoqlarida fan va texnikaning eng Yangi yutuqlaridan keng foydalanildi. Yangi ixtirolar sanoat va savdoning o'sishiga yordam berib, aloqa vositalarining ahamiyatini kuchaytirdi. Sanoatning ximiya, rezinka, elektrotexnika, avtomobilsozlik kabi tarmoqlari rivojlanib bordi. Agar avtomobil zavodlari 1900 yilda 4 ming avtomobil sotgan bo'lsalar, 1916 yilga kelib bu ko'rsatkich 1,5 mln. avtomobilga teng bo'ldi. Avtomobilsozlikning rivojlanishi o'z navbatida shosse yo'llar qurilishiga turtki berdi. Birinchi jahon boshlanishiga kelib AQSHda chorak million mil shosse yo'llari qurilgan edi. Temir yo'llar qurilishi ham tez rivojlanib, shu davrga kelganda temir yo'llarning uzunligi 264 ming milga etdi. AQSH tashqi savdosi ham rivojlanib, uning aktiv savdo balansi 2,25 mlrd.dollarga teng edi. 1910 yilga kelib AQSHning yillik eksport mahsulotlarining qiymati 2 mlrd. dollardan oshib ketgan edi.

AQSH butun XIX asr davomida qarzdor davlat hisoblanardi. Lekin XIX asr oxiriga kelib, AQSH dunyoning eng yirik sanoat mamlakatiga aylangach va uning tashqi savdosi o'sgach, AQSHga chet el sarmoyalari kirib kelishi bilan bir vaqtda AQSH chetga sarmoya chiqarishni ham boshlab yubordi. AQSH birinchi jahon urushi boshlangan vaqtda chet davlatlardan 4-5 mlrd. dollar qarzdor bo'lishiga qaramasdan, uning chet ellarga chiqargan sarmoyasi 1899 yildagi 500 million dollardan 1913 yilga kelib 3 milliard dollarga etdi, ya'ni 14 yil davomida 5 baravardan ko'proq o'sdi.

1899-1913 yillar davomida AQSHning Yevropadagi kapital qo'yilmalari 35 baravar, Xitoy va Yaponiyada 20 baravar o'sdi. AQSHning Kanadadagi kapital qo'yilmalari 75 mln. dollarga etib (Kanadadagi barcha chet el sarmoyalarining 24 % i), u faqat Angliya sarmoyasidan keyinda turardi.

Karib dengizi mamlakatlarida – Kuba orolida, Markaziy Amerikaning Kosta-Rika, Nikaragua, Gonduras, Salvador, Panama, Gaiti va San-Domingoda Amerika kapitali hukmron mavqega ega bo'lib, bu mamlakatlar iqtisodiyotini o'ziga bo'ysundirgan edi.

Xitoyda Amerika sarmoyasining miqdori 1902 yildan 1914 yilgacha 19,7 mln. dollardan 49,3 mln. dollarga etdi, uning asosiy qismi Shanxayda edi.

AQSH tashqi savdosi ham o'sib bordi va 1870 yildagi 1,5 mlrd. dollardan 1900 yilda 2,7 mlrd. dollarga va 1913-1914 yillarda deyarli 4,5 mlrd. dollarga etdi. AQSH o'z savdo ekspansiyasini eng avvalo Yevropa, Kanada va Karib dengizi hududlariga - Meksika, Markaziy Amerika respublikalari, Vest-Indiya va Janubiy Amerikaning shimoldagi respublikalari – Kolumbiya, Venesuela, Ekvadorga qaratdi.

AQSHning hukmron doiralari mamlakatning harbiy qudratini dunyoga namoyish qilishga harakat qildilar. SHu maqsadda 1907-1909 yillarda butun amerika floti dunyo bo'ylab safarga chiqib, dunyoning ko'pgina portlariga kirib bordilar. Bu safar mamlakat xazinasiga 20 million dollarga tushdi. Bu bilan AQSH imperializmi o'z qudratini butun dunyoga namoyish qildi. Bu

kemalarning ko'pchiligi Lotin Amerikasi xalqlari va hukumatlariga qarshi qaratilgan yurishlardir ishtirok etdi.

Birinchi jahon urushi boshlanib ketgach, Germaniya o'z betarafligini e'lon qildi va urushayotgan tomonlarga qurol-yarog', xom ashyo sotib, katta boylik to'pladi. Urush AQSH taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. AQSH mahsulotlari qiymati 1914-1918 yillar mobaynida 24 mlrd.dan 64,4 mlrd.gacha ko'paydi. Lekin sanoat taraqqiyoti notekis bordi, urush ehtiyojlari uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi rivojlanib, boshqa tarmoqlar (to'qimachilik, charm-teri, qog'oz va b.) keskin qisqardi. Urush AQSH monopoliyalarining yanada o'sishiga yordam berdi. AQSHning 1914-1918 yillardagi tashqi savdodagi sof daromadi 10,1 mlrd. dollarga teng bo'ldi. Yevropa davlatlarining oltinlari AQSH xazinasiga oqib kela boshladi. Amerika Qo'shma Shtatlari qarzdor davlatdan qarz beruvchi (kreditor) davlatga aylandi va Antanta davlatlariga 10,3 mlrd. dollar atrofida qarz berdi. Savdo munosabatlari va kreditlar AQSHni Antanta davlatlari bilan aloqalarini kuchaytirdi va Antaataning mag'lubiyatga uchrashi Amerika Qo'shma Shtatlarining bu davlatlardagi daromadlarini yo'q qilinishini bildirardi.

AQSH o'z betarafligidan foydalanib urushga puxta tayyorgarlik ko'rdi. 1915 yil dekabrda katta harbiy flot qurish to'g'risida qonun qabul qilindi. 1916 yil iyunida milliy mudofaa to'g'risida qonun qabul qilinib, 200 ming kishilik doimiy armiya va 450 ming kishilik militsiya tuzish ko'zda tutildi.

1916 yildagi prezident saylovlarida AQSHning urushga kirish masalasi asosiy masala bo'lib qoldi. "Vilson bizni urushdan qutqaradi" degan shior bilan chiqqan demokratik partiya saylovlarda g'alaba qozondi. Lekin Vilson prezidentlikka saylangach, Germaniyaning suv osti urushini kuchaytirganini bahona qilib AQSHni urushga tortishga qaratilgan harakatni kuchaytirdi.

Germaniya 1917 yil fevraldan boshlab cheklanmagan suv osti urushini boshlab yuborgach, AQSH Germaniya bilan bo'lgan diplomatik aloqalarni uzdi. Rossiyada fevral burjua inqilobi g'alaba qozonib, mamlakatda urushdan chiqish uchun ommaviy harakat kuchaygach, AQSHning hukmron doiralari urushni o'z manfaati yo'lida yakunlash uchun harakat qildi va 1917 yil 6 aprelda Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. AQSHning hukmron doiralari Rossiya urushdan chiqsa To'rtlar ittifoqi Angliya va Frantsiyani mag'lubiyatga uchratishidan xavfsirardilar.

Amerika Qo'shma Shtatlarining urushga kirishi mamlakat ichida va tashqi siyosatda reaksiyaning kuchayishi bilan birga bordi. Butun mamlakat militarlashtirildi. 1917 yil 18 maydagi qonun bilan 18 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan barcha erkak aholiga nisbatan (27 mln.ga yaqin) harbiy majburiyat joriy qilindi. Harbiy va savdo flotini qurilishi kuchaytirildi. Harbiy holat bahonasi ostida demokratik erkinliklar deyarli tugatildi. Ish tashlashlar va imperialistik kuchlarga qarshi qatag'onlar kuchaydi.

Lekin Amerika Qo'shma Shtatlari hukumati urushda Germaniyaning mag'lubiyatga uchrashi uning harbiy kuchlarining batamom zaiflashib qolishiga olib kelishini hamda urushdan keyingi Yevropada Angliya va Frantsiya gegemonligining kuchayib ketishini istamas edilar. Shuning uchun ham AQSH

hukumati urushayotgan har ikki tomonning yanada zaiflashishiga va keyinchalik bu davlatlarga o'z ta'sirini o'tkazishga intildi. SHu maqsadda faqat 1918 yil bahoriga kelib AQSH qo'shinlari Yevropaga keltirila boshlandi va 1918 yil avgustida, ingliz-frantsuz qo'shinlari nemis qo'shinlarini tor-mor eta boshlagach, Amerika qo'shinlari harbay harakatlarni boshlab yubordilar.

**Birinchi jahon urushi arafasidagi xalqaro vaziyat.** 1914 yilda boshlangan urush insoniyat tarixidagi eng qonli, buzg'unchilik urushlaridan biri bo'ldi. U 10 mln.ga yaqin insonning o'limiga sabab bo'lib, ko'pgina mamlakat xalqlarini behisob kulfatlarga giriftor qildi. XIX asr oxiridan boshlab xalqaro munosabatlarda keskin o'zgarishlar yuz berib, ularning barchasi xalqaro vaziyatni yanada murakkablashtirdi.

1914 yil yoziga kelib, jahon siyosatida shunchalik ko'p "alamli ma'lumotlar" yig'ilib qolgandiki, birgina uchqun ulkan alangani keltirib chiqarishi mumkin edi. SHunday uchqunlardan biri 1914 yil 28 iyunda Saraevo shahrida Avstriya ertsgertsogi Frants Ferdinandning o'ldirilishi bo'ldi. Qo'lga olingan ishtirokchilar serblarning "Mlada Bosna" vatanparvar guruhiga mansub edilar. Mazkur fakt Avstriya-Vengriyaning 1914 yil 28 iyunda Serbiyaga urush e'lon qilishiga bahona bo'ldi. Voqealar rivoji iyun oxiriga kelib yanada tezlashdi. 31 iyulda Rossiyada yalpi safarbarlik boshlanib ketdi. O'sha kuniyoq Germaniya Rossiyadan qat'iy ravishda safarbarlikni tugatishni talab qildi. 1 avgustda esa Rossiyaga qarshi urush e'lon qildi. O'sha vaqtdan boshlab nemis qo'shinlari g'arbiy chegara yaqiniga to'plana boshladilar. 3 avgust kuni Berlin hukumati Frantsiyaga qarshi urush e'lon qildi. Bir vaqtning o'zida Germaniya qo'shinlarini Belgiya hududidan olib o'tishni talab qildi. Bu talab Belgiya betarafligi to'g'risidagi shartnomaga xilof edi. Belgiya daxlsizligining buzilishi 4 avgustda Angliyaning Germaniyaga qarshi urush e'lon etishiga bahona bo'lib xizmat qildi.

**Birinchi jahon urushidan keyingi xalqaro munosabatlar va diplomatiya.** Birinchi jahon urushidan keyingi totuvlikdagi kuchlar nisbati urush so'nggida shakllangan xalqaro munosabatlar tizimidagi ziddiyatlarni aks ettirdi. Dunyoning ilg'or mamlakatlari lagerlari ichida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Bir tomondan, dunyo miqyosidagi Germaniya mamlakatining tor-mor etilishi, ikkinchi tomondan, AQSHning dunyo ustunligiga asosiy da'vogar sifatida xalqaro maydonga chiqishi katta ahamiyat kasb etdi. Butundunyo kreditori AQSH bu holatidan Buyuk Britaniya, Frantsiya, YAponiya bilan raqobatda muvaffaqiyatga erishish uchun foydalanishga harakat qildi.

Buyuk Britaniya AQSH tarafidan ikkinchi o'ringa siqib chiqarilgan bo'lsa-da, urushdan keyin o'zining buyuk mamlakat darajasini saqlab qoldi. Endilikda Germaniya Buyuk Britaniyaning dengiz va dunyo bozori bo'yicha raqibi bo'lmay qoldi. Angliya YAqin SHarqda Turkiya imperiyasi mulklarining anchagina qismini nazorat qila boshladi.

Frantsiya ham etarlicha kuchga ega edi. Frantsuz premer-ministri Klemanso ixtiyorida marshal Fosh harbiy xizmatdan bo'shatishga shoshilmayotgan qariyb ikki million kishilik armiya bor edi. Frantsiya xavfsizligini ta'minlash zaruriyatini bahona qilgan Klemanso diplomatiyasi, aslida, Germaniyani intiqom olish

imkoniyatlaridan mahrum qilishga va Evropada Frantsiya ustunligini o'rnatishga harakat qilmoqda edi.

Italiya, YAponiya va boshqa mamlakatlarning ham o'ziga yarasha manfaatlari bor edi. Ular "buyuk davlatlar" qatorida bo'lsalar-da, amaliy ta'sirlari sezilarsiz edi va ular mahalliy masalalar echimiga o'z ta'sirlarini o'tkaza olardilar, xolos.

Urushdan keyingi xalqaro munosabatlar tizimi, asosan, **Parij konferentsiyasi** (1919 yil 18 yanvar – 1921 yil 28 iyun) va **Vashington konferentsiyasi** (1921 yil 12 noyabrdan 1922 yil 6 fevralgacha) qarorlariga tayandi. **Parij konferentsiyasi** ishida 27 mamlakat vakillari ishtirok etdilar. Bu konferentsiya "ochiq diplomatiya" namunasi sifatida keng miqyosda ko'z-ko'z qilindi. Parijga mingdan ortiq vakillar to'plandilar. Lekin Germaniya va Sovet Rossiyasining vakillari yo'q edi.

"Adolatli sulh" va "yashirin diplomatiya" dan voz kechish to'g'risidagi bayonotga qaramasdan, konferentsiyaning asosiy qarorlari yirik mamlakatlarning, avvalo, Buyuk Britaniya, AQSH va Frantsiyaning yashirin bitimlari natijasi edi. Konferentsiya ishida urushdan keyin hal qilinishi lozim bo'lgan ko'pgina masalalar muhokama etildi va hal qilindi. Lekin, baribir, vakillari Parijga faqatgina sulh shartnomasini imzolash uchun chaqirilgan Germaniya taqdiriga oid masala bosh masala bo'lib qoldi.

1919 yil 28 iyunda Germaniya vakillari Versal saroyining oynavand zalida urushdan keyingi tinchlik yo'li bilan hal qilingan asosiy hujjat – sulh shartnomasini imzoladilar. SHundan keyin Germaniyaning ittifoqchilari bo'lgan Bolgariya, Turkiya bilan va Avstriya-Vengriya bo'linib ketganligi bois Avstriya va Vengriya bilan alohida sulh shartnomasi imzolandi. Har bir muzokara Millatlar Ittifoqi Ustavi bilan boshlanardi. Versal shartnomasiga muvofiq Germaniya ropparosa hududining  $\frac{1}{8}$  qismini, aholisining  $\frac{1}{12}$  qismini boy berdi. Germaniya Polsha, CHexoslovakiya, Luksemburg mustaqilligini tan oldi; Avstriya mustaqilligini "qat'iy hurmat qilish" majburiyatini oldi. Reynning chap sohilidagi Germaniya hududlari va Reyndan 50 km. ichkaridagi o'ng sohil erlari qurolsizlantirildi.

Germaniya mustamlakalari (vakolat shaklida) Frantsiya, YAponiya, Belgiya, Portugaliya, Buyuk Britaniya o'rtasida taqsimlandi. Versal shartnomasi Germaniyani qurolsizlantirishni ko'zda tutdi. Bundan tashqari, Germaniya Jahon urushining oqibatlariga, urush etkazgan zararlarga javobgar deb topildi. Ittifoqchilarning "Barcha yo'qotishlari va ziyonlarining" o'rmini to'ldirish uchun Germaniyadan reparatsion to'lovlar undirishning huquqiy asoslari ishlab chiqildi. Germaniyaning shartnomani bajarishiga kafolat sifatida ittifoqchi qo'shinlarning Reyndan g'arbdagi hududlarni 5 yildan 15 yilgacha egallab turishi belgilandi.

Urushdan keyin hal qilinishi lozim bo'lgan asosiy masalalardan biri davlatlararo ziddiyatlarning Uzoq SHarq nuqtasi edi. YAponiya, aslida, urushda ishtirok etmagan bo'lsa-da, asosiy raqiblarining Evropadagi urush maydonida band bo'lganliklaridan foydalanib, o'zining Tinch okeanidagi va Uzoq SHarqdagi, asosan, Xitoydagi ta'sirini mustahkamlab olishga muvaffaq bo'ldi. YAponiyaning bu erlarni bosib olishga intilishi Buyuk Britaniya va AQSHning qarshi harakatini keltirib chiqardi.



Uzoq SHarq Respublikasida ham keskin voqealar bo'lib o'tdi. Mana shunday xalqaro vaziyatda Amerika diplomatiyasi qurollarni "cheklash", Uzoq SHarqdagi va Tinch okeanidagi bahsli masalalarni hal qilish maqsadida Vashingtonda xalqaro konferentsiya chaqirish tashabbusi bilan chiqdi.

1921 yil 12 noyabrda ochilgan Vashington konferentsiyasiga 9 mamlakat: AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Frantsiya, Italiya, Belgiya, Gollandiya, Portugaliya, Xitoy davlatlari taklif etildi. RSFSR va Uzoq SHarq Respublikasi taklif etilmadi. O'sha paytda RSFSR tarkibida bo'lmagan Uzoq SHarqning alohida sharoiti SHarqiy Sibir hukmronligi borasidagi yapon-amerika raqobatini keskinlashtirib yubordi. Konferentsiya davomida so'nggi yillar xalqaro munosabatlarining ahvoliga jiddiy ta'sir ko'rsatgan bar qancha bitimlar imzolandi.

SHunday qilib, 1921 yil 13 dekabrda AQSH, Buyuk Britaniya, Frantsiya, YAponiya vakillari to'rt mamlakat xalqaro shartnomasini imzoladilar. Bu shartnoma uning ishtirokchilarini Tinch okeani havzasidagi orollarga egalik qilish huquqini ta'minladi. 1902 yil Angliya-YAponiya ittifoqi bekor qilindi. Bu bitim Tinch okeanidagi vaziyatga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

1922 yil 6 fevralda besh mamlakat: AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Frantsiya, Italiya o'rtasida "Dengiz qurollarini cheklash to'g'risida" xalqaro shartnoma imzolandi. Ular o'rtasida harbiy-dengiz kuchlarining ma'lum darajadagi mutanosibligi qaror topdi. Besh mamlakatning xalqaro shartnomasi "qurolsizlantirish" shartnomasi bo'lmadi. Faqatgina kuchlarning AQSH foydasiga siljishi ro'y berdi. Buyuk Britaniyaning jiddiy yon berishiga to'g'ri keldi. Buyuk Britaniya "ikki mamlakat mezon"ning an'anaviy tartiblaridan voz kechishga majbur bo'ldi. Vashington konferentsiyasida asosiy e'tibor Xitoy masalasiga qaratildi. Xitoy uning territoriyasidagi YAponiyaga berilgan german mustamlakalarini qaytarishni talab qilgan holda Versal shartnomasini imzolamagan edi. 1919 yilgi Versal talon-tarojiga javoban Xitoyda "4 may" milliy ozodlik harakati boshlanib ketdi.

1922 yil fevralda konferentsiya barcha ishtirokchilarining 9 mamlakat xalqaro shartnomasi imzolandi. Bu shartnoma Xitoy mustaqilligi va hududiy butunligi tamoyillarini e'lon qildi. Lekin o'sha paytdagi "ochiq eshiklar" va "teng imkoniyatlar" tamoyillarining e'tirof etilishi Xitoyni dunyoning etakchi davlatlariga qaram qilib qo'ydi. Xitoyga teng huquq bermaydigan shartnoma bekor qilinmadi: Xitoy bo'xonalariidagi tashqi nazorat yana qoldirildi. YAponiya Xitoyning Janubiy Manchjuriyadan qo'shinlarni chiqarish to'g'risidagi talabini rad etdi. Vashington konferentsiyasi ishidagi etakchi davlatlarning o'zaro ziddiyatlari Uzoq SHarq Respublikasining chet el bosqinchilaridan ozod bo'lishini tezlashtirdi. 1922 yil SHarqiy Sibir hududi yapon qo'shinlaridan butunlay ozod bo'ldi.

### **GERMANIYANING 1918-1939-YILLARDAGI TASHQI SIYOSATI.**

Nemis fashizmi o'zining agressiv tashqi siyosati natijasida nemis xalqini va insoniyatni ikkinchi jahon urushiga olib keldi. Gitler o'zining "Mening kurashim" nomli kitobida Germaniyaning agressiv-fashistik rejalarini quyidagicha belgilagan edi: 1-bosqichda Germaniya nemis tilida so'zlashuvchi barcha mamlakatlarni birlashtirishi kerak edi. 2-bosqichda butan Yevropani, so'ng butun dunyoni bosib olishi va Er yuzida oriylar irqining hukmronligini o'rnatishi lozim edi. Gitler nemis

fashizmining tez orada hal qilishi kerak bo'lgan vazifalari: 1). SSSRga qarshi talonchilik urushi; 2). Frantsiyani mag'lubiyatga uchratish; 3). Britaniya imperiyasi va Yevropadagi mayda davlatlarni mag'lubiyatga uchratish, deb ko'rsatgan edi.

Germaniya o'zining bosqinchilik rejalarini erkin amalga oshirish uchun 1933 yil 14 oktabrda Millatlar Ligasidan chiqdi. U 1934 yil yanvarda Polsha bilan hujum qilmaslik to'g'risida bitim tuzdi. Bu bitimni tuzishdan ko'zlangan asosiy maqsad SSSRga qarshi urush uchun platsdarm tayyorlash edi.

Gitler 1935 yil mayda Versal bitimining qurollanishga tegishli bandlarini bekor qilganligini e'lon qildi hamda harbiy-havo kuchlari, katta muntazam armiya va umumiy harbiy xizmatni joriy etishini bildirdi. SSSRga nisbatan dushmanlik mavqeida turgan G'arb davlatlari Gitlarning Germaniya tashqi siyosatining asosiy maqsadi Sovet Ittifoqini yo'q qilish ekani to'g'risidagi gaplariga ishonadi. Buning ustiga 1935 yil iyunda Angliya-Germaniya dengiz bitimi tuzilib, Germaniya Britaniya flotining 35 % i miqdorida o'z flotini qurish huquqiga ega bo'ldi. Bu bitim Versal shartnomasini ikki tomonlama buzish edi.

Germaniya armiyasining qismlari 1936 yil martda Reyn harbiysizlashtirilgan zonasiga bostirib kirib, versal bitimini yana qo'pol ravishda buzdilar. Frantsiya va Angliya tomoni norozilik bildirish bilan cheklandilar, bunga javoban Gitler ularga qator tinchlikparvar takliflar bilan murojaat qildi. Angliya va Frantsiya hukumatlari o'zlarining tashqi siyosatlarida Gitlarga nisbatan "tinchlantirish siyosati"ni olib bordilar, ya'ni ular Gitlarning har qanday talablariga yon berib keldilar. Bu esa o'z navbatida Gitlarning agressiv tashqi siyosatini yanada kuchayishiga olib keldi.

1935 yilda fashistlar Saarda plebistsit o'tkazib, uni Germaniyaga qo'shib oldilar. Saarning qaytarib olinishi mamlakatda Gitlarning obro'sini yanada ko'tarilishiga yordam berdi. Saar Germaniyaga qo'shib olingach, Gitler ikkiyuzlamachilik bilan 1933 yilda aytgan gapini yana bir marta takrorladi: "Saar – bu Germaniyaning Yevropadagi oxirgi hududiy davosi."

1936 yil yozida Germaniya va Italiya fashistlari Ispaniya respublikasiga qarshi kurashayotgan general Frankoning fashistik rejimiga yordamga keldilar. Gitler Frankoga Marokashdan harbiy qismlarni olib kelish uchun Germaniya harbiy-havo kuchlarining "Kondr" diviziyasini berdi. Bundan tashqari Germaniya ispan fashistlariga 7 ming harbiy samolyot yubordi. O'n minglagan nemis askarlari Ispaniya respublikachilariga qarshi shafqatsiz urush olib bordilar.

1936 yil 25 noyabrda Germaniya bilan Yaponiya o'rtasida "Kominternga qarshi bitim" imzolandi. Unga ko'ra bu ikki davlat bir-birini o'z mamlakatlaridagi kommunistlar faoliyati to'g'risida xabardor qilish majburiyatini oldi. Bu davlatlardan biri SSSR bilan nizolashgan taqdirda, ikkinchi tomon betaraf qolishi lozim edi. Tomonlardan hech biri boshqa tomonning roziligisiz SSSR bilan bitim tuzmasligi kerak edi. Har ikki tomon bir-birlarining Bosh shtablari bilan aloqada bo'lishlari kerak edi. "Komintergna qarshi bitim" hammani Germaniya SSSRga qarshi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rayotganiga ishontirishi lozim edi. Bitim 5 yil muddatga tuzilgan edi.

1937 yil 6 noyabrda "Komintergna qarshi bitim"ga Italiya ham qo'shildi. Germaniya Markaziy Yevropada va Bolqonda erkin harakat qilish huquqiga ega

bo'ldi. Berlin-Rim-Tokio o'qining tuzilishi Yevropa va jahon urushining yaqinlashib kelayotganligini bildirar edi.

1937 yilning oxiri va 1938 yil boshida gitlerchilar Avstriyani bosib olishga tayyorgarlik ko'rdilar. Bunda gitlerchilar Germaniyasi Avstriyadagi o'z agenturasiga va Avstriya natsional-sotsialistlariga tayanardi.

1938 yil 12 fevralda Gitler o'z oldiga Avstriya Bosh vaziri SHushnigni chaqirib, unga harbiy tahdidlar bitilgan ultimatumni topshirdi. SHushnig 13 martda Avstriya mustaqilligi maaslasida plebistsit o'tkazishni e'lon qiladi. Lekin Gitler 13 mart kuni o'z qo'shinini Avstriya hududiga kiritib, uni okkupatsiya qildi. 7 millionlik Avstriya xalqi fashistlar zulmi ostida qoldi. Avstriya Germaniyaga qo'shib olindi ("anshlyus" amalga oshirildi) va Germaniya reyxining SHarqiy markasi nomini oldi. Versal bitimida Avstriyaning Germaniyaga qo'shilishi taqiqlangan edi.

Gitler Avstriyani bosib olgach o'zining bosqinchilik siyosatini CHexoslovakiyaga qaratdi. 1938 yil 28-30 sentabrda Myunxenda Germaniya (A.Gitler), Italiya (B.Mussolini), Angliya (N.CHemberlen) va Frantsiya (E.Dalade) davlatlari rahbarlari ishtirokida o'tkazilgan konferentsiyada CHexoslovakiya davlati vakillari ishtirokisiz uning taqdiri hal qilindi. CHexoslovakiyaning nemislar yashaydiga Sudet viloyatini Germaniyaga berish to'g'risida qaror qabul qilindi. 10 oktabrda CHexoslovakiyaning Teshen viloyati Polshaga berildi, 2 noyabrda Slovakiyaning bir qismi Vengriyaga berildi. SHu yo'l bilan CHexoslovakiyani bo'lib tashlash amalga oshirildi. G'arb davlatlari yana Gitlerning talablarini bajarishga majbur bo'ldilar. Endi Germaniya Yevropa qit'asidagi eng qudratli davlatga aylandi. Angliya Bosh vaziri N.CHemberlen Myunxen konferentsiyasidan Angliyaga qaytib kelgach, "Men sizlarga tinchlik olib keldim,"- deb aytgan edi, lekin keyingi voqealar uning so'zini noto'g'ri ekanligini ko'rsatdi.

Germaniya qo'shinlari 1939 yil 14 martda hech qanday ogohlantirishsiz CHexoslovakiya hududiga bostirib kirdilar. 16 martda Gitler CHexoslovakiyaning davlat sifatida tugatilishi va uning o'rnida Germaniyaning Bogemiya va Moraviya protektorati tuzilishini e'lon qildi. Slovakiya alohida davlat – Germaniya satelliiti maqomini oldi.

Germaniya 1939 yil yanvarda Litvadan uning Boltiq dengizidagi porti va harbiy-dengiz bazasi bo'lgan Klaypedani berishni talab qildi. 1939 yil 22 martda nemis qo'shinlari Klaypeda (Memel) viloyatini egalladilar.

Germaniya 1939 yil 23 martda Ruminiyani teng huquqli bo'lmagan shartnomani imzolashga majbur qildi. Bu bitimga ko'ra Ruminiya Germaniyaga qishloq xo'jalik mahsulotlari, sanoat uchun xom ashyo etkazib berish majburiyatini oldi.

1939 yil mart oyining oxirida fashistlar Germaniyasi Polshadan Dantsigni (Gdansk) Germaniyaga berishni, Polsha hududidan Germaniyani SHarqiy Prussiya bilan bog'lovchi avtomobil yo'li qurilishini talab qilib chiqdi. Angliya va Frantsiya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Polsha hukumati bu talabni rad etdi. Aprel boshida Angliya Polsha bilan o'zaro yordam to'g'risida bitim tuzib, uni bajarish kafolatini berdi, keyinroq shunday bitimlarni Gretsiya va Ruminiya bilan ham tuzdi. 28 aprelda Germaniya Angliya bilan tuzilgan dengiz bitimini va Polsha bilan

o'zaro hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni bekor qildi. Gitlerchilar may oyida Italiya bilan harbiy-siyosiy ittifoq tuzdilar, iyun boshida esa Daniya, Latviya va Estoniya bilan hujum qilmaslik to'g'risida bitimlar tuzdi.

Gitler o'zining dastlabki asosiy zarbasini dastlab Yevropa davlatlariga qaratishni rejalashtirib qo'ygan edi. U o'zini sharqdan, SSSR tomonidan bo'ladigan xavfdan himoya qilish uchun SSSR bilan yaqinlashish yo'lidan bordi. Natijada 1939 yil 19 avgustda Germaniya bilan SSSR o'rtasida yangi savdo bitimi tuzilib, unga ko'ra Germaniya SSSRga 200 mln. nemis markasi hisobida kredit berdi. 1939 yil 23 avgustda esa hujum qilmaslik to'g'risida bitim (Molotov-Ribbentrop pakti) tuzildi. Bitimda maxfiy protokol (bandlar) mavjud bo'lib, unda Germaniya va SSSR davlatlari Polshani o'zaro taqsimlab olish ustida so'z borardi.

1939 yil 1 sentabrda Germaniya qo'shinlari Polshaga bostirib kirdi. Angliya va Frantsiya hukumatlari Gitlerdan urush harakatlarini to'xtatish va o'z qo'shinini Germaniyadan olib chiqish haqida ultimatum topshirdilar. Lekin Gitler bu ultimatumlarga e'tibor bermadi. 3 sentabrda Angliya va Frantsiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildilar. Shu tariqa ikkinchi jahon urushi boshlanib ketdi.

Urushdan keyingi tinchlik yo'li bilan hal qilish davrida asosiy tashqi siyosiy vazifasi mamlakatning yangi hukumatini xalqaro tan oldirishga erishish bo'lgan Sovet Rossiyasining jahon maydoniga chiqishi sodir bo'ldi. Jahonning etakchi mamlakatlari bilan aloqa o'rnatishning ancha qulay yo'li savdo edi. 1920-1921 yillarda Sovet Rossiyasi bir qator iqtisodiy, siyosiy, savdo bitimlarini tuzishga erishdi. Ular orasida eng asosiysi 1921 yil martda imzolangan ingliz-sovet shartnomasi edi. Bu shartnoma Sovet hukumatini amalda tan olinishi bo'ldi. 1921 yil 6 mayda Germaniya bilan Sovet elchixonasining Berlinda "Rossiyaning yagona qonuniy vakili" deya tan olingan vaqtinchalik bitimi imzolandi. Germaniya va Buyuk Britaniyadan so'ng qator mamlakatlar bilan savdo shartnomalari imzolandi. Sovet Rossiyasining Evropaning yirik mamlakatlari bilan birgalikdagi birinchi yuridik shartnomasi Germaniya bilan 1922 yil 16 aprelda Rappalodagi (Genuyaga yaqin joyda) Genuya konferentsiyasida (1922 yil 10 apreldan – 19 maygacha) imzolangan Rappal shartnomasi bo'ldi.

1924 yildan boshlab SSSR, asosan butun G'arb mamlakatlari tomonidan rasman tan olindi. SSSR xalqaro munosabatlar maydonida asosiy rol o'ynay boshladi.

### **FRANTSIYANING 1918-1939-YILLARDAGI TASHQI SIYOSATI.**

Dalade hukumati tashqi siyosatning eng muhim masalalari bo'yicha ham burjuaziyaning reaksion doiralari hohish-irodasini bajarish yo'lidan bordi. Bu hukumat L.Blyum hukumatining Ispaniya respublikasiga nisbatan "aralashmaslik siyosati"ni davom ettirdi. U Ispaniya respublikasini qamal qilishni davom ettirdi va bu bilan chet el intervetlariga katta yordam berdi. Frantsuz reaksionerlarining tazyiqi ostida Dalade CHexoslovakiya bilan tuzilgan o'zaro yordam to'g'risidagi bitimni buzib, chexoslovak xalqi manfaatlariga xiyonat qilib, Myunxen bitimini imzoladi (1938 y. 29-30 sentabr). Bu bitim nafaqat CHexoslovakiyaga balki SSSRga ham qarshi qaratilgan edi.

Frantsiyaning reaksion doiralari o'zining azaliy dushmani bo'lgan fashistlar Germaniyasining bosqinini sharqqa –SSSRga qaratishga umid qilardilar.

Ular fashistlar Germaniyasi ni Frantsiyadagi mavjud tuzumni saqlab qolishning kafolati deb hisoblardilar. Bunday siyosatchilarni kollaboratsionistlar (kollaboratsionist – frantsuzcha “hamkorlik”, ikkinchi jahon urushi davrida fashistlar bilan hamkorlik qilgan shaxslar, vatan xoinlari) deb nomladilar, ular Gitlerning bosqinchilikdan iborat tashqi siyosatini amalga oshirish uchun yo’l ochib berdilar. Aynan shu maqsadda 1938 yil 6 dekabrda Frantsiya-Germaniya deklaratsiyasi imzolanib, unda bu ikki davlat o’rtasida hech qanday kelishmovchiliklar yo’qligi bayon qilingan edi.

G’arb davlatlarining Gitlerga nisbatan olib borgan “tinchlantirish siyosati”, aslida unga yon berish siyosati natijasida fashistlar Germaniyasi yangidan yangi hududlarni bosib ola boshladi. 1939 yil martda CHexoslovakiya bosib olindi. SHundan keyin Angliya va Frantsiya hukumatlari fashizmga qarshi kollektiv xavfsizlik choralarini muhokama qilish taklifi bilan SSSRga murojaat qildilar. Sovet davlati rahbariyati bunga rozilik bildirdi.

Yevropada kollektiv xavfsizlik masalalariga bag’ishlangan muzokaralar SSSR.

Angliya, Frantsiya hukumatlari o’rtasida Moskvada 1939 yil apreldan avgustigacha davom etdi. Lekin muzokaralarda Angliya va Frantsiya davlatlari bunday xavfsizlik tizimini yaratishni istamayotganliklari va ularning biror bir dasturga ega emasliklari ma’lum bo’ldi. Bu ikki davlat fashistlar Germaniyasiga qarshi SSSRning yakka o’zini qo’yishga intilar edilar. G’arb davlatlarining bu muzokaralarni olib borishdan maqsadi Gitlerni Sovet Ittifoqiga qarshi tez va qat’iy harakat qilishga undash edi. Natijada bu muzokaralar muvaffaqiyatsiz tugadi.

### **AQSHNING 30-YILLARDAGI TASHQI SIYOSATI.**

F.Ruzvelt prezidentligi davrida AQSH tashqi siyosatida ham ijobiy o’zgarishlar yuz berdi. AQSHning tashqi siyosati yanada moslashuvchan va haqqoniyroq bo’lib qoldi. AQSH 1933 yil noyabrda SSSRni tan olib, u bilan diplomatik aloqa o’rnatdi. Bu voqea ikki davlat uchun ham juda foydali bo’lib, xalqaro vaziyatning yaxshilanishiga muhim hissa qo’shdi. 1935 va 1937 yillarda bu ikki davlat o’rtasida o’zaro foydali savdo bitimlari tuzildi.

1933 yilda AQSH hukumati Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan “yaxshi qo’shnichilik” siyosatini e’lon qildi. Gaitidan AQSH qo’shinlari chiqarildi. Kuba bilan shartnoma tuzilib, AQSHning intervensiya huquqi bekor qilindi. Lotin Amerikasi davlatlari bilan ular uchun savdo bitimlari tuzildi. AQSH Yevropalik raqobatchilariga qarshi kurashda Lotin Amerikasi mamlakatlari aholisining keng qatlamlarida hukmron bo’lgan panamerikanizm g’oyalariidan samarali foydalandi. SHu davrda o’tkazilgan uchta Panamerika konferentsiyalari AQSHning Lotin Amerikasidagi gegemonligi mustahkamlanishiga yordam berdi.

AQSH 30-yillar o’rtalarida xalqaro vaziyat keskinlashgan va ikkinchi jahon urushi xavfi tobora kuchayayotgan bir davrda tashqi siyosatda “izolyatsionizm” siyosatini, ya’ni er yuzining boshqa qismlaridagi, eng avvalo Yevropadagi mojarolardan chetda turish, ularga aralashmaslik siyosatini olib bordi. Bu siyosatning davomi va rivojlanishi sifatida 1935-1937 yillarda “Betaraflik to’g’risida qonun” qabul qilindi. Bu qonun Yevropa qit’asida urushayotgan mamlakatlarga qurol-aslaha va harbiy materiallar etkazib berilishini taqiqlardi. Bunda agressor va agressiya qurboni tomonlari hisobga olinmasdi.

Lekin AQSH hukmron doiralarining uzoqni ko'ra oladigan vakillari Amerika endilikda 2 okean orqali boshqa dunyodan ajralib qola olmasligini tushunib eta boshlagan edilar. Texnologiya sohasida erishilgan ulkan yutuqlar, xususan aviatsiyaning rivojlanishi AQSHni dunyo siyosatining etakchi markazlaridan geografik jihatdan uzoqda joylashganlik kabi ustunlikdan mahrum qila boshlagan edi. Bu holat ayniqsa Osiyo va Yevropada progressiv taraqqiyotga dushman bo'lgan agressiv va diktatorlik tartibotlari hokimyat tepasiga kelib, ular Versal tizimini buzishga va dunyoda hukmronlik qilishga oshkora da'vogarlik qilib chiqqa boshlashgach, yanada kuchaydi. Bu esa AQSH tashqi siyosatida internatsionalizm (baynalmilalchilik) siyosatining kuchayishiga olib keldi. Bu yo'nalish tarafdorlari izolyatsionizm siyosati AQSHni zaiflashtirib qo'yadi, uni fashizm xavfi oldida ittifoqchilardan mahrum qiladi va xalqaro mavqeini pasaytirib yuboradi, deb hisoblardilar. Internatsionalizm tarafdorlari AQSH G'arbiy Yevropadagi demokratik davlatlar bilan, eng avvalo Angliya bilan yaqinlashishi zarur deb hisoblashishardi.

Prezident Ruzvelt o'zining bir qator chiqishlarida fashistik davlatlar blokining agressiv harakatlarini qoralab chiqdi. U o'zining CHikagoda 1937 yil 5 oktabrda so'zlagan nutqida dunyodagi hamma tinchliksevar kuchlarni birlashib, agressor davlatlar atrofida "karantin" o'rnatishga chaqirdi. Qo'shma SHtatlarning o'zi ham urushga faol tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qurol ishlab chiqarish ko'paytirila boshlandi. Tinch okeani orollarida shoshilinch ravishda harbiy bazalar qurila boshlandi.

Ikkinchi jahon urushi arafasida F.Ruzvelt Gitler va Mussoliniga murojaat qilib, ularni Yevropada yuzaga kelgan siyosiy inqirozdan tinch yo'l bilan chiqish yo'llarini izlashga chaqirdi. AQSHning progressiv qatlamlari Myunxen bitimiga salbiy munosabatda bo'ldilar, ular gitlerchilar Germaniyasi tomonidan CHexoslovakiyani bosib olinishidan va Polshaga ultimatum qo'yilishidan qattiq tashvishga tushdilar.

Prezident Ruzvelt o'zining taklifi qabul qilinadigan bo'lsa, xalqaro konferentsiya chaqirib, barcha muammolarni tinch yo'l bilan hal etishda o'zining yordam berishga tayyor ekanligini bildirdi. Lekin fashistik davlatlar rahbarlari Ruzvelt taklifini qabul qilmadilar. Ular urushga tayyorlanib, o'zlarining bosqinchilik rejalaridan voz kechishni istamadilar va qanday qilib bo'lsada urushni tezlashtirishga harakat qildilar.

Ruzvelt hukumati Germaniyaning Yevropadagi va YAponiyaning Uzoq SHarqdagi agressiyasi bilan murosaga kelishni istamadi. AQSH 1939 yil 26 iyulda YAponiya bilan tuzilgan savdo bitimini bekor qilinganligini e'lon qildi. Bu esa AQSHning yapon agressiyasiga qarshi oshkora zarba berish yo'liga o'tganligini bildirar edi.

AQSH kongressi F.Ruzvelt taklifi bilan 1939 yil 4 noyabrda betaraflik to'g'risidagi qonunni qaytadan ko'rib chiqdi va Angliya hamda Frantsiyaga AQSHdan qurol sotib olishga ruxsat berdi. Bu bilan AQSH ikkinchi jahon urushida o'zini betarafliyini e'lon qilgan bo'lsada, demokratik davlatlar tomonida ekanligini ko'rsatdi.

AQSH kongressi 1941 yil 11 martda lend-liz to'g'risidagi qonunni qabul qildi, bunda AQSH mudofaasi uchun hayotiy muhim hisoblangan har bir millatga qurol va harbiy anjomlarni qarzga (lend) yoki ijaraga (liz) berish ko'zda tutilgan edi. Ikkinchi jahon urushi yillarida AQSH lend-liz bo'yicha Angliyaga, SSSRga va Xitoyga katta yordam berdi.

#### **Адабиётлар:**

1. Астафьев И.И. Русско-германские дипломатические отношения 1905-1911 гг. М., 1972.
2. Новая история: Второй период М., 1984.
3. История дипломатии. М., 1963, Т 2.
4. История дипломатии. 2-е изд. М.,1965 г.
5. История внешней политики СССР. В 2-х томах. М., 1986г. Т.1.
6. Язькова А.А. Малая Антанта в европейской политике. 1918-1925 гг. М., 1974 г.
7. История новейшего времени стран Европы и Америки. 1918-1945 г. М.,1989 г.

### **6- Mavzu: Ikkinchi jahon urushi va Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda xalqaro munosabatlar.(1945-1990 y.y).**

#### **Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli**

| <b>O`quv vaqti: 80 minut</b>  | <b>Talaba soni 60 nafar</b>  |
|---|--|
| <b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b><br><b>Ma'ruza rejasi</b>   | 1. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.<br>2. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar va diplomatiya.(1946-90 y.)<br>3. "Sovuq urush".<br>4.80-90-yillardagi xalqaro munosabatlar. |
| <i>O`quv mashg`ulotining maqsadi: Talabalarda Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar va diplomatiya.(1946-90 y.) "Sovuq urush" haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i> |  |

|   |  |
|---|--|
| Pedagogik vazifalar:<br>Yangi mavzu bilan tanishtirish,<br>mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib<br>berish, asosiy maslalar bo'yicha<br>tushunchalarni shakllantirish. | O'quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalar Ikkinchi jahon urushi yillarida<br>xalqaro munosabatlar va diplomatiya.<br>Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro<br>munosabatlar va diplomatiya.(1946-90<br>y.) 1980-1990 yillardagi xalqaro<br>munosabatlar haqida tasavvurga ega<br>bo'ladilar, asosiy ma'lumotlarni<br>konspektlashtiradilar. |
| Ta'lim usullari:  | “Klaster”, ma'ruza   |
| O'quv faoliyatini tashkil qilish shakli   | Ommaviy  |
| Ta'lim vositalari   | Slaydlar, marker, jadval   |
| Qayta aloqa usullari va vositalari  | Savol javob  |

## **6-mavzu: Ikkinchi jahon urushi va ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarda xalqaro munosabatlar.(1945-1990yy.)**

### **Reja:**

1. Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
2. Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar va diplomatiya.
3. “Sovuq urush”.
4. 80-90-yillardagi xalqaro munosabatlar.

### **Ikkinchi jahon urushi yillarida xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

Ikkinchi jahon urushidan oldingi o'n yillik xalqaro ziddiyatlarning keskin kuchayishi bilan ajralib turadi. 1929-1933 yillardagi jahon iqtisodiy tangligi Birinchi jahon urushida g'olib bo'lgan mamlakatlar o'rtasida bo'lgani kabi mag'lub mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarning yomonlashuviga olib keldi.

Tanglikning oxiriga kelib, Evropadagi kuchlar nisbatida o'zgarishlar sodir bo'ldi. Versal sistemasining muhim qismlari barham topdi. Germaniyaning Reyn zonasi va shaxsiy iqtisodi ustidan mustaqilligi tiklandi. Frantsiyaning G'arbiy Evropadagi ta'siri pasaydi. SHu bilan birga AQSHning Evropa ishlaridagi roli kuchaydi.

Bu yillardagi buyuk davlatlar raqobatining asosiy jabhasi dengiz qurol-yarog'lari edi. 1930 yilning yanvar-aprel oyida Londonda dengiz qurol-aslahalari bo'yicha xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Unda AQSH, Buyuk Britaniya, YAponiya, Frantsiya va Italiya davlatlari vakillari ishtirok etdi. Bu konferentsiyada 1912-1922 yillardagi Vashington konferentsiyasida qabul qilingan qonunlar qayta ko'rib chiqildi. Aslida esa, AQSH, Buyuk Britaniya va YAponiya o'rtasida harbiy-dengiz kuchlarining amaldagi teng me'yorlari qaror topdi.



30-yillar boshida frantsuz diplomatiyasi Germaniya bilan yaqinlashishga urinib ko'rdi. Biroq urinishlar samarasiz bo'ldi. Germaniya Versal shartnomasining "bajarish siyosati"ni allaqachon tugatgan va tajovuzkorlik siyosati yo'liga kirgan edi.

1931 yil 2 fevralda Jenevada ish boshlagan qurolsizlantirishga bag'ishlangan xalqaro konferentsiyada Germaniya barcha mamlakatlar uchun barobar bo'lgan xavfsizlik sistemasi doirasidagi teng huquqlilik imkoniyatini qo'lga kiritdi. Bu Germaniya harbiy imkoniyatlari tiklanganligining xalqaro e'tirofga ega bo'lganidan darak berardi.

Jahon iqtisodiy tangligi yillarida Tinch okeani havzasi va Uzoq SHarq borasida etakchi davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar yanada kuchaydi. 1931-32 yillarda YAponiya SHimoliy-sharqiy Xitoy (Manchjuriya)ga harbiy istiloni amalga oshirdi. Yirik davlatlar va Millatlar Ittifoqi YAponiyaning bosqinchiligiga qarshi amaliy choralarini qo'llamadi.

1933 yil fevralda YAponiya Millatlar Ittifoqidan chiqib ketdi. SHunday qilib, YAponiyaning Xitoydagi bosqinchiligi oqibatida Uzoq SHarqda xavfli harbiy o'choq paydo bo'ldi.

Germaniyada Gitler boshchiligidagi Milliy sotsialistik partiyaning hokimiyat tepasiga kelishi butun xalqaro vaziyatni keskinlashtirib yubordi. Uzoq SHarqda YAponiya bosqinchiligi boshlanganidan bir yarim yil o'tar-o'tmas Evropa markazida harbiy xavfning yangi o'chog'i paydo bo'lgan edi.

1933 yil oktabrda Germaniya Millatlar Ittifoqidan chiqib ketdi. 1935 yil martda Germaniyada umumiy harbiy xizmat joriy etildi. 1935 yil iyunda Germaniya dengiz yarog'-aslahalarini rasmiylashtirilishiga oid ingliz-german bitimi imzolandi.

Germaniyaning Versal sistemasini tugatish yuzasidan olib borgan siyosati etakchi davlatlarning amaldagi qarshiligiga uchramadi. Aksincha, AQSH va Angliyaning yirik monopoliyalari Germaniya harbiy-iqtisodiy imkoniyatlarining avvalgi holiga qaytishiga yordam berdilar. Germaniya harbiy-iqtisodiy qudratining o'sishida unga nemislar istiqomat qiladigan Saar sanoat oblastining qo'shiluvi ham katta yordam berdi. Bu qo'shiluv 1935 yil yanvarda o'tkazilgan umumxalq referendumini natijasida ro'y berdi.

Etakchi davlatlarning "totuvlikni ta'minlaydigan" va "aralashmaslik" kabi beparvo siyosati 1935 yildan boshlab Germaniya, Italiya va YAponiyaning ochiqdan-ochiq zo'ravonlik siyosatiga o'tishlariga olib keldi. 1936 yil bahoriga kelib, Italiya Efiopiyani bosib oldi. 1936 yil 7 martda german qo'shinlari Reynning qurolsizlantirilgan zonasiga kirib bordilar. Bu harakatga Versal shartnomasini imzolagan mamlakatlar oz bo'lsa-da, qarshilik ko'rsatmadilar. Germaniya va Italiya Ispaniyadagi respublikaning qulashiga va u erda Franko fashistik tartibining o'rnatilishiga olib kelgan fuqarolar urushiga (1936-39 y.y.) faol aralashdi.

1937 yil iyulda YAponiyaning Xitoydagi bosqinchiligining yangi bosqichi boshlandi. YAponlar Pekin, Tyantszin va Xitoyning shimoliy qismidagi yirik markazlarni qo'lga kiritdilar. 1937 yil avgustda yapon qo'shinlari Xitoyning eng yirik shahri SHanxayni bosib oldilar. YApon armiyasi tomonidan Markaziy Xitoyni bosib olish boshlanib ketdi.

Tajovuzkor mamlakatlar pozitsiyalarining yaqinlashuvi 1937 yil noyabrda "Berlin-Rim-Tokio uchburchagi" (Antikomintern pakti) ning shakllanishiga olib keldi. Tajovuzkor mamlakatlar ittifoqi rasmiylashtirilgandan keyin fashist Germaniyasining tajovuzi yangi bosqichga qadam qo'ydi. 1938 yil 12 martda german qo'shinlari Avstriyaga bostirib kirdilar va uni zabt etdilar. Keyingi kuni esa Avstriyaning yangi kantsleri Zeys-Inkvart Avstriyaning Germaniyaga birlashganligini e'lon qildi.

1938 yil aprel oyi boshlarida Anliya, Frantsiya va AQSH o'zlarining Venadagi diplomatik vakolatxonalarini tugatdilar.

Fashistik tajovuzkorlikni bartaraf qilish muammosi eng asosiy xalqaro masalalardan biri bo'lib qoldi. Biroq o'sha davrning yirik mamlakatlari, shu jumladan, SSSR ham fashistik tajovuzkorlikka qarshi yagona kollektiv tizimini ishlab chiqolmadilar. Etakchi mamlakat vakillarining ko'p sonli muzokaralari ham aniq natijalarni bermadi. Oldingi tuzilgan turli pakt va shartnomalarga esa aslida amal qilinmayotgan edi. Bularning barchasi tajovuzkor mamlakatlarni kelgusidagi bosqinchiliklarga undadi.

Avstriyani zabt etgandan so'ng Germaniya CHexoslovakiyani bosib olishga kirishdi. Gitler Germaniyaga aholisining ko'pchiligini nemislar tashkil etgan Sudet oblastini topshirish to'g'risidagi talabni qo'ydi. Angliya, AQSH va Frantsiya hukumatining CHexoslovakiyaga hech qanday yordam ko'rsatmaganlari etmaganday, ular CHexoslovakiyaga Gitlerning talabini qabul qildirish uchun bosim o'tkazdilar. SSSR german tajovuzi ro'y bergan taqdirda CHexoslovakiyaga yordam berishga tayyorligini e'lon qildi. Lekin CHexoslovakiya rahbariyati SSSRdan yordam so'ramadi. G'arbiy mamlakatlar bosimi ostida CHexoslovakiya hukumati Germaniyaning qat'iy talabiga rozi bo'lishga qaror qildi. 1938 yil 29 sentabrda Myunxenda CHembrlen, Delade, Mussolini va Gitler bir necha soat ichida CHexoslovakiyaning taqdirini hal qildilar. CHexoslovakiya 10 kun ichida Sudet oblastini Germaniyaga topshirishi shart edi. CHexoslovakiya o'z hududining deyarli  $\frac{1}{5}$  qismini, aholisining  $\frac{1}{4}$  qismini yo'qotdi. CHexoslovakiya hukumati Myunxen kelishuvini qabul qilganligini e'lon qildi. 1938 yildagi Myunxen kelishuvi G'arbning Germaniya bilan kuchaygan ziddiyatlarini yumshatishga erishishdagi muayyan urinishi edi.

Bu davrga kelib, Germaniya Angliya va Frantsiyani sanoat mahsulotlari hajmi jihatidan orqada qoldirib ketdi. Germaniya tezda G'arbiy Evropada harbiy kuchlar ustunligiga ega davlatga aylandi.

1935 yil 15 martda german qo'shinlari "Myunxen bitimi"ni buzib, CHexiya va Moraviyani bosib oldilar va ularni qaram davlatlar deb e'lon qildilar. Bu voqeadan uch kun oldin Slovakiyadagi gitlerchi vakillar bu oblastni mustaqil davlat deya e'lon qilgan edilar. Angliya, Frantsiya va AQSH CHexoslovakiyani himoya qilish yuzasidan hech qanday chora qo'llamadilar. Bu mamlakatlar hali ham Gitlerning SHarqqa harakat qilishini ko'zlar edilar. SHu asnoda tajovuzkorlik harakatlari birin-ketin sodir bo'la boshladi. 1939 yil 21 martda gitlerchilar Polshadan Germaniyaga Dantsig (Gdansk) shahrini topshirishga rozi bo'lishini talab qildilar. Keyingi kuni esa german qo'shinlari Litvaga qarashli bo'lgan

Klaypedsk (Memelsk) oblastiga bostirib kirdilar. Aprel oyida Italiya Albaniyaga bostirib kirdi va uni zabt etdi.

Angliya, Frantsiya va AQSHda Germaniya, Italiya va YAponiya ekspansiyasining xavfini tushuna boshladilar. 1939 yil 22 martda Frantsiya va Angliya uchinchi mamlakat tajovuzi ro'y berganda o'zaro yordam ko'rsatish to'g'risida nota (diplomatik hujjat) almashdilar. 1939 yil yoz oyidan boshlab Amerika hukumati xom-ashyo va harbiy materiallar bilan yordam ko'rsata boshladi.

Biroq G'arbiy mamlakatlarning maqsadi oldingiday, ya'ni Germaniyani SSSR ga hujum qilishga undash bo'lib qoldi. 1939 yil iyul oyidan boshlab Angliya diplomatiyasi Germaniya vakillari bilan nizo doirasidagi barcha bahsli muammolarni hal qilish to'g'risida maxfiy muzokaralarni boshlab yubordi.

1939 yil yozida Moskvadagi SSSR, Angliya va Frantsiyaning harbiy muzokaralari ham aniq natijalarni bermadi. Evropada urush xohlagan kuni boshlanishi mumkin edi. Uzoq SHarqda esa Sovet armiyasi yapon qo'shinlari bilan yirik jang olib bormoqda edi.

1939 yil mayda YAponiya Mongoliyaga bostirib kirdi. Sovet-mongol shartnomasiga muvofiq SSSR qo'shinlari Mongoliya xalq armiyasi bilan yapon qo'shinlariga qarshi birgalikda harbiy harakat olib bordilar. Bundan tashqari, SSSR Germaniyaning hujum qilmaslik to'g'risidagi shartnomani imzolash taklifini qabul qilishga qaror qildi. Bunday shartnoma 1939 yil 23 avgustda imzolandi. SHartnomaga binoan Germaniya va SSSR SHarqiy Evropadagi o'zlarining davlat manfaatlarini bo'lishib olishlari to'g'risida kelishib oldilar. Bu shartnomani baholash tarixchilar o'rtasida oldingiday bahs va munozaralarni keltirib chiqarmoqda.

1939 yil yoziga kelib, Germaniya urushga tayyorgarlikni yakunladi. Myunxen va CHexoslovakiyani bosib olish tajribalariga asoslangan Gitler Polsha ittifoqdoshlari Buyuk Britaniya va Frantsiyani Germaniyaga qarshi umuman urush e'lon qilmaydi yoki har qanday holatda ham Polshaga amaliy yordam ko'rsatmaydi deb faraz qildi.

1939 yil 1 sentabrda Germaniya Polshaga bostirib kirdi. 1939 yil 3 sentabrda Buyuk Britaniya va Frantsiya Germaniyaga qarshi urush e'lon qildi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Italiya Germaniyaning "urushda ishtirok etmaydigan ittifoqdoshi" holatini egalladi. AQSH esa o'zining betarafligini e'lon qildi. Nemis qo'shinlaridan son va texnik jihatdan kuchsiz bo'lgan Polsha armiyasi dushmanga qarshilik ko'rsata olmadi. 17-18 sentabrda Polsha hukumati va harbiy qo'mondonligi Ruminiya hududiga o'tdilar. 1939 yil 28 sentabriga kelib, nemis qo'shinlari Varshavani egallab oldilar va oktabr boshlarida Polsha armiyasining so'nggi qarshiliklarini ham bartaraf etdilar. Harbiy harakatlar tugatildi. Polsha mag'lub bo'ldi.

Germaniyaga qarshi urush e'lon etgan Frantsiya va Angliya hech qanday harbiy harakatlarni amalga oshirmadi. Buning oqibatida G'arbiy frontda "G'alati urush" deb nomlangan urush olib borildi.

1939 yil 17 sentabrda hujum qilmaslik to'g'risidagi sovet-german shartnomasining qo'shimcha maxfiy qaroriga muvofiq SSSR o'z qo'shinlarini

G'arbiy Ukraina va G'arbiy Belorussiyaga olib kirdi. Sovet qo'shinlari 1919 yilda Polshaning sharqiy chegarasi deb belgilangan "Kerzon chegara chizig'i"da to'xtatib turildi. 1939 yil 28 sentabrdagi SSSR va Germaniya tomonidan imzolangan "Do'stlik va chegara to'g'risidagi shartnoma"ga muvofiq Germaniya va Sovet armiyasi orasidagi chegara chizig'i Son daryosi va G'arbiy Bug bo'ylab o'rnatildi. Polsha erlari Germaniya, Ukraina va Belorussiya erlari esa SSSR ixtiyorida edi.

Sovet-german shartnomasining imzolanishi, 1939-40 yillardagi sovet-fin urushi, 1940 yilda SSSRning Millatlar Ittifoqidan chiqarilishi, Angliya, Frantsiya va AQSHning boshlangan urushga munosabati – bularning barchasi harbiy harakatlarga katta zarar etkazdi va xalqaro vaziyatni chigallashtirdi.

"G'alati urush"dan foydalangan Germaniya qizg'in harbiy harakatlarga tayyorgarlik ko'rayotgan edi. 1940 yil aprelda Daniya va Norvegiya bosib olindi. 1940 yil 10 maydan 22 iyungacha Gollandiya, Belgiya va Frantsiya zabt etildi. Angliya va Frantsiyaga qarshi Italiya ham urush e'lon qildi. "Ochiq shahar" deya e'tirof etilgan Parij nemislarga jangsiz taslim bo'ldi. Frantsiyaning o'zi esa ikki eonaga: zabt etilgan (mamlakatning shimoliy va markaziy qismlari) va zabt etilmagan (marshal Peten tartibi o'rnatilgan mamlakatning janubiy qismi) zonaga ajraldi.

1941 yil 22 iyunda Germaniya hujum qilmaslik to'g'risidagi bitimni buzib, urush e'lon qilmasdan SSSRga hujum qildi. Qurolli kuchlar hisobidagi qo'pol xatoliklar, armiyaning komandirlar tarkibi o'rtasida ommaviy jazo choralarining qo'llanilishi, Germaniya bilan imzolangan bitimning rolga ortiqcha baho berish urushning birinchi yillarida SSSRni mag'lubiyat yoqasiga olib keldi. Biroq ulkan ichki imkoniyatlarga ahamiyat berish natijasida SSSR urushda burilishlarga erishdi. Butun urush davomida Sovet-german fronti asosiy va hal qiluvchi front hisoblandi. Sovet-german frontida ro'y bergan bir qancha yirik janglarda (Moskva ostonasidagi jang, Leningrad qamalini yorib o'tish, Stalingrad jangi, Kursk jangi va boshqalar) nemis qo'shinlari qaqshatqich zarbaga uchradilar. Aslida bu janglarda Germaniya harbiy mashinasi barbod qilingan va urushning oqibati oldindan ma'lum edi.

Germaniyaning SSSRga hujumidan so'ng davlatlarning gitlerchilarga qarshi ittifoqi shakllana boshladi. Tarkibiga SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya kirgan bunday ittifoq 1942 yil iyunga kelib uzil-kesil shakllandi. Nemis qo'shinlarining 1943 yil yozida Kursk do'ngligida mag'lubiyatga uchrashi va o'sha yili sentabrda ingliz-amerika qo'shinlari tomonidan Sitsiliyaning bosib olinishi natijasida Italiyaning taslim bo'lishi va ularning Appenin yarimorolining janubiga tushirilishi fashist-militaristik ittifoqining parchalanishiga zamin bo'ldi.

Asosiy janglar Evropa qit'asida sodir bo'lsa-da, Afrika, Osiyo va Tinch okeanida ham harbiy harakatlar avj oldi. 1941 yil 7 dekabrda yapon havo floti AQSHning Pyorl-Xarbor (Gavaya orollari) harbiy-dengiz floti bazasiga yopirilma zarba berdi. YAponiya Janubiy-SHarqiy Osiyoga keng hujumlar uyushtirdi. 1942 yil may oyiga kelib, yapon qo'shinlari AQSH va Buyuk Britaniyaning Tinch okeanining ko'plab orollarida joylashgan harbiy-dengiz floti bazalarini bosib oldilar. Janubiy-G'arbiy Xitoy va SHarqiy Hindiston ham bosib olindi. Lekin 1942

yil may-iyundagi janglar natijasida AQSH YAponiyaga bir qancha qaqshatqich zarba berishga muvaffaq bo'ldi. YAponiya harbiy-dengiz floti kuchlarining qudrati barbod etildi va YAponiya Tinch okeani havzasida mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. Nemis asosiy kuchlarining sovet-german frontiga to'planishi Britaniya qo'shinlarining 1942 yil oktabrda Afrikaga hujumga o'tishlariga imkon yaratdi. YAqin SHarq mamlakatlaridagi natsistik xavfga barham berildi. 1943 yil may oyida SHarqiy Afrikadagi italiya-german qo'shinlari butunlay taslim bo'ldi. Tehron konferentsiyasi ishida AQSH, SSSR va Buyuk Britaniya hukumati vakillari (1943 yil 28 noyabr – 1 dekabr) 1944 yil may oyida G'arbiy Evropada ikkinchi frontni ochishni hal qildilar. Lekin ittifoqchi qo'shinlarning tushirilishi bir necha marta paysalga solindi. 1944 yilning birinchi yarmida Sovet qo'shinlari bir qancha yirik harbiy operatsiyalar o'tkazdilar. Ikkinchi front ochilishining paysalga solinishi endi mumkin emasdi. 1944 yil 6 iyunda ingliz-amerika ittifoqchi qo'shinlari Normandiya (Frantsiya)ga tushirildi va asta-sekin SHarqqa qarab harakat qila boshladi. 1944 yil oxiriga kelib, ittifoqchilar Frantsiya, Belgiya va Markaziy Italiyadan nemis qo'shinlarini quvib chiqardilar. 1944 yilning ikkinchi yarmi va 1945 yil boshlarida Sovet qo'shinlari tomonidan Janubiy-SHarqiy va Markaziy Evropa mamlakatlari ozod qilindi. Germaniya o'z ittifoqchilari Ruminiya, Bolgariya, Finlyandiya, Vengriyadan mahrum bo'ldi va yakkalanib qoldi. 1945 yil fevral oyidan boshlab harbiy harakatlar Germaniya territoriyasiga ko'chirildi. 1945 yil 4-11 fevralda Qrim (YAlta)da uch davlat: SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya boshliqlarining konferentsiyasi bo'lib o'tdi. Konferentsiyada ittifoqchilarning kelgusi harbiy harakatlari, Germaniya taslim bo'lgandan so'ng uning ustidan nazoratning ma'lum shakllari va usullari muvofiqlashtirildi. SSSR o'z zimmasiga Germaniya taslim bo'lgach, 2-3 oydan so'ng YAponiya bilan urushga kirishish majburiyatini oldi. 1945 yil 25 aprelda San-Frantsiskoda ochilgan konferentsiyada uch davlat kelishuviga muvofiq Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga asos solindi. Umumiy tinchlikni saqlab turish mas'uliyati Xavfsizlik Kengashiga yuklatildi. 1945 yil aprelda Sovet armiyasi Berlinga hal qiluvchi hujumlar uyushtira boshladi. G'arbdan ingliz-amerika qo'shinlari hujum olib bordilar. 1945 yil 25 aprelda Torgau shahridagi Elba daryosi yaqinida ittifoqchi qo'shinlarning uchrashuvi ro'y berdi. Nemis qo'shinlarining SHimoliy Italiyadagi qolgan qismi 1945 yil 29 aprelda taslim bo'ldi. "Salo Respublikasi" yo'q qilindi, Mussolini esa partizanlar tomonidan otib o'ldirildi. Germaniya poytaxtini qurshab olgan Sovet qo'shinlari 2 mayda Berlinni shturm bilan qo'lga oldilar. 1945 yil 8 mayda german qo'mondonligi Germaniyaning so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi bitimni imzoladi. Germaniya qo'shinlarining bir qismi Pragada qo'zg'olonchilarga qarshi harbiy harakatlarni davom ettirdilar. Lekin Sovet qo'shinlarining aniq zarbalari natijasida bu harakat barbod etildi. 1945 yil 9 mayda Praga ozod etildi. Evropadagi harbiy harakatlar tugadi. 1945 yil 17 iyundan 2 avgustga qadar Berlin atrofidagi Potsdam shahrida uch davlat: SSSR, AQSH va Buyuk Britaniya rahbarlarining uchinchi konferentsiyasi bo'lib o'tdi. "Potsdam konferentsiyasi" urushdan keyingi tinchlik o'rnatilishiga bag'ishlandi. Konferentsiya ishida asosiy e'tibor Germaniya bilan aloqa qilish siyosati masalasiga qaratilgan edi. Itifoqchilar Germaniyani butunlay qurolsizlantirishga,

qurolli kuch va harbiy sanoatdan mahrum qilishga, fashistik partiyani yo'q qilishga, asosiy harbiy jinoyatchilarni sudga topshirishga, Germaniyada so'z, matbuot va din erkinligini qayta tiklashga, erkin kasaba uyushmalari va demokratik partiyalar faoliyatini shakllantirishga ruxsat berish to'g'risida qaror qabul qilishdi. 1945 yil martiga kelib, ingliz-amerika qo'shinlari Tinch okeani havzasi va Janubiy-SHarqiy Osiyoda YAponiyaga qarshi samarali harakatlar olib bordilar. SSSR 1945 yil 9 avgustda o'z majburiyatiga binoan YAponiyaga qarshi urushga kirishdi. Sovet qo'shinlarining Mongoliya Xalq Respublikasi kuchlari bilan birgalikdagi kuchli zarbalari tufayli Kvantun armiyasi barbod etildi. SHimoliy-SHarqiy Xitoy, SHimoliy Koreya, Janubiy Saxalin va Kuril orollari yapon qo'shinlaridan tozalandi. 1945 yil 6 va 9 avgust kunlari Amerika havo kuchlari YAponiya shaharlari – Xirosima va Nagasakiga atom bomba tashladi. YAdro qurolini qo'llash harbiy zaruriyat bo'lmagan bo'lsa-da, YAponiya harbiy mashinasi barbod etildi. 1945 yil 2 sentabrda Tokio ko'rfazida Amerikaning "Missuri" kemasida YAponiya "Taslim bo'lganlik to'g'risidagi" bitimga imzo chekdi. Ikkinchi jahon urushi tugadi.

Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixidagi eng og'ir va eng qonli urush bo'ldi. U XX asr tarixida keskin burilish bosqichlaridan biri bo'ldi. Urushning asosiy natijasi fashizm ustidan g'alaba edi. Urush vaqtida mustamlakachilik tuzumining parchalanishi boshlandi. SSSRning xalqaro obro'si misli ko'rilmagan darajada oshdi. Buyuk G'arbiy mamlakatlar ichidan faqat AQSHgina urushdan sezilarli darajada talofatsiz chiqdi. Ikkinchi jahon urushi oqibatida xalqaro siyosatdagi kuchlar nisbati keskin o'zgardi.

### **Ikkinchi jahon urushining kelib chiqish sabablari va boshlanishi.**

1914-1918-yillarda bo'lib o'tgan birinchi jahon urushi buyuk davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qila olmadi. Birinchi jahon urushidan keyin kapitalistik mamlakatlar rivojlanishidagi notekislik yanada kuchaydi.

Urushdagi mag'lubiyat tufayli Germaniya "buyuk davlat" bo'lmay qoldi va mustamlakalaridan ajraldi. Lekin 30-yillar o'rtalariga kelib Germaniya chet davlatlarning, eng avvalo AQSH va Angliyaning kreditlari yordamida o'zining iqtisodiy va harbiy qudratini qayta tiklashga muvaffaq bo'ldi va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha kapitalistik davlatlar ichida dunyoda ikkinchi o'ringa chiqib oldi. 1-jahon urushidan keyin Versal-Vashington shartnomalari tizimlari asosida amalga oshgan dunyoni qayta taqsimlab olish natijalari Germaniyani ham, Italiyani ham, Yaponiyani ham qoniqtirmas edi. Bu esa kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni kuchaytirdi, davlatlarning xom ashyo manbalari, sotish bozorlari, sarmoya qo'yish sohalari, boshqa xalqlar ustidan hukmronlik qilish, dunyoni qayta taqsimlab olish va dunyoda hukmron bo'lish uchun kurashning avj olib ketishiga sabab bo'ldi.

SSSRda sotsializm qurilishi dunyoda inqilobiy harakatning yuksalishiga, ishchilar va milliy-ozodlik harakatining o'sishiga kuchli ta'sir ko'rsatib, imperializmning mavqesiga qattiq zarba berdi. SHuning uchun ham kapitalistik davlatlar Sovet davlatini harbiy yo'l bilan yo'q qilishdan manfaatdor edilar. Jahon imperializmining ikkinchi jahon urushidan ko'zlagan siyosiy maqsadi xalqaro inqilobiy harakatga zarba berish, Sovet Ittifoqini yo'q qilish edi.

30-yillarda xalqaro vaziyat asta-sekin keskinlashib, Uzoq Sharq va Yevropada harbiy xavf o'choqlari paydo bo'lishi kuzatildi.

Yangi jahon urushning dastlabki o'chog'i 1931-1933 yillarda Yaponiya Xitoyga hujum qilib, u erda Manchjou-Go qo'g'irchoq davlatini barpo etgan davrda yuzaga keldi. Buyuk davlatlarning noroziligi tufayli Yaponiya Millatlar Ligasidan chiqdi. Yaponiya 1937 yilda Xitoyga qarshi yana urush boshladi. Xitoydagi CHan Kayshi hukumati bu vaqtda Xitoydagi kommunistik partiya tomonidan tuzilgan Qizil armiyaga qarshi kurash olib borayotganligi tufayli yapon bosqinchilariga jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi. 1939 yil kuziga kelib yaponlar Xitoy janubida katta hududlarni bosib olgan edilar.

Germaniyada 1933 yil yanvarida A.Gitler boshchiligidagi natsistlarning hokimyatga kelishi Yevropada asosiy urush o'chog'ining shakllanishiga olib keldi. Germaniya rahbarlari muntazam ravishda Versal bitimi shartlarini buza boshladilar. Boshqa Yevropa davlatlarining noroziligiga qaramay Germaniya hukmron doiralari mamlakatda umumiy harbiy majburiyat joriy qildi, harbiy-dengiz flotini qurishga kirishdi. 1936 yilda demilitarizatsiya qilingan Reyn zonasiga qo'shin kiritdi.

Asta-sekinlik bilan Germaniya, Italiya va Yaponiya agressiv bloki tashkil topa boshladi. 1936 yilda Germaniya bilan Yaponiya o'rtasida "Kominternga qarshi ahdnoma" imzolandi, 1937 yilda bu "Ahdnoma"ga Italiya ham qo'shildi. 1939 yilda bu bitim "Po'lat bitim"ga aylantirildi. Unga turli vaqtlarda Vengriya, Manchjou-Go, Bolgariya, Finlyandiya, Ruminiya, Daniya va boshqa davlatlar qo'shildilar. Agressiv davlatlarning bosqinchilik siyosatlari vaqt o'tgan sari kuchayib bordi. 1937-1938 yillarda Germaniya va Italiya Ispaniyada general Frankoning fashistik isyonida oshkora ishtirok etdilar. Germaniya 1938 yilda Versal bitimini yana bir marta buzib, Avstriyani o'ziga qo'shib oldi. Gitler Myunxen bitimini tuzish yo'li bilan mustaqil Chexoslovakiya davlatini yo'q qilish yo'lidan bordi, keyinroq esa Polshadan Dantsigni o'ziga berilishini talab qildi. Gitler ana shu yo'l bilan ongli ravishda yangi jahon urushi tomon yo'l tutgan edi.

Fashistik Italiya ham ana shunday agressiv tashqi siyosat olib bordi. Mussolini hukumatining Bolqonga iqtisodiy va siyosiy jihatdan kirib borishi kuchaydi. 20-yillardayoq Albaniyaga bir qator teng huquqli bo'lmagan bitimlarni qabul qildirish yo'li bilan uning ustidan Italiyaning nazorati o'rnatilgan edi, 1939 yilda esa Albaniya italyan qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilib olindi. Italiya fashistlari 1935-1936 yillarda Abissiniyani (Efiopiya) bosib oldilar. AQSH va Yevropaning etakchi davlatlari agressiv davlatlarning bunday siyosatlariga hech qanday qarshilik ko'rsatmadilar.

Kapitalistik davlatlar o'rtasidagi ziddiyatlar bir-biriga dushman bo'lgan ikkita blokning tashkil topishiga olib keldi, bular ingliz-frantsuz-amerika bloki va german-yapon-italyan bloklari edi. German-yapon-italyan bloki "Kominternga qarshi ahdnoma" ko'rinishida tashkil topdi va nafaqat dunyoni qayta taqsimlab olishni, balki butun dunyoda fashistik tartib o'rnatishni maqsad qilib qo'ydi. Gitlerchilar Germaniyasi Uralgacha bo'lgan butun Yevropani bosib olishni va u erda o'zining jahon ustidan hukmronligini o'rnatishni ko'zlagan edi. Italiya fashistlari esa Rim imperiyasini qayta tiklashni, Afrikaning katta qismini, YAqin

va O'rta Sharqni, Bolqonni o'ziga bo'ysundirishni, O'rtaer dengizini Italiyaning ichki dengiziga aylantirishni istardi. Militaristik Yaponiya esa Osiyoda Uralgacha va Tinch okeanda hukmronlik qilishga intilardi.

Angliya, AQSH va Frantsiya esa o'zlarining asosiy raqiblari bo'lgan Germaniya, Italiya va Yaponiyani tor-mor etishni va ularning bosqinchilik harakatlarini SSSRga qarshi yo'naltirishni istardilar. SHu bilan birga bu mamlakatlar o'rtasida, ayniqsa Angliya bilan AQSH o'rtasida jiddiy ziddiyatlar bor edi.

Sovet Ittifoqi rahbariyati 30-yillardan boshlab yangi urush xavfi paydo bo'lgach, Yevropada kollektiv xavfsizlik tizimini yaratish yuzasidan takliflar bilan chiqdi. Bunda bu tizimga a'zo bo'lgan har bir davlat umumiy xavfsizlik uchun teng javobgar bo'lishi va shu yo'l bilan urushning oldini olish mumkin edi. Sovet davlati bu borada birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishdi. 1935 yil may oyida SSSR bilan Frantsiya, keyinchalik SSSR bilan Chexoslovakiya o'rtasida o'zaro yordam to'g'risida bitim imzolandi. Lekin Angliya va Frantsiya davlatlari gitlerchilar Germaniyasi o'z hujumini SHarqqa, SSSRga qaratadi deb o'yildilar. 1939 yil bahoriga kelib Germaniya tomonidan CHexoslovakiya bosib olingach va Polshaga ultimatum qo'yilgach, Angliya va Frantsiya bevosita urush xavfi ostida Sovet davlati rahbariyatiga murojaat qilishib, fashizm agressiyasiga qarshi kollektiv xavfsizlik choralarini muhokama qilish takliflarini kiritdilar. Natijada 1939 yil aprel-avgust oylarida Moskvada SSSR, Angliya va Frantsiya hukumatlari o'rtasida muzokaralar bo'lib o'tdi. Lekin Angliya tomoni ham, Frantsiya tomoni ham kollektiv xavfsizlik tizimini tashkil etishni istamayotganliklari va bu borada biror aniq dasturga ega emasliklari ma'lum bo'ldi. Bu davlatlarning vakillari barcha ma'sulyatni SSSR zimmasiga yuklashga va uni Germaniya bilan urushtirib qo'yish mumkin bo'lgan shartlarni oldinga surishga harakat qildilar. Shu bilan birga Angliya va Frantsiya Moskvada olib borilayotgan muzokaralar Gitlerni tezroq qat'iy harakat qilishga olib keladi, deb o'ylagan edilar.

Sovet davlati rahbariyatiga Angliya va Frantsiya tomonlari kollektiv xavfsizlik tizimini yaratishni istamayotganliklari yaqqol ko'rinib qoldi. Buning ustiga Angliya tomoni ayni shu vaqtda Germaniya bilan yashirin muzokaralar olib borayotgani ma'lum bo'ldi. Germaniya tomoni bir necha marta SSSRga murojaat qilib, u bilan hujum qilmaslik to'g'risida bitim tuzishni taklif qilgan edi. Yuzaga kelgan vaziyatda urushni orqaga cho'zish uchun Sovet davlati rahbariyati Germaniyaning taklifini qabul qildi va 1939 yil 23 avgustda Moskvada Germaniya bilan SSSR o'rtasida hujum qilmaslik to'g'risida 10 yilga mo'ljallangan bitim imzolandi, bu bitim tarixda "Ribbentrop-Molotov pakti" deb nom oldi. Bu bitimga qo'shimcha holda maxfiy protokol ham mavjud bo'lib, unda Polshani ikki davlat o'rtasida bo'lib olinishi ko'zda tutilgan edi. Sovet Ittifoqiga Boltiqbo'yi mamlakatlari – Litva, Latviya, Estoniya va Bessarabiyani qo'shib olish ko'zda tutilgan edi. Bu hududlar ilgari Rossiya imperiyasi tarkibiga kirgan bo'lib, 1918 yildagi Brest-Litovsk bitimiga ko'ra undan tortib olingan edi.

### **G'arbiy frontda 1939 yil sentabr – 1941 yil mayidagi harbiy harakatlar.**



1939 yil 1 sentabrda fashistlar Germaniyasi Polshaga hujum boshladi. Reyxstag shu kuniyoq Dantsigni Germaniyaga qo'shib olinganligi to'g'risida qonun chiqardi. Polshaning kafili hisoblangan Angliya va Frantsiya 3 sentabrda Germaniyaga urush e'lon qildilar. Urush harakatlariga asta-sekinlik bilan dastlab Yevropa mamlakatlari, keyinchalik boshqa mamlakatlar ham tortila boshlandi. Ikkinchi jahon urushi boshlandi.

Germaniya polyak frontiga 53 diviziya, 2500 tank, 2 ming samolyot tashladi. Nemislar bu yerda birinchi marta jangovar harakatlarda bostirib borishning yangi taktikasi bo'lgan "blitzkrieg" – "yashin tezligida urush olib borish" taktikasini qo'lladilar. Uning asosida barcha turdagi qo'shin turlarining birgalikdagi to'satdan qilinadigan shiddatli hujumi, urushning dastlabki kunlarida dushman shaharlari, kommunikatsiya vositalarini kuchli bombardimon qilish, dushman orqasida keng qo'poruvchilik ishlarini olib borish, tanklar va aviatsiya yordamida kuchli zarbalar berish turardi.

Urushning dastlabki kunlaridayoq nemis-fashist qo'shinlari polyaklar mudofaasini yorib o'tdilar va 7 sentabrda Varshava ostonasiga etib keldilar. Lekin polyak armiyasi qattiq qarshilik ko'rsatdi. 17 sentabrga kelib nemis qo'shinlari polyak qo'shinini qurshovga oldi. Shu kuni Polshaga sharqdan Sovet qo'shinlari ham kirib keldi. Sovet davlati rahbariyati buni G'arbiy Belorussiya va G'arbiy Ukrainaning qardosh xalqlariga yordamga kelish, deb ko'rsatdi. Aslida esa Sovet qo'shinlari 1939 yildagi SSSR-Germaniya bitimining maxfiy bandlari asosida bu erlarni bosib olish uchun kiritilgan edi. Polsha hukumati rahbarlari chet elga qochdi. Sentabr oyining oxirlarida Polsha davlati mag'lubiyatga uchrab, taslim bo'ldi. Brest-Litovskda Germaniya va SSSR qo'shinlarining birgalikdagi paradi bo'lib o'tdi. 1939 yil 28 sentabrda Germaniya va SSSR o'rtasida do'stlik va chegaralar to'g'risida bitim imzolandi. Unga binoan Polsha davlati tugatildi, urushni boshlanishi uchun ma'suliyat Angliya va Frantsiya zimmasiga yuklatildi.

1939 yil 30 noyabrda sovet-fin chegarasidagi to'qnashuvdan keyin bu ikki davlat o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi. Bu urush SSSRni regiondagi mavqegini mustahkamlash va Leningrad shahrining xavfsizligini ta'minlashga intilishi natijasida kelib chiqqan edi. Sovet davlati Leningrad xavfsizligini ta'minlash maqsadida hududlarni ayirboshlashni taklif qilgan edi, lekin Finlyandiya tomoni rad javobini bergach, urush boshlanib ketdi. Sovet tomoni urushni 2-3 hafta ichida tamomlashni rejalashtirgan edi. Lekin Sovet armiyasi jangovarlik qobilyatining pastligi va Stalin qatag'onlaridan keyin ko'mondonlik tarkibining zaiflashib qolganligi urushning cho'zilib ketishiga olib keldi. Sovet qo'shinlari askarlar sonining ustunligi hisobiga g'alabaga erishdilar. 1940 yil 12 martda sulh bitimi imzolandi, unga ko'ra SSSR chegaralari Leningraddan 150 km nariga surildi, Fin qo'ltig'idagi bir qancha orollar SSSRga berildi. Bu urush SSSRning Angliya va Frantsiya bilan bo'lgan munosabatlarini ancha yomonlashtirdi.

Angliya va Frantsiya davlatlari Germaniyaga qarshi urush e'lon qilsalar ham unga qarshi faol urush olib bormadilar. Ular hali ham Germaniya o'z agressiyasini SHarqqa, SSSRga qaratadi deb umid qildilar. G'arbiy frontda 110 frantsuz va 5 ingliz diviziyasiga qarshi Germaniyaning 23 ta diviziyasi turardi.

1939 yil 12 sentabrda bo'lib o'tgan ingliz-frantsuz oliy kengashida Germaniya bilan bo'ladigan urushda passiv mudofaa taktikasini qo'llashga qaror qilindi. Natijada 1939 yil sentabrdan 1940 yil mayigacha "g'alati urush" yoki "o'tirib urushish" degan urush bo'lib o'tdi. Bunda hech bir tomon faol urush harakatlarini olib bormadi. Bu esa Germaniyaga Polshani tezlikda tor-mor etish va yangi urushlarga tayyorlanish imkoniyatini yaratdi. Dengizdagi harbiy harakatlar faolroq olib borildi. Nemislarning suv osti kemalari inglizlarning "Royal Ok" linkori, "Koreydjes" avianosetsini, shuningdek ingliz va frantsuzlarning ko'plab savdo kemalarini cho'ktirib yubordi.

Urushning boshida AQSH o'zining betarafligini e'lon qildi. AQSHning hukmron doiralari vujudga kelgan vaziyatdan boylik orttirish, mamlakat qudratini oshirish va keyinchalik dunyoga hukmron bo'lishni ko'zlagan edilar.

1940 yil bahoriga kelib fashistlar Germaniyasi G'arbda harbiy harakatlarni ancha kengaytirishga tayyor edi. Gitlerchilar Daniya va Norvegiyaga qarshi "Vezeryubung" operatsiyasini boshlab yubordilar. Bu mamlakatlarga qarshi havo va dengiz desanti tashlandi. Daniya qiroli va hukumati 1940 yil aprelda qarshilik ko'rsatmay taslim bo'ldi. Norvegiya qo'shini va armiyasi dushmanga qarshilik ko'rsatdi. Angliya va Frantsiya o'z qo'shinlari bilan Norvegiyaga yordam berishga harakat qildilar, lekin nemis bosqinchilari ularning qarshiligini sindirib, 10 iyunda Norvegiyani taslim bo'lishga majbur qildi.

Shundan keyin Germaniya "Gelb" operatsiyasini amalga oshirishga kirishdi. Unga ko'ra shiddatli urush olib borish yo'li bilan G'arb davlatlari koalitsiyasi qo'shinlarini tor-mor etish, Niderlandiya, Belgiya va Shimoliy Frantsiyani bosib olib, Frantsiyani urushdan chiqarish va Buyuk Britaniyani Germaniya uchun foydali bo'lgan sulh tuzishga majbur qilish kerak edi.

Gitler neytral davlatlar bo'lgan Belgiya, Gollandiya va Luksemburgga bostirib kirish uchun ig'vogarlik yo'liga o'tdi. Fashistlar samolyoti nemislarning Freyburg shahriga hujum qildi, Germaniya hukumati esa bunda Gollandiya va Belgiya aviatsiyasini aybladi. Fashistlar ana shu bahona ostida 1940 yil 10 mayda Belgiya, Gollandiya va Luksemburgga bostirib kirdilar va ularni bir necha kunda bosib oldilar. Bu davlatlar hududlari orqali Frantsiyaga hujum boshlandi. "G'alati urush" davri tugadi. Angliya va Frantsiya hukmron doiralarning uzoqni ko'ra olmaslik siyosati og'ir oqibatlariga olib keldi.

14 mayda frantsuz, ingliz va belgiyalik qo'shinlarning katta qismi Dyunkerq yaqinida dengizga siqib qo'yildi. Nemis qo'mondonligi bu qo'shinlarni yo'q qilib tashlashni ko'zlamagan edi, shuning uchun ham ingliz va frantsuz qo'shinlari Britaniya orollariga chiqib ketdilar. Belgiya 28 mayda taslim bo'ldi. Germaniya 5 iyunda Parijga hujum boshladi. 10 iyunda Italiya Angliya va Frantsiyaga urush e'lon qildi va o'z qo'shinlarini italyan-frantsuz chegarasi tomon jo'natdi. Bunday sharoitda Frantsiyaning hukmron doiralari fashist bosqinchilariga qarshi biron-bir qarshilik ko'rsatishni tashkil etishga qobilyatsiz bo'lib chiqdilar. Frantsiya hukumati Parijdan Tur shahriga qochib o'tdi, hukumat tarkibida taslim bo'lish tarafdorlari ko'p edi. Parij ochiq shahar deb e'lon qilindi va 14 iyunda u nemis qo'shinlari tomonidan bosib olindi. Parij fashistlar qo'liga o'tgach hukumat Bordoga ko'chib o'tdi.

Iyun oyining o'rtalarida frantsuz hukumatining vakillari Angliya bilan frantsuz-german separat sulhini tuzish imkoniyatlari haqida muzokaralar olib bordi. SHu bilan birga Angliya va Frantsiya AQSHdan tezlik bilan Frantsiyaga harbiy va moddiy yordam berishni so'radilar. Lekin AQSH o'zini urushga kirishi uchun qulay vaqt kelmadi deb hisoblab, iltimoslarni natijasiz qoldirdi.

Frantsiyaning taqdiri hal qilingan edi. 1940 yil 16 iyunda Angliya Frantsiyaning sulh tuzishiga rozilik berdi. Frantsiya Bosh vaziri marshal Peten Frantsiyaning taslim bo'lganini e'lon qildi. Frantsuz qo'shinlari qarshilik ko'rsatishni to'xtatdilar.

1940 yil 22 iyunda Kompen o'rmonida, 1918 yilgi Kompen yarash ahdi imzolangan joyda, marshal Foshning muzeyidan olib kelingan shtab vagonida Germaniya bilan yarash ahdi imzolandi. Germaniya qo'shinlari SHimoliy Frantsiyani okkupatsiya qildi. Frantsiya Germaniyaga xom ashyo, oziq-ovqat va ishchi kuchi etkazib beruvchi vassalga aylandi. Frantsiyaning harbiy-dengiz floti va aviatsiyasi Germaniya qo'liga o'tdi. Marshal Peten boshchiligida poytaxti Vishida bo'lgan fashistparast hukumat tuzildi. Butun Frantsiya iqtisodiyoti Germaniyaga xizmat qila boshladi.

Frantsiyaning taslim bo'lishi Angliya uchun kutilmagan hodisa bo'ldi. Angliya harbiy xavfni qaytarishga tayyor emas edi. Buning ustiga u o'zining Yevropadagi barcha ittifoqchilaridan mahrum bo'ldi. Angliya armiyasi endigina tayyorgarlik bosqichida edi. Buyuk Britaniya hukumati Kanadaga evakuatsiya qilishni ham rejalashtirib qo'ygan edi. Angliyani fashistik Germaniya bosib olish xavfi paydo bo'ldi. Germaniyaning hukmron doiralari Angliyani bosib olishni ko'zlagan "Zeelove" ("Dengiz sheri") nomli reja ishlab chiqqan edilar. Bu operatsiyaga ko'ra 1940 yil 15 avgustda Angliyaga katta desant tashlash belgilangan edi, lekin Angliya harbiy-dengiz flotining ustunligi tufayli bu ish amalga oshmay qoldi. SHuning uchun Angliyaning harbiy qudratini yo'q qilish G.Gering qo'mondonligi ostidagi harbiy-havo kuchlari – lyutvaffe zimmasiga yuklatildi. 1940 yil avgust-oktabr oylarida ikkinchi jahon urushidagi eng katta havo jangi – "Angliya uchun jang" bo'lib o'tdi. Janglar goh u tomonning, goh bu tomonning ustunligi bilan bordi. Nemislar asosan yirik shaharlarni bombardimon qildilar. Natijada ko'plab turar joy binolari vayron qilindi, 40 mingga yaqin kishi halok bo'lib, 46 ming kishi yarador bo'ldi. Angliya havo hujumidan himoya qilish tizimi keng tarmoqli radiolokatsiya stantsiyalariga ega bo'lib, ular dushman samolyotlari yaqinlashayotganligini oldindan payqar edilar. Gitlerchilarning qo'qqisidan qilinadigan hujumlar bilan dushmanni sarosimaga solish rejasi barbod bo'ldi. Germaniya aviatsiyasi har bir hujumda 10-15 samolyot yo'qotardi. Kuzning o'rtalariga borib nemis qo'mondonligining rejalari amalga oshmasligi ma'lum bo'ldi. Germaniya tomoni 1110 samolyot yo'qotdi, Angliya tomoni esa 650 samolyotdan ajraldi.

### **Fashistlar Germaniyasining SSSRga hujumi. Stalingrad jangi va ikkinchi jahon urushida tub burilishning boshlanishi.**

Yevropa g'arbidagi harbiy harakatlar pasaygan sari Germaniya hukmron doiralari o'z e'tiborlarini yana sharqiy yo'nalishga qaratdilar. 1940 yilning ikkinchi yarmi va 1941 yilning boshi Yevropadagi kuchlar nisbatini belgilashda muhim davr bo'ldi. Fashistlar Germaniyasi o'zi okkupatsiya qilgan Frantsiya, Avstriya, Niderlandiya, Belgiya, Luksemburg, Polsha, CHexiya davlatlariga, shuningdek Norvegiya, Slovakiyadagi o'ziga qaram tartibotlarga va "namunali protektorat" bo'lgan Daniyaga tayanishi mumkin edi. Ispaniya va Portugaliyadagi fashistik rejimlar o'zlarining betarafligini e'lon qilgan bo'lsalarda Gitler ularni istagan vaqtda o'ziga sherik qila olardi. Italiya Albaniyani bosib oldi va Gretsiyaga qarshi urush boshladi. Lekin Gretsiya qo'shinlari Angliyaning harbiy ko'magida italyanlar hujumini qaytardi va hatto Albaniya hududiga kirib bordi. Bunday vaziyatda ko'p narsa Janubi-Sharqiy Yevropa mamlakatlari hukumatlarining tutgan pozitsiyasiga bog'liq edi.

30-yillar o'rtalarida Ruminiya, Vengriya, Bolgariya, YUgoslaviyada hokimyat tepasiga harbiy-avtoritar millatchi tartibotlar kelishgan edi. Natsistlar Germaniyasi bu mamlakatlarni bevosita o'z ta'sir doirasiga kiruvchi hududlar deb hisoblardi. Lekin urush boshlanib ketgach Janubi-SHarqiy Yevropa davlatlari urushayotgan davlatlarga nisbatan o'z zimmlariga biror majburiyat olishga shoshilmadilar. Germaniya hukmron doiralari 1940 yil avgustida Germaniyaga uncha hayrihoh bo'lmagan Ruminiyaga qarshi ochiq urushga tayyorlana boshladilar. Lekin noyabrda Buxarestda davlat to'ntarishi o'tkazilib, mamlakatda Antoneskuning germanparast tartiboti o'rnatildi. SHundan keyin Ruminiyani o'ziga hujum qilishidan cho'chigan Vengriya Germaniya blokiga kirishga tayyor ekanligini bildirdi. 1941 yil bahorida Bolgariya ham Uchinchi reyxning satellitiga aylandi.

Yugoslaviyadagi voqealar boshqacha yo'ldan rivojlanib bordi. YUgoslaviya hukumati 1941 yil martida Germaniya bilan ittifoqchilik bitimini imzoladi. Lekin armiyaning vatanparvarlik kayfiyatidagi qo'mondonligi davlat to'ntarishini amalga oshirdi va bitimni bekor qildi. Bunga javoban Germaniya aprel oyida Bolqonda harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Germaniya o'zining ustun darajadagi harbiy kuchlariga tayanib, bir yarim hafta ichida YUgoslaviya armiyasini tor-mor etdi va Gretsiyadagi qarshilik ko'rsatish o'choqlarini bostirishga kirishdi. Lekin yugoslav xalqining kurashi davom etdi va bu erda Yevropadagi eng kuchli Qarshilik ko'rsatish harakati shakllandi.

Bolqon kampaniyasining so'nggi jarayoni 1940 yilda ingliz qo'shinlari tomonidan egallangan Krit oroli uchun bo'lgan janglardan iborat bo'ldi. Krit uchun jang ikkinchi jahon urushidagi eng yirik harbiy-desant operatsiyalaridan biri bo'ldi. Unda Germaniya tomonidan 1280 samolyot va vermaxtning deyarli barcha desant qismlari ishtirok etdi. Bu jangda g'alabaga erishilgan bo'lsada, bu qo'shinlar juda katta yo'qotishlarga duchor bo'lgani tufayli keyinchalik harbiy operatsiyalarda undan mustaqil qo'shin turi sifatida foydalanib bo'lmadi.

Bolqon kampaniyasi tugagandan keyin Yevropada atigi uchta mustaqil, betaraf davlat – Shvetsiya, Shveytsariya va Irlandiya qoldi. Germaniya agressiyasining navbatdagi nishoni Sovet Ittifoqi bo'ldi. 1939 yildagi hujum qilmaslik to'g'risidagi sovet-german bitimi rasman o'z kuchida turgan bo'lsada,

amalda uning hech qanday ahamiyati qolmagan edi. Germaniya SSSR bilan tuzilgan bitimdan foydalanib, o'z kuchini ikki frontga ajratmasdan turib, Yevropadagi dastlabki va eng muhim harbiy kampaniyalarni amalga oshirdi. Endilikda bu ikki davlatni hech nima ajratib turmasdi, ular oldida endilikda ikkita yo'l qolgan edi – yo ular harbiy-siyosiy jihatdan yanada yaqinlashishlari yoki o'zaro oshkora to'qnashishlari kerak edi. 1940 yil noyabrda Berlinda bo'lib o'tgan sovet-german muzokaralari hal qiluvchi davr bo'ldi. Bu muzokarlarda SSSRni Po'lat bitimga kirishga taklif qilindi. Sovet davlatining teng huquqli bo'lmagan bu bitimga kirishni rad etishi urushning ro'y berishini muqarrar qilib qo'ydi. Bu vaqtga kelib Germaniya deyarli butun G'arbiy Yevropa ustidan o'z nazoratini o'rnatgan bo'lib, bu erda 290 mln. aholi yashardi. Yevropaning deyarli butun harbiy-iqtisodiy bazasi, sanoat va qishloq xo'jaligi, dengiz resurslari, moliyasi, transporti va xom ashyosi Germaniya xizmatiga qo'yilgan edi.

1941 yil 22 iyunda fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilari urush e'lon qilmasdan turib SSSRga hujum qildilar. Bu bilan ikkinchi jahon urushining 2-davri boshlandi va u 1942 yil noyabrgacha, ya'ni Stalingrad jangigacha davom etdi. Bu davr ikkinchi jahon urushining eng qaltis davri bo'ldi. Fashistlar Germaniyasi va uning satellitlari qo'shinlari SSSRga bostirib kirib, 1 yildan sal ko'proq vaqt ichida Sovet davlatining juda katta hududlarini bosib olib, Moskva, Volga va Kavkazgacha etib bordilar.

Sovet davlatiga qarshi fashistlar bloki (nemislar, italyanlar, ruminlar, vengerlar, finlar, slovaklar, frantsuzlar) 5 million kishilik qo'shin qo'yidilar. Bu qo'shin 190 diviziyaga birlashgan bo'lib, 3500 tank, 4900 samolyot, 50 mingdan ortiq to'p va minomyotga ega edi.

Fashistlar o'z maqsadlarini “tsivilizatsiyani bolshevizm xavfidan himoya qilish” deb e'lon qildilar. Aslida ularning rejasi Sovet davlatini yo'q qilib tashlash, Arxangelsk-Volga liniyasigacha bo'lgan erlarni Germaniyaga qo'shib olish, Osiyoning katta qismini Yaponiyaga berish, Moldaviya, Odessa va Dnestrdan g'arbdagi erlarni Ruminiyaga, Leningrad viloyati va Sharqiy Kareliyani Finlyandiyaga, G'arbiy Ukrainani esa Vengriyaga berishdan iborat edi.

1940 yil dekabrda ishlab chiqilgan “Barbarossa” rejasi bo'yicha SSSRga qarshi “yashin tezligida” urush olib borilishi kerak edi. Germaniya qo'shinlarining 3 guruhi: “SHimol”, “Markaz”, “Janub” tank qo'shinlari yordamida SSSRga yorib o'tishlari, Leningrad, Moskva, Kiev tomon harakat qilib, SSSRning katta qismini bosib olishlari, sovet qo'shinlarini yo'q qilib, bir necha hafta ichida urushni g'alaba bilan yakunlashlari kerak edi.

Urushning birinchi davri Sovet davlati uchun juda og'ir bo'ldi. Dastlabki 3 hafta ichida nemis qo'shinlari mamlakat ichkarisiga qarab 300-600 kilometrgacha kirib bordilar, Latviya, Litva, Belorussiyani bosib oldilar, Ukraina va Moldaviyaning ancha qismi fashistlar qo'lga o'tdi va ular Leningrad, Kiev, Smolensk, Odessaga etib keldilar. Sovet armiyasining va xalqning qattiq qarshilik ko'rsatishiga qaramay Kiev, Smolensk va Odessani himoya qilib bo'lmadi, dushmanlar bu shaharlarni egallab oldilar. Lekin Germaniyaning qish boshlanguncha urushni tugatishni mo'ljallagan strategik rejasi amalga oshmadi.

Urushning dastlabki davrida Sovet armiyasining muvaffaqiyatsizlikga uchrashiga quyidagilar asosiy sabab bo'lgan edi:

- Fashistlar Germaniyasining urush e'lon qilmasdan, 1939 yil 23 avgustdagi bitimni buzib, to'satdan hujum qilishi;
- Fashistlar Germaniyasi tomonida ittifoqchilar qo'shinining ishtirok etishi;
- SSSRning SHarqda Yaponiyaga qarshi katta qo'shin saqlab turishga majburligi;
- Germaniyaning urushga oldindan tayyorgarlik ko'rganligi, butun G'arbiy Yevropa iqtisodiyotining unga xizmat qilishi;
- Fashistlar Germaniyasi armiyasining katta jangovar tajribaga ega bo'lganligi, qurol-yarog', aviatsiya, artilleriya va boshqa sohalardagi texnikaviy ustunlik;
- Sovet davlati rahbarlari tomonidan dushman kuchiga etarli darajada baho bermaslik;
- Sovet davlati rahbarlari tomonidan urush boshlanishi ehtimoli bo'lgan vaqtni to'g'ri aniqlay olmaslik. G'arbiy harbiy okruglardagi mudofaa inshootlari qurilishining oxiriga etkazilmaganligi;
- Fashistlar Germaniyasining urushni boshlashiga bahona bo'lishidan cho'chib G'arbiy harbiy okruglardagi qo'shinlarda to'la jangovar holat e'lon qilmaslik;
- I.V.Stalin tomonidan 1937-1938 yillarda Sovet armiyasi komandirlari tarkibida juda katta qatag'on qilishlarni amalga oshirilishi natijasida komandirlar tarkibining zaiflashib qolishi va boshqalar.

SSSRda urushning birinchi kunidanoq bir qator ittifoqchi respublikalarda harbiy holat joriy qilindi va safarbarlik e'lon qilindi. Qisqa vaqt ichida 5,3 mln kishi armiya saflariga chaqirildi. Dushman bosib olgan hududlarda partizanlar otryadlari va qo'poruvchi guruhlar tashkil etildi.

Mamlakatni boshqarishni markazlashtirish, hukumat va harbiy organlar ishlarini muvofiqlashtirish uchun 1941 yil 30 iyunda Davlat Mudofaa Qo'mitasi (DMQ) tuzilib, butun hokimyat uning ixtiyoriga o'tdi. Sovet Qurolli Kuchlari harbiy harakatlariga strategik rahbarlikning oliy organi sifatida Oliy Bosh Qo'mondon Stavkasi tashkil etildi. I.A.Stalin DMQ Raisi va Oliy Bosh Qo'mondon qilib tayinlandi.

G'arbdagi sanoat korxonalarini SHarqqa ko'chirish boshlandi. SHu jumladan O'zbekistonga ham 100 dan ziyod zavod-fabrikalar ko'chirib keltirildi. 1941 yil oxiriga kelib sanoat ishlab chiqarishi umumiy darajasining pasayishi to'xtatildi.

Gitlerchilar Germaniyasining qo'qqisidan qilgan hujumi Sovet davlatini og'ir ahvolga solib qo'ydi. Sovet davlati rahbariyati uchun bu urush kutilmagan hodisa bo'ldi. G'arbiy chegaradagi sovet qo'shinlariga nemis agressiyasiga qarshi harakatlar to'g'risidagi ko'rsatmalar tayyorlanmagan edi. Urushning dastlabki ikki kunidayoq 2 mingga yaqin sovet harbiy samolyotlari parvoz qilishga ulgurmasdan, aerodromlarning o'zida yo'q qilib tashlandi. Noyabr oyiga kelganda nemis qo'shinlari Moskva va Leningrad ostonalarida tururdi. Sovet armiyasining g'arbiy

qismlaridagi 4,5 mln kishidan 2,5 millioni halok bo'ldi. 15 ming tankdan faqat 700 tasi qoldi. Germaniya g'alabani nishonlashga juda yaqin turardi.

Lekin nemislar hal qiluvchi zarbani bera olmadilar. Qizil armiyaning va sovet xalqining qahramonona qarshiligi shiddatli urush rejasini barbod qildi. Har bir shahar, mhar bir qishloq uchun shiddatli janglar bo'ldi. Nemislar Yevropani osonlik bilan zabt qilgan bo'lsalar, Sovet davlatida ular har bir qarich er uchun katta talofat berishlariga to'g'ri keldi. Nemislarda hal qiluvchi zarbani berish uchun tirik kuch ham, texnika ham qolmadi. Ular Smolensk ostonasida deyarli ikki oy turib qoldilar. Smolensk jangi 1941 yil 10 iyuldan 10 sentabrgacha davom etdi. Dushman kuchlarining Moskvaga hujumi to'xtatildi. Bu esa Gitlerning "yashin tezligidagi urush" rejasining inqirozga yuz tutganini bildirar edi.

Shundan keyin Germaniya oliy qo'mondonligi Moskvani bosib olishni rejalashtirgan "Tayfun" operatsiyasini tayyorladi. Moskvaga hujum qilish uchun 75 diviziya ajratildi. Lekin nemislarning Moskvani bosib olish uchun 30 sentabrda va noyabrning o'rtalarida boshlagan hujumlari natijasiz tugadi.

Sovet qo'shinlari mudofaa janglarida dushmanni holdan toydirib, 1941 yil 5 dekabrda qarshi hujumga o'tdilar. Qizil armiyaning shiddatli hujumlari natijasida 1942 yil yanvariga kelib nemislarning Moskva ostonasidagi asosiy qo'shinlari tormor etildi va Moskvadan 100-250 km masofaga uloqtirib tashlandi. 38 ta nemis diviziyasi rus poytaxti ostonalarida yo'q qilindi. Sovet qo'shinlari 11 mingdan ortiq aholi punktini ozod qildi. Nemislar 500 ming kishi, 1300 tank, 2500 to'p, 15 ming avtomashina yo'qotdilar. Moskva ostonasida nemislarning 60 diviziyasi tormor qilindi.

Sovet qo'shinlarining Moskva ostonalaridagi g'alabasi juda katta xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Fashistik Germaniya armiyasi Ikkinchi jahon urushida birinchi marta qattiq mag'lubiyatga uchradi. Bu bilan nemis-fashist qo'shinlarining engilmasligi to'g'risidagi afsona yo'qqa chiqarildi. Germaniyaning SSSRga qarshi "yashin tezligidagi urush" strategiyasi uzil-kesil barbod bo'ldi. Sovet xalqi va Qizil armiya butun Yevropani o'ziga bo'ysundirgan dushmanga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bora olishini butun dunyoga ko'rsatdi. Bu g'alaba Yaponiya va Turkiyaning militaristik guruhlarini SSSRga qarshi urushga kirish rejalaridan voz kechishga majbur qildi.

Ingliz-amerika qo'shinlarining harbiy harakatlari. 2-frontning ochilishi.

### **Tinch okeani havzasida urush harakatlaring boshlanib ketishi.**

Ikkinchi jahon urushi boshlanib ketgach AQSH Angliyaga har tomonlama yordam bera boshladi. SHuning uchun ham Gitlerning AQSHga urush e'lon qilish uchun barcha asoslari bor edi, lekin u AQSHning urushga ochiq qo'shilishidan cho'chib, urush e'lon qilishdan o'zini tiydi. Agar Tinch okeanida urush boshlanmasa, AQSH hukumati Yevropadagi urushga qo'shilishga etarli asos topmasligi mumkin edi. Fashistik blokka qo'shilgan Yaponiya Frantsiyaning zaiflashganidan foydalanib, Hindixitoyga bostirib kirdi. SHu bilan birga Yaponiya Xitoydagi urushni ham davom ettirdi.

Yaponiyaning 1941 yil iyulida Hindixitoyni bosib olishi AQSH siyosatiga o'zgartirish kiritdi. U Yaponiyaning AQSH banklaridagi sarmoyalarini muzlatib, Yaponiyani neft manbalaridan ajratib qo'ydi, ingliz va gollandlar ham shunday ish

tutdilar. Yaponiya Indoneziya nefti va Malayziya kauchugi va qalayisiz urushni davom ettira olmas edi.

1940-1941 yillarda o'tkazilgan Yaponiya-AQSH muzokaralari bu ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qila olmadi. YApon vakillari Vashingtonda muzokaralar olib borayotgan bir paytda 1941 yil 7 dekabrda yaponlar AQSHning Pirl-Xarbordagi (Gavayya orollari) bosh harbiy-dengiz bazasiga havo hujumi uyushtirdilar. Hujum natijasida amerikaliklarning 18 ta katta harbiy kemasi cho'krtirib yuborildi, 188 ta samolyot yo'q qilindi, 128 ta samolyot shikastlandi, 3000 harbiy xizmatchi o'ldirildi.

Yaponiyaning AQSHga hujumi ikkinchi jahon urushidagi harbiy harakatlar maydonini yanada kengaytirdi. YAna bir necha mamlakat rasmiy ravishda urush olib borayotgan guruhlar tarkibiga qo'shildi. AQSH 1941 yil 8 dekabrda Yaponiyaga urush e'lon qildi. 11 dekabrda esa Yaponiyaning ittifoqchilari bo'lgan Italiya va Germaniya AQSHga urush e'lon qildi. Bunga javoban AQSH kongressi ham Germaniya va Italiyaga urush e'lon qildi. Tinch okeanida ham urush boshlandi.

Qo'shma Shtatlar urushga tayyor emas edi. Uning armiyasi hali to'la ta'lim ko'rmagan va yaxshi ta'minlanmagan edi. AQSH sanoati hali harbiy izga ko'chirilmagan edi. Yaponiya AQSH flotining zaifligidan foydalanib, tezda muvaffaqiyat qozondi.

### **Ikkinchi jahon urushidan so'ng xalqaro munosabatlar va diplomatiya.**

Potsdam konferentsiyasida Germaniyaning sobiq ittifoqchi-lari bilan sulh bitimlari loyihasini tayyorlashi lozim bo'lgan Tashqi ishlar vazirligi kengashi tashkil etilgan edi. Bunday bitimlar 1947 yil 9 fevralda Bolgariya, Vengriya, Italiya, Ruminiya, Finlyandiya bilan imzolandi. Parij tinchlik konferentsiyasidayoq (1946 yil iyul - oktabr) SSSR va G'arbiy mamlakatlar o'rtasida urushdan keyingi tinchlikda hal qilinishi lozim bo'lgan muhim masalalar yuzasidan kelishmovchiliklar paydo bo'ldi. Germaniya muammosini hal qilishdagi ziddiyatlarning chuqurlashuvi 1949 yilda Germaniyani turli ijtimoiy tuzumga asoslangan ikki davlatga bo'linib ketishiga olib keldi. Sobiq ittifoqchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yomonlashdi va harbiy-texnik, savdo-iqtisodiy, siyosiy raqobat va qarshi kurash tusini oldi. Bir tomon tashqi siyosiy harakatlarni qabul qilgan bo'lsa, boshqa bir tomon bu harakatlarni o'zlarining manfaati va xavfsizligiga tahdid deya qabul qildi. SHarqiy Evropa mamlakatlarida sotsialistik tartibning qaror topishi, mustamlaka mamlakatlardagi ozodlik harakatlarida SSSRning yordami G'arb mamlakatlari tomonidan SSSRning Evropadagi an'anaviy kuchlar mutanosibligini buzishga intilishi deya baholandi.

**“Sovuq urush”.** Amerika shahri Fultondagi (1946 yil mart) U. CHerchillning nutqi, o'z navbatida, SSSR tomonidan “Sovuq urush”ning ochiq e'lon qilinishi deya qabul qilindi. AQSHning yadro quroli ustidan vaqtinchalik tanho hukmronligi, 1947 yil martida o'rta chiqqan “Trumen doktrinas”, “Marshall rejasi”ning joriy etilishi SSSR va uning ittifoqchilari tomonidan ular xavfsizligiga tahdid qilish va Evropa davlatlari ichki ishlariga aralashishga urinish deb baholandi. SSSRda xalqaro munosabatlar to'g'risidagi tasavvur urushdan keyin dunyoni ikki qarama-qarshi lager-sotsialistik va imperialistik lagerlarga



parchalanib ketishi haqidagi yuzaki fikrlarni tashkil etdi. Bunday qarashlar turli ijtimoiy tuzumga ega bo'lgan davlatlar munosabatlaridagi murosasizlikni oldindan belgilab berdi. 1949 yilda "Marshall rejasi"ni tuzishda ishtirok etgan AQSH va ko'pgina mamlakatlarni qamrab olgan SHimoliy Atlantika shartnomasi tashkiloti (NATO) tuzildi. 50 – yillarda blok strategiyasi Osiyo va Tinch okeani havzasida keng yoyildi. ANZYUS, SEATO, SENTO singari guruhlar shakllandi. G'arbning bunday siyosatiga javoban SSSR, Markaziy va Janubiy-SHarqiy Evropa mamlakatlari 1955 yil mayda Varshavada "Do'stlik, birdamlik va o'zaro yordam to'g'risidagi shartnoma"ni imzoladilar. SHu tariqa sotsialistik mamlakatlar ittifoqi shakllantirildi. 60-yillar boshida buyuk mamlakatlarning harbiy-siyosiy ittifoqlariga qo'shilmaslik harakatlari paydo bo'ldi. Qo'shilmaslik harakatlariga 100 dan ortiq davlatlar qo'shildi. Bu harakat dunyo siyosatining asosiy omiliga aylandi. Harbiy-siyosiy guruhlarining shakllanishi xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Urushdan keyin sodir bo'lgan barcha yirik regional ziddiyatlarda ikki murosasiz ittifoq manfaatlarining kurashi aks etdi. Xalqaro munosabatlarni "zaharlagan" "Sovuq urush" 80-yillarning ikkinchi yarmigacha davom etdi. G'arb va SHarq o'rtasidagi munosabatlar keskin holat kasb etdi. Ikki ittifoqning qarama-qarshiligi ayrim hollarda insoniyatni yadro urushi yoqasiga etaklagan xavfli xalqaro tanglikka olib boruvchi chegaragacha borib etgan edi. Turli ittifoqqa mansub davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarning yaxshilanishiga, qurollanish poygasini qisqartirish bo'yicha ikki tomonlama shartnoma va bitimlarni imzolanishiga olib kelgan, keskinlik pasaygan davrlar ham bo'ldi (70-yillar). Biroq ikki ittifoq boshqaruvining o'ylanmay qilgan harakatlari natijasida munosabatlar yana buzildi (70-yillarning ikkinchi yarmi va 80-yillarning birinchi yarmi) va dunyo navbatdagi xalqaro holat keskinlashishining kuchayishiga guvoh bo'ldi.

**80-90-yillardagi xalqaro munosabatlar.** Xalqaro munosabatlar tabiatidagi tub burilishlar 80-yillarning ikkinchi yarmi – 90-yillar boshida ro'y berdi. SSSR hukumati tepasiga yangi rahbarlarning kelishi Sovet tashqi siyosatini "yangicha fikrlash" tamoyillari asosida keskin o'zgartirishga yo'l ochib berdi. Xavfsizlik ko'p narsani o'z ichiga olishi va avvalo siyosiy vositalar bilan ta'minlanishi lozim deya e'tirof etildi. "Umumevropa uyi" g'oyasi keng rivojlandi va jamoatchilik tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Evropada xavfsizlik va birdamlik bo'yicha tashkilotning roli sezilarli darajada oshdi. Bu davrga kelib SSSR va AQSH o'rtasidagi o'zaro munosabatlar yaxshilandi. Har ikkala tomon ham bir-biriga dushman sifatida qaramaydigan bo'ldi. Sovet-Amerika aloqalarining yaxshilanishi natijasida yadro va oddiy qurollarni katta miqdorda qisqartirish yuzasidan bir qator muhim shartnoma va kelishuvlar imzolandi. Bir paytning o'zida ko'pgina regional ziddiyatlar va xalqaro muammolarni siyosiy hal etish bo'yicha ham muhim qadamlar tashlandi. 1990 yildagi Germaniyaning birlashuvi Ikkinchi jahon urushi oqibatlariga uzil-kesil yakun yasadi. SSSRning parchalanishi va MDHning shakllanishi, Markaziy va Janubiy-SHarqiy Evropa davlatlarida yangi tartiblarning o'rnatilishi 90-yillar dunyo geosiyosiy holatida katta o'zgarishlarning ro'y berishiga olib keldi. SHu bilan birga xalqaro xarakterdagi yirik muammolar ham ko'rina boshladi: diniy ziddiyatlarning yangi o'choqlari paydo bo'ldi, yadro

qurollarini nazorat qilish va tarqalmasligi to'g'risidagi muammo yangicha keskinlik kasb etdi, ekologik muammolar chuqurlashdi, xalqaro jinoyatchilikning va narkotik moddalarning keng tarqalishi xavf sola boshladi, terrorizm xalqaro hamjamiyatning og'riqli muammolaridan biriga aylandi. Bu borada jahon hamjamiyati kuchlarining birlashuvi va muhim xalqaro muammolarni hal qilish ishida BMT rolini oshirish zaruriyati sezilmoqda.

#### **Адабиётлар:**

1. Анисимов Л.Н., Мазуров В.К. Европа: Проблемы безопасности и сотрудничества. Минск, 1982.
2. Арбатов А.Г. Военно-стратегический паритет и политика США. М., 1984.
3. Белецкий В.Н. За столом переговоров: Обсуждение германских дел на послевоенных международных совещаниях и встречах. М., 1979.
4. Драчёва Н.П. Актуальные проблемы международной безопасности и внешнеэкономических связей стран мира в 80-е гг. М., 1989.
5. История дипломатии. Т.5., в 2-х кн. М., 1974-1979.
6. История международных отношений на Дальнем Востоке, 1945-1977 гг. Хабаровск, 1978.

### **7- Mavzu Mustaqil O'zbekiston xalqaro munosabatlar tizimida.**

#### **Ma'ruza mashg'ulotining ta'lim texnologiyasining modeli**

| <b>O`quv vaqti: 80 minut</b>   | <b>Talaba soni 60 nafar</b>  |
|--|--|
| <b>O`quv mashg`ulotining tuzilishi</b><br><b>Ma'ruza rejasi</b>  | 1. O'zbek diplomatiyasining tarixiy ildizlari.<br>2. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati ning asosiy tamoyillari.<br>3. Mustaqillik yillarida o'zbek diplomatiyasi  |
| <i>O`quv mashg`ulotining maqsadi : Talabalarda O'zbek diplomatiyasining tarixiy ildizlari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati ning asosiy tamoyillari. Mustaqillik yillarida o'zbek diplomatiyasi haqida tushuncha va tasavvur hosil qilish.</i> |  |
| Pedagogik vazifalar:<br>Yangi mavzu bilan tanishtirish, mavzuga oid ilmiy atamalarni ochib berish, asosiy maslalar bo`yicha tushunchalarni shakllantirish.   | O`quv faoliyatining natijalari:<br>Talabalar O'zbek diplomatiyasining tarixiy ildizlari. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosati ning asosiy tamoyillari.<br>Mustaqillik yillarida o'zbek diplomatiyasi haqida tasavvurga ega bo`ladilar, asosiy ma'lumotlarni konspektlashtiradilar. |

|   |                          |
|---|--------------------------|
| Ta'lim usullari:                        | “Klaster”, ma’ruza       |
| O`quv faoliyatini tashkil qilish shakli | Ommaviy                  |
| Ta'lim vositalari                       | Slaydlar, marker, jadval |
| Qayta aloqa usullari va vositalari      | Savol javob              |

## 7-Mavzu. Mustaqil O'zbekiston xalqaro munosabatlar tizimida.

### Reja:

1. O'zbek diplomatiyasining tarixiy ildizlari.
2. O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari.
3. Mustaqillik yillarida o'zbek diplomatiyasi.

**O'zbek diplomatiyasining tarixiy ildizlari.** O'zbek davlatchiligi vujudga kelishi bilan diplomatik munosabatlar olib borila boshlangan. To'g'ri, u ma'lum voqealar ta'sirida ayrim hollarda susaygan, ba'zi vaqtlarda muvaffaqiyatsizliklar girdobiga duch kelgan, lekin hamma vaqt o'z shakl va mazmunida qadimiy turkiy urf-odatlar, Movarounnahrda azaliy turkiy o'troq hamda ko'chmanchi xalqlarning bu sohadagi an'alarini davom qildirgan, uni turli shakl va ko'rinishlarda o'zida aks ettirib kelgan.

Turkiston sarhadlarida bu zaminda vujudga kelgan va faoliyat ko'rsatgan davlatlar hukmdorlari tomonidan amalga oshirilib kelingan diplomatik munosabatlar qadim zamonlardan boshlaboq «Elchilik aloqalari» deb yuritilib kelingan. Bu tushuncha uzoq o'tmishga egadir.

Aslida u «El», ya'ni xalq, qabila, jamoa so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «Ellanmoq» – yarashmoq, do'stlashmoq, moyil bo'lmoq, «El turmoq»- tinch, osoyishta, do'stona yashamoq, «El bo'lmoq»-sadoqatli bo'lmoq kabi tushunchalarni anglatadi. Favqulodda elchi-«Elchiyi maxsus», «Elchiyi kabir» yoki «buyuk elchi» atamalari bilan yuritilgan bo'lsa, «O'rta elchi» va «Kichik Elchi» atamalari oraliq elchilarga nisbatan ishlatilgan. «Ishur elchi» atamasi esa boshqa mamlakatga bora turib, yo'ldagi mamlakat sarhadlaridan o'tayotganda uning xukmdori tashrif buyurgan elchilarga nisbatan qo'llanilgan. SHuningdek, boshqa yurtlarga yo'llangan vakilga topshirilgan vazifa «Elchilik» deb atalgan, o'zaro elchilar almashinuviga esa «Elchilashmoq» atamasi ishlatilgan. Turkiy davlatlar o'zaro munosabatlarida qadimdan qo'llanilib kelingan «YAlavach» atamasi ham mavjud. Bu iboraning «Elchi» ma'nosida ishlatilib kelinganligi isboti uchun «Muhammad payg'ambar» oning (Olohning) «yalavachi» degan kalimani eslash mumkin.

Demak, diplomatiya tariximiz juda qadim zamonlardanoq turkiy qavmlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish, «Ellar» orasidagi nizolarga barham berish, o'zaro yaxshi munosabatlarni yo'lga qo'yish tarzida vujudga kelgan va u asta-sekin turkiy qavmlarning o'zaro bordi-keldilaridagi eng yaxshi an'analarni o'zida mujassamlashtira borib, izchil qonun- qoidalarga ega bo'lgan diplomatik munosabatlar tarzida, ya'ni «Elchilik munosabatlar»ga aylangan.

O'zbek elchilik munosabatlarining dastlabki tarixiy ildizlari otashparastlik dinining muqaddas kitobi, jahon madaniyatining durdonasi, o'zbek davlatchiligining ilk yozma manbasi «Avesto»da o'zining aksini topgan. Unda diplomatiya munosabatlarining ilk shakllari yuzaga kelganidan guvohlik beruvchi ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

«Avesto»da boshqa ellar bilan muloqot masalalarining asl ma'naviy mohiyatlari-Erk, o'zaro tenglik va vatanparvarlik kabi qadriyatlarga taalluqli tushunchalar o'z ifodasini topgan. Masalan, Zardusht Xat (noma) laridan iborat «Avesto»ning ikkinchi kitobi – «YOsin»ning 14-bashoratida Xudo «Men ezgu fikr(niyat)larni, ezgu so'zlarni va ezgu niyatlarni yoqtiraman» deydi. «Bergan so'zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiqlarda shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni vaqtda to'lash, aldanchilik va xiyonatdan holi bo'lish» iymonlilikning ko'rinishlari sifatida talqin etiladi. Ana shu yaxshi sifatlar kundalik hayotda, boshqa odamlar va qavmlar bilan olib boriladigan munosabatlarda osoyishtalik hamda baxtli xayot kechirish yo'lini ta'minlovchi omil bo'lishi uqtiriladi.

Movarounnahr sarhadlaridagi xalqlar asrlar mobaynida adolatli munosabatlar, vatan himoyasi, uni balo-qazolardan asrash g'oyalarini afsonaviy shoh Afrosiyob nomi bilan bog'liq ko'plab rivoyatlarda rivojlantirib keldilar, bu tushunchalar asrlar mobaynida tobora sayqal topib, tiniqlashib bordi.

Diplomatiyamizning o'ziga xos va umuminsoniy qadriyatlarga monand tamoyillari buyuk turkiy obida - «Qutadg'u bilik» («Saodatga yo'llovchi bilim») asarida, ayniqsa, o'zining har tomonlama tavsifini topgan. Bu asar XI asrda, qoraxoniylar saltanatining g'oyat yuksaklikka ko'tarilgan davrida yaratildi.

«Qutadg'u bilik»da diplomatiya sohasida shunday fikr-mulohazalar bayon etilganki, ularning har biri nafaqat o'z davri, balki hozirgi kun amaliyoti uchun ham beqiyos katta ahamiyatga egadir. SHu bilan birga ko'zga tashlanadigan muhim tomonlardan biri shuki, asarda qadim zamonlardan buyon to muallif yashagan davrgacha, ya'ni XI asrgacha bu sohada yaratilgan va amal qilinib kelingan qadriyatlar ham o'z aksini topgan. Bu esa turkiy (o'zbek) diplomatiyasi tarixining umumdavlatchilik tariximizning bir qismi sifatida uzluksiz davom etganligi va asrlar osha boyib borganligidan dalolat beradi.

YUsuf Xos Hojib o'z asarida xalqlar va davlatlar orasidagi yaxshi munosabatlarni joriy etishda elchilik aloqalarini izchil sur'atda amalga oshirib borish, bu masalaga bo'lgan e'tiborni sira susaytirmaslik, davlatchilik siyosatida katta ahamiyatga molikligini uqtirish bilan birga elchilarni tanlash, ularning shaxsiyatiga nisbatan g'oyat katta mas'uliyat bilan yondashish lozimligini alohida ko'rsatib o'tadi.

O'z kitobining maxsus bobini YUsuf Xos Xojib diplomatiya, ya'ni elchilik masalalariga bag'ishlagan « Ugdulmish eliga elchi qilib yuborishga qanday kishi keragini aytadi» deb nomlagan ana shu bobda muallif elchilik munosabatlarining ma'naviy jihatlarini, bu yo'lda xizmat qiladigan kishilarning qanday xislatlarga ega bo'lishi lozimligini birma-bir chizib beradi. «Tamomi kishilardan sarasi elchi (bo'lishi) kerak, bilimli, zakovatli, juda etuk (bo'lishi) kerak» deydi u. Demak, xukmdorlar ma'lum topshiriq bilan xorijga yo'llaydigan vakildan avvalambor

yuksak, «sara» insoniy xislatlarga ega bo'lish, buning ustiga o'z zamonasining ilm-ma'rifatidan xabardor, zukko shaxs bo'lmog'lik talab etilgan. SHu bilan birga muallif elchilikka belgilangan kishi o'z vatani, davlati va hukmdoriga sadoqatli hamda ishonchli shaxs bo'lishi lozimligiga alohida e'tibor beradi. Zotan, sadoqatli yoki vatanparvar bo'lmagan vakildan har qanday nojo'ya xatti-harakatlarni kutish mumkin. Ayni vaqtda YUsuf Xos Hojib elchilarni «ko'zi to'q» kishilardan tayinlash, ochko'z va mol-dunyoga hirs qo'yganlarni xorijiy aloqa bilan bog'liq ishlarga yaqinlashtirmaslikni maslahat beradi. Uning ta'biricha elchi: «Sadoqatli hamda ko'zi to'q (bo'lishi) kerak, to'g'ri (bo'lishi) kerak».

YUsuf Xos Hojib elchilikka tayinlanadigan kishilar irodali, maishatga berilmagan bo'lishlarini alohida ta'kidlaydi. Bu haqda fikr yuritar ekan u shunday yozadi. «(Elchi) kayfli ichimlik ichmaydigan, o'zini tutgan (bo'lishi) kerak, o'zini tutuvchi kishi qutga quvvat bo'ladi. Bilimli ichimlik ichsa, bilimsiz bo'ladi. Bilimsiz mast bo'lsa, boshqa nima qiladi».

Elchilarga xos xislatlar xaqida so'zlar ekan, muallif hatto uning tashqi ko'rinishi, turqi-tarovatiga ham e'tibor berishi lozimligini ko'rsatadi va bu masalaning g'oyat katta ahamiyatga molikligiga ishora qiladi.

YUsuf Xos Hojib o'z davlatining vakili sifatida o'zga yurtlarga yuborilishiga loyiq topilgan kimsalar ana shu xislatlar bilan bir qatorda dono va shirin so'z notiq bo'lishlari ham kerak deb hisoblaydi.

Umuman olganda, YUsuf Xos Hojib dahosi bilan yuzaga kelgan ushbu qomusiy asarda ana shu tarzda bundan qariyb ming yil oldin turkiy diplomatiyaning o'ziga xos qonun-qoidalari chizib ko'rsatilgan. «Qutadg'u bilik»da tavsiflangan elchilik haqidagi mulohazalar so'nggi asrlardagi o'zbek davlatchiligi diplomatiyasining yanada takomillashuvi uchun ham dasturulamal vazifasini o'tab keldi.

Bu vaqtda davlatchilik masalalariga bag'ishlangan bitiklar ichida XI asrda yozilgan yana bir asar-«Siyosatnoma» ham diqqatga sazovordir. Davlatni boshqarish usullari va sir-asrorlari tavsifidan iborat ushbu asar ilk o'rta asrda Markaziy Osiyoda faoliyat ko'rsatgan qudratli davlatlardan biri-Saljuqiylar hukmronligiga bag'ishlangan.

O'z asarining maxsus bir bobini Nizomulmulk ham elchilik bordi-keldilari, ya'ni davlatning tashqi munosabatlarini tashkil etish masalalariga bag'ishlagan. Bu bob «Elchilar va ularning xizmatlari haqida» deb nomlangan. Muallif elchilik aloqalariga hamma vaqt ahamiyat berish lozimligini, tashqi siyosat har bir davlatning diqqat markazida bo'lishligini alohida ta'kidlaydi. Uning yozishicha, bu sohada erishilgan yutuqlar mamlakat qudratini mustahkamlaydi, hukmdor obro'-e'tiborini yuksaklikka ko'taradi. Yo'l qo'yilgan xatolar esa kutilmagan salbiy oqibatlariga olib keladi. «Hukmdorlar, - deb yozadi Nizomulmulk,- bir-birlariga nisbatan katta hurmatda bo'lib kelganlar, elchilarni e'zozlaganlar, bu ularning martabalari va e'tiborlarining oshishiga imkon yaratgan. Hatto o'zaro dushmanlik zohir bo'lgan paytlarda ham elchilarga nisbatan odatdagi yaxshi muomalada bo'lingan, chunki teskarisi noma'quldir».

Muallif o'z kitobining elchilik munosabatlariga bag'ishlangan ushbu bobida shu masalaga oid juda ko'p tafsilotlarni, hatto xorijdan kelgan elchilarni qabul

qilganida o'zi yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarni va uning oqibatlarini tavsiflab, hukmdorlarga umuman bu soha xizmatiga taalluqli barcha vazifadorlarga tashqi aloqalar bilan bog'liq xar bir voqeaga g'oyat ehtiyotkorlik va sinchkovlik bilan yondashish lozimligini uqtiradi. SHu bilan birga u xorijiy davlatlarga elchi sifatida yuborilishga mo'ljallangan kishilar qanday xususiyatlarga ega bo'lishini ham birma-bir ko'rsatishga harakat qiladi. «Elchilikka loyiq ko'rilgan kimsa,-deb yozadi muallif,- davlatpanoh xizmatidagilardan tanlamog'i lozim. U davrada bo'shang va tortinchoq bo'lmasligi, ammo haddan ziyod sergap ham bo'lmasligi kerak. Ayni paytda u ko'p sayohat qilgan, har bir ilm sohasidan ma'lum darajada xabardor, xotira quvvati kuchli, ehtiyotkor, o'z qadrini biluvchi va ko'rkam ko'rinishli kishi bo'lmog'i lozim». Elchilik aloqalariga bag'ishlangan bobni muallif quyidagi so'zlar bilan yakunlaydi: «Elchi hukmdorning fe'l-atvori va aql -zakovatini o'zida aks ettiradigan shaxsdir».

SHuningdek, diplomatiyaga oid masalalar saljuqiylar imperiyasidan ajralib chiqqan Xorazmshohlar-anushteginlar (1097-1231) saltanatiga bag'ishlangan qator tarixiy manbalarda ham u yoki bu tarzda o'z ifodasini topgan. Masalan, shunday asarlardan biri-SHihobiddin Muhammad an-Nasaviyning «Sulton Jaloliddin Manguberdining hayoti» kitobida bir qancha ibratli lavhalar keltirilganki, ular XIII asr birinchi yarmida g'oyat murakkab tarixiy sharoitlarda diplomatiyamiz tarixida namayon bo'lgan nodir va ibratli voqeliklar haqida tasavvur beradi. Mo'ng'illar istilosi tufayli tarix sahnasidan tushib ketgan ulkan davlat- Xorazmshohlar imperiyasining so'nggi sultoni Jaloliddin Manguberdining kotibi tomonidan bitilgan ushbu kitobida umuman Markaziy Osiyodagi o'sha davr davlatlararo munosabatlarining ko'pgina qirralari g'oyat katta mohirlik bilan tasvirlangan.

Undan keyingi shoh va xonlar tomonidan bu mavzuda bitilgan qator asarlar (masalan, mashhur «Bobirnom», «Tarixi Rashidiy», «Xumoyunnoma» kabi) shu buyuk daho kitobining bevosita ta'siri ostida paydo bo'lganlar. Ammo, shuni ham ta'kidlash joizki, «Tuzuki Temuriy»ning o'zida ko'p jihatdan qadimiy turkiy bitiklarda, masalan, «Qutadg'u bilik»da bayon etilgan davlatni idora qilish usullari, do'stu dushman bilan olib boriladigan munosabatlar mezonlari, oqilu fozillarga tayanib ish ko'rish zaruriyati kabi fikr-mulohazalarga tayanilganligi va ular yanada takomillashtirilganligi ko'zga tashlanadi. Demak, davlatchiligimiz sohasiga oid qadimiy bitiklarda o'z aksini topgan masalalar asrlar osha yanada sayqallashib borgan, ular ma'lum sharoit va zamon talablariga moslashtirilgan holda rivojlantirib kelingan.

Keyingi davrlarda bu sohada yaratilgan asarlardan biri Xoja Samandar Termiziyning «Dastur-ul-muluk» asari bo'lib, u XVII asrdagi Buxoro hukmdori Subxonquli Muhammad Bahodirxonga (1645-1680) bag'ishlangan. Muallif uni «Dastur-ul muluk» – «Podshohlarga qo'llanma» deb nomlagan. O'z asarida elchilik masalalariga alohida e'tibor bergan adibning o'zi bevosita diplomatik amaliyot bilan ham shug'ullangan.

Xoja Samandar tashqi munosabatlarni yaxshilashda, boshqa mamlakatlar bilan aloqalar darajasining zamirida elchilikning g'oyat katta, ayrim hollarda hal qiluvchi ahamiyatga molikligini alohida ta'kidlaydi. SHuning uchun ham elchining dastavval o'z vatanining sadoqatli farzandi, ya'ni vatanparvar bo'lishi, o'z

hukmdori va mamlakatining shon-shavkati uchun jonini fido etishga hamisha tayyor turishi lozimligini uqtirib o'tadi. «Azizim,-deb yozadi u,- elchi ikki masalada nihoyat hushyor bo'lishi zarur. U o'z podshohiga sodiqligini ifodalash uchun mamlakatning nomusi, shon-shuhratini, saltanatining ulug'vorligini ehtiyot qilishi, shuning bilan birga, dushman bilan bo'lgan munosabatida uning makr-hiylasidan hamisha ogoh va hushyor bo'lishi lozim».

«Dastur-ul muluk»da ham, xuddi «Qutadg'u bilik»da bo'lganidek, elchilikka yuborilayotgan shaxsning aqli raso, tili, ya'ni nutqi ravon va go'zal bo'lishiga, u ochiq yuzli va yoqimli xulq-atvor soxibi bo'lmoqligiga alohida e'tibor beriladi. «Azizim, elchi o'tkir, yaltiroq shamshirga monand tildan chaqqonlik va mohirlik bilan foydalanishi lozim,-deb xitob qiladi Xoja Samandar.- Ammo, uning ochiq yuzli, go'zal muomalasi biron-bir murosaga kelishi yoki sulh tuzish paytida muloyim yoqimli nutqidan taralib so'z javharlaridan bilinib tursin. Agar u o'z nutqining avvalida dag'al, qo'rs, keskin so'zlar borligini sezsa, bunday so'zlarni yumshoqlik qaychisi bilan kesib tashlashi lozim».

Ayni vaqtda bu asarda har bir mamlakat va el bilan bo'lgan munosabatlar darajasini belgilaydigan omillarni, bu yo'ldagi maqsad va vazifalarni aniq rejalashtirish va har vaqt bu joylarga yuboriladigan elchilarga ana shu masalalarni atroflicha tushuntirish, ya'ni elchini unga yuklatilgan vazifadan har tomonlama xabardor etishga katta e'tibor berish lozimligi ta'kidlanadi. Darhaqiqat, o'z vakolati darajasi va zimmasiga yuklatilgan vazifadan yaxshi ogoh bo'lmagan elchilik natijasidan qutlug' mujda kutib bo'lmaydi. «Azizim,-deya hukmdorga murojaat qiladi Xoja Samandar,- elchini biror joyga jo'natishda nihoyat katta e'tibor va ahamiyat bergin, unga safar mohiyati va mazmunini chuqur tushuntir. CHunki elchi podshohning tilidir».

Xoja Samandarning elchilik va elchilar haqidagi g'oyat teran mulohazalaridan yana biri shuki, muallif hukmdorlarni tarixiy o'tmishda diplomatiya sohasida yuz bergan, xatolarni takrorlashdan yiroq bo'lish, elchilar tanlashda g'oyat ehtiyotkorlik bilan ish ko'rish, bu ishga belgilangan shaxslar bilan o'zi o'rtasidagi munosabatlar darajasiga alohida e'tibor qaratish, ularning sadoqatini sinab ko'rish kabi qator masalalarga har vaqt katta e'tibor berish lozimligiga qaratishga harakat qiladi. U diplomatiya tarixi tajribasidan, ehtimol mo'ng'il istilosi davridagi voqealardan, kelib chiqqan holda bu masalada quyidagilarni ta'kidlaydi: «Azizim, to'rt toifa odamni elchi sifatida yubormaslik tajribada isbotlangan. Birinchisi-podshohdan jafo ko'rgan, ikkinchisi-mol-mulki, hurmat-izzati podshoh g'azabi shamoli bilan sovurilgan, uchinchisi-o'z amalidan haydalgan, to'rtinchisi-podshohning zarari hisobidan o'z manfaatini ko'zlagan, ya'ni davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'ygan kishilarni davlat elchilari qilib yuborish aqlan uzoqdir. Zero, tajribadan shu narsa ma'lumki, zebu-ziyatdan, obro'-e'tiboridan judo bo'lgan odamning qalbiga alam-iztirob tikanagi qadalgan bo'ladi. SHu bois bunday kishi dushmanning kuch-quvvati va shavkatini o'z davlatining kuch-quvvatiga nisbatan ustun, ortiq deb hisoblab, shunday bir paytda fursat topib, qalbida yashirinib yotgan adovatni yuzaga chiqarib, podshohga xiyonat qilish yo'liga kirib, unga qarshi fitna uyushtirishi mumkin».

Bundan keyingi yillarda bitilgan turli tarzdagi qator tarixiy asarlarda ham yurtimiz elchilik munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, elchilarga topshirilgan vazifalarning bajarilish mezonlari, elchilarning shaxsiy xususiyatlarining mamlakatlararo munosabatlarga ko'rsatgan ta'siri kabi juda ko'plab masalalar bayoniga duch kelamiz. Ularning asosiy qismi bu sohaga oid ayrim voqea-hodisalarning tafsiloti tarzida berilgan bo'lsa-da, ammo ayrim holning har bir zamirida yuqorida zikr qilingan nazariy pandlarga tayanilganligi sezilib turadi. Masalan, buxorolik Salimiy o'zining «Kashkuli Salimiy» kitobida amir Nasrullo ( u 1827 yilda taxtga o'tirgan) davrida elchilikka tayinlangan ikki shaxsning bir-biridan farqini, ulardan birisi o'zining cheklanganligi va so'zga usta bo'lmaganligi tufayli Eron va Buxoro o'rtasida sovuqlik tushirishi mumkin bo'lgan holatga tushganligini, ikkinchisi esa zukkoligi tufayli bunday mushkul ahvoldan juda ustalik bilan chiqib ketganligini hikoya qiladi.

Umuman, Turkiston sarhadlaridagi davlatlar o'z elchilik munosabatlarida har vaqt yuqorida ta'kidlangan asosiy qonun-qoidalarga rioya qilib kelganlar. Bunday voqealarga g'oyatda boy o'tmishimizdan ko'plab misollar keltirish mumkin. Buni shundan ham bilsa bo'ladiki, bu zamindan boshqa mamlakatlarga yuborilgan elchilar, asosan o'z yurtlariga o'ta sodiq, sotqinlik nimaligini bilmaydigan, lozim bo'lganda o'z vatani uchun jonini fido qilishga hamisha tayyor turgan shaxslar bo'lgan. Ko'pgina xollarda bu erdan yuborilgan elchilar o'z vazifalarini ado eta turib, hatto xalok ham bo'lganlar.

SHuni ham aytish kerakki, hukmdorlar elchilik ishiga o'z a'yonlari ichida iloji boricha, eng zukko va obro'li zotlarni jalb etar ekanlar, ularni faoliyatiga bu g'oyat mas'uliyatli vazifani qaydarajada ado etishlariga qarab baho berilgan. Agar elchilikning natijasi maqsadga muvofiq tarzda yakunlansa, unda bunday elchilar o'z diplomatik faoliyatlarini davom ettiraverganlar, aks holda ularni bu sohadagi xizmat vazifasi bir martalik safar bilan cheklanib qolavergan. Ko'lyozmalarda, ayniqsa Xiva solnomalarida bu haqda juda ko'p ma'lumotlar mavjud. Ularga tayangan holda shu xulosaga kelish mumkinki, Turkiston davlatchiligi tarixida ko'pgina hollarda davlat devonida hozirgi tushuncha bilan aytilganda, elchilik bilan shug'ullanuvchi maxsus va doimiy diplomatik korpuslar vujudga kelgan. Ular o'z davri taqozosiga ko'ra nainki oylar, balki yillarga cho'zilgan safarlarga birin-ketin ishtirok etib, umrlarini elchilik ishiga, o'z vatani bilan xorijiy mamlakatlar o'rtasida yaxshi aloqalar o'rnatishdek ezgu ishga baxshida etganlar. Elchilik munosabatlarini joriy etishdagi bu tamoyil ham Turkistonda qadim davrlardan tortib to Rossiya bosqiniga qadar, so'nggi o'zbek xonliklari o'z mustaqilliklarini yo'qotgan vaqtgacha davom etib kelgan.

YUrtimiz tarixida faoliyat ko'rsatgan davlatlar diplomatiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri uning boshqa xalqlar, mamlakatlar va ularning hukmdorlariga nisbatan g'oyat hurmat va e'tibor bilan yondashishida o'z ifodasini topgan. Bu hol bizgacha etib kelgan elchilik yozishmalari mazmunidan shundoq ko'rinib turibdi.

O'zRFA SHarqshunoslik instituti qo'lyozmalar majmuasida ko'plab diplomatiya tarixiga oid hujjatlar jamlangan maktublar to'plamlari mavjud. Ular turli tarixiy davrlarga mansub bo'lib, Turkiston hukmdorlarining tashqi dunyo bilan yuritib kelgan aloqalarini o'zida mujassam etgan.



Mazkur qo'lyozmalarda, asosan, «ulug' ajdodlardan meros qolgan» yakjihatlik munosabatlarini davom ettirib, o'zaro elchilar, maktublar va sovg'alar yuborib turish istagi, podshohlarning taxtga o'tirishi yoki turli jangu jadallarda erishgan yutuqlari bilan qutlov va tabriklash, bir-birining ahvolidan xabardor bo'lish yoxud biror maqsadda kuchlarni birlashtirib tadbir ko'rish kabi istaklar ifoda etiladi, ya'ni diplomatik aloqalarning turli qirralari yoritiladi.

Turkiston sarzaminida faoliyat ko'rsatib o'tgan davlatlar xukmdorlarining bizgacha etib kelgan barcha diplomatik yozishmalariga xos dastlabki narsa shuki, ularning hammasi yuborilgan el yoki mamlakatlarning ulug'lari va hukm-farmonlariga nisbatan g'oyat katta xurmat bilan bitilgan. Aslida elchilar orqali yuborilgan bu maktublarni qo'shni yoki uzoq davlatlar, ularning xalqi va hukmdori sha'niga qaratilgan maqtov hamda ezgu tilaklardan iborat bir payg'om-hujjat shaklida baholash mumkin.

Ushbu diplomatik uslub tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar yoki anglashilmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etishga, ko'pchilik hollarda oradagi gina-quduratlarga barham berishga, umuman, yaxshi munosabatlar yo'lida paydo bo'lgan turli g'ovlarni bartaraf etishga hamisha yo'l ochib kelgan.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, qadimdan o'rnashib qolgan va avloddan-avlodga o'tib kelgan elchilik yozishmalaridagi ushbu tartib-qoida hatto ultimatum tarzida yozilgan maktublarda ham buzilmaganligini ko'ramiz. Ana shu tarzidagi xatlarda ham hukmdorlar raqib shon-shavkatini tuproq bilan qorishtiruvchi, uni erga uruvchi va tahqirlovchi iboralarni ishlatishdan o'zlarini tiyib kelganlar. Masalan, Ibn Arabshoh Sulton Boyazidning Amir Temurga yozgan so'nggi maktubida juda ko'p nojo'ya va hakoratli iboralar ishlatilganligini aytib, bunday gap-so'zlar Turkistonli hukmdorlarga xos emasligini va ular, jumladan, Amir Temur bunday xatti-harakatlardan hamisha yuqori turishlarini alohida qayd etadi. Buni shu bilan isbotlasa bo'ladiki, Amir Temur Boyazid Yildirimning eslatilgan maktubiga g'oyat bosiqlik va o'ziga xos ulug'vorlik bilan javob qaytaradi.

Elchilik yozishmalarida odatda elchi yuborishdan ko'zlangan maqsad atroflicha bayon etilmagan. Ularda faqat elchining yuborilayotganligi, uning naslu-nasabi va ismi-sharifi qayd etilgan, xolos. Bunday qaraganda, xatlar odatda elchining vakolatini tasdiqlovchi ishonch yorlig'i vazifasini o'tagan ko'rinadi. Ko'pchilik hollarda maktub oxirida «qolgan gaplarni elchining o'zidan eshitursiz» deyilganlar qayd etilgan. Bu narsa, birinchidan, uzoq davom etgan safar vaqtida ikki o'rtadagi munosabatlarga daxldor masalalar tafsilotidan uchinchi tarafning, ba'zan esa raqib tomonning ogoh bo'lib qolmasligini hisobga olinib qo'llangan uslub bo'lsa, ikkinchidan yuborilgan elchining vakolati naqadar yuksak ekanligi va u o'z hukmdori nomidan har qanday mushkul masala yuzasidan muzokaralar yuritishga haqli ekanligiga ham ishora bo'lgan.

**Mustaqillik yillarida o'zbek diplomatiyasi.** Sobiq Ittifoq tarqalib, «SHo'ro imperiyasi» va «Jahon sotsializm tizimi» deb atalmish tizimi tanazzulga yuz tutganidan keyin dunyo siyosiy xaritasida erkin rivojlanish yo'lini tanlagan yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi. Ular sirasiga jahon hamjamiyatining haqli ravishda tarkibiy qismiga aylangan suveren O'zbekiston ham kiradi.

Mustaqillik yillari davomida mamlakatimiz o'zining siyosiy, iqtisodiy, boy madaniy-ma'naviy salohiyatiga davlat etakchisining shahs sifatidagi nufuz-e'tiboriga tayangan holda xalqaro siyosatning mustaqil va obro'li omiliga aylandi. Bunda Prezident I.A.Karimovning mustaqillik- «eng avvalo, o'z erki hamda milliy manfaatlar yo'lida o'z hayotini tashkil qilish, o'z kelajagini o'z qo'li bilan qurish huquqi» degan kontseptual g'oyasini izchillik bilan hayotga tadbiiq etishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Albatta 15 yil tarix uchun juda qisqa muddat. Bu muddat boshimizdan kechirayotgan zamonni mufassal tavsiflashga imkon bermaydi. Biroq mas'uliyatli, keskin o'zgarishlar zamonida, ya'ni eski qoliplardan voz kechish jamiyatning ijtimoiy siyosiy va iqtisodiy xayotini tubdan yangilash zarurati butun bo'y basti bilan namoyon bo'lib turgan bir paytda bu 15 yil mamlakatimiz bosib o'tgan yo'lga nazar tashlash hamda rivojlanishning istiqboldagi uzoq yillarga mo'ljallangan hayotiy muhim ustuvorliklari va vazifalarini belgilab olish uchun etarli muddatdir.

1991 yilning 31 avgusti – O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi rasman e'lon qilingan kun mamlakatimiz uchun yangi tarixiy davr – buyuk kelajakka chog'langan erkin, suveren rivojlanish davri boshlangan qutlug' sana bo'lib qoldi. O'zbekistonning tashqi dunyodan asriy to'sib qo'yilganiga barham berildi. O'zbekistonning qudratli salohiyatini butun dunyo yaqqol ko'rdi hamda uning cheksiz imkoniyatlari va istiqboliga baho berdi.

Bugun bosib o'tilgan 15 yillik yo'l sarhisob qilinar ekan, faol tashqi siyosat yuritish boshlanishi bilan xalqaro soha o'ziga xosliklari va qonuniyatlari bilan O'zbekiston uchun davlat va jamiyat faoliyatining mustaqil sohasi bo'lib qolgani yaqqol ko'rinadi. O'zbekiston, albatta, xalqaro huqukning teng xuquqli a'zosi bo'lishi, o'z davlatchiligini qurishi, mustaqillikni mustahkamlashi, murakkab ziddiyatlarga boy bo'lgan dunyoda munosib o'rnini egallashi lozim edi. Hayotning o'zi mamlakat va uning diplomatiyasi oldiga ana shunday vazifalarni qo'ygan edi.

Tashqi siyosati ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti asosidagi ochiq demokratik jamiyat qurish uchun qulay shart - sharoitlar yaratishni ta'minlash, Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyoda barqarorlik, taraqqiyot va gullab - yashnash ustivor bo'lishiga qaratilgan O'zbekiston darhol o'zini tinchliksevar davlat sifatida namoyon qildi.

O'sha kezlari faqat birgina deklaratsiya va bayonotlar etarli emasligi, aniq harakatlar, jamiyat hayotining barcha jabhalarida tubdan o'zgarishlarni amalga oshirish lozim ekani ham tushunarli edi.

YAqin o'tmishda sho'rolar zamonida totalitar tizim O'zbekistonga yarim mustamlaka hudud va xom-ashyo bazasi sifatida qarar, o'zbek xalqining milliy qadriyatlarini ochiqdan-ochiq behurmat qilar, uning qadr-qimmatini, noyob tarixi, boy madaniyati va tilini, an'ana va urf-odatlarini oyoqosti qilar edi.

O'sha yillari O'zbekiston emin - erkin va to'g'ridan-to'g'ri xalqaro sahnaga chiqish imkoniga ega emasdi. Uning diplomat kadrlari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassisarlari yo'q edi. 10 nafardan ziyod xodimi bo'lgan respublika tashqi ishlar vazirligi faqatgina protokol va vakillik yumushlarini

bajazar, asosan, vazirlik xodimlari ishi bor - yo'g'i sobiq ittifoqning chet ellik mehmonlarini O'zbekistonning diqqatga sazovor tarixiy-madaniy joylariga olib borib tanishtirishdan iborat edi xolos.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mustaqil ravishda o'z tashqi siyosatini yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi. Atigi 15 yil ichida respublikada milliy manfaatlarga javob beradigan, mamlakatning jahon hamjamiyatida o'z o'rni va obro'-e'tiborini ta'min etuvchi izchil va aniq maqsadga yo'naltirilgan mustaqil tashqi siyosat tizimini tashkil etish va shakllantirishga erishildi.

O'zbekistonning tashqi siyosat yo'li – eng avvalo, davlat va jamiyatdagi hayotiy o'ta muhim vazifalarni ta'minlashga qaratilgan yo'ldir. Ular mustahkam xavfsizlik, izchillik va baquvvat iqtisodiy taraqqiyot uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, aholi turmush darajasini ko'tarish, konstitutsiyaviy tizim asoslarini mustahkamlash, fuqarolar ahilligi, fuqarolar erkinligi va haq-xuquqlarini muhofaza qilishdan iboratdir. O'zbekistonning mustaqilligi, o'zbek xalqining o'z mamlakati kelajagini o'z qo'li bilan yaratishga bo'lgan intilishi jahon hamjamiyati, xalqaro jamoatchilik tomonidan to'la qo'llab-quvvatlandi. Respublikada olib borilayotgan o'zgarish va islohotlar yo'li O'zbekiston bilan faol xamkorlik qilayotgan nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlar xalqaro biznes va moliya tizimlari tomonidan qo'llab –quvvatlanayotir.

Mamlakat suverenligini 165 davlat tan oldi, bu davlatlarning

120 tasi bilan diplomatiya munosabatlari o'rnatildi. Toshkentda 43 davlat xamda 20 yirik xalqaro tashkilot missiyalari akkreditatsiya qilingan. O'z navbatida O'zbekiston xorijiy mamlakatlarda o'zining 39 ta vakolatxonasini ochdi.

1992 yilning 2 marti respublikamiz tashqi siyosiy va ijtimoiy hayoti tarixida unutilmas sana bo'lib qoldi: - O'zbekiston birlashgan Millatlar tashkiloti a'zoliciga qabul qilindi. Mamlakatimiz, shuningdek, Xelsinki jarayoniga qo'shilib, Evropa Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotining teng huquqli ishtirokchisiga aylandi.

Turli mamlakatlar bilan eng yuqori davlat darajasida hamkorlik qilishni mustahkamlash O'zbekistonga teng huquqli sheriklik va o'zaro hurmat tamoyillari asosida dunyo xo'jalik aloqalari tizimiga kirish, faol xalqaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy hamkorlikni ro'yobga chiqarish imkonini berdi.

Bugun O'zbekiston 40 dan ziyod xalqaro tashkilotlarda ishtirok etmoqda - bir paytning o'zida qariyb 500 xalqaro siyosat sub'ektlari, shuningdek, etakchi xalqaro iqtisodiy va moliyaviy birlashmalar bilan, eng avvalo, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo va Tinch okeani mintaqasi uchun iqtisodiy va ijtimoiy komissiyasi, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Atom energiyasi nazorati bo'yicha xalqaro agentlik va boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qilmoqda.

Xalqaro tashkilotlar ko'magi bilan O'zbekiston umumbashariy va mintaqaviy darajalarda o'zining fundamental manfaatlarini himoya qilayotir, EXHT kengligida, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik tizimini shakllantirishda ishtirok etmoqda, jahon iqtisodiyotiga yo'l olmoqda, o'zining ko'xna tsivilizatsiyasi madaniy boyliklarini baham ko'rmoqda, tashqi siyosiy

muomalada tajriba orttirmoqda. Bir so'z bilan aytganda, barcha o'lchov va shakllarda bebaho xalqaro tajribalar bilan boyib bormoqda.

O'tgan 15 yil davomida O'zbekiston tashqi siyosatidagi asosiy vazifa mamlakatning jahonda bloklar qarama-qarshiligi tugaganidan keyin yuzaga kelgan xalqaro munosabatlar tizimiga moslashuvi bo'ldi. Bu jarayon ob'ektiv ravishdagi o'zaro bir- biriga bog'liq bo'lgan uch yo'nalishda kechdi. Birinchidan, ilgari zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimidan xabardor bo'lmagan O'zbekiston o'z tashqi siyosiy tamoyillarini maqsadlari, vazifalari hamda ustuvorliklarni ishlab chiqdi va ularni ro'yobga chiqarmoqda. Ikkinchidan, tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning milliy mexanizmi tashkil qilindi. Uchinchidan, zamonaviy dunyodagi mavjud realliklarni hisobga olgan holda O'zbekiston xalqaro munosabatlarning teng huquqli sub'ekti sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini egalladi.

Eng muhimi shundaki, mustaqil taraqqiyot yo'llari davomida mamlakatning o'z, ya'ni yangi o'zbek davlatchiligining fundamental tamoyillariga asoslangan o'ziga xos tashqi siyosat uslubining oyoqqa turishi yuz ko'rsatdi. Tashabbusga doimiy intilish, qadr-qimmatni yuksak darajada xis qilish, amaliyotchilik, puxtalik, oldindan ko'ra bilish, izchillik bu uslubga xosdir.

Konstitutsiyaga hamda «Tashqi siyosiy faoliyatning asosiy tamoyillari to'g'risida», «Xalqaro shartnomalar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa huquqiy hujjatlarga izchil rioya qilingan holda mamlakatning tashqi siyosiy va xalqaro miqyosdagi faoliyati BMT tamoyillari va maqsadlariga, shuningdek, O'zbekistonning xalqaro shartnoma va bitimlaridan kelib chiqadigan majburiyatlariga asoslanadi.

O'zining tashqi aloqalarini tashkil etish va rivojlantirish asosida O'zbekiston mustaqillikning dastlabki kunlaridayoq ishlab chiqqan quyidagi eng asosiy tamoyillarga qat'iy amal qiladi:

- o'z milliy davlat manfaatlarini ustun qo'ygan xolda o'zaro manfaatlarini har tomonlama hisobga olish;
- teng huquqlilik va o'zaro naf ko'rish, boshqa mamlakatlar ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlaridan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, tinchlik, barqarorlik va havfsizlikni saqlash;
- xalqaro huquq me'yorlarining davlat ichidagi me'yorlarga nisbatan ustivorligi;
- tashqi aloqalarni ikki tomonlama asosda va ko'p tomonlama qonunlar asosida rivojlantirish.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, - «bugun xalqaro hayot, insoniyat taraqqiyoti shunday bosqichga kirganki, bunda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr, ilg'or texnologiya hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi». Aynan shuning uchun ham O'zbekiston dunyo uchun ochiq, u hamkorlikning barcha sohalarida o'zining tashqi aloqalarini faol va izchil rivojlantirishga intildi, xalqaro tashkilotlar doirasida aloqalarni chuqurlashtirish yo'lini tutadi.

Mamlakatimiz o'z tashqi siyosiy faoliyatini milliy manfaatlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish, respublika tevaragida xavfsizlik hududi yaratilishi, yaxshi qo'shnihilik va hamkorlik bo'lishiga imkon beradigan mustahkam o'zaro manfaatli davlatlararo munosabatlar qurish uchun yo'naltirishga bo'lgan intilishi ana shunday omillar bilan izohlanadi.

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik jo'g'rofiyasi benihoya kengdir. U AQSHdan to Yaponiyagacha, Malaziyadan to Buyuk Britaniyaga qadar bo'lgan hududni qamrab olgan. Va ayni paytda, O'zbekiston chet mamlakatlarda ishtirok etish uchungina bo'ladigan diplomatiya ishtirokiga intilmaydi. O'z-o'zidan ayonki, bu erda tashqi siyosiy faoliyat sohasini toraytirish yohud cheklash haqida so'z borayotgani yo'q. Eng muhimi, tashqi siyosat samarali, aniq, ravshan ifodalangan, boshqacha qilib aytganda, mamlakat ichki rivojlanishining ehtiyoj va vazifalariga mos hamda muvofiq kelishga qodir bo'lishi joizdir.

Qaysikim zamonaviy dunyoda geoiqtisodiyot ro'y-rost afzal ko'rilayotgan ekan, O'zbekistonning eng muhim manfaati milliy iqtisodiy sharoitlar uchun naf keltiradigan dunyo xo'jalik aloqalariga mahkam bog'langanlikni ta'minlash hisoblanadi. O'zbekiston, jumladan, iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarning katta miqdorda oqib kelishidan, yuksak texnologiyalarni rivojlantirish va o'z ilmiy-intelektual salohiyatini ro'yobga chiqarishdan, shuningdek, ikki tomonlama va TRASEKA xalqaro loyihasi, GUUAM, EKO kabi davlatlararo birlashmalar doirasida transport kommunikatsiyasini rivojlantirishdan manfaatdordir.

O'nlab xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik qilib, umumbashariy va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtirok etar ekan, O'zbekiston bir muhim tamoyilga qat'iy rioya qiladi: bir mamlakat bilan yaqinlashish boshqasi bilan uzoqlashish evaziga bo'lmasligi kerak. O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyasi- bu keng qamrovli va ko'ptarmoqli jarayondir.

O'zbekiston tashqi siyosatida muhim ustuvorlik, tabiiyki, qo'shnilar bilan, avvalo, mintaqadagi davlatlar bilan o'zaro aloqalar va har tomonlama munosabatlarni butun choralari bilan rivojlantirish va mustahkamlashdir. O'zbekiston ular bilan qadim-qadimdan qon-qardosh, ularni chuqur tarixiy, ma'naviy, madaniy yaqinlik, diniy birlik, Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy, Bobur va Toxtagul, Mirzo Ulug'bek va Maxtumquli, Abay va Berdaq, kabi xalqlarimizning boshqa ko'pdan- ko'p buyuk allomalariga beshik bo'lgan umumiy zamin birlashtirib turadi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining Abadiy do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi SHartnomaga asoslangan yaxshi qo'shnihiligi ana shunday mangu qadriyatdir, uni asrab-avaylash, mustahkamlash, rivojlantirish kerak.

O'tgan 15 yillikda bo'lgani singari yaqin va uzoq muddatli istiqbolda ham milliy diplomatiya imkoniyatlari yaxshi qo'shnihilik rishtalarini mustahkamlashga, mintaqa davlatlari bilan hamkorlikni davr talablariga muvofiq tarzda yangi mazmun bilan boyitishga yo'naltirilgan.

Dunyoning ko'pgina etakchi mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlik munosabatlari izchil va barqaror rivojlanmoqda. Jumladan, G'arb, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Janubiy-SHarqiy va Janubiy Osiyo, Evropa Ittifoqining sanoati

rivoj topgan mamlakatlari bilan ham. 1996 yili Florentsiyada O'zbekiston Respublikasi va Evropa Ittifoqi o'rtasida sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning imzolanishi mamlakatimizning EI davlatlari bilan munosabatlaridagi burilish nuqtasi bo'ldi. Mazkur hujjatni imzolash marosimida Evropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar davlat va hukumat rahbarlarining ishtirok etgani ham mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro'-e'tibori yuksakligidan dalolat beradi. YA'ngi mustaqil davlatlar orasida faqat ikki mamlakat O'zbekiston va Rossiya ana shunday sharaftga loyiq topilgan.

Bu hujjat faol sheriklik uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratishga tomonlarning mushtarak intilishlarini namoyish etibgina qolmay, balki O'zbekistonning inson huquqlarini hurmat qilish, fuqaro erkinligi, huquqiy davlat singari umuminsoniy tamoyillarga sodiq bo'lgan demokratik jamiyat qurishdagi muvaffaqiyatlarni tasdiqladi ham.

Respublika tashqi siyosiy faoliyatining boshqa yo'nalishi Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari bilan hamkorlik qilish edi va shunday bo'lib qoladi. MDH amaliy faoliyatida muayyan kamchiliklar mavjud bo'lsa-da, u bugungi kunda 12 ishtirokchi davlatning barchasi ham umumiy axamiyatga molik ko'p tomonlama va ikki tomonlama asosda milliy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun o'z nuqtai nazarini ifoda etishi mumkin bo'lgan tuzilmadir.

Milliy davlat mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng O'zbekiston ruhan, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analari bilan yaqin bo'lgan Osiyo musulmon tsivilizatsiyasi mamlakatlari bilan aloqalar o'rnatish imkoniga ega bo'ldi.

Amur Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abu Mansur Moturidiy, Burhoniddin al-Marg'inoniy, Ahmad al-Farg'oniy singari va jahon tsivilizatsiyasi tarixining zarhal sahifalarida nomi qolgan boshqa vatandosh allomalarimiz hayoti hamda ibratli faoliyatiga bag'ishlangan tadbirlarda mazkur mamlakatlar vakillari- etakchi ijtimoiy - siyosiy, ilmiy va diniy arboblarning faol ishtirok etayotgani musulmon dunyosi bilan munosabatlarimiz yildan yilga mustahkamlanib borayotganini tasdiqlaydi.

I.A.Karimov asarlarining YAqin va O'rta SHarq mamlakatlarida arab tilida nashr etilgani O'zbekistondagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga bo'lgan qiziqishning ortib borayotganidan guvohlik beradi.

O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatidagi markaziy muammolardan biri bu ham global darajada xavfsiz va tinchlikni saqlash sohasidagi xalqaro hamkorlik hisoblanadi. «Tashqi siyosatning asosiy tamoyillari to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, O'zbekiston harbiy-siyosiy bloklarda qatnashmaydi, biroq davlatlararo xavfsizlik tizimlari doirasida yaqindan va o'z ifodasini aniq topgan hamkorlikka intiladi. Mana shuning uchun O'zbekiston tashqi siyosatining muhim vazifalaridan biri o'tgan o'n besh yil mobaynida mintaqa xavfsizligi tizimini shakllantirish bo'lib keldi va shunday bo'lib qoladi. Bu Markaziy Osiyo davlatlari uchun qay darajada zarur bo'lsa, jo'g'rofiya jihatidan keng hududga ega bo'lgan mazkur mintaqaga yondosh bo'lgan mamlakatlar uchun ham shu darajada muhimdir. 2001 yil iyun oyida SHanxay hamkorlik tashkiloti tuzilgani buning aniq dalili bo'ladi. O'zbekiston uning ta'sisshilaridan biri va teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Keyingi yillarda Markaziy Osiyo jinoiy kayfiyatdagi xalqaro narkosindekatlar, turli xil ekstremist kuchlar va terrorchi tashkilotlarining nishoniga aylanib, ayanchli voqealarga to'qnash keldi. Qanday millatga mansubligidan, mafkuraviy va diniy e'tiqodidan qat'iy nazar, terrorchilar, ekstremistlar va narkomafiyani bir narsa birlashtirib turadi- bu ularning o'z quroli bilan qarshi kurashayotgan mamlakatlarda davlat hokimiyatchiligi va ijtimoiy tizimni ishdan chiqarish maqsadida eng xunrez va iflos usullarni qo'llashidir.

Xavfsizlikning ustqurmaviy bo'linmasligi tamoyiliga asoslanib, O'zbekiston Markaziy Osiyoda tinchlikni portlatib yuborishga qodir bo'lgan, umumbashariy barqarorlikka putur etkazadigan transmilliy xavf-xatarni bartaraf etish va ta'sir kuchini kesib tashlash uchun xalqaro tashkilotlar, eng avvalo, BMT, EXHT rolini faollashtirishni yoqlab chiqdi va bundan keyin ham shunday yo'l tutadi.

SHu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning BMT shafe'ligida Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha xalqaro Markaz tuzish, Afg'onistonda tinchlik jarayonlarini faollashtirish, yadro qurolidan xoli bo'lgan Markaziy Osiyo hududini barpo etish, Tojikistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va boshqa ko'pdan - ko'p tashabbus va takliflari birgina maqsadni ko'zlab ilgari surilgan: bu maqsad tinchlikni, barqarorlik, millatlararo totuvlik, mintaqa davlatlari va xalqlari o'rtasida an'anaviy do'stlik hamda o'zaro bir-birini tushunishni ta'minlashdir.

Qo'shni Afg'onistonda yigirma yildan ziyod vaqtdan beri davom etayotgan qarama-qarshilikni bartaraf etish yo'llarini izlash yuzasidan O'zbekiston bildirgan takliflar ahamiyatini qayta baholash mushkul.

Afg'on muammosi nafaqat ushbu mamlakat yoki unga qo'shni davlatlarning, balki butun dunyo hamjamiyatining muammosi bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov o'z chiqishlaridan birida qayd etganidek, «Afg'oniston, ifodali qilib aytganda, nafaqat mintaqa miqyosida, balki butun xalqaro xavfsizlik tizimidagi «bikford ipi»ga aylanib qoldi. Afg'onistondagi vaziyatning murakkab va boshqaruvdan chetdaligi to'g'ridan-to'g'ri xalqaro terrorizm va ekstremizm, giyohvand moddalar va qurol-yarog' singdirib borayotgan islom radikallashuvi jarayonlari bilan bog'liqdir.

Jahon hamjamiyati Afg'onistondan keluvchi xatarlar xavfini butun bo'y-basti bilan ko'rmagan, ularni to'la tushunib etmagan kezlariyoq, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida I.A.Karimov barcha jiddiy jihatlarni ta'kidlagan holda jahon hamjamiyatining a'lohida e'tiborini mazkur muammoga qaratdi. Bosh Assambleyaning 1995 yili bo'lib o'tgan 50-sessiyasida O'zbekiston Prezidenti qator amaliy takliflarni, jumladan, Afg'onistonda bir-biri bilan qarama-qarshi kurashayotgan tomonlarga qurol-yarog' etkazib berishni qat'iy taqiqlash zarurligi taklifini ilgari surdi. 1997 yili I.A.Karimov olti mamlakat, ya'ni Afg'oniston bilan bevosita qo'shni bo'lgan mamlakatlar, shuningdek, AQSH va Rossiya davlatlari ishtirokida muloqot guruhini tuzish tashabbusi bilan chiqdi. Biroz muddat o'tgach bu tashabbus hayotda o'z tasdig'ini topdi:«6+2» guruhi tashkil etildi. O'zbekiston diplomatiyasining yorqin xizmati ifodasi o'laroq, BMT Xavfsizlik Kengashi tomonidan Afg'oniston bo'yicha qator maxsus rezolyutsiyalar qabul qilindi.

Prezident I.A.Karimovning bundan bir necha yil avval BMT minbarlaridan turib Afg'onistonga qurol-yarog' kiritilishiga embargo qo'yish zarurligi to'g'risidagi taklifi dastlab extiyotkorlik bilan qabul qilindi. Biroq «6+2» guruhining faoliyati, O'zbekiston rahbariyatining sabotiligi xalqaro hamjamiyatning mazkur masalaga nisbatan munosabatiga qat'iy ta'sir qildi. 2001 yilning iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi o'zining maxsus rezolyutsiyasida barcha mamlakatlardan Afg'onistonga qurol, o'q-dori, aslaha va harbiy texnika kiritilishiga bevosita yoki bilvosita to'sqinlik ko'rsatishni talab qildi.

O'zbekiston afg'on muammosini harbiy kuch ishlatish yo'li bilan bartaraf etib bo'lmasligi, jafokash Afg'oniston zaminida tinchlik va xotirjamlikka faqat siyosiy vositalar, muloqotlar yo'li bilan erishish mumkinligidan kelib chiqib, o'z munosabatini bildirdi. Afg'on muammosini hal etishning aniq, ravshan, yagona yo'li ushbu mamlakatda tinchlik jarayonini boshlash uchun dunyo hamjamiyatining ko'mak berishidir. O'zbekiston tinch va barqaror Afg'oniston bilan xalqaro huquqning qabul qilingan umumiy me'yor va tamoyillari asosida yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini qurishga tayyordir.

Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash doirasida O'zbekiston tashqi siyosiy faoliyatining muhim yo'nalishi Markaziy Osiyoda va unga qo'shni mintaqalarda ommaviy qirg'in qurollari tarqalmasligi muammosini hal qilish hisoblanadi. Yadroviy xatar alohida xavf soladi.

Qurol-yarog'dan bezgan bizning mintaqamizda yadroviy shantaj va terrorizm imkoniyati ehtimoldan xoli emas. Mana shuning uchun ham mustaqil O'zbekiston diplomatiyasining e'tibori keyingi yillarda Markaziy Osiyodagi besh davlat o'rtasida yadro qurolidan xoli xudud yaratish to'g'risidagi mintaqaviy bitimni tayyorlash va imzrlashga qaratilgandir.

#### **Prezident I.A.Karimov ushbu tashabbusni BMT bosh Assambilyasining 48-sessiyasida ilgari surgan edi.**

O'zbekistonning yadro qurolidan xoli xudud to'g'risidagi tashabbusini qo'llab - quvvatlab BMT Bosh Assambleyasi uchta rezolyutsiya qabul qildi, 2000 yilgi Yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma bo'yicha Obzor konferentsiyasi hujjatlarida "Markaziy Osiyo davlatlari Markaziy Osiyo yadro qurolidan xoli xudud to'g'risidagi shartnoma loyihasini ishlab chiqishgani va bu ma'qullangani oldinga tashlangan ahamiyatli qadam" ekanligi qayd etildi.

Xalkaro terrorizm, diniy ekstremizm va narkobiznesdagi barcha xavf-xatarlarning jahon hamjamiyati tomonidan teran anglanishi mintaqaviy va global darajada xavfsizlikni mustahkamlash bo'yicha birinchi navbatdagi kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlari doirasini belgilab, dunyoviy taraqqiyot kun tartibiga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. 1999 yilda EXXT Istanbul sammitida I.A.Karimov Birlashgan Millatlar Tashkiloti sha'feligida terrorizm bilan kurash bo'yicha Xalqaro markaz tuzishni taklif etdi. 2001 yil iyul oyida MDH ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammitida O'zbekiston Prezidenti narkoagressiyasiga qarshi harakat bo'yicha rejani muxokamaga olib chiqdi.

Bugun O'zbekistondek yosh davlat dunyo tashqi siyosatida etakchi rol o'ynamoqda. Ayniqsa, Markaziy Osiyodagi muammolarni hal qilishda O'zbekistonning o'rni va ahamiyati beqiyos. Bu mintaqada xavfsizlik hamda



hamkorlik masalasi bizning mamlakatimizning ishtirokisiz hal qilinmaydi. SHu boisdan ham turli darajadagi va doiradagi uchrashuvlar, muloqotlar, muzokaralar hamda axborot almashishlardan tashqari telefonda fikr almashuvlar ham bo'lib turibdi. Keyingi paytda Amerika Qo'shma SHatlari hamda Rossiya Prezidentlari, Buyuk Britaniya bosh vaziri g'oyatda muhim xalqaro masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bilan telefonda muloqot qilib fikrlashib oldilar. Bu nafaqat davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro ishonch va hurmat belgisi, bu yosh davlatimizning xalqaro miqyosda oshib borayotgan obro'-e'tiborining ifodasidir, bu O'zbekiston tashqi siyosatda izchillik va qat'iyatlik ko'rsatayotganligining samarasidir, bu o'zbek diplomatiyasining yutug'idir.

Bugun O'zbekiston jahon hamjamiyatida katta kuch va salohiyatga ega bo'lgan hamda dunyo siyosatining yo'nalishini belgilaydigan davlatlar bilan teng huquqli hamkor sifatida mustaxkam aloqalar o'rnatganligining o'zi katta gap. Avvalo shuni aytish kerakki, yosh va hali ancha tajribasiz bo'lishiga qaramasdan o'zbek diplomatiyasi dastlabki kunlardan o'q keng qamrovli izchil faoliyat yuritdi. O'tgan davrni keng mushohada qilish, tashqi siyosatning yo'nalishini kuzatib borish va amaliy natijalarini ilg'ab olish, dunyo siyosati taniqli arboblarning bizga nisbatan fikrini o'rganish, jahon ommaviy axborot vositalarida bosilayotgan sharhlar bilan mulohazali tarzda chuqurroq tanishish va nihoyat, ana shular asosida fikrni charxlab, aniq xulosa chiqarish natijasidagina keng dunyoga dallollar va vositachilarsiz chiqqanligimizning boisini, mazmun-moxiyatini anglab etamiz.

O'zbekistonni e'tirof etish yo'lidagi sa'y-harakatlar tobora kuchaytirib yuborildi. O'zbekiston BMT Nizomini bajarishga va'da berdi, tashqi siyosatda o'zining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqqanligini ma'lum qildi. Prezident Islom Karimov er yuzida tinch, odilona xalqaro tartibni barpo etish majburiyatini olgan davlatlar hamdo'stligiga qo'shilish uchun Xelsinkiya jo'nab ketdi va u erda Evropada Xavfsizlik va Hamkorlik Kengashining yakunlovchi aktiga imzo chekdi. Bu yosh O'zbekiston davlati uchun haqiqatdan ham katta tarixiy voqea hamda yuksak sharaf va ishonch edi.

1975 yilda sobiq SSSRning yakunlovchi aktga imzo chekishi juda qiyin kechgan. CHunki sovet hukumati rahbarlari mazkur hujjatdagi ayrim qoidalarni bajarish yuzasidan majburiyatlar olishda ikkilanganlar. Jumladan, xalqaro huquq normalariga rioya etish, inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlash majburiyatlarini olishdan cho'chigan. O'sha paytdagi ikkilanish, g'oyaviy hadiksirash muhiti hamda jaxon hamjamiyatiga ishonchsizlik sobiq imperiyaning obro'siga putur etkazgan edi. YOsh O'zbekiston davlati o'zining aniq strategik maqsadlaridan hamda BMT Nizomida, Parij Xartiyasida lo'nda ifodalab berilgan qoidalar va xalqaro huquq normalariga sodiqligidan kelib chiqib, Xelsinki YAKunlovchi aktini hech ikkilanmay imzoladi. Ana shuning natijasida O'zbekiston 1992 yil 2 mart kuni, ya'ni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 46-sessiyasi yalpi majlisida yakdillik bilan ma'qullash asosida ovozga qo'ymagan holda BMT a'zoliciga qabul qilindi. Zulum va zo'ravonlik, mustamlaka va qaramlik davrida yashagan, biz o'zbeklar uchun bu kun Ollahning irodasi bilan mo''jiza yuz bergan tarixiy kun bo'lib qoldi.

Endi ichki va tashqi siyosatda, xalqaro maydonda erkin va mustaqil harakat qilar ekanmiz, xasadgo'ylar, alamzadalar, g'arazchilar va arazchilar bosgan har bir qadamimizni kuzatib borishdi. Ayniqsa, ba'zi imperiyaparast kuchlar, g'arazgo'y siyosatchilar, buyurtma asosida ishlaydigan jurnalistlar, xorijning shov-shuvga o'ch ommaviy axborot vositalari davlatimiz rahbarining chet elga rasmiy tashriflarini, o'zbek diplomatiyasining jo'shqin faoliyatini, O'zbekistonning boshqa davlatlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishdagi dadil harakatlarini o'z bilganlaricha talqin qila boshlashdi.

Jumladan, Turkiyaga qilingan birinchi rasmiy tashrif atrofida katta shov-shuv ko'tarishdi. O'zbekistonning Turkiya bilan yaqinlashuvidan go'yo Xitoy tashvishga tushib qolganmish, Hindiston esa Rossiyaning yordamida xavfsizlik chorasini ko'rishga majburmish, yana bu yaqinlashuv Eron bilan Pokistonga xush yoqmayotganmish. O'sha paytda Rossiyaning gazetalarida, xorijning radioto'lqinlarida bunday sharhlarni ko'p o'qidik va eshitdik.

Davlatimiz rahbari boshliq delegatsiya Saudiya Arabistoniga rasmiy tashrif bilan bordi. O'zbekiston arab dunyosiga og'ib ketdi, deb ayyuhannos solishdi ba'zi siyosatchilar va "hozirjavob" sharhlovchilar. YAqin orada O'zbekiston Islom Respublikasi deb e'lon qilinadi, deb bashorat qilishdi ba'zi bir xorij gazetalar. O'rta Osiyo respublikalari islom yo'lini tanlashdi, ularga endi yadro qurolini berib bo'lmaydi, deb telekranda vahima ko'tardi kinorejissor Stanislav Govoruxin.

SHundan keyin rasmiy delegatsiyamiz Xitoyga tashrif buyurdi. O'zbekiston Xitoy modelini tanladi, bu nima- yarim sotsializm, yarim kapitalizmi, deb sharxladi xorijning shov-shuvga o'ch matbuoti. Hattoki, SHarqiy Turkiston endi O'zbekistonning yordamiga umid bog'lamoqda, deb ig'vogarlik ham qilishdi.

Rossiya bilan aloqalarimiz mustahkamlanib, davlatlararo munosabatlarimiz rasmiy tus olib, bordi - keldimiz ko'payib qolganligi ham kimlargadir yoqmadi. Buni xorijning ommaviy axborot vositalari O'zbekistondagi rossiyaparast kuchlarning g'alabasi deb yozishdi. SHuningdek, Eron va Isroilga qilingan tashriflar ham safsatabozlik bilan turlicha talqin qilindi.

Biroq bu siyosiy ig'vogarliklar O'zbekistonni o'zi tanlagan yo'lidan chalg'ita olmadi. Qaytanga tashqi siyosatda mamlakatimizning obro'si oshib boraverdi. O'zbekiston jahon hamjamiyati oldidagi majburiyatlarini bajarish uchun qat'iy kurash olib bordi. Davlatimiz rahbari Umumevropa Kengashining keyingi anjumanlarida ham qatnashib, O'zbekistonning yo'li inson huquqlari va erkinliklarini, oz sonli millatlarni himoya qilishga, millati, diniy e'tiqodi, ijtimoiy nasabi va maqomidan qat'iy nazar barcha fuqarolar uchun munosib turmush sharoiti yaratishga qaratilgan yo'l ekanligini ta'kidlab o'tdi. O'zbekiston Prezidenti Umumevropa Xavfsizlik va Hamkorlik tashkilotining bir qator tuzilmalari faoliyatini yanada takomillashtirish yuzasidan amaliy takliflar kiritdi. Bu takliflar ana shu nufuzli xalqaro tashkilotga a'zo bo'lgan davlatlar rahbarlarida katta qiziqish uyg'otdi va siyosatchilar hamda jurnalistlar tomonidan keng sharhlandi. O'zbekiston rahbari xalqaro anjumanlarda hamisha ish kunning eng dolzarb muammolarini ko'tarib chiqadi va albatta, muhim takliflarni o'rtaga tashlaydi. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasidagi Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va hamkorlikka bag'ishlangan Toshkent seminar-

kengashini o'tkazish to'g'risidagi taklifini eslang. BMT bu taklifni ma'qulladi va ana shu xalqaro anjumanni o'tkazish uchun nufuzli xalqaro tashkilotlardan ekspertlarni jalb qildi. Ekspertlar, ayniqsa, seminar-kengash arafasida maslaxat va kengash tusida ishlab, anjumanning mazmunini boyitish, hamkorlikning sifat jihatidan yangi shakllarini aniqlab olish, birgalikda tashabbuslar ko'tarib chiqish uchun keng imkoniyatlar yaratdilar. O'zbekistonning tashqi ishlar vazirligi butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olganligi, umuman, o'zbek diplomatiyasining sa'y-harakatlari tufayli, eng muximi, bunday o'ta ma'suliyatli ishga shaxsan Prezidentning o'zi bosh-qosh bo'lganligi sababli Toshkentdagi xalqaro seminar-kengash o'zaro ishonch va ishchanlik ruhida zo'r uyushqoqlik bilan o'tdi. YOki O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning BMT tantanali yig'ilishida so'zlagan nutqida kiritgan va xalqaro miqyosda aks-sado bergan taklifini eslaylik. O'shanda davlatimiz rahbari shunday degan edi: "Birlashgan Millatlar Tashkiloti tuzilmalarini isloh qilish, uning faoliyatini samaradorligini oshirish zarurligi to'g'risida gapirilar ekan, quyidagilarni amalga oshirish zarur bo'lib ko'rinadi:

**Birinchi**dan, Xavfsizlik Kengashi safini kengaytirish, unga misol uchun bugungi kunda jahon siyosatida muhim o'rin egallagan Germaniya va Yaponiya singari davlatlarni doimiy a'zo sifatida kiritish lozim;

**Ikkinchi**dan, BMT qabul qilingan qarorlarni tezkorlik bilan amalga oshirish uchun BMT bosh kotibi vakolatlarini kuchaytirish lozim;

**Uchinchi**dan, ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish manfaatlarini ko'zlab, BMTning xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro munosabatini kuchaytirish zarurligi xam, bu tashkilotning o'ziga qarashli mintaqaviy tuzilmalarini yanada rivojlantirish zarurligi ham tobora ayon bo'lib qolmoqda"

Gap xavfsizlik haqida borar ekan, O'zbekiston rahbari hamisha bitta narsani qayta-qayta takrorlaydi: ya'ni dunyoning xavfsizligiga faqat mintaqaviy mojarolarni bartaraf etish hamda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash orqali erishish mumkin. Dunyoning birorta mintaqasida paydo bo'lgan olov vaqtida o'chirilmas ekan, u alanga olib ketaveradi. Alanga kuchaygan sari uni jilovlash qiyinlashib, ofatlar va fojealar ko'payib boraveradi. Dunyoning birorta nuqtasida paydo bo'lgan mojaro ham xuddi shunday. Afg'onistonda ko'p yillardan beri hukm surib kelgan vaziyat ana shunday o'ta xatarli bo'ldi, u erda amalga oshirgan antiterror operatsiyalari ana shu xatarni butunlay bartaraf etishga qaratildi. Bu xatar terrorizmning ildizidan kuch olmoqda. SHuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Bayonotida ta'kidlab o'tilganidek, Amerika hukumati terrorizmni tag-tomiri bilan yo'q qilish, dunyoning qaysi burchagida bo'lmasin, bunday kuchlarni qo'llab-quvvatlayotgan, ularni mablag', qurol-yarog', buzg'unchi mafkura bilan ta'minlayotgan qo'poruvchilik, bosqinchilik harakatlarini amalga oshirish uchun joylarga jo'natayotgan yovuz niyatli markazlarga qarshi ayovsiz kurash e'lon qildi.

Prezidentimiz o'zining bu fikrini quyidagi qat'iyatli so'zlar bilan yakunlaydi: "Bugun barchamizga oddiy bir haqiqat ayon bo'lishi kerak: butun insoniyatga katta taxdid solib turgan bu illatga barham berish borasidagi kurashdan hech kim, hech qaysi davlat chetda qolmasligi tabiiy".

O'zbekiston Afg'onistondagi antiterror operatsiyalarini qo'llab-quvvatlar ekan, masalaga avvalo Vatanning daxlsizligi va xavfsizligini, xalqning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash hamda kafolatlash manfaatlaridan kelib chiqib yondashdi. Aslida bu mamlakatimizning jaxon hamjamiyati oldidagi majburiyatlariga mos siyosatidir. Antiterror operatsiyalarini BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar ham ma'qullashdi. Yakkalanish yoki tarfkashlik siyosatini O'zbekiston hech qachon ma'qullamagan va bundan keyin ham ma'qullamaydi. Davlatimiz rahbarining nutqlari suxbatlari, muxbirlarga bergan intervyulari mazmuni bilan tanishgan, muhim xalqaro masalalarda O'zbekiston tutgan yo'l va uning pozitsiyasini anglab etgan odam bunga ishonch hosil qiladi.

O'zbekiston MDH davlatlari orasida birinchilardan bo'lib, Evropa Ittifoqi bilan hamkorlik o'rnatdi. Bu O'zbekiston tashqi siyosatining katta yutug'i deb baholandi va xalqaro miqyosda muhim siyosiy voqea sifatida aks-sado berdi. Buning sababi shuki, o'shanda Evropa Ittifoqi bilan Rossiya o'rtasidagi sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi bitimning ratifikatsiya qilinishi va kuchga kirishi bilan bog'liq nozik masalaning hal etilishi paysalga solinib turgan bir paytda Evropa Ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasida shunday bitim imzolangan edi-da. To'g'risi, bu katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Aslida bu O'zbekistondagi katta iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, madaniy, siyosiy o'zgarishlarning samarasi, mamlakatimiz tashqi siyosatining yutug'i, yosh davlatimizning xalqaro miqyosda olib borayotgan obro'- e'tiborining ifodasi edi.

Xo'sh, Evropa Ittifoqi nega O'zbekiston bilan o'zaro hamkorlikka intildi. Bitim imzolanishidan ikki yarim oy oldin Evropa Ittifoqi Komissiyasi komissari Xans Van Bruk mamlakatimizga tashrif buyurdi. U Prezident Islom Karimov qabulida bo'lib suhbatlashdi va O'zbekiston hayoti bilan tanishdi. "O'zbekistonga safarim juda foydali va samarali o'tganidan mamnunman, -dedi u muxbirga bergan intervyusida.- Men O'zbekiston bilan Evropa Ittifoqi o'rtasidagi hamkorlik ulkan burilish sari yuz tutayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Chunki Markaziy Osiyodagi nufuzli mamlakat - O'zbekiston bilan har bir tomonlama aloqalarni rivojlantirish Evropa Ittifoqi uchun ham manfaatlidir». **O'zbekistonning BMTga a'zo bo'lishi**

O'zbekiston Respublikasi o'zining xohish irodasi va taklifiga ko'ra 1992 yil 2 martda jahondagi eng nufuzli xalqaro tashkilot - Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. Mamlakatimiz jahon hamjamiyatining to'la teng huquqli a'zosi bo'ldi.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimovning BMT Bosh Assambleyasining 1993 yilda bo'lgan 48-sessiyasida ishtirok etishi va unda 27 sentyabrda qilgan ma'ruzasi O'zbekistonni jahonga qo'hna va yosh navqiron davlat sifatida namoyon etdi. O'zbekiston Respublikasi nomidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlik masalalari bo'yicha BMT ning Toshkentda doimiy ishlovchi seminarini chaqirish, narkobiznesga qarshi kurashni kuchaytirish, Orol muammosini hal etish va boshqa macalalap bo'yicha bir qator takliflar o'rtaga qo'yildi.

1993 yil 24 oktyabrda Toshkentda BMT ning vakolatxonasi ochildi va u ish boshladi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro

taraqqiyotassotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy ko'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yil 15-16 sentyabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash-seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

O'zbekistonning BMT bilan hamkorligining yorqin sahifalaridan yana biri Markaziy Osiyo mintaqasini yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish masalasida o'zifodasini topdi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasi minbaridan turib so'zlagan nutqida Markaziy Osiyoni yadro qurolidan xoli zonaga aylantirish g'oyasini ilgari surgan edi. O'zbekistonning bu tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlandi. 1997 yil 15-16 sentyabr kunlari Toshkentda "Markaziy Osiyo -yadro qurolidan xoli zona" mavzuida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

2000 yil oktyabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferentsiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001 yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. 2002 yil 18-20 oktyabr kunlari BMT Bosh kotibi Kofe Annanning O'zbekistonga tashrifi mamlakatimizning xalqaro jamiyatdagi o'rni mustahkamlanib, obro''-e'tibori ortib borayotganining dalilidir.

**YUNESKO bilan hamkorlik** O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YuNESKO bilan aloqalari toboramustahkamlanib bormoqda. 1993 yil 29 oktyabrda YuNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YuNESKO ga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YuNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktyabrda Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro YuNESKOning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta ob'ekt bor. 1994 yil dekabrda respublikamizda YuNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy

komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi.

YuNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. "Ipak yo'li - muloqot yo'li" deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995 yil iyul oyida YuNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YuNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995 yil iyul oyida mazkur institut ochildi. YuNESKO bobomiz Amir Temur tavalludining 660 yillicini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan Shahrisabz shahri YuNESKoning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. 1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xivashaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YuNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997 yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YuNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar -Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YuNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoki va boshqa tashkilotlarning a'zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar - Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko'maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (YuNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

**EXHT bilan hamkorlik** O'zbekiston 1992 yil fevral oyida dunyoda tinchlikni mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha katta tadbirlarni amalga oshirayotgan nufuzli xalqaro tashkilot -Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti EXHT ga a'zo bo'lib kirdi. I. Karimovning 1992 yil 9-10 iyulda bo'lgan Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining majlisida ishtirok etishi, unda nutq so'zlashi va Kengashning 10 iyulda bo'lgan majlisiga raislik qilishi O'zbekistonning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallayotganligining dalilidir. I. Karimov o'z nutqida u yoki bu mintaqada tinchlik va barqarorlikni buzishi mumkin bo'lgan mojarolar yaqinlashuvining oldini olish, mojarolarga yo'l qo'ymaslik muammolari bilan shug'ullanuvchi mexanizmni vujudga keltirish, tashkilot qabul qilayotgan hujjatlarning ta'sirchanligini oshirish, hujjatlar mojarolarni oldini olish, yo'l qo'ymaslik ruhida bo'lishini ta'minlash takliflarini ilgari surdi. 1999 yil noyabr oyida bo'lgan EXHTning Istanbul sammiti Islom Karimovning xalqaro terrorchilikka qarshi kurashuvchi xalqaro markaz tuzish

haqidagi taklifi ham ma'qullandi. 1996 yil fevral oyida O'zbekiston bilan Yevropa Ittifoqi o'rtasida hamkorlik o'rnatish bo'yichamuzokaralar bo'ldi. Shu yil iyul oyida **Florentsiya shahrida Yevropa Ittifoqi** bilan O'zbekiston o'rtasida sherikchilik va hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. Bu hujjat O'zbekistonning Yevropa Ittifoqi va unga a'zo bo'lgan 15 ta mamlakat bilan o'zaromunosabatlarining huquqiy negizi bo'lib siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochdi. Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida sayyoramiz ozon qatlamini muhofaza qilish bo'yicha Vena Konventsiyasiga, ozon qatlamini kamaytiradigan moddalar xaqidagi Monreal Protokoliga, atrof-muhitga ta'sir etuvchi vositalarni harbiy yoki boshqa dushmanlik maqsadida qo'llashni taqiqlovchi Konventsiyaga, Yadro qurolini tarqatmaslik xaqidagi shartnomaga qo'shilgan.

Shunday qilib, O'zbekiston tarixan qisqa bir davrda jahon hamjamiyatiga qo'shildi, xalqaro va mintaqaviy muammolarni hal qilishda, umumiy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda faol qatnashayotgan nufuzli davlat darajasiga ko'tarildi.

### **Shanxay hamkorlik tashkiloti**

1996 yilda Shanxayda, 1997 yilda Moskvada bo'lib o'tgan Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston davlat rahbarlarining sammitlarida harbiy sohada hamda chegara hududlarida o'zaro ishonchni mustahkamlash, qurolli kuchlarni qisqartirish to'g'risida shartnomalar imzolangan edi.

Shu tariqa, «Shanxay forumi» yoki «Shanxay beshligi» tashkiloti tuzilgan edi.

2001 yil 14-15 iyun kunlari Xitoyda navbatdagi Shanxay sammiti bo'lib o'tdi. Uning ishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov qatnashdi va O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga to'la huquqli a'zo bo'lishi to'g'risida bayonot imzolandi. O'zbekistonning «Shanxay forumi»ga kirishi munosabati bilan uning nomi

**Shanxay hamkorlik tashkiloti – ShHT**, deb o'zgartirildi. O'zbekiston uning asoschilaridan biri bo'ldi.

2001 yil iyunda bo'lgan sammit yakunida Shanxay hamkorlik tashkilotini tuzish to'g'risida deklaratsiya hamda terrorchilik, ayirmachilik va ekstremizmga qarshi kurash borasidagi Shanxay konventsiyasi imzolandi.

2002 yil 6-7 iyun kunlari ShHT ga a'zo mamlakatlar davlat boshliqlarining Sankt-Peterburg shahrida navbatdagi sammiti bo'lib o'tdi. Muzokaralar yakunida ShHTga a'zo davlatlar rahbarlarining Deklaratsiyasi, tashkilotning ta'sis hujjati - ShHT Xartiyasi, ShHTga a'zo davlatlar o'rtasida Mintaqaviy antiterror tuzilmasi haqidagi bitim imzolandi. 2003 yil 29 may kuni Moskvada bo'lib o'tgan sammitda ShHT ning doimiy amal qiluvchi idoralari – Pekinda Kotibiyat va Toshkentda Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) ijroiya qo'mitasini ishga tushirishga qaror qildi. Bu tashkilotlar 2004 yil yanvardan boshlab ish boshladilar.

2004 yil 17 iyun kuni Toshkentda ShHT ga a'zo davlatlar rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda ikki asosiy masala – xavfsizlik va savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha muzokaralar bo'ldi. Sammitda 2004 yil mart oyida

O'zbekistonda sodir etilgan terrorchilik harakati nafaqat O'zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida vaziyatni izdan chiqarishga qaratilganligi qayd etildi. Butun dunyoda terrorchilik kuchayib, yadroviy, kimyoviy, biologik, elektron terrorchilik xavfi paydo bo'lganligi, terrorchilarning bazalarini yo'qotish, odamlarning ongini zaharlaydigan, terrorchilikni moliyalashtiradigan markazlarga qarshi keskin kurash olib borish zarurligi ta'kidlandi.

Shu boisdan Toshkentda tashkil etilgan MATT zimmasiga axborot almashish, chegara va bojxona qo'mitalarining, maxsus xizmatlarning hamkorligini muvofiqlashtirish, shu orqali terrorchilik oldini olish vazifasi yuklangan.

ShHT ning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi. Sammitda ShHT ga a'zo mamlakatlarni xavfsizlik orqali hamkorlik sari boshlaydigan tashkilotdir, deb ta'kidlandi. Sammitda iqtisodiy hamkorlikning quyidagi yo'nalishlarini rag'batlantirishga kelishib olindi:

- transport infratuzilmasini rivojlantirish;
- tabiiy mineral xomashyo zahiralarini o'zlashtirish;
- suv-energetika zahiralaridan unumli foydalanish;
- ekologiyaga oid masalalar, xususan, ichimlik suvi muammolarini hal qilish;
- fan-texnika va yuqori texnologiya, energetika sohalarida integratsiyalashish;
- investitsiyalar xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy poydevor yaratish, bu sohadagi to'siq va muammolarni bartaraf etish.

Xitoy Xalq Respublikasi raisi XU Tszintao Xitoy hukumati ShHT doirasidagi

iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga 900 mln. AQSh dollari miqdorida kredit ajratishini ma'lum qildi. Sammit yakunida Toshkent deklaratsiyasi, ShHT ning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konventsiya, Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risidagi bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar – jami o'nta hujjat imzolandi.

**GUUAM tashkiloti** 1996 yilda Venada Gruziya, Ukraina, Ozarbayjon va Moldova davlatlari rahbarlari uchrashib, ikki tomonlama va mintaqaviy hamkorlik aloqalarini

kengaytirish maqsadida o'ziga xos tuzilmaga asos solgan edi. 1999 yil aprel oyida O'zbekiston ham unga qo'shildi va bu tashkilot uyushgan davlatlarning nomidan olingan bosh harflar asosida GUUAM deb yuritiladi.

GUUAM mamlakatlari 1993 yilda Bryuselda asos solingan **Yevropa-Kavkaz-Osiyotransport yo'lagini** barpo etishni ko'zda tutuvchi TRASEKA loyihasini amalga oshirish masalasida hamkorlik qilmoqda. TRASEKA dasturining amalga oshishi xalqaro yuk tashishning global tizimini shakllantirish, Sharq va G'arb mamlakatlarini bog'lovchi Buyuk ipak yo'lini tiklash, mamlakatlar o'rtasida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**O'zbekistonning Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama va ikki tomonlama aloqalari**



**MDHning tashkil topishi** 1991 yil 8 dekabrda Minskda uch slavyan respublikasi - Rossiya, Ukraina, Belarus rahbarlari-B.Eltsin, L.Kravchuk S.Shushkevichlarning uchrashuvi bo'ldi. O'sha kuni Belovejskoe Pushcheda uch davlat boshliqlari Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi (MDH)ni tuzish to'g'risida Shartnoma imzoladilar. Shartnomada **yagona iqtisodiy makon, yagona valyuta va moliya-bank sistemasi bo'ladi, fan, ta'lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holda yuritiladi**, deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to'xtatiladi, deb e'lon qilindi. Ukraina, Belorussiya, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922 yil 30 dekabrda SSSRni tuzish to'g'risidagi shartnomani bekor etdilar. Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston Prezidentlari MDHga uni ta'sis etuvchilar roliga kirishga tayyor ekanligini bildirdilar.

1991 yil 21 dekabrda Rossiya (B.Yelsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belarus (S.Shushkevich), Qozog'iston (N.Nazarboev), O'zbekiston (I.Karimov), Qirg'iziston (A.Akaev), Tojikiston (R.Nabiev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining kengashi bo'ldi. O'sha kuni 11 davlat boshliqlari Belovejskoe Pushche shartnomasi yuzasidan protokolni imzolab, "Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar" maqomida MDH muassisi bo'ldilar.

**Kengashda Almati Deklaratsiyasi** qabul qilindi. Deklaratsiyada quyidagilar haqida bayonot berildi:

- hamdo'stlik qatnashchilarining o'zaro aloqalari ular o'rtasidagi tenglik asosida tuziladigan bitimlar hamda bitimlarda belgilangan tartiblar doirasida faoliyat yuritadigan muvofiqlashtiruvchi muassasalar orqali amalga oshiriladi;
- MDH davlat ham emas, davlatlar ustidagi tuzilma ham emas;
- xalqaro strategik barqarorlikni va havfsizlikni ta'minlash maqsadida harbiystrategik kuchlarning birlashgan qo'mondonligi va yadro quroli ustidan yagona nazorat saqlab qolinadi;
- MDH ochiqdir, uning barcha a'zolari roziligi bilan sobiq SSSR ning a'zolari va boshqa davlatlar ham unga qo'shilishi mumkin;
- umumiy iqtisodiy makonni, umumiy bozorni vujudga keltirishda va rivojlantirishda hamkorlik qilishga sodiqlik tasdiqlanadi;
- MDHning tuzilishi bilan SSSRning mavjudligi to'xtatiladi;
- Hamdo'stlik qatnashchilari o'z Konstitutsiyalaridagi tartib, qoidalarga binoan sobiq SSSR ning shartnomalari va bitimlaridan kelib chiqadigan halqaro majburiyatlarini bajarilishiga kafolat beradilar;
- MDH qatnashchilari mazkur Deklaratsiya qoidalariga og'ishmay rioya etish majburiyatini oladilar.

MDH kengashlarini tayyorlash bo'yicha ishchi guruhini tuzish to'g'risida protokol imzolandi. Shu tariqa, **Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi tashkil topdi**.

1993 yil yanvarda Minskda MDH Davlatlari boshliqlarining navbatdagi kengashi bo'ldi. Unda MDHning Nizomi imzolandi va MDHning huquqiy rasmiylashtirish

jarayoni yakunlandi.

1991-1999 yillarda MDH davlat boshliqlarining 25 ga yaqin kengashi bo'lib, ulardahammasi bo'lib iqtisodiy, ijtimoiy, harbiy-siyosiy, tashkiliy va umumiy sohalariga oid 1300 ga yaqin masalalar muhokama etilib, tegishli hujjatlar imzolandi. Hamdo'stlik mamlakatlarining iqtisodiy va madaniy aloqalari katta mashaqqatlar va sekinlik bilan mustahkamlanib bordi. Qabul qilingan hujjatlarning aksariyati qog'ozda qolib ketdi. Bunga sabab tomonlarning muammolarni echishni istamayotganida emas, aksincha, o'zaro hamkorlik teng huquqli asosda, har bir mamlakatning milliy manfaatlarini hisobga olgan holda yuritilishiga intilayotganligi bilan bog'liq edi. O'tgan yillar davomida erishilgan ahdlashuvlarni amalga oshirishning samarali mexanizmi yaratilmadi, o'zaro hisob-kitoblar muvofiqlashtirilmadi. 2000 yil 24-25 yanvar kunlari Moskvada MDH mamlakatlari rahbarlarining sammiti bo'lib o'tdi. Unda Rossiya davlat boshlig'i V.Putin Hamdo'stlik Davlatlari boshliqlari kengashining raisi etib saylandi. Ukraina Bosh vaziri V.Yushenko MDH mamlakatlari hukumat boshliqlari kengashining raisi etib saylandi. Kengashda MDH a'zolari bo'lgan mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yanada rivojlantirish, MDHni isloh qilish borasidagi masalalar muhokama qilindi. Bu kengash MDHning kelajagiga katta ishonch uyg'otdi. Bu ishonch Rossiya Prezidenti V.Putinning MDH doirasidagi sheriklar bilan yaqinlashishga qaratilgan harakatlarida o'z ifodasini topmoqda. 2000 yil 21 iyunda Moskvada bo'lib o'tgan MDH davlat boshliqlarining sammitida MDH doirasida erkin savdo zonasi barpo etish borasidagi ishlarni, integratsiya jarayonlarini faollashtirishga qaratilgan 2005 yilgacha bo'lgan muddatda Hamdo'stlikni rivojlantirish dasturi muhokama qilindi va tegishli hujjat imzolandi. 2003 yilgacha jinoyatchilik, terrorchilik va ekstremizmning turli ko'rinishlariga qarshi birgalikda choralar ko'rish to'g'risida, MDHning terrorchilikka qarshi kurash markazini tuzish haqida qarorlar qabul qildilar.

Terrorchilikka qarshi kurash markazi rahbari etib Rossiya Federal xavfsizlik xizmati, Konstitutsiyaviy tuzimni himoya qilish va terrorchilikka qarshi kurash departamenti boshlig'ining birinchi o'rinbosari Boris Milnikov tayinlandi.

2001 yil 29-30 noyabr kunlari Moskvada MDH tashkil etilgan kunning 10 yilligiga bag'ishlangan yubiley sammiti bo'lib o'tdi. Sammit qatnashchilari Afg'onistondagi voqealar to'g'risida bayonot qabul qildilar. Bayonotda aksilterror operatsiyasi ijobiy baholandi. Yubiley sammitida yana bir hujjat – MDH tuzilganining 10 yilligi munosabati bilan Bayonot imzolandi. Bayonotda 10 yil davomida rejalashtirilgan hamma tadbirlar ham amalga oshmagani ta'kidlandi. Hamdo'stlik barcha a'zo mamlakatlar xalqlari farovonligini oshirish yo'lida salohiyatga ega ekanligi, undan foydalanish zarurati e'tirof etildi.

MDHning 10 yillik tarixi guvohlik beradiki, Hamdo'stlikning tashkil etilishi foydali bo'ldi. Hamdo'stlik 10 yil oldin qanday kerakli tashkilot bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda ham shunday keraklidir. Sobiq Ittifoq parchalangach, yuzaga kelgan mustaqil davlatlarning bir-biriga bog'langan iqtisodiyotini to'ldirib turish zarur edi. Hamdo'stlik mana shunday to'ldiruvchilik rolni o'ynadi, parchalanish jarayonida nizo-janjal chiqishiga yo'l qo'ymadi.

Hamdo'stlik hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. MDH yon-atrofdagi voqealarga munosabat bildirishda yakdillik ko'rsatish, xususan, terror, narkobiznes, uyushgan jinoyatchilik, ekstremizm kabi balolarga qarshi turishda hamjihatlikni mustahkamlash, bahamjihat harakat qilishda muhim o'ringa ega. Hamdo'stlikning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, globalizatsiya jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi sharoitda dunyoda yuz berayotgan iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarga tayyor turish, turli inqirozlarni engishda barcha a'zo davlatlar uchun kerakli va foydali tashkilotdir.

O'zbekiston Respublikasi tashqi siyosatida hamdo'stlik mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga ko'yish va rivojlantirish alohida o'rin tutadi. Ikki tomonlama hamkorlik deganda ikki davlat o'rtasidagi, ya'ni O'zbekistonning boshqa bir mamlakat bilan davlatlararo aloqalarni yo'lga qo'yish va chuqurlashtirish jarayoni tushuniladi.

### **O'zbekistonning Rossiya bilan hamkorligi**

O'zbekiston Rossiya Federatsiyasi bilan davlatlararo munosabatlar o'rnatish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berib kelmoqda. 1992 yil 30 mayda I.Karimov boshliq O'zbekiston delegatsiyasining Rossiyaga davlat tashrifi paytida **O'zbekiston Respublikasi bilan Rossiya Federatsiyasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi.** Shartnoma ikki davlat o'rtasida har tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirishga huquqiy asos soldi. Ikki davlat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi, elchixonalar ochildi.

Rossiya Federatsiyasi Prezidenti B.Yelsinning 1993 yil mart oyida O'zbekistonga tashrifi paytida ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlash choralarini ko'rishga ahdlashildi. 1993 yil 19 martda O'zbekiston va RF o'rtasida madaniyat, fan va texnika, ta'lim sog'liqni saqlash, axborot, sport va turizm sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

V.Putinning Rossiya Prezidenti etib saylanishi Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. V.Putin qisqa muddatda O'zbekistonga ikki marta-1999 yil 10-11 dekabrda va 2000 yil 18-19 may kunlarida davlat tashrifi bilan keldi. Tashrif davomida ikki mamlakat Prezidentlari va rasmiy delegatsiyalari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada kengaytirish, harbiy va harbiy-texnikaviy hamkorlik, xavfsizlik, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, xalqaro terrorchilikka qarshi birgalikda kurashish va boshqa masalalar muhokama etildi.

Dekabrdagi uchrashuvda «O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasida harbiy va harbiytexnikaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'g'risida shartnoma» imzolangan bo'lsa, may oyidagi muzokaralar nihoyasida ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida «O'zbekiston Respublikasi ma'muriy-hududiy tuzilmalari Rossiya Federatsiyasi sub'ektlari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish to'g'risida bitim», «Xalqaro avtomobil qatnovi to'g'risida bitim» imzolandi.

Shu tariqa, O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi o'zaro manfaatli aloqalar yangicha mazmun kasb etmoqda. Ikki mamlakat o'rtasida turli maqsadlarga yo'naltirilgan 150 ta hujjatlar imzolangan.

O'zbekiston bilan Rossiya o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 2000 yilda 1 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda 520 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shmakorxonasi, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi firma va kompaniyalari ro'yxatga olingan. Rossiyada esa O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 250 ga yaqin qo'shma korxonalar mavjud. O'zbekiston Rossiyadan mashinalar va jihozlar, kimyo maxsulotlari va plastmassa, qora metall va boshqa tovarlar sotib olib, Rossiyaga turli mashina va jihozlar, paxta tolasi, xizmatlar, oziq-ovqat mollarini eksport qiladi.

O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning 2001 yil 3-5 may kunlari, 2004 yil aprel oyida Rossiyaga tashrifi va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V.Putin 2004 yil iyun oyida O'zbekistonga tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yangi pog'onaga ko'tardi. 2004 yil 16 iyunda O'zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o'rtasida **strategik sherikchilik to'g'risida bitim imzolandi**. 15 moddadan iborat mazkur bitim o'zaro xavfsizlikni ta'minlash, global tahdidlarga qarshi harakat qilish, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan strategik sherikchilikning mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi. Uchrashuv davomida O'zbekiston Respublikasi bilan «Lukoil» neft kompaniyasi OAJ hamda «O'zbek neft-gaz» milliy xolding kompaniyasi bilan «Gazprom» ochiq aksiyadorlik jamiyati o'rtasida mahsulot taqsimotiga oid bitim imzolandi. Bu hujjat Rossiya tomonidan O'zbekiston yoqilg'i energetikasi sohasiga qariyb 1 mlrd. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritishni nazarda tutadi. Ikki mamlakat o'rtasidagi savdo hajmi 2003 yilda 1 mlrd. 149 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

O'zbekiston Rossiya o'rtasidagi munosabatlar tom ma'nodagi teng huquqlilik, o'zaro manfaatdorlik, bir-birlarining suvereniteti, hududiy yaxlitligi va manfaatlarini hurmat qilish tamoyillari asosida chuqurlashib bormoqda.

### **O'zbekiston va Ukraina aloqalari**

O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarga asos solishda I.Karimovning 1992 yil avgust oyida Kievga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Tashrif chog'ida, 25 avgust kuni O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov va Ukraina Prezidenti Leonid Kravchuk **O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar**. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar o'rnatish to'g'risida protokol va savdo iqtisodiy hamkorlik bitimi imzolandi. 1995 yil 20-21 iyun kunlari Ukraina Prezidenti Leonid Kuchma O'zbekistonda bo'ldi. Ikkala davlat Prezidentlari tomonidan O'zbekiston-Ukraina hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish yo'llari to'g'risida Deklaratsiya, O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish to'g'risida shartnomani imzoladilar. Safar chog'ida O'zbekiston va Ukraina hukumatlari o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurash sohasida hamkorlik qilish to'g'risida bitim, ilmiy-texnikaviy hamkorlik haqida bitim, elchixonalar faoliyati haqida bitim imzolandi. Islom Karimovning 1999 yil oktyabrda Ukrainaga safari chog'ida O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1999-2008 yillarga mo'ljallangan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida bitim imzolangan. Muxtasar aytganda, O'zbekiston va Ukraina o'rtasida 1992-2002 yillarda neftni qayta

ishlash, kommunikatsiya, fan-texnika, sanoat, savdo, axborot almashish, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik bo'yicha 130 dan ortiq hujjatlar imzolandi. O'zaro savdo hajmi 1992 yildagi 20 mln. AQSh dollaridan 2003 yilda 280 mln. AQSh dollariga etdi.

O'zbekiston Ukrainaga aviatsiya, kimyo va engil sanoat mollari, paxta tolasi, rangli metallar, gaz eksport qilmoqda. Ukrainadan gaz va neft konlarini o'zlashtirishda zarur bo'lgan texnika uskunalari, qora metallurgiya, kimyo sanoati mollari, shakar, pista yog'i import qilinmoqda. O'zbekistonning Qora dengizdagi Ukraina bandargohlari orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-iqtisodiy aloqalari yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda Ukraina investitsiyalari ishtirokida barpo etilgan 20 ta qo'shma korxonasi ishlamoqda.

Jumladan, «ToshVALEO» qo'shma korxonasi bir kunda ming qutiga yaqin qandolat

mahsulotlari tayyorlanmoqda. Shuningdek, ikki davlat o'rtasida ilm-fan, ta'lim, madaniyat sohasida hamkorlik qilinmoqda.

**O'zbekistonning Belarus va Moldova bilan aloqalari** Belarus Respublikasi Oliy Kengashining raisi S.Shushkevichning 1991 yil 6 noyabrda O'zbekistonga rasmiy davlat tashrifi O'zbekiston bilan Belarus o'rtasida davlatlararo aloqalarga asos soldi. Tashrif paytida Toshkentda I.Karimov va S.Shushkevich **O'zbekiston Respublikasi bilan Belarus Respublikasi o'rtasida davlatlararo munosabatlarning asoslari to'g'risida shartnoma imzoladilar.** Shuningdek, ikki davlat hukumatlari o'rtasida 1992 yilda savdo-iqtisodiy hamkorlik printsiplari to'g'risida bitim imzolandi.

1994 yil 21-22 dekabr kunlari Belarus Respublikasi Prezidenti Aleksandr Lukashenko rasmiy tashrif bilan Toshkentda bo'ldi. Tashrif paytida davlatlararo, hukumatlararo hamda har ikki davlat muassasalari o'rtasida 18 ta hujjat imzolandi. O'zbekiston bilan Belarus o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash haqidagi Deklaratsiyani, Madaniyat va san'at sohasida hamkorlik qilish to'g'risidashartnomani I.Karimov va A.Lukashenko imzoladilar. Hukumatlar o'rtasida daromad va mulklardan ikki tomonlama o'zaro soliq olmaslik, avtomobil, temir yo'l, xavo yo'li va pochta aloqasi bo'yicha hamkorlik haqidagi bitimlar imzolandi. Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida maslahatlashuv haqida protokol hamda tarmoqlararo hujjatlar imzolandi.

1995 yil 30-31 mart kunlari O'zbekiston Prezidenti I.Karimov Moldova Respublikasida rasmiy safarda bo'ldi. I.Karimov va Moldova Prezidenti Mircha Snegur o'rtasidagi muzokaralar nihoyasida O'zbekiston Respublikasi va Moldova Respublikasi o'rtasida do'stona hamkorlik to'g'risida shartnoma imzolandi. Hukumatlar o'rtasida erkin savdo munosabatlarini rivojlantirish, fan-texnika, madaniyat va san'at, pochta xizmati, aloqa, bank sohaslarida hamkorlik, samolyotlar qatnovini yo'lga qo'yish, ikki tomonlama soliq, olmaslik to'g'risidagi o'ndan ziyod bitimlar imzolandi. Bu hujjatlar izdan chiqqan aloqalarning tiklanishi uchun huquqiy zamin yaratdi.

O'zbekiston uchun ishlab chiqilayotgan shakar, dori-darmon, qishloqxo'jalik

texnikasi, elektro-texnika asbob-uskunalari, sug'orishda foydalaniladigan nasoslar kerak. Moldova sanoati uchun esa, O'zbekistonning paxtasi, kimyoviy tolasi, qattiq metallari kerak. Bu zaruriyat ikki mamlakat hamkorligining zaminidir.

### **O'zbekistonning Kavkaz orti mamlakatlari bilan aloqalari**

1995 yil 5 sentyabrda Gruzija davlat rahbari, respublika parlamenti raisi Eduard Shevernadze rasmiy tashrif bilan O'zbekistonda bo'ldi. Bu tashrif O'zbekiston bilan Gruzija o'rtasidagi qadimiy aloqalarni tiklashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ikki tomonlama munosabatlarga doir masalalar muhokama qilindi va muzokaralar nihoyasida I.Karimov va E.Shevernadze tomonidan

**O'zbekiston va Gruzija o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzodandi.** Ikki mamlakat o'rtasida sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va rag'batlantirish, fan-texnika, bank, qishloq xo'jaligi, bojxona, xalqaro transport aloqalari, erkin savdo va ishlab chiqarish, maorif, madaniyat, sport, sog'liqni saqlash, sayyohlik, atrof muhit muhofazasi bo'yicha hamkorlik to'g'risida 20 dan ziyod hukumatlararo va muassasalararo hujjatlar imzolandi.

Mazkur bitimni ro'yobga chiqarishda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil may oyida Gruzija Respublikasiga rasmiy davlat tashrifi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Islom Karimovning Gruziyaga safari chog'ida E.A.Shevernadze bilan halqaro Transkavkaz yo'li, uning Gruziyadan o'tadigan qismini barpo etish, Gruziyaning Poti bandargohi imkoniyatlaridan O'zbekiston yuklarini tashishda foydalanish masalalari bo'yicha ahdlashib olindi. I.Karimov va E.Shevernadze O'zbekiston va Gruzija o'rtasida hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi Deklaratsiyani imzoladilar. Shuningdek O'zbekiston bilan Gruzija o'rtasida moliya-sanoat guruhini tuzish, huquq-tartibot, pochta aloqasi, savdo, soliq bojxona tizimi kabi 15 ga yaqin hukumatlararo bitimlar imzolandi.

O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi va rivojlanib bormoqda. 1996 yil 27 may kuni Islom Karimov boshliq O'zbekiston davlat delegatsiyasi Ozarbayjonda bo'ldi. Ikki davlat Prezidentlari **O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma imzoladilar.** Ikki qardosh mamlakat o'rtasida davlatlararo aloqalar yo'lga qo'yildi. Safar chog'ida O'zbekiston bilan Ozarbayjon o'rtasida savdo-iqtisodiy soliq, bojxona, havo yo'li, avtomobil va temir yo'li aloqalari, madaniy va boshqa sohalaridagi aloqalarni rivojlantirish bo'yicha 20 ga yaqin hukumatlararo hujjatlar imzolandi. Ikki davlat rahbarlari halqaro Transkavkaz yo'lini barpo etish, uning Ozarbayjondan o'tadigan qismini shakllantirish, O'zbekiston yuklarini Ozarbayjon hududi orqali Yevropa tomon chiqarish, Ozarbayjon bandargohlarini ta'mirlash masalalari to'g'risida kelishib oldilar. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuvlar yo'lga qo'yildi.

**O'zbekistonning Boltiq bo'yi mamlakatlari bilan aloqalari.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning 1995 yil 6-8 iyun kunlari Davlat tashrifi bilan Latviya Respublikasida bo'lishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur tashrif chog'ida I.Karimov Latviya Respublikasi Prezidenta Guntis Ulmanis bilan **O'zbekiston Respublikasi bilan Latviya Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.** O'zbekiston va Latviya

hukumati o'rtasida transport, havo aloqasi, sayyohlik hamda ilmiy-texnik sohalar bo'yicha hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

Latviya Prezidenti Guntis Ulmanisning 1996 yil 23 mayda O'zbekistonga qilgan davlat safari ikki mamlakat o'rtasida aloqalarni yanada chuqurlashtirdi. Ikki Prezident O'zbekiston bilan Latviya o'rtasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish vakengaytirish to'g'risida deklaratsiya imzoladilar. Hukumatlararo fuqarolik, mehnat, huquq-tartibot, halqaro avtomobil qatnovi, temir yo'l transporti, madaniyat, bojxonaishida o'zaro hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Latviyadan elektr mashinalari, uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, shakar va qandolatchilik mahsulotlari, efir moyi, qora metall sotib oladi. Latviyaga esa rangli metallar, ipak, paxta va boshqa mahsulotlarni eksport qiladi. Toshkentda "Dzintars" Latviya aksionerlik jamiyatining O'zbekiston-Latviya qo'shma korxonasi qurilib, "Volida", "Saodat", "Istiqbol" singari atirlar ishlab chiqarmoqda va "Dzintars" firma do'koni orqali sotilmoqda. O'zbekiston va Latviya tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida o'zaro maslahatlashuv to'g'risida Protokol imzolandi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo-sotiq o'sib bormoqda. 1994 yil o'zaro tovar ayirboshlash 121,8 million so'mni tashkil etdi. I.Karimovning 1995 yil iyun oyida Litvaga tashrifi chog'ida Prezident A.Brazauskas bilan O'zbekiston Respublikasi bilan Litva Respublikasi o'rtasidagi ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va chuqurlashtirish to'g'risidagi qo'shma Deklaratsiyani imzoladilar. Shuningdek O'zbekiston hukumati bilan Litva hukumati o'rtasida ta'lim, fan va texnika, sayyohlik, madaniyat va san'at, savdo-iqtisodiy, havo yo'li va havo transporti sohalarida hamda bojxona qonunini buzish hollariga qarshi kurash borasida hamkorlik qilish to'g'risida bitimlar imzolandi.

O'zbekiston Litvadan elektr uskunalar va ularning ehtiyot qismlari, sut va sut mahsulotlari, mebel sanoati mahsulotlarini sotib olib, Litvaga paxta, neft, rangli metallar eksport qiladi. 1994 yilda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 248,6 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsatkich uch barobarga ko'paydi. O'zbekiston Litvaning transport-xo'jalik kommunikatsiyasi, dengiz yo'li, ayniqsa, Klayped bandargohi orqali o'z mahsulotlarini jahon bozoriga chiqarmoqda.

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 2002 yil 23-25 sentyabr kunlari Litva Respublikasiga tashrif buyurishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yangi bosqichga ko'tardi. **O'zbekiston bilan Litva o'rtasida Davlatlararo munosabatlarning asoslari, do'stlik va hamkorlik to'g'risida shartnoma**, ikki davlat tashqi ishlar vazirliklari, bojxona xizmatlari hamda milliy universitetlari o'rtasida hamkorlik to'g'risida bitimlar imzolandi. O'zbekiston-Litva hukumatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik bo'yicha komissiya tuzildi va u faoliyat ko'rsatmoqda.

### **Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida hamkorlik aloqalari**

O'zbekiston tashqi siyosatning ta'sirli yo'nalishlaridan biri Markaziy Osiyodagi yangi

mustaqil davlatlar - Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston bilan hamkorlik, do'stlik aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan. Mintaqadagi beshta davlat o'rtasida o'xshash jihatlar ko'p. Tariximiz, madaniyatimiz, tilimiz, dilimizning birligi, tomlarimizning tutashib ketganligi bu mamlakat xalqlarini bir-biriga yanada yaqinlashtirishning zaminidir. Markaziy Osiyo davlatlari

Prezidentlarining navbatdagi uchrashuvi 1991 yil 13-15 avgust kunlarida Toshkent shahrida bo'ldi. Unda uchrashuv yakunlari xususida Axborot hamda O'rta Osiyo va Qozog'iston respublikalararo Maslahat kengashini tuzish to'g'risida bitim imzolandi. Maslahat kengashining vazifasi beshta mamlakat o'rtasida iqtisodiy hamkorlik qilish uchun shart-sharoit yaratishdan, bozor munosabatlariga o'tishda mintaqa manfaatlarini himoya qiluvchi kelishilgan siyosat yuritishdan, iqtisodiyotning umumiy muammolarini hal etishga yagona yondoshuvlarni ishlab chiqishdan iborat deb belgilandi.

O'zbekiston va uning oshib borayotgan nufuzli, iqtisodiy-ijtimoiy salohiyati va taraqqiyoti, jahon hamjamiyatidagi o'rnini va tashqi siyosatdagi yutuqlari, mamlakatimizning buguni va buyuk kelajagi xaqida ko'plab davlatlarning rahbarlari xavas ila o'zlarining dil so'zlarini bayon qilishgan. Biz ozod va obod, dunyoda o'z so'zi hamda o'rnini bor Vatanimiz xaqidagi faxr-iftixor tuyg'ularimizni Latviya Respublikasi Prezidentining quyidagi dil izxori bilan yakunlamoqchimiz: "O'zbekiston Markaziy Osiyodagi eng progressiv davlat, nazarimda hozir O'zbekiston butun jahonning diqqat e'tiborida turibdi".

## XORIJIY MANBALAR

1. Koshelenko G.A. Kul'tura Parfii. M., Nauka. 1996 y.
2. Vamberi X. Buxoro yoxud Movorounnashr tarixi. T., Fan. 1993
3. Yakubovskiy Yu. K voprosu ob etnogeneza uzbekskogo naroda. Toshkent, Fan.1941 y.
4. Shishkin V.A. Varaxsha. Moskva, Nauka. 1963 y.
5. Abu-Djafar Muhammad at-Taboriy. Istoriya at-Toboriy. T.;fan 1987y.
6. Abaza. K.K Zavoevanie Turkestana. S.P.B 1902y
7. Al'baum L.I. Jivopis' Afrasiaba. -T.;Fan, 1975y.
8. Abaev V.I. Mif i istoriya v gotax Zaroastra. Istoriko-filologicheskie issledovaniya. M., 1974.
9. Arrian. Poxod Aleksandra. Per. M.e.Sergienko. M.-L., 1962.
10. Bartold. V.V. Sochineniya. T.II., Ch.1. -M.; 1963.
11. Bartold. V.V. Sochineniya. T.V., -M.; 1968.
12. Bartold. V.V. Sochineniya. T.VIII., -M.; 1973.
13. Bartold. V.V. Sochineniya. T.VII., -M.; 1971.
14. Bartold V.V. K voprosu o yazykax: sogdiyskom i toxarskom. Iran, T.1.L.,1927.
15. Belenitskiy A.M., Bentovich I.B., Bolshakov O.G. Srenevekovoy gorod v Sredney Azii.-SPb.; Nauka, 1973.
16. Belyaev V.A. Arabы, islam i arabskiy xalifat v rannee srednevekovye.-M.; Nauka, 1965.
17. Bernshtam A.N. Sotsialno-ekonomicheskij stroy orxono-eniseyskix tyurok VI-VIII vv. M.,-L., 1946.
18. Bikkerman e. Gosudarstvo Selevkidov. M., 1986.
19. Bichurin N.Ya. Sobranie svedeniy o narodax obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. M-L., 1950-1953.



20. Boys M. Zoroastriytsy. Verovaniya i obychai. M., 1987.
21. Bunyodov Z.M. Anushtegin-Xorazmshohlar davlati.-T.: 1998.
22. Buniyatov Z.M. Voennaya organizatsiya gosudarstvo Xorezmshaxov Anushteginidov(1097-1231). Izv.AN.Az. Istoriya filosofii i pravo.
23. Vaynberg B.I. Etnografiya Turana v drevnosti. M., 1999.
24. Vinogradov A.V. Neoliticheskie pamyatniki Xorezma. //Materialy arxeologo-etnograficheskoy ekspeditsii. Вып.8., M., 1962.
25. Vorobyova M.G. Problema «Bolshogo Xorezma» i arxeologiya. Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii. M.,1979.
26. Gerasimov M.M. Lyudi kamennogo veka. M., 1964.
27. Gerodot Istoriya. (v 9 ti tomax) M., 1972.
28. Giyasiddin Ali. Dnevnik poxoda Temura v Indiyu. -M. 1958.
29. Gordlevskiy V.A. Gosudarstvo seldjukov Maloy Azii. Izb.Soch. T.1.-M.; 1960.
30. Grigorev V.V. O skifskom narode sakax. Spb., 1971.
31. Gumilev L.N. Qadimgi turklar.-T., 2007.
32. D'Osso K. Istoriya mongolov ot Chingiz-xana do Tamerlana. T.1. Irkutsk, 1937.
33. Davidovich e.A. Numizmaticheskie materialy dlya istorii razvitiya feodalnykh otnosheniy v Sredney Azii pri Samanidax. Tr.AN Tadj. T.27. Stalinabad. 1954.
34. Davidovich e.A. Voprosy xronologii i geniologii Karaxanidov vtoroy poloviny XII v.-M.; 1977.
35. Ditmar L.V. Ot skifa do Elevantiny. M., 1961.
36. Deni F. Religioznye traditsii mira. Bishkek. 1997
37. Doroshenko O.A. Zoroastriytsy v Irane. M., 1982.
38. Drayzen I.G. Istoriya ellinizma. M., Tipo-litografiya V.F. Rixtera. 1891.
39. Dyakonov I.M. Vostochnyy Iran do Kira. Istoriya iranskogo gosudarstvo i kultury. M., 1971.
40. eremeev D.e. Islam: obraz jizni i stil myshleniya. M., 1990.
41. Zadneprovskiy Yu.A. Drevnyaya Fergana.//Istoriya Kirgizskoy SSR. T.1. Frunze, 1984.
42. Kvint Kurtsiy Ruf. Istoriya Aleksandra Makedonskogo. M., 1963.
43. Klyashtornyy S.G. Drevnetyurkskie runicheskie pamyatniki, kak istochnik po istorii Sredney Azii. M., 1964.
44. Kochnev B.D. Karaxanidskie monety: istochnikovedcheskoe i istoricheskoe issledovanie. Avtoref. Diss. Dokt. Ist. Nauk.-M; 1993.
45. Ksenofont. Kiropediya. M., 1976.
46. Кычанов e.I. Kochevie gosudarsvo ot gunnov do manchjurov. M., 1997.
47. Lisitsina G.I. Stanovlenie i razvitie oroshaemogo zemledeliya v Yujnoy Turkmenii. M., «Nauka»,1978.
48. Litvinskiy B.A. Kangyusko-sarmatskiy farn. Dushanbe, 1968.
49. Lyusen Keren. Amir Temur saltanati.-T.: 1999.
50. Malyavkin A.G. Tanskie xroniki o gosudarstvax Sentralnoy Azii. Novosibirsk, 1989.

51. Masson V.M. Iz vospominaniy sredneaziatskogo arxeologa. T., 1976.
52. Masson V.M. Poselenie Djejtun. L., 1971.
53. Masson V.M. Srednyaya Aziya v epoxu kamnya i bronzy. M., 1966.
54. Masson V.M. Ekonomika i sotsialnyy stroy drevnix obshchestv. M., 1976.
55. Masson V.M. Srednyaya Aziya i Drevniy Vostok. M., 1964.
56. Materialy po istorii Sredney i Sentralnoy Azii X-XIX v.v.-T.: Fan, 1988.
57. Okladnikov A.P. Issledovanie musterskoy stoyanki i pogrebeniya neandertal'tsa v grote Teshik Tash. // «Yujnyy Uzbekistan. Paleoliticheskiy chelovek». M., 1949.
58. Okladnikov A.P. Utro iskusstva. M., 1984.
59. Ostroumov N.P. Iskandar Zul-Karnayn. T., 1896
60. Paleolit Sredney i Vostochnoy Azii (sbornik). Novosibirsk., 1980.
61. Pugachenkova G.A. Rempel L.I. Ocherki iskusstva Sredney Azii. T., 1989.
62. Pugachenkova G.A. Rtveladze E.V. Severnaya Baktriya-Toxaristan. T., 1990.
63. Pyankov I.V. Baktriya v antichnoy traditsii (obshchie dannyye o strane: nazvanie i territoriya). Dushanbe, 1982.
64. Pyankov I.V. Srednyaya Aziya v izvestiyax antichnogo istorika Ktesiya. Dushanbe, 1975.
65. Ranov V.A. Kamennyy vek Tadjikistana. Dushanbe, 1965.
66. Rogitskaya A. Zarautsay (Zapiski xudojnika). M-L., 1950.
67. Rui Gonsalesde Klavixo. Samarqanddagi Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi(1403-1406 yillar).//San'at.,T., 1989, №1-10.
68. Strabon Geografiya. V 17 knigax. Per. G.A. Stratonovskogo. M.-L., 1964.
69. Struve V.V. Poxod Dariya I na sakov-massagetov. Izv. AN SSSR, 1946, № 3.
70. Tarn V. Ellinisticheskaya tsivilizatsiya. M., 1949.
71. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm. M., 1948.
72. Tolstov S.P. Po sledam drevnexorezmiyskoy tsivilizatsii. M., 1948.
73. Tolstov S.P. Po drevnim del'tam Oksa i Yaksarta. M., 1962.
74. Tolstov S.P. Qadimgi Xorazm madaniyatini izlab. T., 1964.
75. Chaxermayer F. Aleksandr Makedonskiy. Rostov na Donu. 1988.
76. Chexovich O.D. K istorii feodalnykh otnosheniy v Buxare XVII v. T., "FAN", 1973.
77. Chlumberfe L. Ellinizirovannyy Vostok. L. M., 1981.
78. Shifman I.M. Aleksandr Makedonskiy. L. 1998.
79. Shofman A.S. Raspad imperii Aleksandra Makedonskogo. Kazan. 1984.
80. Esxil. Zarjirband Promitey. T., 1978.

